

ETNIK TARKIB VA TARIXI

TURMUSH TARZI VA MADANIYAT

XO'JALIK FAOLIYATI VA TABIY MUHIT

AN'ANALAR VA URF-ODATLAR

MADANIY LANDSHAFT

MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

O'QUV QO'LLANMA

Bexzodjon Zokirov

MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

O'QUV QO'LLANMA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

B.I.ZOKIROV

MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

70220601 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2026

UO‘K: 911.3:39(575)
BBK: 63.5(5)

Zokirov B.I. Markaziy Osiyo etnogeografiyasi/O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “TDSHU”, 2026. – 280 b.

O‘quv qo‘llanma ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishda ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Markaziy Osiyo etnogeografiyasi fanining nazariy asoslari, metodologiyasi va amaliy tadqiqot yo‘nalishlari haqida tizimli bilim beradi. Unda etnik jarayonlarning hududiy xususiyatlari, aholining joylashuvi, migratsiya yo‘nalishlari, etnomadaniy landshaftlar hamda tabiiy-geografik omillar bilan etnik taraqqiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari yoritiladi.

O‘quv qo‘llanma magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talabalar uchun Markaziy Osiyo etnogeografiyasi bo‘yicha ilmiy maqola, kurs ishi, magistrlik dissertatsiyasi bajarishda zarur metodik asos va nazariy bilimlarni taqdim etadi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
A.X. Doniyorov tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
M.M. Askarov PhD, dotsent
S.B. Yuldashev PhD, dotsent

Mazkur o‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2026-yil 25-martdagi 67-UM-son buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan.

© B.I. Zokirov, 2026.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2026.

MUQADDIMA

Markaziy Osiyo etnogeografiyasi bugungi kunda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, xalqlar va etnik guruhlarning hududiy joylashuvi, tarixiy taraqqiyoti, xo‘jalik faoliyati hamda moddiy va ma’naviy madaniyatining tabiiy-geografik muhit bilan o‘zaro aloqadorligini kompleks tarzda o‘rganadi. Ushbu fan geografiya, etnologiya, tarix, antropologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib, Markaziy Osiyoda etnik jarayonlarning hududiy qonuniyatlarini anglashga xizmat qiladi.

Etnogeografiya ma’lum bir alohida olingan hududning etnik tarkibi, madaniy muhit va geografik makon o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganuvchi kompleks ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. U etnoslarning tarixiy shakllanishi, hududiy joylashuvi, migratsion jarayonlari hamda tabiiy muhit bilan munosabatlarini tahlil qilish orqali insoniyat taraqqiyotining muhim jihatlarini yoritib beradi. Markaziy Osiyo hududi esa qadim zamonlardan buyon turli etnik guruhlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib kelgani sababli, etnogeografik tadqiqotlar uchun alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, urbanizatsiya va madaniy integratsiya sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasida yuz berayotgan etnik-demografik o‘zgarishlarni ilmiy asosda tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Hududda yashovchi xalqlarning tarixiy shakllanishi, etnik tarkibning o‘zgarib borishi, madaniy makonning hududiy tuzilishi va an’anaviy xo‘jalik tizimlarining transformatsiyasi etnogeografik yondashuv asosida o‘rganilgandagina to‘liq va xolis ilmiy xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.

Markaziy Osiyo qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu hududda turli etnoslar, qabila va elatlar o‘zaro ta’sirda rivojlangan. Tabiiy landshaftlar tog‘, voha, cho‘l va dasht hududlari aholining joylashuvi, xo‘jalik faoliyati va madaniy an’analarining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois, Markaziy Osiyo etnogeografiyasi etnoslarning hududiy joylashuvi, migratsiya yo‘nalishlari va madaniy landshaftlarning rivojlanishini tarixiy-geografik birlikda tahlil etishga asoslanadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma magistratura mutaxassisligi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda Markaziy Osiyo etnogeografiyasining nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari, tadqiqot usullari hamda mintaqadagi asosiy etnik jarayonlar tizimli tarzda yoritiladi. Qo‘llanmada etnik hududlarning shakllanishi, aholi joylashuvining tarixiy bosqichlari, etnomadaniy landshaftlar, etnik xaritalash va mintaqaviy etnik jarayonlarni tahlil qilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, ushbu kitob talabalarni Markaziy Osiyodagi etnik tarkib, etnik guruhlararo munosabatlar, migratsiya jarayonlari, an’anaviy va zamonaviy xo‘jalik shakllarining hududiy xususiyatlari hamda madaniy merosning geografik tarqalishini ilmiy asosda o‘rganishga yo‘naltiradi. Qo‘llanma tarix, etnologiya va geografiya fanlari o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlab, talabalarda hududiy-etnik jarayonlarni kompleks tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada etnogeografiya fanining maqsad va vazifasi, Markaziy Osiyoda dastlabki jamoalar va ularning hududiy joylashuvi, qadimgi davrlarda to o‘rta asrlargacha Markaziy Osiyo etnogeografiyasi, milliy hududiy chegaralanish masalasi va transchegaraviy zonalarning etnogeografiyasi, millatlararo munosabatlar va etnik ziddiyatlarning paydo bo‘lishi va yechimi masalalari, migratsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, mintaqa xalqlarining diniy an’analari va ularning madaniy geografik farqlanishi, etnoturizmining etnogeografik xususiyatlari, Markaziy Osiyo etnogeografiyasining zamonaviy yo‘nalishlari va ilmiy tadqiqot istiqbollari kabi masalalarga keng o‘rin berilgan.

Umuman olganda, ushbu o‘quv qo‘llanma Markaziy Osiyo etnogeografiyasini chuqur va tizimli o‘rganishga, yosh tadqiqotchilarda ilmiy dunyoqarashni mustahkamlashga, mintaqaning boy etnomadaniy merosini hududiy kontekstda anglashga hamda milliy va mintaqaviy o‘zlikni idrok etish asosida vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyati tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda mualliflik tarjimasidan keng foydalanilgan bo‘lib, tarjimalar asosida bir qator tarixchi

olimlarning ilmiy va nazariy xulosalaridan, asarlari va monografiyalaridan o‘rin olgan masalalar tahliliy ravishda ishga jalb etilgan.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy qismini tashkil etuvchi ma’ruzalarning so‘ngida bilimlarni mustahkamlovchi savollar o‘rin olganligi alohida ahamiyat kasb etib, ular talabalarning turli muammolar doirasida mustaqil fikrlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanmaning har bir ma’ruzasi so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati o‘rin olgan bo‘lib, ro‘yxatda so‘nggi yillarda nashr etilgan adabiyotlar yetakchi o‘rin tutganligi ahamiyatlidir. Yangi metodologiyalar asosida yaratilayotgan adabiyotlarning jalb etilganligi ushbu o‘quv qo‘llanmaning ilmiy qiymatini ko‘tarishga xizmat qiladi.

1-MAVZU: MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI FANIGA KIRISH.

Reja:

1. Etnogeografiyaning fan sifatida shakllanishi, tamoyillari va tadqiqot usullari.

2. Markaziy Osiyo etnogeografiyasining tadqiqot obyetki, predmeti, maqsad va vazifalari.

3. Markaziy Osiyo etnogeografiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Darsning maqsadi: *talabalarga Markaziy Osiyo etnogeografiyasining shakllanishi, obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari haqida ilmiy tushuncha berish, etnik jarayonlarning geografik muhit bilan bog‘liqligini anglatish hamda fanlararo yondashuv asosida tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *etnogeografiya, etnos, etnik hudud, migratsiya, etnik kartografiya, etnik demografiya, antropogeografiya, madaniy geografiya, etnik integratsiya.*

1.1. Etnogeografiyaning fan sifatida shakllanishi, tamoyillari va tadqiqot usullari.

Insoniyat ibtidodan to hozirgi kunga qadar tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar ta’sirida o‘zini o‘rab turgan muhitni anglashga intilib kelgan. Bu jarayon oddiy kuzatuvlardan murakkab ilmiy tadqiqotlarga qadar bo‘lgan uzluksiz rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan bo‘lib, o‘tmish va hozirgi davr o‘rtasida dialektik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Aynan shu ehtiyojlar inson faoliyati bilan bog‘liq turli fanlarning shakllanishi va taraqqiy etishiga zamin yaratgan. Tabiiy hamda ijtimoiy qonuniyatlarning zamon va makonga mos ravishda o‘zgarib borishi esa insoniyat hayotini turli ilmiy yo‘nalishlar kesimida o‘rganishni talab qilgan.

Shu asosda vujudga kelgan fanlardan biri etnogeografiya bo‘lib, u etnoslarni geografik muhit bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etadi. Mazkur yo‘nalish etnologiya va geografiya fanlari tutashgan nuqtada shakllangan bo‘lib, garchi ilmiy termin sifatida so‘nggi asrlarda faol qo‘llanila boshlagan bo‘lsa-da, uning dastlabki g‘oyalari antik davrga

borib taqaladi. Ma’lumki, etnologiya va geografiya fanlari qadimgi Yunonistonda jamiyatning amaliy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan. Xususan, O‘rta yer dengizi havzasida ko‘plab koloniyalarga ega bo‘lgan yunonlar “etnos” tushunchasini mahalliy aholi – “demos”dan farqlab, boshqa til, urf-odat, e’tiqod va madaniyatga mansub xalqlarga nisbatan qo‘llaganlar. Bu jarayonlar natijasida geografik makon bilan madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllangan.

Etnogeografik bilimlarning dastlabki namunalari ham aynan antik Yunonistonda shakllangan bo‘lib, bu borada “tarixning otasi” sifatida tanilgan Gerodotning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Uning “Tarix” asarida qadimgi davlatlar va xalqlarning geografik joylashuvi, turmush tarzi hamda etnografik xususiyatlariga oid muhim ma’lumotlar bayon etilgan bo‘lib, ular etnogeografik tafakkurning ilk namunalaridan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, Miletlik Gekatey asarida va Eratosfenning xaritalarida ham turli xalqlarning geografik joylashuvi aks ettirilgan bo‘lib, bu xaritalar etnografik mazmunga ega bo‘lgan dastlabki manbalar sifatida baholanadi. Rim tarixchisi Korneliy Tatsit esa german qabilalarining kelib chiqishi, hududiy joylashuvi va ijtimoiy tuzilishini tasvirlab, etnografik tavsiflarni geografik kontekstda yoritgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Yevropa ilmiy tafakkurida dunyo xalqlari va ularning madaniyatlari haqida keng qamrovli bilimlar to‘plana boshladi. XVI–XVII asrlarda turli hududlar, xalqlar va madaniyatlar haqida yozilgan asarlar etnografik bilimlarning boyishiga xizmat qildi. Xususan, nemis olimi Iogann Zommer tomonidan 1607-yilda nashr etilgan ko‘p jildli “Dunyo etnografiyasi” asari xalqlarning madaniy xususiyatlari bilan ularning tabiiy-geografik muhiti o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasini keng jamoatchilik e’tiboriga havola etdi. Shu davrga kelib, madaniyatni nafaqat ichki ijtimoiy hodisa sifatida, balki muayyan hududiy sharoitda shakllanadigan murakkab tizim sifatida anglash jarayoni boshlangan edi.

Biroq XVII asrgacha etnografiya va geografiya fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlik nisbatan sodda talqin qilingan. Chunki bu davrgacha ilmiy bilimlarning umumiy tuzilmasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlari bilan tabiiy

omillar oʻrtasidagi murakkab munosabatlar yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan edi. XVII asrdan boshlab esa jamiyat hayotidagi moddiy madaniyat shakllari, ijtimoiy tuzilmalar hamda turli tabiiy sharoitlarda shakllanadigan ruhiy-psixologik farqlar haqida dastlabki ilmiy yondashuvlar paydo boʻldi. Bu borada Sharl Monteskye tomonidan ilgari surilgan tabiat va jamiyat oʻrtasidagi bogʻliqlik haqidagi gʻoyalar, keyinchalik G.T.Bokl tomonidan rivojlantirilgan geografik determinizm[1] nazariyalari muhim ahamiyat kasb etdi.

XIX asrda ilm-fanning tarmoqlanishi kuchayib, fanlararo chegaralar aniqroq belgilana boshladi. Shunga qaramay, etnografiya va geografiya oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik saqlanib qoldi. Bu davr olimlari koʻpincha bir vaqtning oʻzida ham etnograf, ham geograf sifatida faoliyat yuritib, xalqlar va hududlarning kompleks tavsifini yaratishga intildilar. Fransuz olimi E. Reklyuning “Yer va odamlar”, “Odam va yer” kabi asarlari inson jamiyati bilan geografik makon oʻrtasidagi murakkab aloqalarni yoritishga qaratilgan boʻlib, etnogeografik yondashuvning shakllanishida muhim oʻrin tutadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa etnografiya va geografiya mustaqil fanlar sifatida oʻz tadqiqot obyektlari va metodlariga ega boʻla boshladi. Etnografiya asosan jamiyat va madaniyatning rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganishga yoʻnaltirilgan boʻlsa, geografiya tabiiy sharoitlar va makoniy jarayonlarni tahlil qilish bilan shugʻullandi. Natijada bu ikki fan oʻrtasidagi integratsiya susaydi. Ayniqsa, F. Ratsel tomonidan asos solingan antropogeografiya maktabi etnik hodisalarni geografik determinizm asosida izohlashga uringan boʻlsa-da, bu yondashuv koʻp hollarda soddalashtirilgan va biryoqlama talqinlarga olib keldi. Natijada etnografiya va geografiya oʻrtasidagi murakkab oʻzaro aloqalarni tadqiq qilishga boʻlgan qiziqish pasaydi.

Gʻarbiy Yevropadan farqli oʻlaroq, Rossiyada etnografiya va geografiya fanlari oʻrtasidagi aloqalar nisbatan mustahkamroq saqlanib qoldi. Bu hol, avvalo, Rossiya imperiyasining koʻp millatli tarkibi bilan bogʻliq edi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyada koʻp tarmoqli akademik ekspeditsiyalar tashkil etilib, ularga ham geografik,

[1] Geografik determinizm — bu jamiyat taraqqiyoti, xoʻjalik faoliyati, madaniyat va turmush tarzini asosan **tabiiy**-geografik muhit (iqlim, relyef, suv resurslari, landshaft) belgilaydi, degan ilmiy qarash.

ham etnografik vazifalar yuklatildi. 1845-yilda tashkil etilgan Rus geografiya jamiyati tarkibidagi etnografiya bo‘limi hamda keyinchalik tuzilgan Tabiat tarixi, etnografiya va antropologiya havaskorlar jamiyati bu ikki fan o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qildi. N.N.Mikluxo-Maklay, D.N.Anuchin, L.S.Berg kabi olimlar bir vaqtning o‘zida ham etnograf, ham geograf sifatida ilmiy faoliyat olib borib, jamiyat va tabiiy muhit o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni kompleks tahlil qilishga intildilar.

XX asrning 20-yillaridan boshlab sovet ilm-fanida etnografiya va geografiya o‘rtasidagi aloqalar zaiflasha boshladi. 1930-yillarga kelib fanlararo tadqiqotlar deyarli to‘xtadi. Bunga, bir tomondan, antropogeografik maktabning nazariy ta’siri, boshqa tomondan esa, har ikki fan tadqiqot obyektining torayib borishi sabab bo‘ldi. Etnografiya ko‘proq qabilaviy tuzum qoldiqlarini o‘rganishga yo‘naltirilib, tarix fanining yordamchi sohasi sifatida talqin qilina boshladi. Geografiya esa asosan tabiiy muhit xususiyatlari va xo‘jalik tarmoqlarining hududiy joylashuvini tahlil qilish bilan cheklanib qoldi. Bu jarayon etnik jarayonlarning makoniy tahliliga bo‘lgan ehtiyojni qondira olmadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin etnografiya va geografiya fanlari rivojida yangi bosqich boshlandi. Etnografiya zamonaviy xalqlar, ularning turmush tarzi, madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini muayyan tarixiy sharoit va tabiiy muhit kontekstida o‘rganishga ko‘proq e’tibor bera boshladi. Shu bilan birga, geograflar ham jamiyatni tahlil qilishga tobora ko‘proq qiziqish bildirdilar. Natijada iqtisodiy geografiyaning tarkibiy qismi sifatida aholi geografiyasi shakllandi. Bu jarayonlar etnografiya va geografiya fanlari o‘rtasidagi integratsiyani yangi asosda tiklash zaruratini yuzaga keltirdi hamda etnografiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan etnogeografiya-ning rivojlanishiga turtki berdi.

“Etnogeografiya” termini ilmiy muomalaga XX asrning 20-yillarida rus etnografi V.G.Bogoraz-Tan tomonidan kiritilgan. Biroq, dastlab, uning qarashlari etnografiya doirasidan chiqib ketmagani sababli, etnogeografiya mustaqil fan sifatida darhol e’tirof etilmadi. Bogoraz-Tanning fikricha, etnografiya asosan ibtidoiy jamiyatlarni, shuningdek, madaniylashgan jamiyatlardagi an’anaviy urf-odat va

marosimlarni oʻrganadi. Etnogeografiya esa oʻz e’tiborini keng miqyosdagi madaniy xalqlar va ularning hududiy joylashuvi, makoniy munosabatlari hamda tarixiy shakllanish jarayonlariga qaratishi lozim. Shu tariqa, etnogeografiya etnik jarayonlarni geografik muhit bilan uzviy bogʻliq holda tahlil qiluvchi yangi yondashuv sifatida shakllandi.

XX asrda Yevropa ilm-fanida antropogeografiya bilan bir qatorda madaniy geografiya sohasida ham koʻplab tadqiqotlar amalga oshirildi. Biroq ularning aksariyati qisqa muddatli dala tadqiqotlari bilan cheklanib, chuqur empirik asosga ega boʻlmaganligi sababli yetarli ilmiy samaradorlik bermadi. Madaniy geografiya koʻpincha antropologiya, sotsiologiya va etnografiya elementlarining yuzaki uygʻunlashmasi sifatida namoyon boʻldi. Shu bois, mazkur yondashuvni tubdan qayta koʻrib chiqish va uning eng samarali jihatlarini etnografiya bilan uzviy bogʻlash zarurati yuzaga keldi. Natijada etnogeografiya madaniyatni geografik makon bilan bogʻliq holda empirik asosda oʻrganishga yoʻnaltirilgan yangi ilmiy yoʻnalish sifatida shakllandi.

Mashhur olim S.P.Tolstov etnografiyani chegaraviy fan sifatida baholab, uning bir tomondan tarixiy fanlar, boshqa tomondan esa, gumanitar va tabiiy fanlar, ayniqsa, geografiya bilan uzviy bogʻliqligini ta’kidlagan. Uning fikricha, etnografiyaning tarkibiy boʻlimlaridan biri boʻlgan etnogeografiya yoki etnik statistika va kartografiya geografiya bilan eng yaqin aloqaga ega boʻlib, uning asosiy vazifasi yer yuzidagi va alohida hududlardagi aholining etnik tarkibi hamda joylashuvini makoniy nuqtayi nazardan tahlil qilishdan iboratdir. Bu yoʻnalish mamlakatlar va mintaqalarning etnik tarkibini oʻrganish, xalqlarning hududiy oʻzaro munosabatlarini tahlil qilish, etnik jamoalarning tarixiy va zamonaviy joylashuv xususiyatlarini aniqlash, etnik chegaralarni belgilash hamda demografik jarayonlarni tadqiq etishni oʻz ichiga oladi.

Shu tariqa, etnogeografiya faqat aholi tarkibi va uning hududiy taqsimotini oʻrganish bilangina cheklanib qolmay, balki etnik birliklarning shakllanishi, rivojlanishi hamda demografik dinamikasini ham qamrab oladi. U ibtidoiy jamiyatlardan tortib zamonaviy sotsial tizimlargacha boʻlgan jarayonlarni oʻrganadi, ayniqsa, migratsion oqimlarni madaniy-hududiy tahlil qilish, migrantlarning joylashuvi va moslashuv mexanizmlarini ilmiy asoslash masalalariga alohida e’tibor

qaratadi. Bugungi globallashuv sharoitida etnogeografiya etnik hududlarning tarixiy shakllanishini tahlil qilish, mojaro hududlarini prognozlash va murosaga asoslangan hududiy siyosat ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.



Zamonaviy tadqiqotchilar – A. Bryus, A. Lobjinadze, A. Kazakov, Yanbo Guan va boshqalar – etnogeografiyaning ijtimoiy-madaniy antropologiya bilan integratsiyasini rivojlantirib, mahalliy jamoalarning zamonaviy ekologik siyosat bilan uyg‘unlashtirish masalalarini ilgari surmoqdalar. Shuningdek, shahar ichidagi etnik taqsimot va etnoxaritalash asosida hamohang siyosat ishlab chiqish, moddiy va nomoddiy madaniy merosni hududiy arxivlash orqali tillar, urf-odatlar va madaniy landshaftlarni hujjatlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Etnoturizmning hududiy-geografik taqsimotini tahlil qilish, resurslardan foydalanish madaniyatini makoniy yondashuv asosida baholash ham etnogeografiyaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Etnogeografiya, asosan, muayyan xalq yoki etnosni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bunda geografik muhit muhim rol o‘ynaydi. Xalqlar, qabilalar va boshqa etnik birliklar o‘rtasidagi hududiy o‘xshashlik va farqlarni aniqlash orqali madaniy jarayonlarning makonga bog‘liq xususiyatlari tushuntiriladi. Geografiyaning vazifasi esa tadqiq qilinayotgan hudud yoki jamoaning ijtimoiy va madaniy jihatlarini

ortiqcha bo‘rttirmasdan, aniq va xolis tarzda yoritish hamda ularni boshqa guruhlardan ajratib turuvchi belgilarni ko‘rsatishdan iboratdir.

Bu yondashuv natijasida madaniy geografiyaning eski shakllaridan voz kechilib, asosan tabiat omillari bilan bog‘liq madaniy e’tiqod va amaliyotlarni o‘rganuvchi “madaniy ekologiya” kabi yo‘nalishlargina saqlanib qoldi. Chunki ilgari “madaniy geografiya” nomi ostida ko‘pincha ilmiy mezonlarga to‘liq mos kelmaydigan, antropologiya, sotsiologiya va ommaviy kuzatishlar aralashmasidan iborat tadqiqotlar jamlangan edi. Natijada, etnografiyani geografiyasiz, geografiyani esa etnografik tahlilsiz to‘liq tushunib bo‘lmasligi tobora ravshan bo‘lib bordi.

Etnografik tadqiqotlar ko‘pincha bitta hudud yoki jamoaga chuqur sho‘ng‘ishni talab qilgani sababli, ayrim hollarda natijalarni haddan tashqari umumlashtirish xavfini tug‘diradi. Tadqiqotchining shaxsiy tajribasi, subyektiv qarashlari va cheklangan axborot manbalari ilmiy xulosalarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Geografiya esa aksincha, bir nechta hudud va jamiyatlarni qamrab olishga intilgan holda yuzaki tahlil bilan cheklanib qolish xavfini o‘zida mujassam etadi. Shu bois, etnogeografiya bu ikki fan yondashuvini uyg‘unlashtirib, bir tomondan, chuqur empirik tadqiqotlarni, ikkinchi tomondan esa, keng makoniy tahlilni ta’minlashga qaratilgan metodologiyani shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, etnogeografiyaning asosiy maqsadi tadqiqot jarayonida aniqlangan belgilar ma’lum bir etnos yoki jamoaga xos noyob xususiyatlarmi yoki boshqa xalqlar bilan umumiylik kasb etuvchi universal jihatlarmi, degan savolga ilmiy asoslangan javob berishdan iboratdir. Bu esa nafaqat nazariy mulohazalar bilan, balki keng qamrovli empirik tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi. Etnogeografik izlanishlar ko‘p vaqt, izchil mehnat va metodologik aniqlikni talab etadi. Tadqiqotchi o‘rganilayotgan jamoaning mohiyatini eng yaqqol aks ettiruvchi savollarni to‘g‘ri tanlashi, ularni makoniy, tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, etnografiya va geografiya alohida-alohida fanlar sifatida to‘laqonli ilmiy tasvir yaratishda yetarli emas, ular bir-birini to‘ldiruvchi va boyituvchi ilmiy yo‘nalishlar hisoblanadi. Etnografiya chuqur mikrotahlil orqali madaniy jarayonlarning ichki

mexanizmlarini ochib bersa, geografiya keng makoniy yondashuv orqali bu jarayonlarning hududiy qonuniyatlarini aniqlaydi. Etnogeografiya esa ana shu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirib, etnik jarayonlarni tarixiy, madaniy va geografik kontekstda kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi ko‘p qatlamli etnik va madaniy makonga ega hududlarda etnogeografik yondashuv jamiyat taraqqiyotining chuqur ildizlarini anglash, tarixiy-makoniy jarayonlarni izohlash va zamonaviy ijtimoiy muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

1.2. Markaziy Osiyo etnogeografiyasining tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.

Markaziy Osiyo eng qadim zamonlardan boshlab ko‘plab xalqlar taqdirini o‘zaro bog‘lagan, murakkab etnik va tarixiy jarayonlar kechgan yirik tarixiy-geografik hudud hisoblanadi. Ushbu ulkan makon jahon antropogen jarayonlari sodir bo‘lgan, insoniyatning dastlabki ajdodlari shakllangan mintaqalardan biri sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Tibet, Mo‘g‘uliston, Dashti Qipchoq, Sirdaryo va Amudaryo oralig‘i hududlaridagi xalqlar hamda elatlarning qadimgi davrlardan hozirgi kungacha bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayoti tarixini qamrab oladi. Shu bois mazkur mintaqa yagona tarixiy-geografik va tarixiy-madaniy hudud sifatida mushtarak xususiyatlarga ega.

Eng qadimgi davrlardayoq Markaziy Osiyoda yashagan aholi bu hudud tabiati haqida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lgan. Dastlabki geografik bilimlar tabiat resurslarini izlab topish va o‘zlashtirish, qulay yashash joylarini tanlash, sug‘orma dehqonchilik, ovchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish jarayonida shakllanib borgan. Natijada odamlar tabiiy muhitning eng muhim va ko‘zga tashlanadigan xususiyatlarini anglashga intilib, o‘z hayot faoliyatini unga moslashtirishga harakat qilganlar.

“Markaziy Osiyo” atamasi ilmiy muomalaga birinchi bor mashhur nemis olimi va geografi Aleksandr fon Gumboldt tomonidan 1843-yilda Parijda nashr etilgan uch jildli “Markaziy Osiyo. Tog‘ tizmalarini tadqiq

qilish va iqlimlarni taqqoslash” asarida kiritilgan. Olim ushbu asarida ichki sug‘orish tizimlari va tog‘ tizmalari tuzilishini o‘rganib, Markaziy Osiyoni alohida, o‘ziga xos geografik mintaqa sifatida ajratib ko‘rsatadi (M.Is’hoqov, I.Xudoynazarov, 2019). Shundan so‘ng “Markaziy Osiyo” tushunchasi uzoq vaqt davomida geosiyosiy emas, balki asosan tarixiy va geografik atama sifatida qo‘llanilib kelindi.

Markaziy Osiyo hududi va xalqlari o‘tmishda turlicha nomlar bilan atalgan. Qadimgi Markaziy Osiyo tarkibiga nafaqat hozirgi Markaziy Osiyo hududlari, balki Eronning shimoli sharqiy hamda Afg‘oniston-ning shimoli qismlari ham kirgan. Mazkur mintaqa turli davrlarda “Turon”, “Turkiston”, “Movarounnahr”, “O‘rta Osiyo” va nihoyat “Markaziy Osiyo” nomlari bilan yuritilgan bo‘lib, bu nomlar hududiy jihatdan ma’lum darajada farqlangan. Shu bois Turonzamin hududining tarixiy nomlari va ularning mazmuni ilmiy jihatdan alohida qiziqish uyg‘otadi.

Yunonlar miloddan avvalgi IV asrda Markaziy Osiyoni Ahamoniylar imperiyasining tarkibiy qismi sifatida “Transoksiana” yoki “Transoksoniya” deb ataganlar. Qadimgi xitoy manbalarida esa mintaqa “Si-yu”, ya’ni “G‘arbiy o‘lka” deb yuritilib, Sharqiy Turkistonning davomchisi sifatida tasavvur qilingan. “Turon” esa Markaziy Osiyoning eng qadimgi nomlaridan biri bo‘lib, forscha “turlar” degan ma’noni anglatadi va turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi tarixiy-etnik atama sifatida qo‘llanilgan. Ushbu tushuncha bundan 2500–3000 yil ilgari makonning eng qadimgi nomi sifatida shakllangan (A.Doniyorov, O.Bo‘riyev, A.Ashirov, 2020).

“Turon” atamasi bilan bir qatorda “Turkiy yurt”, “Turk eli”, “Turk budun”, “Turkiston” kabi nomlar ham yozma manbalarda uchraydi va turkiy xalqlarning ijtimoiy hamda etnik birligini ifodalovchi asosiy tushunchalar sifatida qo‘llanilgan. “Turon” tarixiy-geografik atamasi ilk bor Movarounnahrning buyuk olimi Abu Rayhon Beruniy, shuningdek, Tabariy, Istaxriy asarlari hamda Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sida uchraydi. Ushbu manbalarda Eron va Turon hududlari Amudaryo orqali ajratilganligi qayd etilgan.

Dastlab, “Avesto”da uchraydigan “tur” etnonimi keyinchalik Markaziy Osiyo dasht va tog‘ hududlarida yashagan chorvador aholi

bilan bog‘langan. Olimlarning ayrim fikrlariga ko‘ra, “turklar” tushunchasi sak-massagetlarning dastlabki nomi bo‘lishi ham mumkin. Sak-massagetlar va ularga yaqin qabilalar miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Oltoy va Janubi Sibir dashtlarigacha keng tarqalgan bo‘lib, bu holat arxeologik topilmalar hamda Sintzyan-Uyg‘ur hududida sak yozuvlarining uchrashi orqali tasdiqlanadi (A.Doniyorov, O.Bo‘riyev, A.Ashirov, 2020).

Shu sababli “Turon” atamasini faqat Markaziy Osiyo hududining qadimgi nomi sifatida talqin qilish munozarali hisoblanadi. Ba’zi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Turon - bu turkiy qabilalar va xalqlarning yurti degan ma’noni bildirib, keyinchalik “Turkiston” tushunchasiga aylanadi. Akademik A.Muhammadjonovning fikricha esa, “Turon” atamasi sug‘d tilida yer, tuproq, dala va dasht kabi ma’nolarni anglatib, pasttekislik va keng yaylovlarni bildiruvchi toponim sifatida shakllangan (A.Doniyorov, O.Bo‘riyev, A.Ashirov, 2020). Shu bois “Turon” va “turonliklar yurti” tushunchalarini keng hududlar bilan bog‘lash mumkin.

Geografik-tarixiy jihatdan Turon hududlari Tinch okeanidan O‘rta yer dengizidagi Egey va Adriatika sohillarigacha, Shimoli Muz okeanidan Tibet va Himolay tog‘larigacha, shimoli Hindistondan Anadolu, ya’ni hozirgi Turkiyagacha bo‘lgan hududlarni hamda ularda yashovchi turkiy xalqlar vatanini ifodalagan. Turonning markaziy qismi geografik adabiyotlarda “Turon pasttekisligi” nomi bilan yuritiladi (A.Doniyorov, O.Bo‘riyev, A.Ashirov, 2020). U asosan Markaziy Osiyoning shimoli-g‘arbiy qismi va Qozog‘istonning janubi-g‘arbini o‘z ichiga olib, g‘arbda Kaspiy dengizidan shimolda Ural tog‘larigacha, sharqda Tyanshan etaklarigacha hamda janubda Pomir va Kopetdog‘ tog‘larigacha cho‘zilgan.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasining tadqiqot obyekti qadimgi davrlardan hozirgi kungacha mintaqada yashagan etnoslarning tarqalishi, ularning turli geografik hududlarga joylashuvi hamda tabiiy muhitga moslashuvi jarayonlarini o‘rganishdan iboratdir. Etnogeografiya nafaqat etnoslarning umumiy hududiy joylashuvini, balki ularni tashkil etuvchi urug‘ va qabilalarning joylashuv tizimini ham tahlil qiladi. Bunda arxeologik, lingvistik, etnografik, antropologik va genetik

tadqiqotlar, shuningdek, Markaziy Osiyoning turli hududlarida shakllangan madaniy markazlar asosiy ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur manbalarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish orqali etnoslar o‘rtasidagi tarixiy qarindoshlik aloqalari, madaniy bog‘liqlik hamda ularning tarqalgan geografik hududlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi. Tarixiy-etnografik tadqiqotlar ayrim xalqlar va elatlarning, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni va mavqeyini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ularning shakllanishi va rivojlanishiga nafaqat tarixiy omillar, balki tabiiy-geografik muhit ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasi fanining asosiy maqsadi mintaqada qadimgi davrlardan hozirgi kungacha yashab kelgan etnoslarning hududiy joylashuvi, shakllanishi, migratsiyasi hamda tabiiy-geografik muhit bilan o‘zaro munosabatlarini kompleks ilmiy asosda o‘rganish, ularning etnik taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash va tarixiy-madaniy merosini chuqur tahlil qilishdan iboratdir. Shu orqali Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarkibi, madaniy umumiyliklari va hududiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslash ko‘zda tutiladi.

Mazkur fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Markaziy Osiyo hududida yashagan va yashab kelayotgan etnoslarning tarixiy shakllanishi, tarqalishi hamda hududiy joylashuv xususiyatlarini aniqlash;

– etnoslarning tabiiy-geografik muhitga moslashuvi, xo‘jalik faoliyati va madaniy hayotidagi hududiy farqlarni tahlil qilish;

– xalqlar va etnik guruhlarning migratsiya jarayonlari, etnik aloqalari hamda o‘zaro ta’sir mexanizmlarini o‘rganish;

– arxeologik, etnografik, lingvistik, antropologik va genetik manbalar asosida etnik tarixni kompleks yondashuvda tadqiq etish;

– Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy madaniy qadriyatlari, turmush tarzi va etnografik xususiyatlarining shakllanish omillarini aniqlash;

– mintaqada etnik jarayonlarning zamonaviy holatini baholash va ularning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda bashorat qilish;

– etnik hududlar, tarixiy-etnografik makonlar va madaniy markazlarning shakllanish qonuniyatlarini aniqlash hamda ularni ilmiy kartografik jihatdan asoslash.

Bir xil tarixiy taqdir, xo‘jalik-madaniy umumiylik, kundalik turmush tarzi va hududiy yaqinlik natijasida Markaziy Osiyo xalqlarining hayoti ko‘p jihatdan o‘zaro bog‘lanib ketgan. Hududiy muhit ta’siri ostida ularning etnografik xususiyatlari o‘zgaruvchan xarakter kasb etib, turli davrlarda doimiy ravishda rivojlanib borgan. Hatto eng barqaror etnik tuzilmalarda ham geografik makonning o‘zgarishi va tabiiy sharoitlarning ta’siri natijasida uzluksiz yangilanish jarayonlari yuz bergan.

Shu bois Markaziy Osiyo xalqlari nafaqat uzoq va murakkab tarixiy jarayonlar mahsuli, balki umumiy tabiiy-hududiy omillar, madaniy qadriyatlar va psixologik xususiyatlar asosida ham bir-biriga yaqinlashgan etnik jamoalar hisoblanadi. Ularning o‘ziga xosligini to‘liq anglash uchun faqat tarixiy manbalarni emas, balki makoniy tarqalishi, tabiiy sharoitlarga moslashuvi va hududiy o‘zaro ta’sir jarayonlarini ham kompleks tarzda tahlil qilish zarur.

1.3. Markaziy Osiyo etnogeografiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasi etnografiya va geografiya fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida shakllangan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u xalqlarning hududiy joylashuvi, etnik tarkibi, turmush tarzi, madaniy qadriyatlari hamda tarixiy rivojlanishini makon bilan bog‘liq holda kompleks tarzda o‘rganadi. Ushbu fan jamiyat taraqqiyotini nafaqat tarixiy yoki madaniy jarayonlar orqali, balki tabiiy sharoitlar, hududiy omillar va iqtisodiy faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi. Shu sababli etnogeografiya fanlararo xarakterga ega bo‘lib, bir qator ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan chambarchas aloqada rivojlanadi.

Etnogeografiyaga eng yaqin fanlardan biri aholi geografiyasidir. Aholi geografiyasi aholining joylashuvi, soni, tarkibi, migratsiyasi va hududiy tashkil etilishini o‘rganadi. Etnogeografiya esa aynan shu jarayonlarning etnik va madaniy jihatlariga e’tibor qaratadi. Masalan,

migratsiya faqat demografik hodisa bo‘lib qolmay, balki etnik tarkibning o‘zgarishi, madaniy aloqalarning kengayishi va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga olib keladi. Shu jihatdan, aholi geografiyasi va etnogeografiya bir obyekt - aholi va jamiyatni - turli nuqtayi nazardan o‘rganib, bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy yo‘nalishlar hisoblanadi.

Etnogeografiya etnografiya fani bilan ham bevosita bog‘liqdir. Etnografiya xalqlarning kundalik hayoti, urf-odatlari, an’analari, moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganadi. Etnogeografiya esa ushbu madaniy hodisalarning hududiy tarqalishi, tabiiy muhit bilan bog‘liqligi hamda geografik omillar ta’sirida qanday shakllanganini tahlil qiladi. Masalan, turar joy turlari, kiyim-kechak shakllari, xo‘jalik faoliyati va ovqatlanish madaniyatining hududiy farqlari tabiiy sharoitlar bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Shu tariqa, etnogeografiya etnografik bilimlarni makoniy tahlil asosida boyitadi.

Etnogeografiya tarix fani bilan ham uzviy aloqada rivojlanadi. Chunki har bir xalqning hududiy joylashuvi va etnik shakllanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Migratsiyalar, siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy munosabatlar va madaniy aloqalar etnik tarkibning shakllanishi va o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli etnogeografik tadqiqotlar tarixiy manbalar va arxeologik ma’lumotlar bilan uyg‘unlikda olib boriladi. Bu esa xalqlarning etnik rivojlanishini vaqt va makon birligi asosida tushuntirish imkonini beradi.

Etnogeografiya demografiya fani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Demografiya aholining soni, tabiiy o‘sishi, tarkibi va migratsiyasini o‘rganadi. Etnogeografiya esa ushbu jarayonlarning etnik tuzilma va madaniy muhitga ta’sirini tahlil qiladi. Masalan, tug‘ilish darajasi, nikoh an’analari, oilaviy tuzilma va migratsiya oqimlari turli etnik guruhlar orasida farq qiladi. Shu bois, demografik jarayonlarni etnik omillar bilan birgalikda o‘rganish etnogeografiya-ning muhim vazifalaridan biridir.

Etnogeografiya etnobotanika va etnozoologiya kabi fanlar bilan ham bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalishlar insonning tabiiy muhitdan foydalanish tajribasini, o‘simlik va hayvonot olami bilan munosabatlari-ni, ularning xo‘jalik faoliyati va madaniyatdagi o‘rnini o‘rganadi. Masalan, ayrim hududlarda chorvachilikning rivojlanishi yoki o‘simlik

mahsulotlaridan foydalanish an’analari tabiiy resurslar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holat etnik guruhlarning madaniy qiyofasini shakllantiradi. Etnogeografiya ushbu jarayonlarni hududiy va madaniy nuqtayi nazardan umumlashtirib beradi.

Etnogeografiya mazmun va metodologiya jihatidan XX asrda keng tarqalgan antropogeografiyadan farq qiladi. Antropogeografiya jamiyat taraqqiyotini asosan tabiiy sharoitlar bilan izohlashga harakat qilib, geografik muhitni hal qiluvchi omil sifatida ko‘rgan. Bu yondashuv jamiyat rivojini bir tomonlama tushuntirishga olib kelgan. Etnogeografiya esa tabiiy muhitning ta’sirini inkor etmagan holda, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ishlab chiqarish shakllari, madaniy an’analar va tarixiy tajribani yetakchi sabablar sifatida baholaydi. Shu sababli u jamiyat va muhit o‘rtasidagi munosabatlarni murakkab va ko‘p omilli jarayon sifatida talqin qiladi.

Etnogeografiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri etnik kartografiya hisoblanadi. Etnik kartografiya xalqlar va etnik guruhlarning hududiy joylashuvi, tarqalish chegaralari, aralash hududlari va migratsiya yo‘nalishlarini xaritalar orqali ifodalaydi. Bunday xaritalar siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tushunishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular milliy-hududiy masalalarni tahlil qilish, etnik nizolar sabablarini aniqlash hamda ijtimoiy rejalashtirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnogeografiyaning yana bir muhim yo‘nalishi etnik demografiya bo‘lib, u etnik guruhlarning soni, tarkibi, tabiiy o‘sishi va migratsiyasini o‘rganadi. Etnik demografiya etnik tarkibdagi o‘zgarishlarning sabablari va oqibatlarini tushuntirib beradi. Masalan, urbanizatsiya, iqtisodiy migratsiya yoki siyosiy jarayonlar natijasida etnik guruhlarning joylashuvi va son nisbatlari o‘zgarib boradi. Bu jarayonlar madaniy muhit, ijtimoiy munosabatlar va hududiy rivojlanishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqlarning hududiy joylashuvi va etnik chegaralari tarixiy jarayon mahsuli bo‘lib, ular doimiy harakatda bo‘ladi. Migratsiyalar, urushlar, iqtisodiy rivojlanish, savdo aloqalari va madaniy almashinuvlar natijasida etnik hududlar kengayadi, torayadi yoki shaklini o‘zgartiradi. Natijada ayrim hududlarda murakkab va ko‘p

qatlamli etnik tarkib vujudga keladi. Bu holat madaniy integratsiya, xo‘jalik ixtisoslashuvi va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini kuchaytiradi. Shu sababli etnogeografiya etnik hududlarni statik emas, balki dinamik, tarixiy rivojlanib boruvchi tizim sifatida o‘rganadi.

Amaliy jihatdan har qanday etnografik tadqiqotda geografik tavsif muhim o‘rin egallaydi. Biror xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatini tabiiy muhit, iqlim, landshaft va hududiy joylashuv omillarini hisobga olmasdan to‘liq tushuntirib bo‘lmaydi. Etnogeografiyada tarixiy-etnografik atlaslar, tematik xaritalar va statistik ma’lumotlardan foydalanish ilmiy tahlilning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Uy-joy turlari, kiyim-kechak shakllari, xo‘jalik faoliyati, transport vositalari va ovqatlanish madaniyatini hududiy jihatdan tasvirlash xalqlarning hayot tarzini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, etnogeografiya siyosatshunoslik, iqtisodiyot va sotsiologiya fanlari bilan ham bog‘liqdir. Chunki etnik tarkib va hududiy joylashuv masalalari davlat boshqaruvi, millatlararo munosabatlar, hududiy rejalashtirish va ijtimoiy siyosat bilan bevosita aloqadordir. Etnogeografik bilimlar ko‘p millatli jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, madaniy xilma-xillikni saqlash va hududiy rivojlanishni muvozanatlashtirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, etnogeografiya geografiya, etnografiya, tarix, demografiya, sotsiologiya va boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadigan kompleks ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. U xalqlar va etnik guruhlarning hududiy joylashuvi, tarixiy shakllanishi, madaniy rivoji hamda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini makon va zamon birligi asosida tahlil qiladi. Shu tariqa, etnogeografiya jamiyat taraqqiyotining hududiy-etnik qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi va nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasi fanlararo yondashuv asosida shakllangan bo‘lib, u aholi geografiyasi, etnografiya, tarix, demografiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog‘liq holda xalqlarning hududiy joylashuvi va madaniy rivojini o‘rganadi. Ushbu fan tabiiy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va madaniy jarayonlarning o‘zaro ta’sirini kompleks tahlil qilish imkonini berib, jamiyat taraqqiyotini makon va

zamon birligi asosida tushuntiruvchi muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Etnogeografiya fanining asosiy tadqiqot obyekti nimadan iborat?
2. Markaziy Osiyo etnogeografiya qaysi fanlar uyg‘unligida shakllangan?
3. Etnogeografiyaning qanday asosiy tadqiqot usullarini bilasiz?
4. “Turon”, “Turkiston”, “Markaziy Osiyo” toponimlar yuzasida fikr yuriting.
5. Etnogeografiyada migratsiya tushunchasi mazmunini izohlang?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. “Markaziy Osiyo” atamasinining siyosiy va geografik mohiyati haqida mulohaza yuriting.
2. Markaziy Osiyo etnogeografiyasining asosiy vazifalarini izohlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асаул А.Н. Этногеографические факторы глобализации и регионализации мира / А. Н. Асаул, М. А. Джаман, П. В. Шуканов; под ред. д-ра экон. наук, проф. А.Н.Асаула. – Санкт-Петербург: АНО «ИПЭВ», 2010. – 296 с.

2. Богораз-Тан, В. Г. Распространение культуры на земле. Основы этногеографии. – Москва: Юрайт, 2022. – 283 с.

3. Бутузов А. Г. Этнокультурный туризм: учебное пособие / А.Г.Бутузов. – Москва: КНОРУС, 2013. – 248 с.

4. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности VII до н.э. – VIII в. н.э. – Москва: ИВЛ, 1999. – 359 с.

5. Doniyorov A.X., Bo‘riyev O.B., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi / Darslik. - Toshkent: “NIF MSH”, 2020. – 324 b.

6. Екеева Э.В. Этногеография: практикум. – Горно-Алтайск: РИО ГАГУ, 2009. – 36 с.

7. Казаков Н.А. Этногеография с основами религиоведения и физической антропологии: учебное пособие / Н.А.Казаков, Д.А.Ялтаев. – Чебоксары: ИД «Среда», 2019. – 112 с.

8. Лобжанидзе А. А. Этногеография и география религий. – Москва: Юрайт, 2019. – 211 с.

9. Олифир Д. И. Этногеографические особенности туристских дестинаций: учебно-методическое пособие. – Электрон, 2019. – 110 с.

10. Осмонбаева К.Б. Курс лекций по «Этнографии и географии религий» / К.Б.Осмонбаева, Ж.Т.Акматалиев. – Каракол, 2021. – 164 с.

11. Тикунов, В. С. Моделирование в картографии. – Москва: Изд-во МГУ, 1997. – 405 с.

12. Bruce Albert, François-Michel Le Tourneau. Ethnogeography anad Resource Use among the Yanomami. Current Anthropology, 2007, 48 (4), pp.584-592. 10.1086/519914. halshs-00168318

13. Yanbo Guan.Theoretical Study of Ethnogeography. –Beijing: Sciences Academic Press, 2025. – 350 p.

2-MAVZU: MARKAZIY OSIYONING QADIMGI DAVR ETNOGEOGRAFIYASI

Reja:

1. Markaziy Osiyodagi dastlabki aholi jamoalari va ularning hududiy joylashuvi.

2. Eneolit va bronza davri koʻchmanchi madaniyatlar etnogeografiyasi.

3. Markaziy Osiyo shimolidagi koʻchmanchi va mahalliy jamoalar oʻrtasidagi etnomadaniy jarayonlar.

Darsning maqsadi: *talabalarda ibtidoiy davrlarda Markaziy Osiyo aholisining xoʻjalik faoliyati, hududiy joylashuvi, ishlab chiqaruvchi va oʻzlashtiruvchi xoʻjalik shakllarining vujudga kelishi hamda ularning etnogeografik omillar bilan bogʻliqligi haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirish.*

Tayanch soʻz va iboralar: *mezolit, neolit, eneolit, oʻzlashtiruvchi xoʻjalik, ishlab chiqaruvchi xoʻjalik, Joytun madaniyati, termachilik, etnogeografiya, voha, dasht, migratsiya, moddiy madaniyat.*

2.1. Markaziy Osiyodagi dastlabki aholi jamoalari va ularning hududiy joylashuvi.

Markaziy Osiyo hududining turli togʻli mintaqalarida paleolit davridan boshlab antropogen landshaft shakllangan boʻlib, hududning

tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda oʻziga xoʻjalik-madaniy tiplar shakllangan. Lekin, ushbu davrda odam yashagan makonlar turgʻun boʻlmay, termachilik va ovchilik xoʻjaligi natijasida eng qadimgi aholi guruhlari resurslarni izlab, koʻchib yurgan. Shuning uchun Markaziy Osiyoning paleolit va mezolit davri manzilgohlari, asosan, togʻli hududlarda, adirlar va togʻ yonbagʻirlarida siyrak holda uchraydi.

Ilk paleolit davridan boshlab Markaziy Osiyo hududida inson tomonidan sharqiy togʻli mintaqalar, Kopetdogʻ etaklari hamda Sharqiy Kaspiyboʻyi kabi geografik hududlar bosqichma-bosqich oʻzlashtirila boshlandi. Bu davrga mansub eng qadimgi makonlar asosan togʻ vodiylari, daryo va soy boʻylarida joylashgan boʻlib, ayrim yodgorliklar dengiz sathidan 1800–2000 metr balandliklarda ham aniqlangan. Janubi Tojikistondagi Qoratogʻ va Havolang makonlari, shuningdek, Turkmaniston janubi-gʻarbidagi togʻoldi va pasttekisliklarda joylashgan qadimgi tosh davri yodgorliklari bunday manzarani yaqqol tasdiqlaydi (А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020). Ushbu davrda hudud aholisi hayotida terimchilik va ovchilikka asoslangan oʻzlashtiruvchi xoʻjalik shakllanib, tabiat resurslaridan bevosita foydalanish ustuvor boʻlgan.

Oʻrta paleolit davrida esa inson tomonidan oʻzlashtirilgan hududlar sezilarli darajada kengaydi. Surxondaryo, Zarafshon va Toshkent vohalaridan topilgan yodgorliklar bu jarayonning mintaqaviy koʻlamda kechganini koʻrsatadi. Ayniqsa, daryo boʻyidagi ochiq makonlar bilan bir qatorda gʻor-makonlarning paydo boʻlishi (Teshiktosh, Obirahmat, Xoʻjakent) bu davr aholisining yashash muhiti yanada murakkablashganidan dalolat beradi. Ushbu hududlarda yashagan jamoalar hayotida togʻ echkisini ov qilish alohida ahamiyat kasb etgan boʻlib, Teshiktosh gʻoridan topilgan suyak qoldiqlari orasida mazkur hayvon suyaklarining mutlaq ustunligi ana shu xoʻjalik yoʻnalishini tasdiqlaydi.

Soʻnggi paleolit davrida urugʻ jamoalarining shakllanishi bilan birga insonning turmush tarzida ham muhim oʻzgarishlar yuz berdi. Tabiiy-geografik muhit jamoalar xoʻjalik ehtiyojlariga moslashgan holda rivojlanib bordi. Oʻrta Osiyo tarixida bu bosqichning oʻziga xosligi shundaki, odamlar tobora togʻli hududlardan tekisliklar, dashtlar va

daryo vohalariga Ustyurt, Qizilqum, Zarafshon va Toshkent vohalariga koʻchib oʻta boshladilar. Shu tariqa hududiy joylashuvning kengayishi bilan birga xoʻjalik faoliyatining tabiat resurslariga moslashgan yangi shakllari yuzaga keldi.

Soʻnggi paleolit davrida eng qadimgi urugʻ jamoalari turli ekologik sharoitlarda yashab, har bir muhit imkoniyatlariga mos xoʻjalik shakllarini rivojlantirgan. Dengiz va koʻl atrofida yashovchilar baliqchilik bilan birga ovchilikni ham keng rivojlantirish imkoniga ega boʻlgan boʻlsa, dasht va voha hududlari tuyoqli hayvonlarga boy boʻlib, ovchilar ularning izidan hududdan hududga koʻchib yurganlar. Togʻli mintaqalarda esa yovvoyi mevalarning moʻlligi terimchilikning muhim xoʻjalik sohasi sifatida shakllanishiga zamin yaratgan. Shu bois tabiiy sharoitning umumiyligi jamoalar moddiy madaniyatida ham namoyon boʻlib, aynan xoʻjalik ehtiyojlariga mos tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollarining oʻxshash shakllari vujudga kelgan. Har bir tabiiy-xoʻjalik hududida umumiy belgilar asosida bir necha madaniyatlarning rivoj topishi mumkin boʻlib, ularning oʻzaro yaqinligi yashash muhiti, turmush tarzi va xoʻjalik tizimlarining mushtarakligi bilan belgilanadi.
Mintaqaning alohida viloyatlarida olib borilgan qadimgi tosh davri tadqiqotlari ham inson faoliyatining, asosan, tabiiy muhit bilan bevosita bogʻliq boʻlganini tasdiqlaydi. Bu esa paleolit jamiyatlarining xoʻjalik faoliyati va madaniy qiyofasini anglashda geografik omilning hal qiluvchi ahamiyatini koʻrsatadi.

Mezolit davri (miloddan avvalgi XII–VII ming yilliklar) Markaziy Osiyo tarixida keskin tabiiy va ijtimoiy oʻzgarishlar bilan ajralib turadi. Muzliklarning chekinishi, iqlimning iliqlashuvi va namlikning ortishi natijasida mintaqaning oʻsimlik hamda hayvonot dunyosida tub burilishlar yuz berdi. Ushbu ekologik oʻzgarishlar xoʻjalik faoliyatining yangi shakllarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratdi.

Mezolit davrida oʻq-yoyning ixtiro qilinishi ovchilikning samaradorligini oshirib, yangi hududlarning oʻzlashtirilishiga imkon berdi. Buni Pomir togʻlarining baland hududlaridan topilgan makonlar ham tasdiqlaydi. Shu bilan birga, dasht hududlarida koʻchib yuruvchi jamoalar shakllandi. Fargʻona vodiysi, Toshkent vohasi va Surxondaryo

tog‘larida ovchilik asosiy mashg‘ulotga aylangan bo‘lib, jamoalar iste’molga yaroqli o‘simlik va mevalardan ham keng foydalanganlar.

Sharqiy Kaspiybo‘yi hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar mezolit davrida o‘zlashtiruvchi xo‘jalikning kompleks tarzda rivojlanganini ko‘rsatadi. Damdamchashma va Jebel g‘or-makonlaridan dasht hayvonlari suyaklari bilan bir qatorda oqar suv havzalarida yashovchi sazan va churtan baliqlarining qoldiqlari topilgani bu hududda baliqchilik ham muhim o‘rin tutganini tasdiqlaydi (А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020).

Mezolit davrida Qoraqumni kesib o‘tgan Amudaryoning O‘zboy irmog‘i Balxon past tog‘lari bo‘ylab Kaspiy dengiziga quyilib, mintaqaning ekologik muhitini boyitgan. Shuningdek, Kaspiybo‘yi makonlaridan topilgan tosh qirg‘ichlar terimchilik mashg‘ulotlarining ham keng tarqalganini ko‘rsatadi. Nam iqlim sharoitida turli o‘simliklarning mavjudligi bu faoliyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan. Demak, Sharqiy Kaspiybo‘yida mezolit davri xo‘jalik-madaniy shakli baliqchilik, ovchilik va terimchilikning o‘zaro uyg‘unligidan iborat bo‘lgan (А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020).

Mezolit davrida iliq va nam iqlimning vujudga kelishi natijasida Ustyurt va Qizilqum hududlarida ko‘plab ko‘llar va kichik suv havzalari paydo bo‘lib, sho‘rlanmagan unumdor tuproqlar o‘simlik va hayvonot dunyosining boyishiga olib keldi. Bunday sharoitda tabiiy oziq-ovqat resurslarining serobligi aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratdi. Shu bois mazkur hududlarda ham ovchilik va terimchilik asosiy xo‘jalik sohalari sifatida yetakchi ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa, mezolit davrida Markaziy Osiyoda hududiy va tabiiy-geografik sharoitlarga mos ravishda ikki asosiy xo‘jalik-madaniy tip shakllandi. Birinchisi – tekisliklar va daryo vohalarida ovchilik, baliqchilik va terimchilikka asoslangan xo‘jalik tizimi; ikkinchisi – tog‘li hududlarda ovchilik va qisman terimchilik ustuvor bo‘lgan xo‘jalik shaklidir (А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020). Bu tiplarning shakllanishi tabiiy muhitning xilma-xilligi va jamoalarning unga moslashuvchan hayot tarzi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Urug‘-qabila jamiyati doirasida etnik hududlarning kengayishi va yashash joylarining tez-tez almashib turishi demografik omillar,

xususan, aholi sonining ortib borishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Mehnat unumdorligi yetarli darajada oshmagan sharoitda tabiiy resurslardan biryoqlama foydalanish uzoq vaqt davom etib, ayrim hududlarda ularning kamayib borishiga va hatto tugab qolishiga olib kelgan. Bu jarayon esa jamoalarning yangi makonlarni izlashiga va hududiy migratsiyalarning kuchayishiga sabab bo‘lgan.

Keltirilgan ma’lumotlar mezolit va neolit davri jamoalarining xo‘jalik-madaniy tiplarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, miloddan avvalgi IV ming yillikdayoq Janubi Turkmaniston hududida Joytun neolit jamoalari madaniyati negizida eneolit davriga mansub ilk metall ishloviga asoslangan xo‘jalik shakllangan bo‘lsa, Kaltaminor jamoalari yashagan pasttekislik hududlarda, ayniqsa Qizilqum ichki mintaqalarida, miloddan avvalgi III ming yillik oxirigacha tosh qurollar ustuvorligicha saqlanib qolgan. Bu qurollar tashqi ko‘rinishi, hajmi va ishlov berish uslubi jihatidan takomillashgan bo‘lsada, jamoalarning xo‘jalik hayotida o‘zlashtiruvchi xo‘jalik ovchilik, terimchilik va baliqchilik to‘liq hukmron bo‘lib qolgan (А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020). Mazkur holat mezolit-neolit davri xo‘jalik-madaniy tizimlarining hududiy farqlanishini yaqqol aks ettiradi.

Neolit davri, miloddan avvalgi VI ming yillik boshlarida, turli tabiiy sharoit va geografik hududlarda yashovchi qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotida tub burilishlar yuz berdi. O‘rta Osiyoning janubida, Kopetdog‘ning shimoli etaklarida joylashgan kichik soylar bo‘ylarida yashagan aholi guruhlari ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllari – dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshladilar. Natijada mintaqa miqyosida xo‘jalik rivojlanishining notekisligi yuzaga kelib, janubi hududlar ilg‘or xo‘jalik shakllari, o‘troq turmush tarzi, loy g‘ishtdan qurilgan uzoq muddatli uy-joylar barpo etilishi hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida yangi texnologik va xo‘jalik yutuqlarining tarqalishida tranzit hudud sifatida alohida ahamiyat kasb eta boshladi.

Markaziy Osiyoning keng hududlarida – Sharqiy Kaspiybo‘yi, Amudaryoning O‘zboy irmog‘i bo‘ylari, Ustyurt, Janubi Orolbo‘yi, Qizilqum, Zarafshon vodiysi, Kofirnigon va Vaxsh daryolari tog‘oldi

mintaqalari hamda Farg‘ona vodiysida esa an’anaviy ovchilik, baliqchilik va terimchilik, ya’ni o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakllari ustuvor bo‘lib qolgan(А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020). Ushbu hududlarda o‘rganilgan makonlar va moddiy madaniyat yodgorliklari joylashuviga ko‘ra Kaltaminor, Ustyurt, Sazog‘on, Hisor va Markaziy Farg‘ona kabi madaniyatlar doirasida umumlashtirilgan.

Mintaqaning g‘arbiy, markaziy va shimoli-sharqiy qismlarida rivojlangan madaniyatlar xo‘jalik yuritish usullari va turmush tarzida muayyan farqlarga ega bo‘lsa-da, ularning barchasida tabiiy-geografik muhitga mos ravishda ovchilik yoki baliqchilik, ovchilik-baliqchilik hamda terimchilik-ovchilik kabi o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakllari ustuvorlik qilgan. Bu holat xo‘jalik faoliyatining hududiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Neolit jamoalarining turli iqlim, landshaft va ekologik sharoitlarda yashaganini hamda bu muhit ularning kundalik turmushi va xo‘jalik mashg‘ulotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatganini moddiy dalillar asosida tasdiqladi. Demak, inson yashayotgan hudud ekologik imkoniyatlaridan kelib chiqib xo‘jalik faoliyatini tashkil etgan va aynan shu ehtiyojlarga mos mehnat qurollarini yaratgan. Bu jarayon inson va tabiat o‘rtasida mustahkam aloqalar mavjud bo‘lganini, mazkur munosabatlar esa, ular yaratgan madaniyatda muayyan shakllarda aks etganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo mezolit va neolit davri jamoalarining xo‘jalik-madaniy tiplari mazkur jamoalarning yashash joylari tabiiy sharoiti, landshafti va iqlimi bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli xo‘jalik faoliyati va turmush tarzi muayyan geografik makon imkoniyatlari asosida tarkib topgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Mezolit va neolit jamoalarining aksariyati xo‘jalik mashg‘ulotlarining muhim qismini uy sharoitida amalga oshirgan. Bu jarayon tosh, suyak, teri, yog‘och va chig‘anoq kabi materiallarga ishlov berishni o‘z ichiga olib, ovchilik, baliqchilik va terimchilik ehtiyojlariga mo‘ljallangan mehnat qurollari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash vositalari, turar joylar va inshootlar qurish uchun zarur asbob-uskunalar hamda daryo va ko‘l havzalarida suzishga mo‘ljallangan moslamalar yaratilgan. Bu faoliyat kishilardan muayyan tafakkur,

tajriba va mahoratni talab etgan. Natijada neolit davri jamoalari orasida alohida xo‘jalik sohalari bilan shug‘ullanuvchi kishilar guruhi, ya’ni dastlabki kasb egalari shakllana boshlagan va ular o‘z tajribalarini avloddan avlodga yetkazganlar.

Markaziy Osiyo mezolit jamoalari turmushida o‘zlashtiruvchi xo‘jalik ustuvor bo‘lgan, neolit davrida esa janubi hududlarda, xususan, Joytun madaniyati jamoalarida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish jarayoni kuzatilgan. Shimoli mintaqalarda, ya’ni pasttekislik hududlarda o‘zlashtiruvchi xo‘jalik yetakchi mavqeyini saqlab qolgan. Tog‘ va tog‘oldi hududlari hamda yirik soylar bo‘ylarida yashovchi jamoalar hayotida esa ilk dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan xo‘jalik-madaniy tip kurtaklari shakllana boshlagan.

Mazkur dalillarga tayangan holda mezolit va neolit jamoalarini xo‘jalik-madaniy xususiyatlariga ko‘ra uch asosiy guruhga ajratish mumkin(А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020): birinchidan, termachilik, ovchilik va baliqchilikka asoslangan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik (mezolit jamoalari, Kaltaminor, Markaziy Farg‘ona va Ustyurt jamoalari); ikkinchidan, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik dehqonchilik va chorvachilik ustuvor bo‘lgan jamoalar (Joytun madaniyati); uchinchidan esa o‘zlashtiruvchi xo‘jalik ustun bo‘lib qolgan holda ishlab chiqaruvchi xo‘jalik unsurlari shakllana boshlagan jamoalar (Sazog‘on va Hisor neolit madaniyatlari).

Mezolit-neolit davri xo‘jalik-madaniy tiplarining muhim tarkibiy qismi terimchilik faoliyati bo‘lib, u iste’molga yaroqli yovvoyi o‘simliklar, ildiz-mevalar va donlarni yig‘ib olishga asoslangan. Kaltaminor hamda boshqa neolit davri makonlarida o‘tkazilgan qazishmalar davomida donli o‘simliklarni maydalashga mo‘ljallangan yorg‘uchoq toshlari aniqlangan. Tolstov makonidan esa o‘simliklarni o‘rish uchun ishlatilgan suyak dastali dastirmato‘shlar, o‘roq va o‘roqsimon pichoqlar topilgan. Ushbu qurollarning tuzilishi va funksional xususiyatlari Old Osiyo hamda Janubi-g‘arbiy Turkmaniston hududlaridagi ilk dehqonchilik madaniyatlariga mansub mehnat qurollari bilan mushtaraklikka ega.

Markaziy Osiyo neolit jamoalarining xo‘jalik-madaniy tiplaridan yana biri baliqchilik bo‘lib, bu soha Oqdaryo havzasi makonlari misolida

nisbatan yaxshi oʻrganilgan. Ayniqsa, Tolstov makonidan koʻplab baliq suyaklari topilgan boʻlib, ular orasida choʻrtan (86%), sazan (8,6%), lakka (3%), sudak (2%), shuningdek, kam miqdorda boʻlsada, leshch, qizilqanotli va oqqayroq kabi turlar aniqlangan (А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020). Bundan tashqari, mintaqaning boshqa makonlaridan ham Turkiston sazani va koʻkboʻyin baliqlarining suyak qoldiqlari topilgan. Mazkur baliq turlarining aksariyati hozirgi kunda ham Amudaryo quyi oqimi suv havzalarida uchraydi.

Mutaxassislar fikriga koʻra, baliqlar asosan toza, ozuqaga boy suv oʻsimliklari mavjud boʻlgan havzalarda koʻpayib, shu hududlarda ovlangan. Amudaryo va Zarafshon etaklarida bunday suv havzalari koʻp boʻlgan. Shu tariqa baliqchilik Oʻrta Osiyo neolit jamoalarining xoʻjalik tizimida muhim oʻrin egallab, ularning geografik muhitga moslashuvi va iqtisodiy faoliyatining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon boʻladi.

Mintaqada neolit davridan boshlab ishlab chiqaruvchi xoʻjalik negizida dastlabki doimiy aholi yashovchi maskanlar, jumladan, ibtidoiy qishloqlar vujudga kela boshlaydi. Turkmanistoning janubi-gʻarbi, Kapetdogʻ yonbagʻirlari hamda shimolda Qoraqum tepaliklari bilan yastanib yotgan keng hududlarda Joytun madaniyati nomi ostida umumlashtirilgan Joytun, Choʻpontepa, Chagʻalli kabi manzilgohlar shakllangan(В.М.Массон, 1957). Bunga, eng avvalo, janubi-gʻarbiy Turkmaniston pasttekisliklarida unumdor tuproqning mavjudligi, mavsumiy yogʻingarchilikning kerakli miqdori, oʻziga xos flora va fauna egaligi sabab boʻlgan. Aynan shu omillar hududda ibtidoiy chorvachilik va dehqonchilikning paydo boʻlishiga zamin hozirlagan(А.Сагдуллаев, Н.Холматов, У.Абдуллаев, 2020).

Ilk dehqonchilik va chorvachilik faoliyati tabiiy jihatdan ozuqabop oʻsimliklarga, ayniqsa boshoqli don ekinlariga hamda barqaror suv manbalariga boy boʻlgan unumdor vohalarda shakllangan. Turkmaniston Xuroson togʻ oldi hududlarida olib borilgan arxeobotanik tadqiqotlar natijasida bugʻdoy va arpaning turli yovvoyi shakllari aniqlangani, ushbu hududlarning dastlabki dehqonchilik madaniyati uchun tabiiy genetik manba boʻlib xizmat qilganini koʻrsatadi. Shu bois ilk dehqon jamoalari madaniy ekin urugʻlarini aynan ana shu tabiiy areallardan

tanlab olgan bo‘lishi ehtimoli ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Tog‘ oldi mintaqalarida esa echki va qo‘ylarni ovlash an’analari asta-sekin ularni xonakilashtirish jarayoniga olib kelib, chorvachilikning dastlabki shakllari vujudga kelgan (В.М.Массон, 1966).

Ilk dehqon jamoalarining kichik soylar bo‘yida joylashuvi tabiiy zarurat bilan bog‘liq bo‘lib, bunday hududlar dehqonchilik uchun qulay iqlimiy va geomorfologik sharoitlarga ega bo‘lgan. Bundan tashqari, tog‘ etaklari va vodiylarda mavjud tabiiy yaylovlar chorva boqish uchun muhim resurs bazasini ta’minlagan. Tog‘li hududlardan pasttekisliklarga ko‘chib kelgan aholining mehnatga layoqatli qatlamlari suv havzalari atrofiga joylashib, sharoitga mos dehqonchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yganlar. Shu bilan birga, yirik daryo vodiylarining murakkab gidrologik sharoiti sababli bu hududlarda dastlab doimiy dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish imkoniyati cheklangan bo‘lgan.

Doimiy dehqonchilik faoliyatining shakllanishi o‘troq turmush tarzini, ya’ni dastlabki qishloqlar va barqaror turar joylarning paydo bo‘lishini taqozo etgan. Joytun manzilgohida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, har bir uy o‘rtacha 20–30 kvadrat metr maydonni egallab, 5–6 kishilik juft oilalar yashashi uchun mo‘ljallangan bo‘lgan. Shu asosda Joytun qishlog‘ida taxminan 150–180 kishi, nisbatan kichikroq Chag‘allitepa manzilgohida esa 60–70 kishi istiqomat qilgani aniqlangan (В.М.Массон, 1971). Bu ma’lumotlar neolit davrida aholi zichligining nisbatan past, biroq ijtimoiy tashkilotning barqaror shaklga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyoning dashtlar, tekisliklar, daryo vohalari va tog‘li mintaqalarida yashagan qadimgi urug‘-qabila jamoalari dastlab, asosan, o‘zlashtiruvchi xo‘jalik turlariga – ovchilik, baliqchilik va termachilikka tayangan holda faoliyat yuritganlar. Tadqiqotchilar hisobiga ko‘ra, bunday jamoalar yashagan hududlarda aholi zichligi juda past bo‘lib, o‘rtacha 100 kvadrat kilometr maydonga 1–5 kishi to‘g‘ri kelgan. Eng past ko‘rsatkichlar ko‘chmanchi termachilar bilan bog‘liq bo‘lsa, nisbatan yuqori zichlik ovchilikka ixtisoslashgan va tabiiy resurslardan samarali foydalangan jamoalarga xos bo‘lgan. Bu holat tabiiy muhit imkoniyatlari bilan demografik jarayonlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiradi.

Turli tabiiy-geografik mintaqalarda joylashgan jamoalar o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy tizimlarni shakllantirgan. O‘zlashtiruvchi xo‘jalik va ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka asoslangan jamoalar oziq-ovqat resurslarini topish va ulardan foydalanish usullari, yashash tarzi hamda moddiy madaniyat ko‘rsatkichlari jihatidan keskin farqlangan. Biroq har qanday xo‘jalik tizimining asosiy maqsadi jamoa a’zolarining kundalik ehtiyojlarini qondirish va hayot barqarorligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan faqat oziq-ovqat bilan ta’minlash emas, balki ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarning kengayishi ham xo‘jalik faoliyatining murakkablashuviga olib kelgan.

Joytun madaniyatiga oid manzilgohlarning tuzilishi ularning aholisi, odatda, 2–4 ta qarindosh urug‘ jamoalaridan iborat bo‘lganini ko‘rsatadi. Har bir oila alohida uyga ega bo‘lsa-da, ular yagona manzilgoh doirasida joylashib, umumiy mehnat qurollari, oziq-ovqat zaxiralari va xo‘jalik resurslaridan birgalikda foydalanganlar. Neolit davrida iqtisodiy jihatdan mustaqil kichik oila hali shakllanmagan bo‘lib, barcha xo‘jalik faoliyati urug‘ jamoasi doirasida amalga oshirilgan. Arxeologik materiallar umumiy g‘alla omborxonalarining mavjudligini ham tasdiqlab, mahsulotlar va ishlab chiqarish vositalari jamoa a’zolari o‘rtasida teng taqsimlanganini ko‘rsatadi.

Neolitning oxiri va eneolit davridan boshlab Markaziy Osiyoda etnik jamoalar joylashuvi hamda ularning faoliyat hududlari izchil kengaya boshlaydi. Yuqori Zarafshon vodiysida joylashgan Sarazm manzilgohi ana shunday jarayonning yorqin namunasidir. Tadqiqotchi-larning fikricha, bu manzilgohning shakllanishida Janubi Turkmanis-ton va Hind vodiysidan kelgan aholi guruhlarining mis konlarini o‘zlashtirish maqsadida hududga ko‘chib kelishi muhim rol o‘ynagan. Xuddi shu davrda Afg‘onistonning shimoli-sharqida Ko‘kcha–Panj daryolari havzasining o‘zlashtirilishi ham Hind vodiysi bilan bog‘liq migratsiya jarayonlari natijasi sifatida talqin qilinadi. Bunga asosiy sabab Badaxshon tog‘larida lojuvard, kumush va oltin kabi qimmatbaho xomashyoga boy konlarning mavjudligi bo‘lgan. Demak, tog‘li hududlarning boy tabiiy resurslari nafaqat mahalliy jamoalar etnogeografiyasiga, balki qo‘shni mintaqalardan bo‘lgan aholi migratsiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Eneolit davrida mis konlari asosan Yuqori Zarafshon tizmasi, Markaziy va Janubi Qizilqum, Farg‘ona vodiysi hamda Markaziy Qozog‘iston hududlarida joylashgan bo‘lib, bu holat xomashyo resurslarining mintaqa bo‘ylab notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi. Ana shu resurslarning turli geografik makonlarda mavjudligi qadimgi aholining xo‘jalik ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan holda ularning hayotiy makon doirasining kengayishiga turtki bergan. Natijada ishlab chiqarish faoliyati tobora keng hududlarni qamrab olgan holda rivojlangan.

Neolit davrida shakllangan ilk qabila tuzilmalarining iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasidagi farqlar eneolit davrida ham saqlanib qolgan. Ayniqsa, tog‘li va dasht hududlarda, jumladan, Zarafshon daryosining quyi oqimi, Qizilqum va Ustyurt mintaqalarida yashagan aholi hayotida ovchilik va baliqchilik asosiy xo‘jalik tarmoqlaridan biri bo‘lib qolgan. Bunday xo‘jalik tizimi asosan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik ustuvor bo‘lgan urug‘chilik jamiyatlariga xos bo‘lib, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik unsurlari bu hududlarda kechroq shakllangan.

Mazkur davrda turli xo‘jalik-iqtisodiy modelga ega bo‘lgan qabila guruhlari o‘zaro faol aloqalarga kirisha boshlaganlar. Bu jarayon ilk iqtisodiy-ijtimoiy ixtisoslashuvning vujudga kelganidan dalolat beradi. Qabila guruhlari yashagan hududlarning tabiiy sharoiti va resurs bazasidagi tafovutlar ularni mahsulot almashinuvi, ya’ni natural ayirboshlash munosabatlariga undagan. Shu tariqa eneolit davridayoq xomashyo materiallari, zeb-ziynat buyumlari va mehnat qurollari qadriyatli ayirboshlash obyektlariga aylangan.

Mazkur ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishi, o‘z navbatida, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi xo‘jalik tarmoqlarining ixtisoslashuviga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarining shakllanishiga zamin yaratgan. Hududlararo etnoiqtisodiy aloqalarning kuchayishi qadimgi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini murakkablashtirib, madaniy jarayonlarning jadallashuviga hamda etnik-madaniy makonlarning kengayishiga olib kelgan. Shu bois eneolit davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning mustahkamlanishi, balki jamiyatning etnogeografik o‘ziga xosligi belgilab olingan muhim bosqich sifatida namoyon bo‘ladi.

2.2. Eneolit va bronza davri shimoli hududlaridagi koʻchmanchi madaniyatlar etnogeografiyasi.

Eneolit va bronza davri Markaziy Osiyoda oʻtroq va koʻchmanchi jamolarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, xoʻjalik faoliyati hamda etnik-madaniy jarayonlari tubdan oʻzgargan davr sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, miloddan avvalgi II ming yillik davomida shakllangan chorvador jamoalar, ilk metallurgiya markazlari va keng hududlarga yoyilgan madaniy aloqalar mintaqaning etnogeografik manzarasini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayonlarning markazida, avvalo, Andronova madaniyati majmualari turadi. Ular orqali Markaziy Osiyoning bronza davridagi etnik shakllanishi, iqtisodiy tizimi va hududiy yoyilishi masalasini yaxlit ilmiy tizimda talqin etilishi mumkin.

Arxeologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Andronova madaniyati yodgorliklari Yevrosiyoning dasht hududlarida nihoyatda keng tarqalgan. Ularning geografik maydoni gʻarbda Ural togʻoldi hududlari va Volga daryosi havzalaridan boshlanib, sharqda Gʻarbiy Sibir, Yenisey vodiysi va Oltoy togʻlarigacha, janubda esa Tyan-Shan, Pomir tizmalari hamda Markaziy Osiyoning Amudaryo havzalarigacha yetib borgan. Bunday keng hududiy yoyilish bronza davrida shakllangan chorvador xoʻjalik tizimining yuqori darajadagi harakatchanligi, ekologik moslashuvchanligi va iqtisodiy barqarorligini koʻrsatadi.

Mazkur madaniyatning kelib chiqishi masalasida ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud boʻlsa-da, hozirgi tadqiqotlar uning ildizlari janubi-sharqiy Ural oldi hududlari va Qozogʻiston dashtlari bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatmoqda. Aynan shu hududlarda eneolit va ilk bronza davriga mansub mahalliy madaniyatlar negizida yangi etnomadaniy komplekslar shakllangan. Bu jarayon mahalliy aholining xoʻjalik tajribasi, adaptatsiyasi va texnologik bilimlari asosida rivojlangan boʻlib, Andronova madaniyatini tashqi migratsiya mahsuli sifatida emas, balki ichki etnomadaniy jarayonlar xosilasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Bronza davrining boshlarida Janubi-Sharqiy Ural hududlarida yashagan jamoalar dastlab chorva boqishning yarim oʻtroq shakllaridan foydalanib kelgan boʻlsa, vaqt oʻtishi bilan ular yaylov chorvachiligiga asoslangan koʻchmanchi xoʻjalik tizimiga oʻta boshladilar. Bunday

xo‘jalik transformatsiyasi tasodifiy emas, balki hududning tabiiy-geografik sharoitlari bilan bevosita bog‘liq edi. Ural tog‘ tizmalari shimoldan esadigan sovuq shamollarni to‘sib, nisbatan mo‘tadil iqlim muhitini shakllantirgan. Tog‘ etaklarida ko‘plab buloq va daryo manbalarining mavjudligi esa chorvador jamoalar uchun yil bo‘yi barqaror suv ta’minotini yaratgan. Natijada bu hududlar bronza davri chorvadorlari uchun muhim qishlov va ishlab chiqarish markazlariga aylangan.

Mazkur tabiiy-geografik muhit chorvachilik bilan bir qatorda tog‘-kon sanoati va metallurgiyaning rivojlanishi uchun ham qulay sharoit yaratdi. Arxeologik topilmalar Andronova jamoalarining nafaqat chorvador, balki faol konchilar bo‘lganini ko‘rsatadi. Ular mis, qalay va boshqa rangli metall konlarini qidirib topish, qazib olish, eritish hamda bronza qurollar va mehnat qurollari tayyorlash texnologiyalarini mukammallashtirganlar. Bu holat Andronova madaniyatining Yevrosiyo dashtlarida nafaqat xo‘jalik, balki, texnologik rivojlanishni tarqatgan muhim markazlardan biri bo‘lganini anglatadi.

Yevrosiyo dashtlarida Andronova madaniyati bilan deyarli bir davrda rivojlangan Srub (Srubnaya) madaniyati ham o‘zaro o‘xshash iqtisodiy va madaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan. Kulolchilik mahsulotlari shakli, bezaklari, metall buyumlar tiplari hamda turar-joy qurilish uslublaridagi yaqinlik bu ikki madaniyat o‘rtasida uzviy aloqalar mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Shuningdek, antropologik tadqiqotlar ularning aholisi umumiy prootoyevropoid tipga mansub bo‘lganini ko‘rsatib, bronza davrida Yevrosiyo dashtlarida nisbatan yaxlit antropologik makon shakllanganini tasdiqlaydi.

Mazkur madaniyatlarning keng tarqalishi bilan bog‘liq etnik jarayonlar masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar orasida Andronova madaniyati egalari hind-eroniy yoki boshqa til guruhlariga mansub bo‘lganmi, degan savol uzoq vaqt davomida muhokama qilinib kelgan. Biroq hozirgi kunda etnogeografik yondashuv bu masalaga yanada ehtiyotkorlik bilan yondashishni taqozo etadi. Arxeologik madaniyatlarni bevosita etnik yoki lingvistik birliklar bilan birxillashtirish ilmiy jihatdan murakkab bo‘lib, ko‘pincha shartli xarakter kasb etadi. Shu sababli Andronova madaniyatini,

avvalo, keng hududlarda tarqalgan xo‘jalik-madaniy tizim sifatida talqin qilish, uning asosida esa ko‘p qatlamli etnomadaniy jarayonlar yotganini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Bronza davrining o‘rtalariga kelib Markaziy Osiyoning dashtlarida chorvador jamolarning son jihatdan ko‘payishi va xo‘jalik ehtiyojlari–ning kengayishi ekologik muvozanatga sezilarli bosim o‘tkaza boshladi. Yaylovlar uchun raqobat kuchaydi, chorva boqish uchun yangi hududlarga ehtiyoj tug‘ildi. Natijada jamoalar orasida migratsiya jarayonlari kuchayib, ularning harakat yo‘nalishlari janub va janubi-g‘arb tomonga yo‘nala boshladi. Bu migratsiyalar Markaziy Osiyoning tog‘ oldi vohalari, daryo havzalari va sug‘orishga qulay hududlariga bronza davri chorvadorlarining kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Mazkur jarayonlar Markaziy Osiyo hududida mahalliy sug‘orma dehqonchilik madaniyatlari bilan chorvador jamoalar o‘rtasida murakkab etnomadaniy aloqalar shakllanishiga olib keldi. Xususan, Amudaryoning quyi havzalari, Orolbo‘yi va Xorazm hududlarida mahalliy dehqonchilik an’analari asosida yashab kelgan jamoalar bilan chorvador guruhlar o‘rtasida xo‘jalik tajribasi almashuvi yuz berdi. Bu o‘zaro ta’sir natijasida o‘ziga xos madaniy komplekslar shakllandi. Shunday etnomadaniy birliklardan biri sifatida Tozabog‘yob madaniyati ajralib turadi. U chorvachilikka asoslangan xo‘jalik bilan sug‘orma dehqonchilik an’analarining sintezi mahsuli bo‘lib, Markaziy Osiyoning shimoli va shimoli-g‘arbiy hududlarida bronza davri oxiriga kelib muhim madaniy makon yaratdi.

Arxeologik materiallar Tozabog‘yob madaniyati egalari xo‘jaligida chorvachilik ustuvor bo‘lganini, dehqonchilik esa ko‘proq qo‘shimcha va mahalliy sharoitlarga moslashgan faoliyat shakli sifatida namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat Markaziy Osiyoda bronza davrida shakllangan etnogeografik modelning asosiy xususiyatini ochib beradi: ya’ni mintaqa aholisining asosiy iqtisodiy tayanchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilik bo‘lib, dehqonchilik esa asosan voha va daryo havzalariga xos lokal xo‘jalik shakli sifatida rivojlangan.

Janubi-Sharqiy Ural hududlarida joylashgan Arkaim va Sintashta tipidagi yodgorliklar bronza davri jamiyatining ijtimoiy va mafkuraviy tuzilmasi haqida ham muhim ma’lumotlar beradi. Bu yodgorliklar doira

shaklidagi rejalashtirishga ega bo‘lib, markaziy ibodatxonalar, mudofaa devorlari va ishlab chiqarish markazlarini o‘z ichiga oladi. Ularning mavjudligi chorvador jamiyatlarning nafaqat iqtisodiy, balki diniy-mafkuraviy va siyosiy markazlari ham shakllanganini ko‘rsatadi. Arxeologik topilmalar bu markazlarda metallurgiya, hunarmandchilik va marosim amaliyotlari uzviy bog‘langan holda amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Bu markazlarning Markaziy Osiyo bilan aloqalari kulolchilik buyumlari, bezakli sopol idishlar va metall mahsulotlaridagi o‘xshashliklarda namoyon bo‘ladi. Bu esa shimoli dasht hududlari bilan janubi vohalar o‘rtasida iqtisodiy-savdo aloqalari hamda etnomadaniy aloqalar juda erta davrlardan shakllanganini ko‘rsatadi. Natijada Markaziy Osiyo bronza davrida yopiq hudud emas, balki Yevrosiyo makonidagi keng madaniy tizimning ajralmas qismi sifatida faol ishtirok etgan.

Bronza davrida yuz bergan migratsiya jarayonlari faqat iqtisodiy ehtiyojlar bilan cheklanib qolmagan, balki madaniy va mafkuraviy o‘zgarishlarni ham keltirib chiqargan. Ko‘chmanchi chorvador jamoalar o‘zlari bilan birga urf-odatlar, ijtimoiy tashkilot shakllari, diniy tasavvurlar va texnologik bilimlarni ham yangi hududlarga olib kirganlar. Natijada Markaziy Osiyoning ko‘plab mintaqalarida chorvadorlik asosidagi hayot tarzi ustuvor mavqega ega bo‘lib, keyingi tarixiy davrlarda ham mintaqa etnik va xo‘jalik tizimining asosiy tayanchiga aylangan.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning sug‘oriladigan vohalarida yashagan dehqon jamoalari ham chorvador guruhlar bilan doimiy aloqada bo‘lib kelgan. Bu o‘zaro munosabatlar iqtisodiy ixtisoslashuvni kuchaytirgan: vohalarda dehqonchilik, xususan, donli ekinlar ekish, bog‘dorchilik va hunarmandchilik rivojlangan bo‘lsa, dasht hududlarida chorvachilik ustuvor bo‘lgan. Mazkur ixtisoslashuv savdo almashuvini kuchaytirib, turli xo‘jalik zonalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlagan. Shu tariqa Markaziy Osiyoda bronza davridayoq mintaqaviy mehnat taqsimoti va iqtisodiy integratsiya jarayonlari shakllana boshlagan.

Antropologik ma’lumotlar ham bronza davri Markaziy Osiyosining etnogeografik manzarasini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Antropologik topilmalar va kraniologik tadqiqotlar aholining asosiy qismi prootoyevropoid tipga mansub bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat Yevrosiyo dashtlaridan to Markaziy Osiyo vohalarigacha bo‘lgan keng hududlarda nisbatan bir xil antropologik qatlam mavjud bo‘lganini bildiradi. Biroq, bu umumiylik fonida mahalliy ekologik sharoitlar va madaniy aloqalar ta’sirida turli lokal variantlar shakllangan bo‘lib, bu esa mintaqaning etnik tarkibi murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lganini anglatadi.

Shunday qilib, bronza davrida Markaziy Osiyoning etnogeografik qiyofasi chorvachilik asosidagi ko‘chmanchi jamiyatlar bilan sug‘orma dehqonchilikka tayanadigan voha madaniyatlarining murakkab o‘zaro ta’siri natijasida shakllandi. Andronova madaniyati va unga yaqin madaniy majmualar bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ular Yevrosiyo dashtlari orqali Markaziy Osiyoga yangi xo‘jalik tizimlari, metallurgiya texnologiyalari va faol turmush tarzini olib kirdi. Mahalliy dehqonchilik an’analari esa, bu jarayonni moslashtirib, mintaqaga xos madaniy shakllar bilan boyitdi.

Bronza davrining oxiriga kelib, Markaziy Osiyo hududida chorvachilik va dehqonchilik uyg‘unlashgan murakkab xo‘jalik tizimi shakllandi. Bu tizim keyingi temir davri jamiyatlari uchun mustahkam iqtisodiy va madaniy asos yaratdi. Aynan shu davrda shakllangan etnogeografik model, ya’ni dasht va voha, ko‘chmanchi va o‘troq, konchi va dehqon jamoalarining o‘zaro bog‘liqligi, Markaziy Osiyo tarixining keyingi ming yilliklarida ham mintaqaning asosiy rivojlanish yo‘nalishini belgilab berdi.

Xulosa qilib aytganda, bronza davrida Markaziy Osiyo etnogeografiyasi hududiy kenglik, iqtisodiy moslashuvchanlik va madaniy aloqa tamoyillari asosida shakllangan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Andronova madaniyati va unga tutash madaniy majmualar orqali mintaqa Yevrosiyo dashtlarining yagona etnomadaniy makoniga integratsiyalashgan, shu bilan birga, mahalliy ekologik sharoitlar va tarixiy an’analar asosida o‘ziga xos regional qiyofasini saqlab qolgan. Aynan shu uyg‘unlik Markaziy Osiyoni bronza

davridayoq qadimgi dunyoning muhim etnomadaniy chorrahalaridan biriga aylantirgan.

2.3. Markaziy Osiyoda shimolidagi koʻchmanchi va mahalliy jamoalar oʻrtasidagi etnomadaniy jarayonlar.

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi Yevrosiyo tarixida aholi harakatlarining faollashuvi, iqtisodiy moslashuv strategiyalarining kengayishi va madaniy makonlarning qayta shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, shimoli dasht hududlarida shakllangan chorvador jamoalarning janubga – Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelishi bu mintaqaning etnogeografik manzarasida tub oʻzgarishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonlar faqat aholi koʻchishi bilan cheklanmay, mahalliy dehqonchilik jamoalari bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar oʻrnatilishi, resurslardan birgalikda foydalanish va madaniy integratsiya shakllarining vujudga kelishi bilan ham bogʻliq boʻldi.

Shimoli chorvador jamoalarning janubga siljishi, avvalo, tabiiy-geografik va iqtisodiy omillar bilan bogʻliq edi. Chorvachilikka asoslangan xoʻjalik tizimi yangi yaylovlarni izlashni taqozo qilgan boʻlsa, bronza ishlab chiqarish uchun zarur boʻlgan metall xomashyosi togʻ hududlaridagi konlarga yaqinlashishni talab etgan. Natijada koʻchmanchilar togʻ oldi mintaqalari va daryo havzalarida joylashib, ekologik imkoniyatlar bilan iqtisodiy ehtiyojlar oʻrtasidagi muvozanatni saqlashga intilganlar.

Markaziy Osiyoga kirib kelgan chorvador guruhlar, dastlab, aholi zichligi past boʻlgan togʻ yonbagʻirlari, adirlar va daryo vodiylariga tutash hududlarda qoʻnim topgan. Bu makonlar chorvachilik uchun qulay yaylovlarni hamda metallurgiya faoliyati uchun zarur ruda konlarini ta’minlagan. Shu bois ular etnogeografik jihatdan koʻchmanchilik va oʻtroqlik, dasht va voha oʻrtasidagi oʻtish zonalari sifatida shakllangan. Biroq ruda konlariga boy ayrim hududlarda mahalliy dehqonchilik jamoalari bilan resurslar ustidan raqobat kuchayib, ba’zan qurolli toʻqnashuvlarga ham olib kelgan. Bunday jarayonlar moddiy madaniyatda, dafn marosimlarida va aholi tarkibidagi siljishlarda aks etgan.

Vaqt o‘tishi bilan chorvador jamoalar voha va tekislik hududlaridagi mahalliy dehqonchilik aholisi bilan yaqinlashib, qo‘shnichilik, hamkorlik va aralash yashash shakllariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy munosabatlarni rivojlantirdilar. Konqurtut va Teguzak kabi yodgorliklarda mahalliy dehqonchilik an’analari bilan chorvador turar joy qurilishi va xo‘jalik yuritish uslublarining bir makonda uyg‘unlashgani kuzatiladi. Kulolchilik mahsulotlarining turli madaniy an’analarga mansubligi esa, aholi tarkibining etnik jihatdan aralash bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat bronza davrida etnogeografik chegaralar nisbatan zaiflashib, madaniy makonlarning integratsiyalashganini anglatadi.

Shimoli dasht jamoalari arxeologik adabiyotlarda asosan Andronova va Srub madaniyatlari doirasida tavsiflanadi. Ularning janubga siljishi bir martalik hodisa emas, balki uzoq davom etgan, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, natijada shimoli va janubi hududlar o‘rtasida barqaror iqtisodiy hamda etnomadaniy aloqalar shakllangan. Bu aloqalar ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lib, janubi vohalarda rivojlangan kulolchilik, metall buyumlar va bezak san’ati an’analari shimoli mintaqalarga ham tarqalgan. Yettisuv, Janubi va Markaziy Qozog‘iston hamda Tog‘li Oltoy hududlaridan topilgan sifatli sopol buyumlar savdo va madaniy almashinuv munosabatlarining rivojlanganini tasdiqlaydi(И.Н.Джураев, 2021).

Bronza davrida Markaziy Osiyo hududlarida etnomadaniy jarayonlar migratsiya, xo‘jalik moslashuvi hamda biologik va madaniy omillarning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan bo‘lib, bu holat Tozabog‘yob madaniyati misolida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Antropologik tadqiqotlar Andronova va Srub madaniyatlariga mansub aholi asosan protopoyevropoid tipga mansub bo‘lganini, Tozabog‘yob jamoalarida esa O‘rta yer dengizi tiplariga xos belgilar qorishuvi kuzatilishini ko‘rsatadi. Bu Janubi Orolbo‘yida shimoldan kelgan chorvadorlar bilan mahalliy suvbo‘yi va dehqonchilik aholisi o‘rtasida uzoq muddatli biologik hamda madaniy integratsiya kechganidan dalolat beradi.

Suvyorgan madaniyatining shakllanishi ham ana shu uzviy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, uning ildizlari Kaltaminor neolit

jamoalariga borib taqaladi. Suvyorgan madaniyatida uchraydigan ayrim kulolchilik shakllari esa, janubi dehqonchilik mintaqalarining madaniy-xo‘jalik ta’sirini aks ettiradi. Bu holat Suvyorgan jamiyatining faqat shimoli chorvador an’analarga emas, balki janubi dehqon madaniyati bilan sintez jarayoniga ham tayanganini ko‘rsatadi. Tozabog‘yob yodgorliklarida Alakul va Srub an’analariga xos metall buyumlarning uchrashi esa, Janubi Orol hududida miloddan avvalgi XVI asrga kelib aralash madaniy jamoalar shakllanganini ko‘rsatadi(И.Н.Джураев, 2021).

Bronza davrining ikkinchi yarmida shimoli chorvador jamoalarning janubga siljishi Zarafshon vodiysi va Buxoro vohasining shimoli-g‘arbiy hududlariga ham ta’sir ko‘rsatib, Zamunbobo madaniyati jamoalarining an’anaviy rivojlanish yo‘nalishlarini o‘zgartirdi. Dasht chorvadorlari mavsumiy manzilgohlar, qabristonlar va yakka qabrlardan iborat moddiy madaniyat izlarini qoldirib, mintaqa bo‘ylab keng tarqaldi. Qurib qolgan daryo o‘zanlari bo‘ylab joylashgan manzilgohlar, sopol parchalari, tosh va bronza qurollari hamda hayvon suyaklari chorvador xo‘jalikning yaylov-ko‘chmanchi turmush tarzini aks ettiradi.

Zarafshon vodiysining quyi va o‘rta oqimlaridagi ayrim yodgorliklar chorvador jamoalarning metallurgiya bilan ham shug‘ullanganini ko‘rsatadi. Metall eritish qozonlari, ruda maydalash qurollari va shlaklarning topilishi bronza ishlab chiqarish jarayonlari mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Bu holat chorvador xo‘jalik tizimining faqat yaylov iqtisodiyotiga emas, balki tog‘-kon va metallurgiya faoliyatiga ham tayanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Zarafshon tog‘ tizmalari yaqinidagi polimetall konlar bronza davri metallurgiyasi uchun strategik ahamiyat kasb etgan.

Shu jihatdan Zarafshon vodiysining yuqori qismida joylashgan Sarazm yodgorligi alohida ahamiyatga ega. Dastlab, sug‘orma dehqonchilik asosida shakllangan bu markaz keyinchalik metall konlarining o‘zlashtirilishi hisobiga yirik metallurgiya markaziga aylangan. Uning mahsulotlari nafaqat janubi dehqonchilik hududlariga, balki shimoli chorvador jamoalariga ham tarqalgan. Miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalaridan boshlab shimoldan siljigan chorvador

guruhlarning bu ruda manbalarini nazoratga olishi, metall resurslari bronza davri jamiyatlarining siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim oʻrin tutganini koʻrsatadi(И.Н.Джураев, 2021).

Shimoli dasht jamoalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi Toshkent vohasida ham moddiy madaniyat izlarida namoyon boʻladi. Bu hududdan topilgan bronza pichoqlar, qurol-aslaha va bezak buyumlari Gʻarbiy Qozogʻiston, Janubi Sibir, Uraloldi va Togʻli Oltoy madaniyatlariga yaqinligini koʻrsatadi. Togʻoldi va togʻli hududlardagi ayrim qabristonlar chorvador guruhlarning turli ekologik makonlarga moslasha olganini hamda mahalliy aholi bilan madaniy aloqalar oʻrnatganini tasdiqlaydi.

Fargʻona vodiysida aniqlangan eng muhim bronza davri yodgorliklaridan biri Vodil qabristoni hisoblanadi. Ushbu majmua togʻoldi hududlarida joylashgan boʻlib, yuzlab tosh qoplamali qabrtosh tepaliklaridan iborat murakkab nekropol tizimini tashkil etadi. Qabr usti inshootlarining shakli, oʻlchamlari va ichki tuzilishidagi xilma-xillik ularning turli davrlarda barpo etilganini koʻrsatadi. Bu esa, Fargʻona vodiysiga chorvador jamoalarning bir martalik emas, balki ketma-ket toʻlqinlar shaklida kirib kelganidan dalolat beradi. Qabrlarning koʻpchiligida jasadlarning buklangan holatda, yon tomoniga yotqizilgan va bosh tomoni asosan gʻarbga qaratilgan holda dafn etilgani kuzatiladi. Bu marosimlar Andronova madaniyatiga mansub boshqa dasht yodgorliklari bilan qiyoslanganda umumiy dafn an’analarining mavjudligini tasdiqlaydi.

Vodil qabristonidan topilgan moddiyatlarning kamligi, asosan, qadimgi va keyingi davrlarda sodir boʻlgan talonchiliklar bilan izohlanadi. Shunga qaramay, ayrim qabrlardan aniqlangan sopol idish boʻlaklari, metall bezaklar va qurol elementlari shimoli dasht mintaqalaridagi bronza davri majmualari bilan tipologik jihatdan uygʻun keladi(И.Н.Джураев, 2021). Bu holat Fargʻona vodiysidagi chorvador aholi qatlamining kelib chiqish ildizlari mintaqaviy chegaralardan tashqarida, keng Yevrosiyo dasht hududlari bilan bogʻliq ekanini koʻrsatadi.

Vodil majmuasiga yaqin joylashgan Karamkoʻl qabristoni ham oʻzining tashqi va ichki tuzilishi jihatidan xuddi shunday etnomadaniy

muhitni aks ettiradi. Bu yerda aniqlangan qabrlarda tosh qutilar ichiga buklangan holatda joylashtirilgan jasadlar, qabr usti tosh tepaliklari va kam sonli bezak buyumlari kuzatiladi. Karamkoʻl majmuasidagi arxeologik materiallarning Vodil qabristoni bilan oʻxshashligi ularning bir xil madaniy muhitda shakllanganini va ehtimol, bir-biriga yaqin vaqt oraligʻida faoliyat yuritgan chorvador guruhlarga tegishli ekanini koʻrsatadi. Ushbu yodgorliklarning umumiy xronologiyasi bronza davrining soʻnggi bosqichlariga, ya'ni miloddan avvalgi XIII–XII asrlarga toʻgʻri keladi.

Fargʻona vodiysining sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida joylashgan Chek qabristoni ham dasht chorvador jamoalarining madaniy merosini ifodalovchi muhim yodgorliklardan biridir. Bu hududdagi qabrlarning koʻpchiligi talon-toroj qilingan boʻlsa-da, saqlanib qolgan ayrim topilmalar, xususan, bronzadan yasalgan halqa va sopol parchalari, Andronova madaniy doirasi bilan bevosita aloqadorlikni koʻrsatadi(И.Н.Джураев, 2021). Dafn marosimlarida jasadlarning yon tomoniga buklangan holatda joylashtirilishi va bosh tomoni gʻarbga tomon burilishi kabi xususiyatlar Fargʻona vodiysi va butun Markaziy Osiyo boʻylab tarqalgan chorvador guruhlarning umumiy rasm-rusumlarini aks ettiradi.

Mazkur qabristonlarning joylashuvi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ular, asosan, togʻ oldi hududlari va yaylovlarga qulay boʻlgan adirlik zonalarda joylashgan boʻlib, chorvachilikka mos tabiiy sharoitdan unumli foydalanilganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bunday hududlarning daryo vodiysi va dehqonchilik manzilgohlariga yaqinligi chorvador va oʻtroq aholi oʻrtasida iqtisodiy almashinuvlar, xususan, oziq-ovqat mahsulotlari, metall buyumlar va hunarmandchilik mahsulotlari savdosining rivojlanganidan dalolat beradi. Demak, Fargʻona vodiysida kuzatilgan etnomadaniy jarayonlar alohida intensiv shaklda emas, balki keng hududiy xoʻjalik tizimlari doirasida shakllangan.

Fargʻona vodiysi hududida bronza davrida shakllangan yana bir muhim madaniy makon Qayroqqum mintaqasi hisoblanadi. Bu hududning tabiiy landshafti, asosan, tekis va quruq zonalardan iborat boʻlib, u yerda sopol buyum boʻlaklari, metallurgiya faoliyatiga oid

qoldiqlar, ruda eritish oʻchoqlari izlari va turli ishlab chiqarish qurollari aniqlangan. Arxeologik izlanishlar natijasida Qayroqqum hududida oʻnlab manzilgohlar qayd etilib, ularning bir qismi metallurgiya markazlari sifatida faoliyat yuritganini koʻrsatadi(И.Н.Джураев, 2021). Bu esa bronza davrida Fargʻona vodiysi va Sirdaryo havzasining nafaqat chorvachilik, balki metall ishlab chiqarish va hunarmandchilik faoliyati bilan ham ajralib turganini koʻrsatadi.

Qayroqqum manzilgohlarining koʻpchiligida madaniy qatlamlar toʻliq saqlanmagan boʻlsa-da, ayrim pasttekislik hududlarda daryo toshqinlari tufayli hosil boʻlgan tabiiy qatlamlar arxeologik materiallarning saqlanishiga imkon bergan. Ana shunday joylardan aniqlangan metall eritish izlari, tosh qurollar, qoliplar va xoʻjalik asboblari chorvador jamoalarning murakkab iqtisodiy tuzilishga ega boʻlganini koʻrsatadi. Bu jamoalar nafaqat chorva boqish bilan cheklanib qolgan, balki ruda qazib olish, metall eritish va qurol-yarogʻ hamda mehnat qurollari ishlab chiqarish bilan ham shugʻullangan. Natijada, ular oʻz davrining iqtisodiy va texnologik taraqqiyotida muhim rol oʻynagan.

Fargʻona vodiysidagi bronza davri yodgorliklarining tashqi tuzilishi va mafkuraviy jihatlarini Qozogʻiston dashtlari, Janubi Sibir, Oltoy va Ural oldi hududlaridagi arxeologik majmualar bilan qiyoslash shuni koʻrsatadiki, bu hududlar oʻrtasida uzoq masofali madaniy aloqalar mavjud boʻlgan. Ayniqsa, metall bezaklar, qurol-yarogʻ asboblari uchlari, sopol buyumlarning shakli va bezak uslublaridagi oʻxshashliklar mintaqalararo madaniy makonning yaxlitligini tasdiqlaydi (Джураев И.Н., 2021). Bu holat Yevroosiyo dashtlarida shakllangan madaniy an’analar Markaziy Osiyo togʻoldi va vodiy hududlariga kirib kelib, mahalliy an’analar bilan oʻzaro uygʻunlashganini koʻrsatadi.

Dasht hududlarida shakllangan koʻchmanchi chorvachilik tizimi togʻoldi va vodiy mintaqalariga oʻrnashib, yangi ekologik sharoitlarga mos xoʻjalik ishlab chiqish usullarini ishlab chiqqan. Shu bilan birga, oʻtroq dehqonchilik hududlari bilan qoʻshni yashash sharoitida chorvador jamoalar almashinuv, nikoh aloqalari va madaniy aloqalar orqali yangi etnomadaniy muhitni shakllantirgan. Natijada, Fargʻona

vodiysi bronza davridayoq koʻp qatlamli, murakkab etnik tarkibga ega hudud sifatida shakllangan.

Fargʻona vodiysida aniqlangan bronza davri qabristonlari va manzilgohlarining xronologik tahlili ularning asosiy qismi miloddan avvalgi XIII–XII asrlarga mansub ekanini koʻrsatadi. Bu davr Yevrosiyo dashtlarida chorvador jamiyatlarning ijtimoiy tuzilmasida tub oʻzgarishlar sodir boʻlgan, metallurgiya texnologiyalari takomillashgan va uzoq masofali aloqalar kuchaygan bosqich bilan mos keladi. Aynan ana shu tarixiy sharoitda Fargʻona vodiysi mintaqalararo madaniy aloqalarning muhim tizimiga aylangan. Bu yerda chorvador va oʻtroq aholi qatlamlari oʻzaro aloqaga kirishib, kelgusidagi etnogenetik jarayonlar uchun muhim asos yaratgan.

Shimoli dasht jamoalari Markaziy Osiyoda faqat xoʻjalik faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, ayrim hududlarda siyosiy va harbiy ustunlikka ham erishganlar. Arxeologik maʼlumotlarga koʻra, yangi kelgan guruhlar tarkibida harbiy elita shakllanib, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdodan keladigan daromadlarning asosiy qismi aynan shu qatlam qoʻlida jamlangan. Shu bilan birga, koʻchmanchi jamoalar tarkibidagi kam taʼminlangan qatlamlar mahalliy aholi bilan qoʻshilib, ularning xoʻjalik tizimiga moslashgan holda yashashni davom ettirgan. Bu jarayonlar etnogeografik transformat–siyaning ijtimoiy tarkibiy tomonini tashkil etadi.

Vaqt oʻtishi bilan koʻchmanchi chorvadorlar Markaziy Osiyoning tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashib, oʻtroq hayot tarzining ayrim elementlarini qabul qila boshlaganlar. Ayniqsa, mahalliy dehqonchilik jamoalari bilan yaqin iqtisodiy munosabatlar oʻrnatilgan hududlarda bu jarayon tezlashgan. Ayrim guruhlar anʼanaviy koʻchmanchi turmush tarzini saqlab qolgan boʻlsalar, boshqalari oʻtroqlashib, mahalliy aholi bilan qoʻshnichilik va qarindoshlik aloqalarini mustahkamlagan. Bu holat aholi harakatlarining bir yoʻnalishli emas, balki moslashuvchan va koʻp vektorli xarakterga ega boʻlganini koʻrsatadi.

Sopolli madaniyatiga mansub Boʻston VI qabristoni kabi yodgorliklar ushbu etnomadaniy yaqinlashuv jarayonlarining arxeologik aks-sadosini yaqqol namoyon etadi. Bu yerda dafn marosimlari tizimida mahalliy va dasht anʼanalarining uygʻunlashuvi,

moddiy madaniyatdagi uslubiy qo‘shilishlar hamda aholi tarkibidagi bioantropologik o‘zgarishlar ko‘chmanchi va o‘troq jamoalar o‘rtasida kechgan assimilatsiya jarayonlarining amaliy natijasidir. Konqurtut va Teguzak kabi manzilgohlarda esa, ikki mintaqa jamoalarining bir makonda hamkorlik asosida yashaganini ko‘rsatuvchi turar joy tuzilmalari va xo‘jalik tizimlari aniqlangan (И.Н.Джураев, 2021).

Umuman olganda, Yevrosiyo dashtlarida shakllangan ko‘chmanchi chorvador jamoalarning miloddan avvalgi II ming yillik ikkinchi yarmidan boshlab, Markaziy Osiyo hududlariga kirib kelishi mintaqaning etnogeografik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu jarayonlar nafaqat aholi migratsiyasini, balki xo‘jalik tizimlarining qayta shakllanishini, madaniy an’analar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni va yangi ijtimoiy tuzilmalarning vujudga kelishini ta’minladi. Dastlabki bosqichlarda raqobat va to‘qnashuvlar ustun bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu munosabatlar hamkorlik, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik va madaniy integratsiya shakllariga o‘tdi.

Natijada bronza davrining oxiriga kelib, Markaziy Osiyoda ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq dehqonchilik jamoalari o‘rtasidagi farqlar asta-sekin yumshab, yangi etnomadaniy birliklar shakllana boshladi. Bu birliklar keyinchalik ilk temir davrida mintaqaning tarixiy-madaniy sivilizatsiya markazlari vujudga kelishiga asos soldi. Etnogeografik nuqtayi nazardan qaralganda, mazkur jarayonlar Markaziy Osiyoni bronza davrida aholi harakatlari, ekologik moslashuv va madaniy sintezlar o‘zaro uyg‘unlashgan dinamik makon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mazkur jarayonlar Markaziy Osiyoning keyingi tarixiy bosqichlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bronza davrida shakllangan chorvador-o‘troq aloqalar tizimi keyinchalik ilk temir davri va antik davr madaniyatlarining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, tog‘oldi va vodiy hududlarida shakllangan iqtisodiy hamkorlik va madaniy aloqa almashinuv jarayonlari mintaqaning keyingi siyosiy va etnik tarixida uzluksizlikni ta’minlagan. Shu jihatdan, Farg‘ona vodiysi bronza davridayoq Markaziy Osiyoning etnomadaniy xaritasida muhim markazlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bronza davrida Markaziy Osiyo, hududlarida kechgan etnomadaniy jarayonlar shimoli chorvador jamoalar va mahalliy dehqonchilik hamda suvbo‘yi madaniyatlari o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qatlamli o‘zaro ta’sirlar asosida shakllangan. Bu jarayonlar bir yoqlama migratsiya bilan emas, balki xo‘jalik moslashuvi, madaniy almashinuv va biologik integratsiya orqali kechib, mintaqaning tarixiy-etnik rivojlanishida muhim o‘rin tutgan.

Bronza davrining ikkinchi yarmida Andronova madaniy doirasiga mansub chorvador guruhlarning janubga siljishi Farg‘ona vodiysi, Toshkent vohasi, Zarafshon havzasi va Sirdaryo o‘rta oqimi hududlarini yirik madaniy aloqalar makoniga aylantirdi. Bu jarayonlar mahalliy o‘troq va yarim o‘troq aholi xo‘jaligi hamda ijtimoiy tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiy va madaniy integratsiyani jadallashtirdi.

Vodil, Karamko‘l, Chek, Qayroqqum, Tozabog‘yob va Suvyorgan kabi yodgorliklar hamda Zarafshon va Toshkent vohalaridagi arxeologik majmualar shimoli dasht mintaqalari bilan mustahkam aloqalar mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Bu aloqalar natijasida yangi xo‘jalik modellari, moddiy madaniyat shakllari va antropologik tiplar vujudga kelib, Markaziy Osiyo bronza davri jamoalarining etnogeografik manzarasi yanada rang-baranglashgan.

Natijada bronza davrining oxiriga kelib dasht va voha o‘rtasidagi etnogeografik chegaralar nisbatan yo‘qolib, Markaziy Osiyo hududi yaxlit tarixiy-madaniy makon sifatida shakllana boshladi. Bu holat Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenez jarayonlari bronza davridayoq boshlanganini tasdiqlab, mintaqaning qadimgi tarixiy taraqqiyotini anglash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mezolit davrida Markaziy Osiyo aholisi asosan qaysi xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullangan?
2. Mezolit va neolit davrlarida baliqchilik asosan qaysi hududlarda rivojlangan?
3. Eneolit davrida aholi migratsiyasining asosiy sabablarini izohlab bering.
4. O‘zlashtiruvchi xo‘jalikka xos bo‘lgan faoliyatlar qaysilar?

5. Bronza davrida Markaziy Osiyoning shimoli qismlarida qanday ko‘chmanchi madaniyatlar mavjud edi?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Neolit davrida janubi hududlarda dehqonchilik rivojlanishining asosiy sabablari haqida fikr yuriting.
2. Bronza davrida Markaziy Osiyodagi mahalliy jamoalar hayotiga ta’sir qilgan ko‘chmanchilikka xos madaniy jarayonlarni izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абаев В.И. К вопросу о прародине и древнейших миграциях индоиранских народов // Древний Восток и античный мир. – М., 1972. – С. 255.

2. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993. – С. 77-78.

3. Асқаров А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – 239 б.

4. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. – М.; Л., 1952. – 186 с.

5. Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 77-85.

6. Грязнов М.П. Племена Сибири и Казахстана в эпоху бронзы // Очерки истории СССР. – М., 1956. – С. 68-78.

7. Джураев И.Н. Ўзбек халқи этногенезининг илк босқичи. – Гулистон: Зиё нашр-матбаа нашриёти, 2021. – 168 б.

8. Кузьмина Е.Е. О южных пределах распространения степных племён культур эпохи бронзы в Средней Азии // Памятники каменного и бронзового веков Евразии. – М., 1963. – С. 182.

9. Литвинский Б.А. Изучение памятников эпохи бронзы и раннего железа в Кайраккумах в 1956 г. // Труды АН Таджикской ССР. – Т. XCI. – Душанбе, 1959. – С. 39-51.

10. Массон В.М. Джейтун и Кара-Деле. Предварительные сообщения о работах 1955 г. И СА, 1957. №1. - С. 144-146.

10. Массон В.М. Земледельческий неолит юго-запада Средней Азии // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М.; Л.: Наука, 1966. – С. 90-91.

11. Массон В.М. Поселение Джейтун // Материалы и исследования по археологии СССР (МИА). – № 180. – Л.: Наука, 1971. – С. 105.

12. Оболдуева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области // Краткие сообщения Института истории материальной культуры (КСИИМК). – Вып. 59. – М., 1955. – С. 145-147.

13. Сагдуллаев А.С., Холматов Н.У., Абдуллаев У.И., Матякубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тогаев Ж.Э., Маткаримов Х.О., Юсупов А.Ш. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари: монография. – Тошкент: Университет, 2020. – 236 б.

3-MAVZU: ILK TEMIR VA ANTIK DAVRDA MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

Reja:

1. Markaziy Osiyoning ilk temir va antik davr etnogeografiyasiga doir manbalar va ularning tavsifi.

2. Ilk temir davri manzilgohlari va ularning etnogeografiyasi masalalari.

3. Antik davrda Markaziy Osiyoning o‘troq va ko‘chmanchi jamoalari etnogeografiyasi.

O‘quv maqsadi: *talabalarda Markaziy Osiyoning qadimgi va antik davr etnogeografiyasi, o‘troq va ko‘chmanchi jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, manbalar tahlili hamda hududiy makon shakllanishining tarixiy jarayonlarini ilmiy asosda tushunish va izohlash ko‘nikmalarini shakllantirish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *“Avesta”, skiflar, massagetlar, sak-amirgiylar, ko‘chmanchi, o‘troq, sug‘orish, migratsiya, Kushonlar, Kangju, Usun, saklar.*

3.1. Markaziy Osiyoning qadimgi davr etnogeografiyasiga doir manbalar va ularning tavsifi.

Markaziy Osiyoning qadimgi davr etnogeografiyasiga oid ma’lumotlar hududning tarixiga doir qator manbalarda qayd etilgan. Ushbu manbalardagi ma’lumotlar aynan etnogeografiya sohasi

doirasida berilmagan. Lekin, ulardagi tarixiy geografik hamda etnografik qaydlar orqaliб qadimgi davr etnogeografiyasi haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishimiz mumkin.

Markaziy Osiyoning qadimgi davr boʻyicha eng qimmatli manbalaridan biri, shubhasiz, ***"Avesta"*** hisoblanadi. Zardushtiylik dini bilan shugʻullanuvchi olimlar va koʻplab avestoshunoslarning ta'kidlashicha, ushbu din hamda manbaning tarixiy vatani qadimgi Turon deb hisoblanishi, tobora tadqiqotlarda koʻproq aks etmoqda. Zero, "Avesta"da qayd etilgan koʻplab mifologik obrazlar, tarixiy-geografik nomlar bevosita qadimgi Turon oʻlkasiga, xususan, Xorazm, Quyi va Oʻrta Amudaryo hududlariga xosdir.

"Avesta" ning "Videvdot" kitobi I fragardida[2] Markaziy Osiyodagi bir necha geografik nomlar va ularda yashovchi qadimgi xalqlar haqida ma'lumot beriladi. Xususan, unda keltirilishicha, Axuramazda tomonidan odamlar uchun yaratilgan ilk (muqaddas) makon, Dayitiya daryosi boʻyidagi Aryanam-Vaejoʻ nomi bilan atalgan oʻlka boʻlib, bu yerning qishi oʻn oy, yozi esa ikki oygina boʻlishi, qisqa yoz faslida bu oʻlkaning suvi, havosi isib ulgurmaydi. "Yasht" kitobida esa Aryanam Vaejoʻ – ariylarning sayhon yerlari joylashgan hudud boʻlib, u yerda keng yaylovlar, baland togʻlar, daryo va chuqur koʻllar mavjudligi zikr etilgan.

"Avesta"dagi mamlakatlar roʻyxatlarida Sugʻdiyona va Xorazm nomlarining paydo boʻlishi ham etnogeografik jihatdan muhimdir. Ayrim tadqiqotchilar bu nomlar keyinchalik matnga kiritilgan deb hisoblasalarda, arxeologik va tarixiy manbalar Xorazm mintaqasining Amudaryoning quyi oqimida shakllangan etnomadaniy makon sifatida qadimiy ildizlarga ega ekanini koʻrsatadi. Biroq "Avesta"dagi Aryanam-Vayja tushunchasini bevosita Xorazm bilan bogʻlash masalasida ehtiyotkorlik zarur, chunki "Avesta" matnlarida sovuq va keskin iqlimli hududlar sifatida tasvirlangan mintaqalar koʻproq Sharqiy Orolboʻyi va shimoli dasht zonalariga mos keladi. Bu hududlar chorvador koʻchmanchi qabilalar yashagan keng makon boʻlib, "Avesta"dagi turoniylar va oriylar haqidagi tasavvurlar bilan bevosita bogʻlanadi.

[2] Fragard – qism.

“Avesta”da qayd etilgan, Axuramazda tomonidan tilga olingan ikkinchi go‘zal va farovon yurt Gava (Sug‘d) hisoblananib, ushbu o‘lkada asosan Sug‘dlar yashagan. Ushbu hududning aholisi asosan chorva bilan shug‘ullanganligi e’tiborga molikdir. Shuningdek, Axuramazda tomonidan yaratilgan uchinchi o‘lka Mouri (Marv shahri, Marg‘iyona viloyati), to‘rtinchisi Baxdi (Baqtra shahri, Baqtriya viloyati), beshinchisi esa, ushbu ikki shaharning o‘rtasidagi Nisayya (Niso shahri) yurti hisoblanadi.

“Avesta”da tilga olingan hududlar ichida Sug‘diyona, Baqtriya va Marg‘iyona alohida ahamiyatga ega. Bu mintaqalar qadimdan sug‘orma dehqonchilik, shahar madaniyati va savdo aloqalari rivojlangan hududlar bo‘lib, Markaziy Osiyoning o‘troq sivilizatsiya markazlari sifatida tanilgan. Shu bilan birga, ularga tutash dasht va cho‘l zonalarida ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jaligi ustun bo‘lgan. “Avesta” matnlarida ushbu ikki turdagi makon – o‘troq dehqonchilik hududlari va ko‘chmanchi yaylov zonalari – o‘zaro aloqador va bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat qadimgi Markaziy Osiyo etnik makonining murakkab va qatlamli tuzilishini ko‘rsatadi.

“Avesta” matnlari qadimgi jamiyatlarning makon bilan bog‘liq tasavvurlarini, turmush tarzi va xo‘jalik shakllarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Masalan, matnlarda o‘troq dehqonchilik hududlari muqaddaslik, barqarorlik va tartib timsoli sifatida tasvirlansa, keng dasht va cho‘l zonalari ko‘proq ko‘chmanchi hayot tarzi, harakatchanlik va tabiiy sharoitga moslashuv bilan bog‘lanadi. Bu qarama-qarshi, ammo o‘zaro bog‘liq makon turlari Markaziy Osiyo etnik makonining asosiy tuzilmasini tashkil etgan.

Shuningdek, “Avesta” matnlarida savdo yo‘llari, daryo vodiylari va o‘tish yo‘llarining ahamiyati ham bilvosita aks etadi. Bu hududlar turli etnik guruhlar, xo‘jalik tiplari va madaniy an’analar o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlagan. Natijada Markaziy Osiyo qadimdan o‘troq dehqonchilik madaniyati bilan ko‘chmanchi chorvachilik madaniyati tutashgan, bir-birini boyitgan va murakkab etnomadaniy makon shakllangan hudud sifatida namoyon bo‘ladi.

“Avesta”da keltirilgan etnik nomlarning asosiysi ariylar hisoblanib, ular haqida “Yasht” kitobida quyidagicha ta’rif beriladi, “*u*

mamlakatning jasur sardorlari koʻpdan-koʻp harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob togʻlarida chorva tinch oʻtlov va yemish bilan ta'minlangan". Ushbu ma'lumotlardan bilib olish mumkinki, aholining asosiy mashgʻuloti chorvachilik boʻlib, Axuramazda yaratgan hamma narsaning ichida birinchi oʻrinda chorva turadi.

Markaziy Osiyoning qadimgi davr tarixiy geografiyasi va aholisi haqida qimmatli ma'lumot beruvchi turkum manbalardan yana biri ***qadimgi fors bitiktoshlari*** boʻlib, ushbu epigrafik manbalardan eng ma'lumotlarga boyi Behustun yozuvlari hisoblanadi. Ushbu manba Doro I davrida boʻlib oʻtgan Margʻiyonadagi qoʻzgʻolonni yoritishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu bitiktoshda Margʻiyona oʻlkasi oʻzining rivojlangan chorvachilik va dehqonchiligi, xususan, uzum yetishtirishda mirishkor boʻlganligi qayd etiladi. Shuningdek, ushbu qoʻzgʻolongacha hudud siyosiy mustaqil boʻlib, Partava, Sugʻd, Xorazm, Baqtriya kabi tarixiy oʻlkalar bilan bir qatorda sanalib, Girkaniya[3] bilan chegaradosh hisoblangan.

Persepol yozuvlari – shoh Doro I va Kserks I davrida qurilgan poytaxt Persepolning saroy devorlariga oʻyib ishlangan epigrafik yodgorlik hisoblanadi. Ushbu manbada Markaziy Osiyo hududi va aholisiga oid bir qator qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Xususan, ushbu manbada Doro I tomonidan aytilgan quyidagi jumlalar uchraydi "Ahuramazda irodasi bilan men mana bu viloyatlarning ustidan fors xalqining kuchi bilan hukmronlik qildim, ular mendan qoʻrqardilar va menga oʻlpon keltirardilar: Suziyana, Midiya, Armaniston, Sparda, qit'adagi va dengizdagi yunonlar va quyosh chiqishidagi viloyatlar sagartiylar, Partava, zariaklar (drangiyonlar), Ariya, Baqtriya, Sugʻdiyona, Xorazmiya, sattagidlar, Arahobiya, Hindiston, Gandxariya, saklar". Shuningdek, ushbu hududlar va ulardagi aholi guruhlarining tobeligi Kserks davrida ham davom etib, Midiya, Suziyona, Arahosiya, Armaniston, Drangʻiyona, Partava, Ariya, Baqtriya, Sugʻdiyona, Xorazm... dahlar, Xaumavarga saklari, uchi oʻtkir qalpoqli saklar unga boʻysunganligiga alohida urgʻu berib oʻtadi.

[3] Girkaniya - Shimoliy Eron, Kaspiy dengizidan janubi-sharqdagi oʻlka.

Eronning Hamadon shahri yaqinidan topilgan kumush pilikchadagi yozuv ham yuqorida nomi keltirilgan hududlar Doro I tomonidan boysundirilganligini tasdiqlaydi. Xususan, unda keltirilishicha, Sug‘diyona ortidagi saklar o‘lkasidan to Nubiyagacha va Hindistondan to Sardgacha Doro I tasarrufidagi hududlar hisoblangan. Shuningdek, Doro I ning qabri hisoblangan Naqshi Rustam qabristoni devorining ichiga o‘yib yozilgan matnlar ham yuqoridagi geografik nomlarning Ahamoniylarga tegishli ekanligiga ishora qiladi. Jumladan, Naqshi Rustamda yozilishicha, Midiya, Suziyana, Partava, Ariya, Baqtriya, Sug‘diyona, Araxoziya, sattagidlar, Gandhariyalar, hindlar, sak-amirgiylar, o‘qchi saklar, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Kappadokiya, Sparda, Ioniya, dengizorti saklari, skudrlar, chambar taqib yuruvchi yunonlar, pontliklar, kossaklar, matsiyalar, kolxlar faqatgina forslarning qonunlariga bo‘ysungan.

Markaziy Osiyoning qadimgi va antik davr tarixini o‘rganishda qadimgi yunon-rim manbalari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi yunon-rim mualliflarining Markaziy Osiyo tarixiga doir maxsus asarlari yoki hududga nisbatan “Markaziy Osiyo” deb nomlangan tarixiy-geografik tushunchasi bo‘lmasa-da, ular Kaspiy dengizi sharqi hamda Sharqiy Eron hududlariga doir ma’lumotlarda mintaqa etnogeografiyasi haqida ma’lumot olish mumkin. Bundan tashqari, yunon-rim mualliflari ma’lumotlar ishonchliligi jihatidan turlicha bo‘lgan manbalarga tayangan, chunki tasvirlangan voqealar bilan ular yozib olingan davr oralig‘i ko‘pincha ancha katta farq bilan ajralib turadi. Aynan shu holat antik mualliflar asarlarida Markaziy Osiyoga oid ma’lumotlarning noaniqligi ko‘p uchrashining asosiy sababi bo‘lib qolmoqda. Aksariyat hollarda bir xil voqealar yoki ularda ishtirok etgan shaxslarning faoliyati manbalarda turlicha yoritilgan. Daryolar, tog‘lar, shaharlar va qishloqlar nomi hamda ularning geografik joylashuvini aniqlash qiyinchilik tug‘diradi va ayrim hollarda bu masalalar hozirgacha noaniqligicha qolmoqda. Antik mualliflar tasvirida real tarixiy voqealar ko‘pincha afsonaviy yoki yarim afsonaviy unsurlar bilan aralashib ketgan bo‘ladi.

Markaziy Osiyoning ilk temir va antik davri tarixini o‘rganishda Gerodotning “Tarix” asari muhim manbalardan biri bo‘lib, u garchi

Markaziy Osiyoda boʻmagan boʻlsa-da, kavkazliklardan Kaspiy dengizi sharqidagi aholi haqida doimiy ma'lumotlar olishga harakat qilgan. Gerodotning asarida hududdagi asosiy aholi sak (skif) va massagetlar boʻlib, ular Kaspiyorti va Orolboʻyi togʻ va vodiylarida yashagan koʻchmanchi qabilalar hisoblangan. Shuningdek, sak-amirgiylar (forscha "saka-xaumavarga" – ya'ni xaoma tayyorlovchi yoki unga e'tiqod qiluvchi saklar) Murgʻob daryosi vodiysida yashagan va qadimiy manbalarda, xususan, Doro I yozuvlarida eslatib oʻtilgan. Doro hukmronligi oxirlariga kelib, ular "dahlar" yoki "daya" nomlari bilan atalgan. Amirgiy saklari – janubi-sharqiy yoʻnalishda, asosan, Baqtriya va Hindiston bilan aloqador boʻlgan sak qabilalari ittifoqining yirik vakillari sanaladi. Xorazm bilan bogʻliq boʻlgan shimoli-sharqiy ittifoq esa tigraxauda saklari (ya'ni, "oʻtkir uchli qalpoq kiygan saklar") yoki ortokaribantiy massagetlari deb atalgan. Manbalarga koʻra, ilk temir davrlarda massagetlar Amudaryo va Sirdaryo oraligʻidagi, Sugʻd va Xorazm bilan tutash boʻlgan hududlarni egallab yashaganlar.

Markaziy Osiyo haqidagi geografik bilimlarning yangi bosqichi Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari bilan bogʻliq boʻlib, bu jarayon mintaqaning janubi togʻ tizimlari, yirik daryolari, ularning manbalari va yoʻnalishlari haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada kengaytirdi. Shu bilan birga, bu davr ayrim notoʻgʻri qarashlarning ham ilmiy adabiyotda mustahkamlanishiga olib keldi. Jumladan, Yaksart (Sirdaryo)ning Tanais bilan birlashtirilishi yoki uning Kaspiy dengiziga quyilishi haqidagi qarashlar shular jumlasidandir. Bu notoʻgʻri tasavvurlar uzoq vaqt davomida ilmiy an'anada saqlanib qolgan (Б.И.Вайнберг, 1999).

Yunon mualliflari e'tiborini Markaziy Osiyoning ikki yirik daryosi – Amudaryo va Sirdaryo alohida tortgan. Gerodot Amudaryoni Araks deb atagan boʻlsa-da, bu nom Kavkazdagi Araks daryosi bilan chalkashtirilgan. I.V.Pyankov tomonidan oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, qadimgi mualliflar tomonidan tilga olingan Araksning ayrim tavsiflari aslida Oʻzboy oʻzaniga mos keladi. Oʻzboy oʻzani qadimgi davrlarda Kaspiy dengiziga suv quyilgan boʻlib, uning deltasi hududida miloddan avvalgi V asrdan boshlab doimiy aholi manzillari shakllangan. Behistun bitiklaridagi ma'lumotlar ham Doro I tomonidan

kesib o‘tilgan Araks daryosining massagetlar yashagan hududlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatib, uni O‘zboy bilan qiyoslash imkonini beradi (Б.И.Вайнберг, 1999).

Yunon mualliflari asarlarida, Emba va Yaksartning birlashtirilishi Markaziy Osiyoning sharqiy, shimoli-sharqiy va shimoli mintaqalarida ko‘chmanchi qabilalar yashagan hududlar haqidagi umumiy tasavvurlar doirasida muhim hisoblanadi. Strabon uchun Yaksart “bu daryolarning eng shimolisi” bo‘lib, u saklarni sug‘diylardan ajratib turuvchi tabiiy chegara sifatida tasvirlanadi. Pliniy esa Yaksartdan narida skif xalqlari yashaganini va forslar ularni eng yaqin xalq nomi bilan saklar deb ataganini qayd etadi (Б.И.Вайнберг, 1999). Aynan Markaziy Osiyo ko‘chmanchilari haqidagi ma’lumotlar kontekstida Pliniy shunday yozadi: boshqa mintaqalar haqida gap ketganda, yozuvchilar o‘rtasida katta kelishmovchiliklar mavjud, chunki u yerda yashovchi qabilalar son-sanoqsiz va ko‘chmanchi hayot kechiradilar. Arrian ham Kaspiy dengizini tasvirlab, skiflar yeri orqali Yaksart bu dengizga quyilishini ta’kidlaydi. Emba mintaqasi etnografik ma’lumotlarga ko‘ra, an’anaviy ravishda O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalari uchun aholi manzili, ko‘pincha yozgi yaylov bo‘lib xizmat qilgan.

Markaziy Osiyoning shimoli hududlari haqidagi umumiy geografik tasavvurlar qadimgi ***Xitoy yilnomalarida*** parcha-parcha, ba’zan esa bilvosita shaklda aks etgan. Xitoyliklarning Markaziy Osiyo bilan muntazam tanishuvi miloddan avvalgi II asrda, imperator Vu davrida G‘arbga yuborilgan elchi Chjan Syan faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, aynan shu davrdan boshlab Xitoy tarixiy an’analarida Farg‘ona, Kangju, Usun va boshqa mintaqalar haqida nisbatan barqaror ma’lumotlar paydo bo‘la boshlaydi. Biroq bu bilimlar asosan harbiy yurishlar ishtirokchilari, savdogarlar va diplomatik elchiliklardan kelgan xabarlar asosida shakllangan bo‘lib, ular rasmiy yilnomalarda bir-biriga ko‘chirilgan holda qayta ishlangan. Natijada, keyingi asrlarda tuzilgan tarixiy asarlar avvalgi manbalarga tayanib, voqealar va geografik tasvirlarni o‘z davri sharoitlariga moslab “yangilab” yuborgan, bu esa ayrim hollarda aniq hududlar bilan bog‘liq chalkashliklarga sabab bo‘lgan.

Masalan, milodiy I asrning birinchi yarmida tuzilgan “Keyingi Xan sulolasi tarixi” (“Xou Xan Shu”) asosan undan oldingi davrga oid materiallarga tayangan. Shimol va g‘arbda Xitoy doimiy ravishda ko‘chmanchi qabilalar yashaydigan, siyosiy jihatdan barqaror bo‘lmagan hududlar bilan chegaradosh bo‘lgani uchun, u yerlarga oid ma’lumotlar tez-tez o‘zgarib turgan. Natijada, ayrim mulk yoki hudud nomlari butunlay boshqa mintaqalarga ko‘chirilgan yoki bir-biriga o‘xshash belgilar asosida umumlashtirib yuborilgan. Masalan, Kangju va Kan kabi atamalar turli davrlarda turlicha mazmunda ishlatilgan bo‘lib, ularning aniq etnik yoki geografik chegaralarini belgilash doimo oson bo‘lmagan.

Xitoy yilnomalaridagi xaritalar ham bu holatni tasdiqlaydi. Ilk Xan sulolasi davriga oid xaritalarda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston mintaqasining sharqiy qismi nisbatan aniqroq aks ettirilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda muhim bo‘lgan ayrim tabiiy obyektlar, masalan, Orol dengizi yoki Sirdaryo daryosi umuman ko‘rsatilmagan. Shu bilan birga, Issiqko‘l atrofidagi gidrografik tizim, xususan, Chu daryosining ko‘lga quyilishi va undan oqib chiqishi ancha realistik tarzda tasvirlangan. Bu daryoning shimoli qirg‘oqlarida Kangju davlatiga qarashli beshta kichik mulk (“zan”) qayd etilib, Kangju yerlari esa undan ham shimol va shimoli-sharqqa cho‘zilgan hudud sifatida berilgan. Bu tasvirlar Xitoy mualliflarining Markaziy Osiyoning janubi-sharqiy chekkalari haqida ancha aniqroq tasavvurga ega bo‘lganini, shimoli va shimoli-g‘arbiy hududlar esa ular uchun noaniqroq bo‘lib qolganini ko‘rsatadi.

Bu manbalarning umumiy xususiyati shundan iboratki, Xitoy yilnomalarida Markaziy Osiyoning shimoli hududlari haqida berilgan ma’lumotlar asosan bilvosita bo‘lib, ular ko‘proq siyosiy voqealar yoki savdo yo‘llari bilan bog‘liq kontekstda uchraydi. Geografik tasvirlar esa, odatda, Xitoy uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hududlargagina nisbatan aniqroq bo‘ladi. Shu sababli, Orolbo‘yi, Qozog‘iston dashtlari yoki Uraloldi mintaqalari kabi hududlar Xitoy mualliflari tasavvurida ko‘pincha umumiy, noaniq “shimoli o‘lkalar” sifatida aks etgan.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, Xitoy yilnomalarida uchraydigan ko‘plab mulk va hudud nomlari etnik mazmunni bevosita aks ettirmaydi. Ular ko‘pincha siyosiy birliklar yoki ma’muriy

hududlarni bildirgan boʻlib, u yerlarda yashagan aholining etnik tarkibi haqida toʻliq tasavvur bermaydi. Masalan, Kangju atamasi ayrim tadqiqotchilar tomonidan muayyan etnik guruh bilan bogʻlansa-da, Xitoy manbalarida u koʻproq siyosiy-mintaqaviy birlik sifatida ishlatilgan (Б.И.Вайнберг, 1999). Shu sababli, ularni Markaziy Osiyoning shimoli hududlari etnogeografiyasini oʻrganishda asosiy manba sifatida emas, balki boshqa turdagi manbalar bilan birgalikda tahlil qilinadigan muhim qoʻshimcha manba sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

3.2. Ilk temir davri manzilgohlari va ularning etnogeografiya-si masalalari

Ilk temir davri Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-iqtisodiy va xoʻjalik tizimi va etnik makon shakllanishining muhim bosqichi sifatida namoyon boʻladi. Bu davrda aholining joylashuvi, manzilgohlar tarmogʻi hamda tabiiy resurslardan foydalanish masalalari oʻrtasidagi murakkab bogʻliqlik etnogeografik jihatdan yangi hududiy birliklarning vujudga kelishiga olib kelgan. Arxeologik maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, bronza davrining oxiri va ilk temir davriga oʻtish jarayonida aholi joylashuvi tasodifiy yoki tartibsiz tusga ega boʻlmagan, balki tabiiy-geografik omillar, irrigatsiya tizimi, xoʻjalik ehtiyojlari va ijtimoiy aloqalar bilan uzviy bogʻliq holda shakllangan. Shu bois ilk temir davri manzilgohlarini faqat yodgorliklar majmuyi sifatida emas, balki etnik makonning moddiy ifodasi sifatida talqin etish ilmiy jihatdan muhimdir.

Surxon vohasi va unga tutash hududlar ushbu jarayonlarni yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Arxeologik kuzatuvlarga koʻra, bu mintaqada bronza va ilk temir davri manzilgohlari asosan togʻ oldi mintaqalari hamda kichik daryolar havzalari boʻylab joylashgan boʻlib, ularning hududiy tizimi tabiiy suv manbalari bilan bevosita bogʻliq boʻlgan. Bu holat etnogeografik nuqtayi nazardan aholining ekologik moslashuvchanligini aks ettiradi: dehqonchilik uchun qulay boʻlgan allyuvial va proallyuvial tekisliklar, sugʻorishga yaroqli tuproqlar hamda chorvachilik uchun qulay yaylovlar ijtimoiy makonning asosiy tayanch nuqtalariga aylangan. Xususan, Koʻhitang-Boysun togʻ

etaklarida shakllangan vohalar hududiy jihatdan janubi-gʻarbda choʻl zonalari, shimoli-gʻarbda esa daryo vodiylari bilan tutashib, murakkab landshaft sharoitida xoʻjalik faoliyatining koʻp tarmoqli tizimini yuzaga keltiradi (А.С.Сагдуллаев, Н.У.Холматов, У.И.Абдуллаев.., 2020).

Ilk temir davriga oʻtish bosqichiga mansub manzilgohlarning son jihatdan koʻpayishi hamda hududiy tarqalishining kengayishi Surxon havzasida demografik oʻsish, sugʻorish texnologiyalarining rivojlanishi va xoʻjalik tizimining murakkablashuvi bilan izohlanadi. Arxeologik materiallar bu davrda alohida kichik vohalar tizimining shakllanganini koʻrsatadi. Ular orasida Ulonbuloqsoy, Sherobod, Qorabogʻ, Maydon, Zarabogʻ, Bandixon, Mirshodi hamda Vaxshuvor (yoki Sangardak-Toʻpalang) havzalari alohida ajralib turadi. Ushbu hududlarda qayd etilgan Kichuktepa, Jarqoʻton, Gʻazaqoʻton, Burguttepa, Qayrit majmuasi, Bandixon I, Qiziltepa, Buyrachi I va II, Nomsiztepa, Sartepa kabi yodgorliklar manzilgohlar tarmogʻining murakkabligini va ularning irrigatsiya tizimlari bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatadi (А.С.Сагдуллаев, Н.У.Холматов, У.И.Абдуллаев.., 2020). Bu jarayonni etnogeografik jihatdan tahlil qilganda, aholining tabiiy resurslar bilan moslashuvchan munosabati, suvga bogʻliq xoʻjalik faoliyati yoʻnalishi hamda hududiy identiklikning shakllanishi muhim rol oʻynaganini koʻrish mumkin.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik oʻrtalariga kelib, manzilgohlarning tog‘ yonbagʻirlari va soy boʻylaridan asta-sekin daryo asosiy oʻzanlariga tomon siljishi kuzatiladi. Bu holat sugʻorish texnologiyalarining takomillashuvi va yirik sugʻorish inshootlarining paydo boʻlishi bilan bogʻliq boʻlib, aholi joylashuvi hududiy jihatdan yangi imkoniyatlarga ega boʻldi. Ayniqsa, Yunon-Baqtriya davridan boshlab katta sun’iy kanallar qurilishi Surxon vohasida irrigatsion tizimning tubdan oʻzgarishiga sabab boʻlgan. Ushbu jarayon aholi turmush tarzi, xoʻjalik faoliyati va ijtimoiy aloqalar tizimining makon bilan yanada murakkab integratsiyasini yuzaga keltirgan.

Janubi Tojikiston hududlari, xususan, Kofirnihon, Vaxsh va Panj havzalari ham ilk temir davrida oʻziga xos etnogeografik makon sifatida shakllangan. Bu hududlarda chorvachilik yetakchi xoʻjalik sohasi sifatida uzoq vaqt davomida saqlanib qolgan boʻlsa-da, miloddan

avvalgi VII–IV asrlarga kelib o‘troq dehqonchilik manzilgohlarining ham shakllana boshlagani kuzatiladi. Qal’ai Mir, Boldaytepa kabi yodgorliklar ushbu jarayonning muhim yodgorliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hududlarda manzilgohlarning daryo vodiylari bo‘ylab joylashishi, sug‘orish tizimlariga moslashuvi hamda yaylov resurslaridan foydalanish tizimi aholining iqtisodiy-madaniy rivojlanishini belgilab bergan. Shu tariqa, Janubi Tojikiston hududlari bronza davriga xos ko‘chmanchi chorvadorlik va ilk temir davrida shakllangan o‘troq dehqonchilik tizimlari o‘rtasidagi murakkab o‘tish makoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Shimoliy Afg‘oniston, xususan, Balxob vohasi ham ilk temir davrining etnogeografik manzarasini o‘rganishda muhim hududlardan biridir. Arxeologik izlanishlar natijasida bu yerda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmiga mansub ko‘plab yodgorliklar aniqlangan bo‘lib, ularning katta qismi Ahamoniylar davri bilan bog‘lanadi. Shibirg‘on, Dashtli, Faruxobod, Kutili va Naibobod kabi dehqonchilik vohalarining ajratilishi hududiy xo‘jalik makonining murakkab tuzilishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Dashtli vohasining yirik sug‘orish tizimlar bilan bog‘liq holda rivojlanishi bu hududda dehqonchilik madaniyatining intensiv tus olganidan dalolat beradi(Сагдуллаев А.С., Холматов Н.У., Абдуллаев У.И..., 2020). Balxobning quyi oqimida joylashgan yerlarning bronza davridayoq o‘zlashtirilganligi esa hududiy barqarorlik va xo‘jalik an’analarining davomiyligini ko‘rsatadi.

Quyi Murg‘ob hududlari esa ilk temir davrida o‘ziga xos dehqonchilik xo‘jaligiga ega tarixiy madaniy hudud sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hududda aniqlangan Yoz I, II, III davriga mansub yodgorliklar mintaqada qadimgi Marg‘iyona madaniyatining rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Toxirboy, Yoztepa va Aravalitepa guruhlari doirasida joylashgan manzilgohlar suv manbalari bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, ularning hududiy tuzilishi sug‘orish imkoniyatlariga mos ravishda rivojlangan. Yoztepa vohasining Murg‘ob daryosining Gati Akar o‘zani bilan bog‘lanishi, Janubi va Shimoli Uchtepalar, shuningdek, Adam-basan hududlaridagi manzilgohlarning zichligi bu hududda dehqonchilik va sug‘orish tizimlarining yuqori

darajada rivojlanganini koʻrsatadi(А.С.Сагдуллаев, Н.У.Холматов, У.И.Абдуллаев.., 2020). Miloddan avvalgi V–IV asrlarga kelib ayrim manzilgohlarning tashlab ketilishi esa sugʻorma dehqonchilik vohalarining hududiy chegaralari oʻzgarishi, sugʻorish tarmoqlarining qayta tashkil etilishi bilan bogʻliq boʻlib, bu jarayon aholining hududiy harakatchanligi va xoʻjalik moslashuvchanligini aks ettiradi.

Qashqadaryo vohasi ham bronza davrining oxiri va ilk temir davrida murakkab etnogeografik makon sifatida shakllangan hududlardan biridir. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik oxiri – birinchi ming yillik boshlariga kelib, Qashqadaryoning sharqiy va quyi qismlarida dehqonchilik xoʻjaligi rivoj topadi hamda Shoʻrobsoy, Tanxosdaryo, Qizildaryo va Yerqoʻrgʻon kabi xoʻjalik-madaniy manzilgohlar shakllanadi. Ushbu vohalarning Surxondaryo va Amudaryo tomon yoʻnalgan savdo va aloqa yoʻllari boʻylab joylashgani hududning mintaqaviy bogʻliqligini namoyon qiladi. Arxeologik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Qashqadaryo vohasida aholi tomonidan oʻzlashtirilgan ikki asosiy hududiy zona shakllangan boʻlib, ular orasida uzoq vaqt davomida xoʻjalik jihatdan faol foydalanilmagan hududlar mavjud boʻlgan. Bu holat aholi joylashuvining notekisligi, sugʻorish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

Zarafshon vohasi esa ilk temir davrida yirik dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri sifatida shakllangan. Afrosiyob, Koʻktepa, Xoʻja Boʻston, Kuzmantepa, Chordara va Qumrabodtepa kabi yodgorliklarning aniqlanishi bu hududda sugʻorma dehqonchilikning barqaror tizimi vujudga kelganini koʻrsatadi. Afrosiyob atrofida aniqlangan qadimgi uy-qoʻrgʻonlar Sugʻd aholisi uzoq vaqt davomida alohida turar joy majmualarida istiqomat qilganini va ularning xoʻjalik makoni kichik dehqonchilik vohalari bilan uzviy bogʻliq boʻlganini tasdiqlaydi. Togʻ etaklaridagi soylar boʻyicha qazilgan irrigatsion kanallar, daryolarning quyi oqimlarida tashkil etilgan sun’iy sugʻorish tizimlari Zarafshon vohasida etnogeografik makonning suv resurslariga moslashuv asosida shakllanganini koʻrsatadi.

Umuman olganda, ilk temir davrida Markaziy Osiyo hududlarida aholi joylashuvi suv manbalarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan bevosita belgilanadi. Togʻ etaklaridagi buloqlar va

soylar boʻyicha joylashgan manzilgohlar, togʻ oldi vohalaridagi kichik xoʻjalik markazlari, yirik daryolarning quyi oqimidagi zich aholi joylashuvi hududiy tuzilmaning asosiy shakllarini tashkil etgan. Bu hududiy jihat sugʻorish imkoniyatlari, tuproq unumdorligi, yaylov resurslari va iqlim sharoitlari bilan uygʻunlashgan holda shakllangan boʻlib, etnik makonning tabiiy sharoitga moslashuvchan birligini ifodalaydi.

Ilk temir davrida hududiy makonning oʻzlashtirilish darajasi turlicha boʻlgan. Masalan, Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida sugʻorma dehqonchilik makonlari nisbatan kompakt zonalarda jamlangan boʻlsa, Quyi Murgʻob, Balxob va Panj havzalarida aholi zichroq joylashgan, sugʻorish tizimlari esa kengroq hududlarni qamrab olgan. Bu farqlar hududiy tabiiy sharoit, suv resurslari mavjudligi va xoʻjalik tizimlarining xilma-xilligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, antropogen landshaftning kengayib borishi natijasida dehqonchilik vohalari oʻrtasidagi masofaning qisqarishi, sugʻorish tizimlarining murakkablashuvi va hududiy hamkorlikning kuchayishi kuzatiladi.

Ilk temir davri manzilgohlarini etnogeografik nuqtayi nazardan talqin qilish ularni alohida yodgorliklar majmuyi sifatida emas, balki hududiy xoʻjalik tizimlari, ekologik moslashuvchanligi va etnik makon shakllanishining moddiy ifodasi sifatida koʻrishga imkon beradi. Bu jarayonda sugʻorish inshootlari, suv manbalari, yaylov zonalari va savdo yoʻllari hududiy tashkilotning asosiy tizimini belgilagan. Shu bois ilk temir davri manzilgohlari Markaziy Osiyoda etnik makonning tarixiy shakllanish jarayonini qayta tiklashda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bronza davrining oxiri va ilk temir davrida Markaziy Osiyo hududlarida manzilgohlar tarmogʻining shakllanishi tabiiy-geografik sharoitlar, sugʻorish imkoniyatlari va xoʻjalik ehtiyojlari bilan uzviy bogʻliq boʻlgan murakkab etnogeografik jarayon sifatida namoyon boʻladi. Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon, Quyi Murgʻob, Balxob, Kofirnigon, Vaxsh va Panj havzalarida shakllangan sugʻorish vohalar tizimi hududiy makonning antropogen xususiyatini aks ettiradi hamda aholining ekologik muhitga moslashuvchan

taraqqiyotini ifodalaydi. Ilk temir davri manzilgohlari shu tariqa nafaqat arxeologik obyektlar majmuyi, balki etnik makon shakllanishining tarixiy-hududiy modeli sifatida talqin qilinishi lozim bo‘lgan murakkab ilmiy fenomen hisoblanadi.

3.3. Antik davrda Markaziy Osiyoning o‘troq va ko‘chmanchi jamoalari etnogeografiyasi.

Antik davrda Markaziy Osiyo etnogeografik jihatdan o‘ziga xos mintaqa edi. Xususan, hudud shimoldan janubga tomon keng dasht va yarim cho‘l zonalaridan tog‘ tizmalari hamda daryo vodiylarigacha cho‘zilgan rang-barang landshaftlarni qamrab olgan bo‘lib, bu tabiiy xilma-xillik mintaqaning xo‘jalik va etnomadaniy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bergan. Balxash ko‘li havzasi, Yettisuv mintaqasi va Janubi Qozog‘iston dashtlari chorvachilik uchun qulay yaylovlar vazifasini bajargan bo‘lsa, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon vodiylari sug‘orma dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanishiga imkon yaratgan. Ana shu geografik zonalarning farqlanishi xo‘jalik turlarining ixtisoslashuviga olib kelib, dasht va tog‘ oldi hududlarida ko‘chmanchi chorvachilik ustun bo‘lgan, daryo vodiylari va vohalarda esa o‘troq dehqonchilik hamda shahar madaniyati qaror topgan. Natijada Markaziy Osiyo jamiyatlari bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqadorlikda rivojlangan: chorvadorlar shahar aholisini go‘sht, sut va chorva mahsulotlari bilan ta’minlagan bo‘lsa, dehqonlar ko‘chmanchilarga don, hunarmandchilik buyumlari va savdo mahsulotlarini yetkazib bergan.

Mazkur iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik siyosiy munosabatlarda ham o‘z ifodasini topib, ko‘chmanchi davlatlar ko‘pincha shahar va vohalarni harbiy-siyosiy nazorat ostiga olishga intilgan, o‘troq davlatlar esa savdo yo‘llarini himoyalash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash orqali o‘z mavqeyini mustahkamlashga harakat qilgan. Shu tariqa Markaziy Osiyo antik davrda doimiy harakatdagi, dinamik etnik-siyosiy makon sifatida shakllangan.

Aynan shu tabiiy-geografik va xo‘jalik uyg‘unligi zaminida miloddan avvalgi IV–III asrlarda Markaziy Osiyoning asosiy tarixiy-geografik yadrosi Baqiriya (Balx vohasi), Sug‘diyona (Zarafshon vodiysi), Marg‘iyona (Murg‘ob vohasi), Aria (Hirot atrofi), Drag‘iyona va Araxosiya kabi yirik sug‘orma dehqonchilik hududlarida tarkib topgan. Bu vohalarda o‘troq dehqonchilik, rivojlangan shahar madaniyati, hunarmandchilik va savdo aloqalari asosida mustahkam iqtisodiy hamda madaniy tizim shakllanib, aholi umumiy diniy qarashlar, marosimlar, xo‘jalik an’analari va til birliklari orqali o‘zaro yaqin etnik-madaniy muhitni vujudga keltirgan.

Miloddan avvalgi IV asr oxirida Aleksandr Makedonskiy yurishlari Markaziy Osiyo tarixiy-geografik makoniga keskin o‘zgarishlar olib kirdi. Bu davrda Baqtriya, Sug‘diyona va Marg‘iyona hududlariga yunon-makedon harbiy kuchlari kirib kelib, yangi shaharlar, qal’alar va harbiy istehkomlar barpo etdilar. Ellinistik davrda ushbu hududlar siyosiy jihatdan yirik davlat tizimlariga qo‘shilib, O‘rta yer dengizi dunyosi bilan bevosita aloqalarga kirishdi. Natijada Markaziy Osiyoning etnogeografik makonida yangi madaniy qatlam shakllandi.

Ellinistik ta’sir, avvalo, shaharsozlik, me’morchilik, harbiy qurilish, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va yozuv madaniyatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Yunon madaniyati an’analari asosida qurilgan shaharlar mahalliy voha markazlarining iqtisodiy va siyosiy rolini kuchaytirdi. Shu bilan birga, ellinistik davrda yunon tili diplomatik, savdo va ma’muriy aloqa vositasi sifatida keng qo‘llanila boshladi. Biroq bu jarayon mahalliy madaniyatni to‘liq siqib chiqarmadi. Aksincha, yunon va mahalliy eroniy an’analar sintezi asosida o‘ziga xos yunon-baqtriya madaniy muhiti shakllandi.

Etnogeografik jihatdan qaraganda, ellinistik davr Markaziy Osiyo jamiyatining ichki tuzilishini murakkablashtirdi. Yunon aholisi asosan shahar markazlari va harbiy qal’alarda joylashgan bo‘lsa, mahalliy aholi vohalarda o‘zining an’anaviy xo‘jalik faoliyatini davom ettirdi. Natijada hududiy makonda etnik qatlamlarning nisbiy farqlanishi yuzaga keldi: shaharlar ko‘p madaniyatli markazlarga aylansa, qishloq vohalarida mahalliy etnik asos ustunligicha qoldi.

Ellin madaniyatining mahalliy aholi tomonidan qabul qilinishi ham bir xilda bo‘lmagan. Ijtimoiy elita qatlamlari yunon madaniy

modelini tezroq oʻzlashtirgan boʻlsa, keng xalq ommasi koʻproq oʻzining anʼanaviy diniy va ijtimoiy qadriyatlariga sodiq qolgan. Shu sababli, Markaziy Osiyoda ellinistik madaniyat bilan mahalliy madaniyat oʻrtasida nafaqat sintez, balki muayyan darajada qarama-qarshilik ham mavjud boʻlgan. Bu holat mintaqaning etnik-madaniy rivojlanishini murakkab, lekin sermahsul jarayonga aylantirgan.

Miloddan avvalgi II–I asrlardan boshlab Markaziy Osiyo etnogeografik manzarasida koʻchmanchi guruhlarning roli keskin ortdi. Dasht va togʻ oldi hududlaridan saklar, keyinchalik yuechji, usun, kangju va boshqa koʻchmanchi jamoalar vohalarga tomon siljiy boshladi. Dastlab, ular harbiy kuch sifatida namoyon boʻlib, ayrim hududlarda siyosiy hukmronlikni qoʻlga kiritdilar, biroq voha aholisi toʻliq siqib chiqarilmadi. Aksincha, koʻchmanchi va oʻtroq jamiyatlarning uzluksiz aloqasi natijasida yangi etnik-madaniy uygʻunlik shakllandi.

Miloddan avvalgi II asr boshlarida Gansu koridoridan koʻchib kelgan usun qabilalari Ili vodiysi va Yettisuv hududida kuchli davlat tuzdilar. Chorvachilikka asoslangan xoʻjalik yuritib, otliq harbiy kuchlari bilan ajralib turgan usunlar togʻ oldi yaylovlari va keng dashtlardan samarali foydalangan holda, mintaqaning yetakchi siyosiy kuchlaridan biriga aylandilar. Xitoy manbalarida ularning tashqi qiyofasi och rangli sochli, koʻk yoki och rangli koʻzli yevropoid tipga mansub etnos sifatida tasvirlanib, bu ularning shimoli dasht mintaqalari bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Dastlab yuechjilar tomonidan tor-mor etilib, siongnu ittifoqi tarkibida yashagan boʻlsalar-da, keyinchalik usunlar mustaqil siyosiy kuch sifatida shakllandi (Л.А. Боровкова, 2008).

Usun davlati Fargʻona, Kangju va Sharqiy Turkiston hududlari oʻrtasida joylashib, savdo yoʻllari xavfsizligini taʼminlashda hamda mintaqadagi siyosiy muvozanatni saqlashda muhim vositachi vazifasini bajardi. Shu bilan birga, usunlar xilma-xil etnik tarkibga ega boʻlib, uning tarkibida saklar, yuechjilar va boshqa koʻchmanchi guruhlar mavjud edi. Bu holat Yettisuv hududining koʻchmanchi va oʻtroq madaniyatlar tutashgan muhim etnografik zona sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Miloddan avvalgi II asrda yuechji qabilalarining Baqtriyaga koʻchib kelishi esa, Markaziy Osiyo tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Ular mahalliy oʻtroq dehqonchilik madaniyati bilan sintez jarayoniga kirishib, keyinchalik Kushon podsholigining shakllanishiga zamin yaratdi. Kushon davlati Amudaryo va Hind daryosi oraligʻida yirik siyosiy birlik boʻlib, Markaziy Osiyoni Hindiston, Eron va Sharqiy Turkiston bilan bogʻlovchi asosiy savdo yoʻllarini nazorat qildi. Dastlab, chorvador boʻlgan yuechjilar Baqtriya hududida sugʻorma dehqonchilik, shaharsozlik va hunarmandchilikni rivojlantirib, koʻchmanchi jamiyatdan oʻtroq sivilizatsiyaga moslashgan noyob tarixiy misol sifatida namoyon boʻldi.

Milodiy I–III asrlarda Kushon davlati Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy va madaniy markaziga aylandi. Bu davrda buddizm, zardushtiylik va mahalliy diniy e’tiqodlar bir hududda yonma-yon mavjud boʻlib, madaniy sintez jarayonini tezlashtirdi. Kushon davlati inqirozga yuz tutgach, uning shimoli hududlarida yangi siyosiy birliklar paydo boʻlib, mintaqadagi etnogeografik jarayonlar navbatdagi bosqichga oʻtdi.

Kushonlar hukmronligi davrida Baqtriya, Sugʻdiyona, Margʻiyona va Hindistonning shimoli hududlari yagona siyosiy makonga birlashdi. Bu jarayon hududlararo savdo yoʻllarining, ayniqsa, Buyuk Ipak yoʻlining faoliyatini kuchaytirdi. Natijada Markaziy Osiyo nafaqat ichki etnik-madaniy almashinuv, balki Sharq va Gʻarb sivilizatsiyalari tutashgan makonga aylandi.

Kushonlar davrida shahar markazlari savdo, hunarmandchilik va diniy hayotning muhim oʻchoqlariga aylandi. Buddaviylik, zardushtiylik va ellinistik diniy an’analar yonma-yon mavjud boʻlib, diniy makonning koʻp qirrali boʻlishiga olib keldi. Bu holat Markaziy Osiyoda madaniy xilma-xilligining kuchayishini ta’minladi. Shu bilan birga, vohalarda qadimgi dehqonchilik asoslari, irrigatsiya tizimlari va ijtimoiy tuzilmalar saqlanib qolib, mintaqaning etnik yadrosi sifatida davom etdi.

Kushonlar davri Markaziy Osiyoning ichki hududiy birlashuvi kuchaygan bosqich sifatida baholanadi. Dasht zonalari, tog‘ oldi hududlari va vohalar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar mustahkamlanib,

chorvachilik mahsulotlari bilan dehqonchilik mahsulotlari almashinuvi kengaydi. Natijada turli xo‘jalik tiplari o‘rtasida muvozanat shakllandi, bu esa mintaqaning ijtimoiy barqarorligiga xizmat qildi. Ushbu jarayon etnik guruhlar o‘rtasidagi madaniy moslashuvni ham jadallashtirdi.

Shu davrda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlari, Toshkent vohasi hamda Janubi Qozog‘iston hududlarini qamrab olgan Kangju davlati Markaziy Osiyoning eng qudratli ko‘chmanchi siyosiy birliklaridan biri bo‘lib shakllandi. Xitoy manbalarida Kangju aholisi son jihatidan ko‘p bo‘lib, uning qo‘shinlari yuz minglab otliq jangchilardan iborat ekani qayd etiladi. Kangjuliklar chorvachilikka tayanar, biroq vohalarda sug‘orma dehqonchilikning mavjudligi uning xo‘jalik tizimida ko‘chmanchi va o‘troq elementlar uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

Kangju siyosiy jihatdan Yettisuvdagi Usun, Baqtriyadagi Kushon va Orolbo‘yi hududlaridagi Yansay (Alan) davlatlari bilan murakkab munosabatlar olib bordi (Л.А.Боровкова, 2008). Milodiy I–II asrlarda Kangju Yansay va unga tutash alan davlatlari ustidan siyosiy nazorat o‘rnatib, mintaqaning eng muhim geosiyosiy markaziga aylandi. Savdo yo‘llari ustidan nazorat iqtisodiy qudratni mustahkamladi, uzoq muddatli qo‘shnichilik esa Kangju aholisi va Yansay-Alan qabilalari o‘rtasida etnik aralashuv jarayonlarini kuchaytirdi.

Biroq milodiy III asr oxirlariga kelib Kangju jamiyatida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Xitoy manbalarida Kangju aholisi kiyim-kechagi, urf-odati va xo‘jalik faoliyati jihatidan Davan aholisi bilan o‘xshash bo‘lib qolgani qayd etiladi (Л.А.Боровкова, 2008). Bu holat Kangju jamiyatida asta-sekin o‘troqlashuv jarayoni kuchayganini ko‘rsatadi. Natijada uning harbiy qudrati pasayib, avvalgi geosiyosiy mavqeyi susaya boshladi.

Sirdaryo quyi oqimi va Orol dengizi atroflarida esa miloddan avvalgi II asrdan boshlab Yansay nomi bilan tanilgan davlat mavjud bo‘lib, keyinchalik xitoy manbalarida bu hudud Alan yoki Alan’ya nomi bilan qayd etiladi (Л.А.Боровкова, 2008). Ushbu etnonim Rim va Vizantiya manbalarida uchraydigan alan nomi bilan to‘la mos keladi va Yansay-Alan davlatining Markaziy Osiyodagi vatani aynan Orolbo‘yi hamda unga tutash dasht hududlari bo‘lganini ko‘rsatadi (Л.А.Боровкова, 2008). Alanlar chorvador ko‘chmanchi bo‘lib, keng

yaylovlardan samarali foydalangan, otliq harbiy kuchlari bilan ajralib turgan. Antropologik manbalarda ularning baland boʻyli, och rangli yoki sargʻish sochli, yevropoid tipga mansub etnos sifatida tasvirlanishi ularning shimoli dasht mintaqalari bilan bogʻliqligini tasdiqlaydi.

Milodiy I–II asrlarda Yansay–Alan davlatlari Kangju siyosiy ta'siri ostida boʻlgan boʻlsa-da, ayni paytda alanlarning gʻarbga tomon migratsiyasi boshlanib, ularning bir qismi Shimoli Qora dengiz boʻyi, Don va Dunay havzalarigacha yetib bordi(Боровкова Л.А., 2008). Natijada alanlar Rim imperiyasi chegaralarida muhim harbiy-siyosiy rol oʻynay boshladi. Bu jarayon Markaziy Osiyodan Yevropa tomon amalga oshgan yirik etnik harakatlarning dastlabki bosqichlaridan biri sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, Xitoy manbalarida dinlinlar Markaziy Osiyoning shimoli hududlarida qadimdan yashagan etnos sifatida qayd etiladi. Ular dastlab shimoli dashtlarda siongnu va keyinchalik syanbi qabilalari bilan qoʻshnichilikda yashagan. Milodiy II asr oxiri - III asr boshlarida syanbi bosimi ostida dinlinlarning bir qismi gʻarbga siljib, Usun va Kangju hududlari oraligʻiga, ya'ni Balxash koʻli va Orol dengizi oraligʻidagi dasht mintaqasiga joylashdi. Xitoy manbalaridagi etnografik tasvirlarda dinlinlarning tashqi qiyofasi och rangli sochli, yevropoid tipga mansub etnos sifatida tavsiflanadi; ba'zi afsonaviy tasvirlar esa ehtimol kiyim yoki poyabzal shaklining oʻziga xosligi bilan bogʻliq boʻlgan metaforik ifodalardir (Л.А.Боровкова, 2008).

Dinlinlarning Balxash va Orol oraligʻiga koʻchib kelishi Markaziy Osiyoning etnogeografik manzarasini sezilarli darajada oʻzgartirdi. Avvalo, ular Kangju bilan Yansay–Alan davlatlari oʻrtasidagi hududiy aloqalarni uzib qoʻydi. Natijada Alan davlatlari Kangju siyosiy ta'siridan chiqib, mustaqil rivoj yoʻliga oʻtdi. Shu bilan birga, yangi koʻchmanchi guruhlarning mintaqaga kirib kelishi ekologik bosimni kuchaytirib, aholi migratsiyasining yangi toʻlqinlarini yuzaga keltirdi.

Umuman olganda, antik davr Markaziy Osiyosining eng muhim xususiyati koʻchmanchi va oʻtroq jamiyatlarning uzluksiz oʻzaro ta'siri boʻldi. Bu ta'sir nafaqat iqtisodiy almashinuv shaklida, balki etnik aralashuv, madaniy sintez va siyosiy tuzilmalar evolutsiyasi koʻrinishida ham namoyon boʻldi. Fargʻona vodiysi, Baqtriya va Sugʻd

hududlaridagi oʻtroq dehqonchilik markazlari koʻchmanchi davlatlar uchun iqtisodiy resurslar manbayi boʻlib xizmat qilgan boʻlsa, koʻchmanchi hukmdorlar ushbu hududlarni bevosita egallash yoki ulardan oʻlpon olish orqali oʻz siyosiy va iqtisodiy qudratini mustahkamladi. Shu bilan birga, shahar madaniyati koʻchmanchi elita orasida ham muayyan darajada oʻzlashtirildi: Kangju va Kushon hukmdorlarining shahar markazlarida qarorgoh qurishi, mahalliy maʼmuriy tizimlardan foydalanishi bunga yaqqol misoldir.

Ayni paytda, koʻchmanchi madaniyat unsurlari - otliq harbiy tizim, chorvachilikka asoslangan xoʻjalik, harakatchan turmush tarzi - oʻtroq jamiyatlarga ham sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Fargʻona va Sugʻd vohalarida chorvachilikning rivojlanishi, ot yetishtirish va savdosi, koʻchmanchi kiyim-kechak elementlarining tarqalishi ana shu jarayonning natijasidir. Natijada Markaziy Osiyo jamiyatlari keskin qarama-qarshi ikki model - koʻchmanchi va oʻtroq - oʻrtasidagi murosaviy sintez asosida rivojlandi. Bu sintez mintaqaning keyingi oʻrta asrlar tarixida ham muhim omil boʻlib qolib, koʻchmanchi unsurlarning mahalliy madaniy muhitga singib borishi va asta-sekin oʻtroqlashuvi orqali Markaziy Osiyoning etnogeografik qiyofasini belgilab berdi.

Milodiy IV–V asrlarga kelib Markaziy Osiyoda siyosiy vaziyatning beqarorlashuvi va koʻchmanchi harbiy kuchlarning faollashuvi etnogeografik makonda yangi jarayonlarni yuzaga keltirdi. Ayrim shahar markazlarining qisqarishi, qalʼa-qoʻrgʻonlar sonining ortishi va mudofaa tizimlarining kuchayishi ijtimoiy hayotda xavfsizlik omilining ustuvor boʻla boshlaganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, chorvachilik unsurlarining moddiy madaniyatda kuchayishi koʻchmanchi turmush tarzining taʼsiri ortib borayotganidan dalolat beradi.

Biroq, bu davrda ham sugʻoriladigan vohalarda qadimgi dehqonchilik anʼanalari va shahar madaniyati butunlay yoʻqolmagan. Aksincha, ular Markaziy Osiyo etnogeografik makonining barqaror yadrosi sifatida saqlanib qolgan. Shu bois, antik davr oxiridagi etnik jarayonlar ham migratsiyalar va siyosiy siljishlar natijasida emas, balki mahalliy madaniy uzluksizlik va moslashuv asosida kechganini koʻrish mumkin.

Antik davrda Balx, Murg‘ob, Zarafshon, Amudaryo vodiysi kabi yirik vohalar har biri o‘ziga xos etnik-madaniy mikrohudud sifatida rivojlangan. Masalan, Balx vohasi qadimgi davrlardan boshlab siyosiy va diniy markaz bo‘lib, keng hududlarni birlashtiruvchi madaniy o‘choq vazifasini bajargan. Murg‘ob vohasi esa sug‘orma dehqonchilikning rivojlangan tizimlari va vohalararo aloqalar orqali Marg‘iyona madaniyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Zarafshon vodiysi Sug‘diyona hududi sifatida savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan.

Bu vohalarning har biri Markaziy Osiyo etnogeografiyasida alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, ular o‘zaro aloqadorlikda rivojlangan. Savdo yo‘llari, migratsiya oqimlari va siyosiy integratsiya-lar bu hududlarni yagona tarixiy-madaniy makonga birlashtirgan. Shu tariqa, Markaziy Osiyo etnogeografiyasi nafaqat hududiy birlik, balki ichki tarmoqlanganlik va o‘zaro bog‘liqlik bilan tavsiflanadi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoning etnogeografiyasi antik davrda sug‘oriladigan vohalar asosida shakllangan o‘troq dehqonchilik madaniyati, dasht va tog‘ zonalarida rivojlangan ko‘chmanchi chorvachilik jamiyatlari hamda ellinistik va boshqa tashqi sivilizatsiyalar ta’siri ostida murakkab, ko‘p qatlamli tizim sifatida rivojlandi. Miloddan avvalgi IV asrdan milodiy V asrgacha bo‘lgan davr ushbu jarayonlarning eng faol bosqichi bo‘lib, unda hududiy integratsiya, madaniy sintez va etnik moslashuv mexanizmlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Aynan shu tarixiy bosqich Markaziy Osiyo xalqlarining keyingi etnik shakllanishi, madaniy rivoji va tarixiy xotirasi uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyoning ilk temir va antik davr etnogeografiyasiga qanday manbalar asosida o‘rganiladi?
2. Ilk temir davrida Markaziy Osiyoda yashagan etnik jamoalar hududiy joylashuvi masalasiga misollar keltiring.
3. Markaziy Osiyoda III–VI asrlarda etnik jarayonlarning asosiy omili nimalar edi?
4. Ellinistik davr Markaziy Osiyoga asosan qaysi sohada ta’sir ko‘rsatgan?

5. Antik davrda Markaziy Osiyoga qanday etnoslarning migratsiyasi bo‘lgan?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Ilk temir davri manzilgohlarining hududiy joylashuvi masalasida fikr yuriting.
2. Antik davr Markaziy Osiyodagi tarixiy-madaniy viloyatlar xo‘jaligi haqida fikr yuriting.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бернштам А.Н. Очерки истории гуннов. – Ленинград: Наука, 1974. – 312 с.
2. Боровкова Л.А. Народы Средней Азии III–VI веков (по древним китайским и западным источникам). – Москва: Институт востоковедения РАН, 2008. – 368 с.
3. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности VII до н.э. – VIII в. н.э. – Москва: ИВЛ, 1999. – 359 с.
4. Кляшторный С.Г., Савинов Д.Г. Степные империи древней Евразии. – Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2005. – 346 с.
5. Литвинский Б.А. История и культура Бактрии и Тохаристана. – Москва: Наука, 1976. – 412 с.
6. Плетнёва С.А. Кочевники Средневековья. – Москва: Наука, 1982. – 296 с.
7. Рахмонов Н., Матбобоев Б. Ўзбек халқи этник тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 2006. – 248 б.
8. Сагдуллаев А.С., Холматов Н.У., Абдуллаев У.И., Матякубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тогаев Ж.Э., Маткаримов Х.О., Юсупов А.Ш. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. Монография. – Тошкент: Университет, 2020. – 236 б.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Изд-во АН СССР, 1948. – 392 с.
10. Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 352 б.
11. Якубовский А.Ю. Очерки по истории тюркских народов Средней Азии. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1952. – 236 с.

4-MAVZU: ILK O‘RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

Reja:

1. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyoning etnogeografiyasiga doir manbalar va ularning tavsifi.

2. Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar tarixiy madaniy viloyatlari etnogeografiyasi.

3. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda migratsiyalar va etnomadaniy makonning shakllanishi.

Darsning maqsadi: *talabalarga ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etnik jarayonlar, migratsiyalar, tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi, turkiy va sug‘diy aholining o‘zaro ta’siri hamda etnogeografik makon rivojining asosiy xususiyatlari haqida ilmiy tushunchalar berish va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *ilk o‘rta asrlar, migratsiya, turkiy qabilalar, sug‘diylar, Turk xoqonligi, tarixiy-madaniy viloyatlar, Buyuk Ipak yo‘li, etnogenez, ko‘chmanchilik, madaniy sintez, simbioz, etnik makon.*

4.1. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyoning etnogeografiyasiga doir manbalar va ularning tavsifi.

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo Yevrosiyo qit’asining muhim geosiyosiy va madaniy chorrahalaridan biri sifatida shakllanib, bu hududda yashagan turkiy va eroniy xalqlarning etnik tarkibi, hududiy joylashuvi masalasi, nafaqat, Sharq, balki G‘arb manbalarida ham aks etgan. Ayniqsa, Vizantiya imperiyasi bilan Markaziy Osiyo turkiy qabilalari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, diplomatik va harbiy munosabatlar mintaqaning etnogeografik qiyofasini yoritishda muhim yozma manbalar yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

III–IV asrlarda Vizantiya imperiyasining shimoli va shimoli-sharqiy chegaralarida xunnlarning, IV–VI asrlarda avarlarning, VI–VII asrlarda esa ashina turklarining siyosiy faolligi kuzatiladi. VII–X asrlarda xazarlar, o‘g‘uzlar va bijanaklar (pecheneglar) Qora dengiz bo‘yi hamda Sharqiy Yevropa hududlarida muhim geosiyosiy kuchga aylangan bo‘lsa, XI–XII asrlarda saljuq turklari Kichik Osiyoda Vizantiya

hukmronligini cheklab, XIII–XV asrlarda usmonli turklar imperiyaning yakuniy tanazzuliga sabab bo‘ldilar. Bu jarayonlar Markaziy Osiyo bilan Yevropa o‘rtasidagi etnik-madaniy aloqalarning uzoq muddatli va tizimli xarakterga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonlar Vizantiya tarixchilarining asarlarida muayyan darajada aks etgan. Jumladan, Feofilakt Simokatta (VI–VII asrlar), Feofan (VIII–IX asrlar) va Nikifor (VIII–IX asrlar) singari mualliflar imperiya hududidan uzoqda joylashgan Markaziy Osiyo xalqlari haqida ham ma’lumotlar berib, ularning siyosiy harakati, harbiy qudrati va hududiy joylashuvini qayd etganlar. Biroq Vizantiya mualliflari Sharq xalqlarining etnik tarkibini chuqur farqlay olmaganliklari sababli, ko‘pincha qadimgi an’anaviy umumlashtiruvchi etnohududiy atamalar “skiflar”, “massagetlar” yoki “forslar” kabi nomlardan foydalanishga moyil bo‘lganlar. Bu esa mazkur manbalardan foydalanishda tanqidiy yondashuvni talab qiladi.

Vizantiya tarixshunosligining muhim vakillaridan biri Prokopiy Kesariyskiy (VI asr) bo‘lib, u imperator Yustinian I davrida sarkarda Velisariyning maslahatchisi sifatida ko‘plab harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Uning sakkiz kitobdan iborat “Gotlar bilan urush” asari Yustinianning forslar, vandal va gotlar bilan olib borgan urushlarini qamrab oladi. Asarda asosan O‘rta yer dengizi havzasi voqealari yoritilgan bo‘lsa-da, unda xunnlar, massagetlar, qutrug‘ur va utrug‘urlar kabi kelib chiqishi Markaziy Osiyo bilan bog‘liq bo‘lgan turkiy qabilalar haqida ham muhim etnogeografik ma’lumotlar uchraydi. Ushbu ma’lumotlar orqali Markaziy Osiyodan G‘arb tomonga bo‘lgan etnik migratsiyalar va ularning siyosiy oqibatlarini kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar etnogeografiyasini tadqiq etishda Xitoy yilnomalari beqiyos ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xitoy saroy tarixchilari tomonidan tuzilgan “Vey-shu” (“Vey sulolasi tarixi”), “Suy-shu” (“Suy sulolasi tarixi”), “Bey-shi” (“Shimoli sulolalar tarixi”) va “Sin Tan-shu” (“Yangi Tang tarixi”) kabi asarlar Markaziy Osiyo hududidagi ilk o‘rta asrlar davlatlari va ulardagi etnik guruhlar, shaharlar va savdo yo‘llari haqida nisbatan aniq va tizimli ma’lumotlar beradi. Ushbu manbalarda hozirgi O‘zbekiston hududi va unga tutash mintaqalarda joylashgan ko‘plab voha hukmdorliklari tilga olinib,

ularning geografik joylashuvi va siyosiy maqomi tasvirlangan. Jumladan, *Shi (Choch/Toshkent), Boxanna (Farg‘ona), Suduyushana (Ustrushona), Kan (Samarqand), An (Buxoro), Shi (Kesh/Shahrisabz), Nashebo (Naxshab/Qarshi), Xosyun (Xorazm), Tuxolo (Tohariston)* kabi nomlar ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo etnik makonining asosiy hududiy markazlari sifatida qayd etilgan.

Xususan, “Sin Tan-shu” manbasining 221-bobi – “G‘arbiy mamlakatlar tazkirasi”da Farg‘ona vohasining siyosiy-geografik holati batafsil yoritiladi. Unda Farg‘ona qadimiy manbalarda *Boxanna, Parkan (Rohan)* va *Poluona* nomlari bilan tilga olingani, Tan sulolasi poytaxtidan taxminan sakkiz ming li (4600 km ga yaqin) masofada joylashganligi qayd etiladi. Farg‘ona hukmdorining Norin daryosi shimoli sohilidagi *Shijyan* shahrida istiqomat qilgani, hududda oltita yirik va yuzga yaqin kichik shahar mavjud bo‘lgani hamda aholining uzoq umr ko‘rishi bilan ajralib turgani ta’kidlanadi. Bu ma’lumotlar Farg‘ona vohasining nafaqat siyosiy markaz, balki demografik va madaniy jihatdan ham rivojlangan hudud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xitoyning “Bei-shi” (“Shimoli sulolalar tarixi”) asarining 318-bobida *Samarqand (Kan)* vohasining siyosiy tuzilishi, aholi tarkibi va madaniy hayoti haqida muhim etnogeografik ma’lumotlar berilgan. Manbaga ko‘ra, *Kan* hukmdorlarining kelib chiqishi qadimgi Kangyuy sulolasiga borib taqaladi. Ularning ajdodlari dastlab ko‘chmanchi turmush tarziga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik Zarafshon vodiysi hududida mustahkam davlat tuzilmasini shakllantirgan. Hukmdorlar sulolasi Xan davridan boshlab siyosiy hokimiyatni uzluksiz saqlab kelgani qayd etiladi.

Manbada hukmdorlar dastlab Tyan-Shan tizmasining shimolidagi *Chjaovu* shahrida yashaganlari, biroq xunnlar bosimi ostida Pomir tog‘lari orqali g‘arbga ko‘chib, Samarqand vohasida mustaqil siyosiy markaz barpo etganlari ta’kidlanadi. Ushbu migratsiya jarayoni Zarafshon vodiysining etnik tarkibi shakllanishida muhim omil bo‘lgan. Sulola o‘zining dastlabki kelib chiqish joyini eslatuvchi “Chjaovu” nomini tarixiy xotira sifatida saqlab qolgan.

Manbada Samarqandning aholisi tashqi qiyofasi, kiyim-kechagi va turmush tarzi ham tasvirlangan. Erkaklar sochini qirdirib, ipak va

kimxobdan tikilgan kiyimlar kiygan, hukmdor esa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan oltin toj taqqan. Aholining nikoh, dafn va marosim an'analari turkiy urf-odatlarga yaqin bo'lgani qayd etilib, bu holat Zarafshon vodiysida eroniy va turkiy madaniy qatlamlarning sintezini ko'rsatadi.

"Bei-shu"da Kan davlati mintaqadagi yirik siyosiy markazlardan biri bo'lib, unga *Mi (Maymurgh), Shi (Kesh), Tsao (Ishtixon), Xe (Kushoniya/Kattaqo'rg'on), Kichik An (Xarghon/Karmana), Nashebo (Naxshab), Unaxe va Mu kabi* voha hokimliklari bo'ysungani qayd etiladi. Bu ma'lumotlar Samarqandning Zarafshon vohasi va unga tutash hududlarda siyosiy-hududiy markaz sifatida shakllanganini ko'rsatadi. "Bei-shu"da aholi savdoda mohir bo'lgani, shaharda ko'plab chet ellik savdogarlar istiqomat qilgani qayd etiladi. Bu Samarqandning Buyuk Ipak yo'li tarmoqlari kesishgan nuqtada joylashgani bilan izohlanadi.

Iqlimning mo'tadilligi, bog'dorchilik va sabzavotchilikning rivojlangani, ot, tuya, eshak va qo'tos boqilishi, oltin, nashotir va boshqa xomashyo turlarining mavjudligi Samarqand vohasining tabiiy-resurs bazasi boy bo'lganini ko'rsatadi. Uzumchilik va sharob tayyorlashning rivojlanganligi esa hududning agrar-iqtisodiy ixtisoslashuvini aks ettiradi. Da-ye davrida (605–616-yillar) Samarqanddan Xitoy saroyiga mahalliy mahsulotlar sovg'a sifatida yuborilgani mintaqaning xalqaro savdo aloqalarida faol ishtirok etganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, "Bei-shu" manbasi Samarqand vohasini ilk o'rta asrlarda siyosiy jihatdan markazlashgan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va etnik-madaniy jihatdan ko'p qatlamli hudud sifatida tasvirlaydi. Ushbu ma'lumotlar Zarafshon vodiysining Markaziy Osiyo etnik makonidagi o'rni va funksiyasini etnogeografik nuqtayi nazardan qayta tiklash imkonini beradi.

Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar etnogeografiyasini tadqiq etishda arab tilida yozilgan tarixiy va geografik asarlarning ham o'rni beqiyosdir. Xususan, Al-Xorazmiyning "Surat al-Arz" ("Yerning surati") asari IX asr Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasining ayrim jihatlarini tadqiq etishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asar musulmon ilm-fanida geografik bilimlarning tizimlashuvi, ayniqsa koordinatalar

tizimining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, Markaziy Osiyoning siyosiy, etnik va madaniy makon sifatida ilmiy xaritalanishiga xizmat qilgan. Al-Xorazmiy geografiyani nafaqat tabiiy obyektlar majmuyi sifatida, balki aholi joylashuvi, siyosiy hududlar va etnik makon bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida talqin etadi. Shu bois uning asari etnogeografik yondashuvning ilk namunalaridan biri sifatida baholanadi.

“Surat al-Arz”da *Omuya, Buxoro, Balx, Samarqand, Xorazm, Ustrushona, Xo‘jand, Banokat, Axsikat, Taroz va Isfijob* kabi Markaziy Osiyoning muhim shaharlarining joylashuvi hamda ularning kenglik va uzunlik koordinatalari aniq keltirilgan. Bu ma’lumotlar mintaqadagi shaharlar tizimi, savdo yo‘llari va siyosiy markazlar o‘rtasidagi makoniy bog‘liqlikni ilmiy asosda yoritib beradi. Ayniqsa, Al-Xorazmiyning Shosh va Torband o‘lkasi, ya’ni Toshkent va O‘tror hududlarini IX asrning birinchi yarmida mavjud bo‘lgan alohida ma’muriy-geografik birlik sifatida qayd etishi Markaziy Osiyoda ilk siyosiy-hududiy shakllanishlarning geografik manzillashtirilganini ko‘rsatadi. Bu holat mazkur hududlarning turkiy aholi yashash makoni sifatida markaziy ahamiyatga ega bo‘lganini ham tasdiqlaydi.

Al-Xorazmiy o‘z ilmiy yondashuvida qadimgi yunon geografi Klavdiy Ptolemey tasnifiga tayanadi, biroq uni yangi tarixiy-etnik mazmun bilan boyitadi. U Volga daryosidan Mo‘g‘ulistonning sharqiy hududlarigacha bo‘lgan keng makonni umumiy “*Skifiya*” nomi bilan atab, uni Sharqiy va G‘arbiy Skifiyaga ajratadi. Ammo muhim farq shundaki, Ptolemey “Skifiya Intra Imaum”, ya’ni Imav tog‘lari ichidagi Skifiya deb atagan hududni Al-Xorazmiy aniq tarzda “*Turklar yeri*” sifatida belgilaydi, Sharqiy Skifiyani esa “*To‘qqizg‘uzlar*” (To‘qqiz-o‘g‘uzlar) yeri deb ko‘rsatadi. Bu holat geografik makonning etnik tarkib bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinganini, ya’ni Al-Xorazmiyning ilmiy tafakkurida etnogeografik yondashuv shakllanganini ko‘rsatadi.

Al-Xorazmiy terminologiyasida *Balx* daryosi Jayhun, ya’ni Amudaryoni anglatadi. Amudaryo vodiysi qadimdan sug‘orma dehqonchilik, shahar madaniyati va savdo yo‘llari rivojlangan hudud bo‘lib, bu yerda etnik guruhlarning joylashuvi va xo‘jalik faoliyati tabiiy muhit bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli Al-Xorazmiy geografik obyektlarni etnik hududlar bilan uyg‘un holda

tavsiflab, Markaziy Osiyoda tabiiy muhit va ijtimoiy-madaniy makon oʻrtasidagi uzviy aloqani ilmiy asosda koʻrsatib beradi.

Umuman olganda, Al-Xorazmiyning “Surat al-Arz” asari Markaziy Osiyo xalqlarining IX asrdagi siyosiy-hududiy va etnik makonini ilmiy asosda xaritalashtirgan ilk fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Uning shaharlar tizimi, daryo havzalari, savdo yoʻllari va etnik hududlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni kompleks tahlil qilgan yondashuvi keyingi musulmon geografiyasi vakillari Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiylarning ilmiy merosiga mustahkam asos boʻlib xizmat qilgan. Shu bois “Surat al-Arz” asari Markaziy Osiyoni yagona tarixiy-madaniy va etnik-geografik makon sifatida anglash imkonini beruvchi muhim ilmiy manba sifatida oʻz ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Ahmad al-Fargʻoniyning “Kitob fi usul ilm an-nujum” (“Yulduzlar ilmining asoslari haqida kitob”) asari IX asr musulmon ilmiy tafakkurida kosmografiya, astronomiya va geografiya uygʻunlashgan yirik ilmiy meros boʻlib, unda Yer yuzasining makoniy tuzilishi nafaqat tabiiy-iqlimiy jihatdan, balki siyosiy, madaniy va etnik hududlar bilan uzviy bogʻliq holda talqin etiladi. Asarning “Yerdagi ma’lum oʻlkalar va shaharlarning nomlari hamda ularning qaysi iqlimga mansubligi haqida” nomli bobida olim antik geografik an’anaga tayangan holda Yer yuzini yetti iqlim zonasiga ajratadi va Markaziy Osiyo hududidagi yirik shaharlarni toʻrtinchi iqlim doirasida joylashtiradi. Bu tasnif ilmiy jihatdan nafaqat tabiiy-geografik makonning, balki aholi joylashuvi, siyosiy markazlar va madaniy hududlarning oʻzaro bogʻliqligini anglash imkonini beradi.

Al-Fargʻoniy ta’rifiga koʻra, toʻrtinchi iqlim sharq tomondan Tibet oʻlkasidan boshlanib, Xuroson sari davom etadi va ushbu keng makon doirasida *Xoʻjand, Ustrushona, Fargʻona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya (Amul), Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur, Jurjon, Qumis, Tabariston, Damovand, Qazvin, Doylam, Ray va Isfahon* kabi yirik shaharlar joylashgan. Ushbu roʻyxat Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarning oʻrta asrlardagi siyosiy-iqtisodiy hamda madaniy makon sifatidagi yaxlitligini koʻrsatadi. Ayniqsa, Ustrushona, Fargʻona, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarga bir iqlim zonasida oʻrin berilishi, bu hududlarning yagona tarixiy-madaniy makon sifatida

shakllanganini anglatadi. Bu esa etnogeografik nuqtayi nazardan qaraganda, tabiiy muhit, shahar markazlari va etnik-madaniy jarayonlarning bir-birini to‘ldirib kelganini ko‘rsatadi.

Al-Farg‘oniy iqlim zonasining g‘arbiy yo‘nalishda Shom (Suriya)ning shimoli hududlariga o‘tishini qayd etib, Valis, Manbij, Sumaysot, Malatiya, Zibatara, Halab, Qinnasrin, Antokiya, Tarablus, Al-Masisa, Saydo, Qora al-Kanisa, Adana, Tarsus, Amoriya va Loziqiya orollari kabi shaharlarni ham ushbu iqlim makoniga kiritadi. Nihoyat, bu hudud mag‘rib tomon davom etib, Tanja (Tangier) o‘lkasida G‘arb dengizida yakun topadi. Bu makoniy ketma-ketlik Sharqdan G‘arbga cho‘zilgan savdo yo‘llari, madaniy aloqalar va ilmiy almashinuv tizimining mavjudligini ko‘rsatib, IX asrda Markaziy Osiyo Yevrosiyo sivilizatsion makonining markaziy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lganini tasdiqlaydi.

Al-Farg‘oniyning ushbu tasnifi o‘rta asrlar etnogeografik tafakkurning rivojlanganligini ko‘rsatadi. Chunki unda tabiiy-iqlimiy zonalar bilan bir qatorda shaharlar tarmog‘i, siyosiy markazlar va madaniy hududlarning joylashuvi ham hisobga olingan. Natijada, geografik makon inson faoliyati va etnik-madaniy jarayonlar bilan uyg‘un tizim sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan, Ahmad al-Farg‘oniy merosi Markaziy Osiyoning IX asrdagi madaniy-geografik yaxlitligini ilmiy asosda anglashga imkon beruvchi muhim manba bo‘lib, keyingi musulmon tarixiy geografik tadqiqotlari va etnogeografik tafakkur taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratgan.

IX asr arab geografi Ibn Xurdodbexning “Kitob al-masolik va-l-mamolik” (“Yo‘llar va mamlakatlar kitobi”) asari Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarning tarixiy-geografik makonini ilmiy jihatdan yoritgan eng muhim manbalardan biridir. Muallif geografiyani faqat hududiy tasvirlash bilan cheklamay, balki savdo yo‘llari, shaharlararo masofalar, tabiiy to‘siqlar, qabilalar joylashuvi va siyosiy markazlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimli ravishda tahlil qiladi. Shu jihatdan, asar IX asr Markaziy Osiyosining iqtisodiy, madaniy va etnik makon sifatidagi yaxlitligini tiklash imkonini beruvchi fundamental manba hisoblanadi.

Ibn Xurdodbex asarida Marv shahri Markaziy Osiyoning muhim strategik va savdo markazi sifatida tasvirlanib, undan ikki asosiy

yoʻnalish boshlanishi qayd etiladi: biri Shosh (Toshkent) va “turklar mamlakati” tomon, ikkinchisi esa Balx va Tohariston yoʻnalishiga qarab boradi. Marvdan Shosh tomon boʻlgan yoʻl Kushmayxon, Ad-Divob, Al-Mansaf, Al-Axso, Bir Usmon, Amul (Amuya) orqali oʻtib, 36 farsax (taxminan 216 km) masofani tashkil etgani koʻrsatiladi. Bu ma’lumotlar Amudaryo vodiysi orqali oʻtuvchi karvon yoʻllarining Markaziy Osiyoning ichki va tashqi savdo aloqalarida tutgan muhim oʻrnini koʻrsatadi. Amuldan Balx daryosi boʻyiga, u yerdan esa Poykand va Buxoro tomon yoʻnalgan savdo yoʻllari qayd etilib, Amuldan Buxorogacha 19 farsax (taxminan 114 km) masofa boʻlgani aniq koʻrsatiladi. Bu raqamlar oʻrta asr geograflarining makonni nafaqat tasviriy, balki miqdoriy koʻrsatkichlar asosda ham tahlil qilganini koʻrsatadi.

Buxoro Ibn Xurdodbex tomonidan savdo va siyosiy markaz sifatida alohida ta’kidlanadi. Uning atrofidagi Karmaniya, Tavovis, Bumijkas, Vardana va Poykand kabi shaharlar savdogarlar faoliyat yuritadigan yirik markazlar sifatida tilga olinadi. Bu holat Buxoro vohasining iqtisodiy makon sifatida shakllanganini, shaharlar tarmogʻi esa mintaqaning ichki integratsiyasini ta’minlab turganini koʻrsatadi. Buxorodan Samarqand tomon 39 farsax masofada yoʻl davom etishi qayd etilib, Samarqand devor bilan oʻralgan qal’ali shahar sifatida tasvirlanadi. Uning atrofida Dabusiyya, Arbijnon, Kushoniya, Ishtixon, Kesh (Shahrisabz), Nasaf va Xoʻjand kabi markazlarning mavjudligi Samarqand vohasining siyosiy va madaniy jihatdan rivojlangan hudud boʻlganini anglatadi.

Samarqanddan Shoshgacha boʻlgan yoʻl Zomin, Xavos, Banokat, Shuturkat va Banunkat orqali oʻtib, 42 farsax masofani tashkil etgani qayd etiladi. Bu yoʻl Shosh vohasining iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim boʻgʻin sifatida shakllanganini koʻrsatadi. Shoshdan esa Isfijob (Sayram) tomon yoʻl davom etib, Sharob, Buduxkat, Tamtaj va Abarjaj orqali Toroz shahrigacha yetgani, Isfijobdan Torozgacha 26 farsax masofa boʻlgani qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlar Markaziy Osiyoning janubi va shimoli hududlari oʻrtasida barqaror karvon yoʻllari mavjud boʻlganini, bu yoʻllar esa turli etnik guruhlar oʻrtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni kuchaytirganini koʻrsatadi.

Ibn Xurdodbex, shuningdek, *qavikat, kimak, turgesh, qarluq, xalach* kabi turkiy qabilalarning yashash hududlari, ularning hukmdor qarorgohlari va harakat yo‘nalishlarini ham batafsil bayon qiladi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, Turgesh xoqonining qarorgohi Chu daryosi vodiysida, kimaklar Irtish daryosining o‘rta oqimida, to‘quz-o‘g‘uzlar esa Turfon va Guchen atrofida joylashgan bo‘lgan. Bu tasvirlar IX asrda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda turkiy qabilalar makonining aniq geografik chegaralari shakllanib ulgurganini, ularning joylashuvi tabiiy muhit, savdo yo‘llari va siyosiy markazlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, Ibn Xurdodbexning tasnifi etnogeografik yondashuvning yorqin namunasidir, chunki u tabiiy makon, aholi joylashuvi va siyosiy tuzilmalarning o‘zaro bog‘liqligini yaxlit tizim sifatida talqin qiladi.

Farg‘ona yo‘nalishi ham alohida yoritilib, Zomindan Sabat, Ustrushona, Xo‘jand, Samgar, Hajiston, Turmukan, Top-Top va Farg‘ona shaharlariga boruvchi yo‘l 53 farsax masofani tashkil etgani qayd etiladi. Shuningdek, Quba, O‘sh, O‘zgend, Otboshi va Yuqori Nushajon orqali Xitoy chegaralarigacha cho‘zilgan karvon yo‘llari haqida ham ma’lumot beriladi. Bu holat Farg‘ona vodiysining Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan savdo-madaniy aloqalarda muhim tranzit hudud bo‘lganini ko‘rsatib, Markaziy Osiyoning Sharq-G‘arb sivilizatsion makonidagi strategik o‘rnini tasdiqlaydi.

4.2. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning tarixiy madaniy viloyatlari va ularning etnik tarkibi.

Ilk o‘rta asrlar (V–VIII asrlar) Markaziy Osiyo etnogeografiyasi mintaqada o‘troq dehqonchilik madaniyati bilan ko‘chmanchi chorvador jamiyatlar uzviy qo‘shilib, murakkab etnomadaniy makon shakllanganini ko‘rsatadi. Bu davrda Sug‘d, Choch, Ustrushona, Tohariston, Farg‘ona va Xorazm kabi tarixiy-madaniy viloyatlar nafaqat tabiiy-geografik hududlar, balki muayyan etnik tarkib, xo‘jalik ixtisoslashuvi va siyosiy boshqaruvlarga ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy makon sifatida shakllandi. Ularning har biri Buyuk Ipak yo‘li tizimiga ulanib, savdo, madaniy almashinuv va siyosiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etdi.

Ustrushona Sug‘dning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, qadimdan o‘troq va ko‘chmanchi madaniyatlar tutashgan “kontakt makon” sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Bu hudud orqali o‘tgan savdo yo‘llari cho‘l mintaqalari va Sirdaryo bo‘ylarini Zarafshon vodiysi hamda janubdagi Tohariston bilan bog‘lab, Ustrushonani mintaqaning muhim tranzit va madaniy uzeliga aylantirgan. Xitoy sayyohi Syuan Szyanning VII asrga oid xabarlarida Ustrushona aholisi (Sutulisen) urf-odatlari Chochliklarga o‘xshash ekani, hukmdori esa Turk xoqoniga vassal bo‘lgani qayd etiladi, bu esa hududning Sug‘diy madaniy muhit bilan birga Turk xoqonligi siyosiy ta’siri ostida rivojlanganini ko‘rsatadi (А.Отахўжаев, 2010;). Ustrushona hukmdorlari – “afshin”larning qarorgohi bo‘lgan Qal’ai Qahqaha saroyidagi devoriy tasvirlarda bo‘ri emayotgan ikki bola manzarasi aks ettirilgan bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar buni turkiy qavmlarning kelib chiqishi haqidagi mifologik an’analar bilan bog‘laydilar. A.Otaxo‘jayevning fikricha, bu tasvir Ustrushonada VI–VIII asrlarda turkiy etnik unsurlar ustun mavqega ega bo‘lganini ifodalaydi. Jumladan, Ustrushona hukmdori Afshin xalifalik xizmatiga o‘tganida, o‘z o‘rniga xolavachchasi Mangujurni qoldirgani uning sulolasi ona tomonidan turkiy muhit bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi (А.Отахўжаев, 2010;).

Diniy hayot nuqtayi nazaridan ham Ustrushona Sug‘diy madaniy makon bilan uzviy bog‘langan. Aholi orasida zardushtiylik keng tarqalib, marhumlarni ostodonlarda dafn etish marosimi Sug‘d va Choch hududlaridagi urf-odatlarga mos kelgan. Til va yozuv masalasida ham Ustrushona Sug‘diy madaniy muhit bilan chambarchas aloqada bo‘lgan. V.A.Livshits Chilxujra yodgorligidan topilgan yog‘och taxtachalardagi hujjatlarni Mug‘ arxivi materiallari bilan qiyoslab, Ustrushonada mahkama ishlarining sug‘diy tilida yuritilganini aniqlagan (А.Отахўжаев, 2010;). Bu holat hududda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar qo‘lida bo‘lsa-da, ma’muriy-amaliyot sohasida sug‘diy yozuv-madaniy an’ananing davom etganini ko‘rsatadi.

Choch esa Chirchiq va Ohangaron havzalarida joylashib, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi hamda ko‘chmanchi chorvador qabilalar yashash hududlari tutashgan makonda shakllangan tarixiy-madaniy viloyat bo‘lgan. Ushbu geografik o‘rin uni Buyuk Ipak

yo‘lining shimoli-sharqiy yo‘nalishidagi strategik markazga aylantirib, Markaziy Osiyo bilan Dashti Qipchoq va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy aloqalarda muhim rol o‘ynashiga zamin yaratgan. Ilk o‘rta asrlarga qadar Chochda sak va sug‘diy aholi manzilgohlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, V–VIII asrlarda ularning soni sezilarli darajada ortib, shaharsozlik va irrigatsiya tizimlari rivoj topgan.

Choch vohasiga prototurk qabilalarining kirib kelishi miloddan avvalgi I ming yillikning oxirlariga borib taqaladi, Turk xoqonligi davrida esa turkiylar mintaqada yetakchi siyosiy kuchga aylangan. Shunga qaramay, voha hukmdorlari rasmiy-idora ishlarida sug‘diy til va yozuvidan foydalanishda davom etganlar, bu esa Chochning sug‘diy madaniy makon bilan uzviy aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turkiy til va yozuv ham amalda bo‘lganini Ko‘hna Qanqa xarobalaridan topilgan sopol idishdagi runik bitikda uchraydigan “Choch – c’c” atamasi tasdiqlaydi (М.М.Исхаков, Ш.С.Камолиддин, Г.Б.Бабаяров, 2007). Bu ma’lumotlar Choch hududida ikki tillilik va ikki madaniyatli muhit mavjud bo‘lganini, ya’ni sug‘diy shahar madaniyati bilan turkiy ko‘chmanchi an’analarning o‘zaro sintezga kirishganini ko‘rsatadi.

Siyosiy tarix nuqtayi nazaridan ham Choch va Sug‘d hukmdorlari VII asr boshlariga qadar (605-yilgacha) kelib chiqishi yuechjilarga borib taqaluvchi chjao sulolasiga mansub bo‘lgan. 605-yildan boshlab esa Chochda hukmronlik mahalliy chjao hukmdorlardan turkiy sulolalarga o‘tib, davlat boshqaruvi Turk xoqonligi siyosiy ta’siri ostida amalga oshirilgan (А.Отахўжаев, 2010;). Bu jarayon Markaziy Osiyoda siyosiy hokimiyatning ko‘chmanchi turkiy elitalar qo‘liga o‘tishi bilan birga, o‘troq sug‘diy madaniyat institutlari – yozuv, ma’muriy boshqaruv, savdo-iqtisodiy tizimlarning saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Chochda Turk xoqonligi hukmronligi to‘liq qaror topib, voha aholisi etnik tarkibida turkiy unsurlar salmog‘i keskin ortdi. Mahalliy turkiy tilli aholi ham xoqonlik vakillari singari “turk” nomi bilan atalgan bo‘lib, shu sababli siyosiy va ma’muriy boshqaruv avvalgidek mahalliy turkiylar va sug‘diylar qo‘lida saqlanib qolgan (А.Отахўжаев, 2010). Demak, vohaning etnik tarkibida

muayyan siljishlar yuz bergan bo‘lsa-da, an’anaviy ma’muriy boshqaruv tizimi va sug‘diy madaniy an’analar uzviy davom etgan.

Choch vohasiga turli o‘troq va ko‘chmanchi aholi qatlamlarining kirib kelishi natijasida hududning diniy manzarasi ham rang-baranglashgan. Ilk o‘rta asrlarda mahalliy sak aholining zardushtiylikni qabul qilishi tufayli bu e’tiqod vohada keng tarqalgan bo‘lsa, keyinchalik turkiy qabilalarning ommaviy kirib kelishi natijasida tangrichilik, xristianlikning nestorian oqimi hamda moniylik kabi diniy tizimlar ham keng yoyilgan (А.Отахўжаев, 2010;). Bu holat Chochning ilk o‘rta asrlarda ko‘p konfessiyali va ko‘p madaniyatli etnik makon sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Ilk o‘rta asrlarda Choch vohasida dehqonchilik va hunarmand-chilik jadal rivojlanib, taxminan 255 ga yaqin manzilgoh hamda 30 dan ortiq qal’a va shaharlar vujudga kelgan. IX–X asrlargacha viloyatda Dinfiġonket, Binket, Harashket, Benaket, Xudaynket, Ardlanket, Kabarna, Xatunkent, Nujeket, Jabg‘uket, Farnket kabi markazlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Ilaqlar vohasida Sekeket, To‘nket, Nuket, Banjxash, Balayan, To‘qkent, Arbilax, Nemudlik, Xumrek, Kuhisim, Bisket, Dahket, Xash, Xangangket singari shaharlar faoliyat yuritgan. Ushbu shaharlar tabiiy-geografik sharoitdan kelib chiqqan holda muayyan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, masalan, Tunket va To‘qket metall buyumlari, Lashkarak kumushlari, Qoramozor mintaqasidan olinadigan moviy feruzalar Buyuk Ipak yo‘li savdosida yuqori baholangan (А.Отахўжаев, 2010).

Ustrushona va Choch misolida ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyosining tarixiy-madaniy viloyatlari etnogeografik jihatdan murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik makon bo‘lganini ko‘ramiz. Bu hududlarda o‘troq sug‘diy dehqonchilik madaniyati bilan turkiy ko‘chmanchi chorvador an’analar o‘zaro qo‘shilib, yangi siyosiy tuzilmalar, etnomadaniy identitetlar va madaniy sintez shakllanishiga asos bo‘lgan. Natijada, Markaziy Osiyo V–VIII asrlarda nafaqat Sharq va G‘arbni bog‘lovchi tranzit makon, balki o‘z ichki taraqqiyot qonuniyatlariga ega bo‘lgan mustaqil sivilizatsion hudud sifatida tarix sahnasida namoyon bo‘lgan.

Ilk o‘rta asrlarda Farg‘ona ham o‘ziga xos etnomadaniy makon sifatida shakllanib, undan o‘tgan tranzit yo‘llar Markaziy Osiyoning mintaqaviy va tashqi aloqalarida muhim tarmoq vazifasini bajargan. Xitoy manbalarida Farg‘ona Davan, Polona, Boxan yoki Ninyuan nomlari bilan tilga olinib, ko‘pincha Sug‘d mulklaridan biri sifatida qayd etilgan (Н.Рахмонов, Б.Матбобоев, 2006). Jumladan, “Bey shu” asarining 435-yilga oid ma’lumotlarida ham Farg‘ona mustaqil mulk sifatida emas, balki Sug‘d tarkibida ko‘rsatilgan. Bu holat Farg‘onaning siyosiy va madaniy jihatdan Sug‘d bilan chambarchas aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi.

Farg‘ona ham Sug‘d va Choch singari VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkiy Ashina sulolasi vakillari boshqaruviga o‘tgan. XIX asr tarixchisi Ibratning yozishicha, Kosonda joylashgan Mug‘niy qo‘rg‘oni va o‘rdasi mashhur bo‘lib, tarixiy manbalarda Sug‘d podshohlari – “ixshid”lar ham bu yerda hukmronlik qilgani qayd etiladi. Bu ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki, VII asrning birinchi yarmigacha Farg‘onada mahalliy hukmdorlar, keyinchalik esa Sug‘d podshohlari, ya’ni “o‘n o‘q” turkiy sulolasi vakillari sug‘diy ixshid unvoni ostida vodiy shimolida o‘z hokimiyatini mustahkamlaganlar (А.Отахўжаев, 2010;).

Xitoyshunos olim E. Pulleyblank ta’kidlashicha, xitoy manbalarida Farg‘onaning Sug‘d konfederatsiyasi tarkibiga kiritilishi, avvalo, bu hudud aholisi tili, antropologiyasi, urf-odatlari va diniy e’tiqodlarining sug‘diylarga yaqinligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, A.N.Bernshtam Syuan Szan va Xoy Chao ma’lumotlariga tayangan holda farg‘onaliklarning tili qo‘shni xalqlardan farqlanganini qayd etadi, bu esa VII asrda vodiyda turkiy tilning yetakchi mavqega ega bo‘la borishi bilan bog‘liq holda izohlanadi (Отахўжаев А.; 2010).

Farg‘ona vodiysining mis, qo‘rg‘oshin, oltin va temir konlariga boyligi hududda metallsozlik hunarining jadal taraqqiy etishiga zamin yaratgan. Manbalarda Farg‘onaning Xitoyga beda urug‘i va yong‘oq mahsulotlarini muntazam yetkazib turgani qayd etiladi hamda ayrim boy xonadonlarida 10 ming donagacha may saqlangani eslatib o‘tiladi. Shuningdek, Farg‘onaning mashhur “samoviy otlari” qadimdan shuhrat qozongan bo‘lib, ular ham iqtisodiy daromad manbayi sifatida muhim

ahamiyat kasb etgan. Keyinchalik Sug‘d va Choch hududlarida ham xuddi shunday zotli otlarni yetishtirish an’analari shakllangan bo‘lib, bu mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikning rivojlanganini ko‘rsatadi (А.Отахўжаев, 2010).

VII–VIII asrlarda turkiylarning Farg‘onadagi mavqeyi ancha kuchli bo‘lsa-da, turkiy til rasmiy devon tili darajasiga ko‘tarilmagan. Tadqiqotchilar fikricha, Farg‘onaning o‘ziga xos mahalliy tili mavjud bo‘lib, Y. Markvart uni sug‘diy til ta’sirida shakllangan til sifatida talqin qiladi. Farg‘ona yozuvi masalasida V.A.Livshits Samarqand muzeyi fondida saqlanayotgan, unda “Farg‘ona podshosi” unvoni va ismi qayd etilgan tangani tahlil qilib, mazkur yozuv sug‘diy, xorazmiy va parfiyon yozuvlaridan farqli jihatlarga ega ekanini ko‘rsatadi (В.А.Лившиц; 1968). Bu fikrni Quvadan topilgan sug‘diy yozuv namunalari hamda Farg‘ona hukmdorlarining “ixshid” unvonidan foydalanishi ham tasdiqlaydi (А.Отахўжаев, 2010).

Shu bilan birga, Farg‘onada turkiy runik yozuv namunalari ham aniqlangan bo‘lib, Y.A.Zadneprovskiy Isfaradan topilgan sopol buyumdagi runik bitikni, S.G. Klyashtorniy esa uzukdagi runik yozuvni o‘rganib, undagi “ynanch” so‘zini ehtimoliy unvon yoki shaxs nomi bilan bog‘laydi (А.Отахўжаев, 2010). Umuman olganda, VI–VIII asrlarda Farg‘onada runik yozuv ham muayyan darajada rivojlangan bo‘lib, bu holat Quva, Isfara va Lumbitepa yodgorliklaridan topilgan dalillar bilan tasdiqlanadi. Mazkur yozuv ayrim belgilarida ilk sug‘d yozuviga yaqin turadi. Shuningdek, vodiy toponimiyasida uchraydigan Axsikent, Shavkat, Navkat, Kurkat va Xuvakand (Qo‘qon) kabi joy nomlari ham Buyuk Ipak yo‘li doirasida shakllangan turk-sug‘d munosabatlarining Farg‘ona vodiysida faol kechganidan dalolat beradi (А.Отахўжаев, 2010).

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi turkiy qabilalar zich yashagan tarixiy-madaniy hudud bo‘lgan Yettisuv o‘ziga xos etnogeografik makon sifatida shakllangan. Bu yerda miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda ko‘chmanchi saklar istiqomat qilgan bo‘lib, ular yaratgan yuksak madaniyat, xususan, tasviriy san’atdagi mashhur “skifcha hayvon uslubi” ilk o‘rta asrlarda turkiy dunyo orqali sug‘diylar va boshqa xalqlar san’ati rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan (Э.Ф.Гюль,

2002). Yettisuv saklari, keyinchalik esa usunlar miloddan avvalgi II asrdan to milodiy V asrgacha mintaqaning boshqa hududlari bilan uzviy aloqada bo‘lib kelgan, sug‘diy savdogarlar esa Yettisuvdagi savdo faktoriyalarida faoliyat yuritib, mahalliy sak va usunlar bilan etnomadaniy jihatdan yaqinlashgan (А.Отахўжаев.; 2010). Hudud xo‘jaligida chorvachilik yetakchi o‘rin tutgan bo‘lsa-da, daryolar bo‘yida va tog‘ oldi mintaqalarida dehqonchilik ham rivoj topgan, miloddan avvalgi IV–III asrlardan boshlab esa ilk o‘rta asrlargacha bu yerda sug‘diy koloniyalar tizimi shakllangan va Turk xoqonligining barpo bo‘lishi o‘zaro savdo-sotiq munosabatlariga keng imkoniyatlar yaratgan(А.Отахўжаев, 2010). Yettisuvdagi shaharsozlik jarayoniga Sug‘dliklar sezilarli ta’sir ko‘rsatib, VI asrda yuz bergan Abruyning qo‘zg‘olonidan keyin bu yerga kelgan ko‘plab buxoroliklar Hamukat (Jamukent) shahriga asos solganlar, shuningdek, Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab Shaljikat, Juvikat, Navikat va Nuzkat kabi “kent” (kanδ) tipidagi shahar markazlari vujudga kelgan. VI–VIII asrlar davomida faqat Chu vodiysining o‘zida sug‘diylarga tegishli 18 ta shahar va qo‘rg‘on mavjud bo‘lib, bu hududlarda turkiylar va sug‘diylardan tashqari suryoniylar hamda forslar istiqomat qilgan va ular, asosan, savdo faoliyati bilan shug‘ullanganlar, mahalliy aholi esa sug‘diylarning ta’siri ostida V–VI asrlardan boshlab asta-sekin o‘troqlashuv jarayoniga kirishgan (А.Отахўжаев, 2010). Chu vodiysidagi sug‘d-turk shaharlaridan Suyob Turk xoqonligining yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida shakllangan bo‘lsa, Talas daryosi bo‘yida joylashgan Talas shahri G‘arbiy Turk xoqonligi davrida siyosiy va harbiy markaz sifatida ajralib turgan. Xitoylik sayyoh Syuan Szan Yettisuv aholisi haqida ularni sug‘diy tilida so‘zlashuvchi “xu” – “g‘arbliklar” deb atagan bo‘lib, sug‘diylar turkiylarga kuchli madaniy ta’sir o‘tkazgan bo‘lsalar-da, aholining asosiy qismini tashkil etgan turkiy qabilalar oxir-oqibat sug‘diylarning turkiylashuviga sabab bo‘lgan (Отахўжаев А.; 2010). Mahmud Koshg‘ariy ham Balasog‘undagi sug‘daklarning Buxoro va Samarqand oralig‘idagi Sug‘ddan bo‘lib, ular turklarning kiyimlari va odatlarini qabul qilganini ta’kidlab, IX–X asrlarga kelib sug‘diylarning turkiy xalqlar orasida asta-sekin assimilyatsiyaga uchraganini ko‘rsatadi (Маҳмуд Кошғарий; 1960). Demak, ilk o‘rta asrlarda

Yettisuv hududida oʻtroq, yarim oʻtroq va koʻchmanchi madaniyatlarning oʻzaro sintezi yuzaga kelib, sugʻdiylarning dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va shaharsozlik sohasidagi tajribasi koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi turkiy aholining oʻtroqlashuviga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatgan hamda natijada turk–sugʻd etnomadaniy yaqinligi shakllanib, rivojlangan va oxir-oqibat sugʻdiylarning turkiylashuviga olib kelgan (А.Отахўжаев, 2010).

4.3. Ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyoda migratsiyalar va etnomadaniy makonning shakllanishi

Ilk oʻrta asrlarga kelib Markaziy Osiyoda sezilarli oʻzgarishlar yuz beradi: antik davrga xos yirik shahar maydonlari qisqarib, ularning oʻrnida qalʼa-qoʻrgʻonlar va qasr tipidagi kichik shaharcha markazlari shakllanadi, yirik shaharlarning anʼanaviy iqtisodiy va ijtimoiy faolligi esa susayadi. Biroq mazkur jarayonlarni quldorlik jamiyatining inqirozi sifatida izohlash toʻgʻri emas, chunki Markaziy Osiyoda jamoaviy yer egaligi anʼanasi hukmron boʻlib, bu hududda klassik quldorlik jamiyati shakllanmagan. Aksincha, bu oʻzgarishlar mintaqaga koʻchmanchi turkiy qabilalarning jadal kirib kelishi bilan bogʻliq murakkab etnogenetik jarayonlarning natijasi sifatida talqin etilishi lozim (С.П.Толстов; 1948).

Bronza davridan boshlangan turkiy qabilalarning Markaziy Osiyo tomon migratsiyasi antik davr oxiriga kelib yanada kuchayib, natijada Sirdaryoning nafaqat quyi, balki oʻrta havzalarida ham turkiy etnik qatlam bilan bogʻliq moddiy madaniyat majmualari, xususan, Qovunchi madaniyati shakllandi. Bu jarayonlar yozma manbalar va arxeologik dalillar asosida turkiy tilli xioniylar, kidariylar hamda eftaliylarning IV–V asrlardan boshlab Markaziy Osiyoning ichki rayonlariga kirib kelishi bilan uzviy bogʻlanadi (А.Якубовский, 1950). Ularning migratsiyasi qadimdan oʻtroq dehqonchilik bilan shugʻullangan aholi hayotining nisbiy barqarorligini buzib, shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikning kuchayishiga olib kelgan.

Milodiy VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligi hukmronligining oʻrnatilishi bilan Markaziy Osiyoga turkiy qabilalarning kirib kelishi keskin jadallashib, natijada mintaqaning shimoli, shimoli-

sharqiy va shimoli-gʻarbiy hududlarida turkiy etnos jamiyatning yetakchi etnik qatlamiga aylana boshlaydi. Amudaryogacha boʻlgan hududlarda turkiy qabilalar kirib bormagan deyarli biror makon qolmagan boʻlib, xoqonlikning qariyb bir asrlik siyosiy ustuvorligi davrida mintaqaning ijtimoiy-etnik qiyofasi turkiy qatlamlar foydasiga tubdan oʻzgargan (А.Якубовский, 1950).

Arab istilosidan avvalgi davrlarda turkiy qabilalarning mintaqaga kirib kelish miqyosi va bosqichlari haqida yozma manbalar cheklangan boʻlsa-da, arxeologik maʼlumotlar Shosh va qadimgi Fargʻona hududlarida turkiy etnik qatlam eroniy tilli aholiga nisbatan ustun boʻlganini koʻrsatadi. Arablar VII–VIII asrlarda Movarounnahrni istilo qilish jarayonida nafaqat Balx va Badaxshon atrofidagi turklar bilan, balki Fargʻona turklari bilan ham toʻqnash kelganlar (А.Якубовский, 1950). Manbalarda Shoshda oʻgʻuzlarning qadimdan mavjudligi, Fargʻonada esa qarluqlarning keng tarqalganligi haqida maʼlumotlar uchraydi.

VII–VIII asrlarda qarluq turklari nafaqat Yettisuv hududida, balki Toharistonning Balx viloyatigacha boʻlgan mintaqalarda ham istiqomat qilganlar. Arablar Movarounnahrni bosib olgach, turkiy qabilalarning Sirdaryo va Amudaryo oraligʻiga erkin kirib kelishini cheklash maqsadida Yettisuvga harbiy yurish uyushtirganlar va 737-yilda turkashlarga ogʻir zarba berganlar. Natijada turklar Sugʻd hududlaridan chekinib, siyosiy taʼsirni vaqtincha yoʻqotgan boʻlsalar-da, unga qadar bu mintaqada turkiy omil juda kuchli boʻlgan.

Arab istilosidan avval Sugʻd va unga tutash viloyatlarda koʻplab mahalliy mulkdorlar turk xonadonlari bilan qarindoshlik rishtalarini oʻrnatib, Gʻarbiy Turk xoqonligi siyosiy elitasiga yaqinlashgan edilar. Sugʻd zodagonlari orasida turkiy ismlar va unvonlarning keng tarqalishi ham shu jarayon bilan bogʻliq. Xususan, 710-yilda vafot etgan Samarqand ixshidi Tarxun nomining turkiy “tarxon” unvoni bilan aloqadorligi, shubhasizdir. Arablar Movarounnahr ustidan siyosiy hukmronlikni oʻrnatgan boʻlsalar-da, Yettisuv turklari uzoq vaqt davomida ularning doimiy raqibi boʻlib qolgan. Bu holat, ayniqsa, Muqanna qoʻzgʻoloni davrida yaqqol namoyon boʻlib, arablarning

Movarounnahr vohalarini mudofaa devorlari bilan oʻrab olishga majbur boʻlishiga olib kelgan.

Yettisuv viloyati VIII–IX asrlarda ham Abbosiylar xalifaligiga, na Tohiriylarga, na Somoniylarga boʻysungan boʻlib, bu hudud Markaziy Osiyoning gʻarbiy qismi bilan nisbatan mustaqil etnosiyosiy makon sifatida saqlanib qolgan(Якубовский А.; 1950). Shu bois Abbosiylar va ulardan keyingi sulolalarning strategik e'tibori asosan Movarounnahrning Yaqin Sharq bilan aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Arablarning Oʻrta Osiyoga kirib kelishi turkiy qabila va qavmlarning mintaqaning ichki hududlariga jadal kirib kelishini vaqtincha cheklab, avvalroq joylashib ulgurgan turkiy aholining mahalliy aholi bilan aralashuvi va assimilyatsiyasini tezlashtirdi. Ayniqsa, bu jarayon Movarounnahrning shimoli va sharqiy hududlarida yaqqol koʻzga tashlanib, VIII–IX asrlarda bu yerlarda turkiy nomli shahar va hunarmandchilik markazlari vujudga keldi, jumladan, Angren daryosi havzasida Abrlik va Namudlik kabi markazlar shakllandi (К.Шониёзов, 2001). Mintaqaning janubi hududlarida esa aksincha jarayon kuzatilib, bu yerlarga ilgari kelib joylashgan turkiy aholi kuchli eroniy til muhiti ta'sirida forsiylashdi, til almashinuvi esa muhit ustunligi, etnik oʻzlikni anglash darajasi hamda siyosiy hokimiyatning davlat siyosati bilan chambarchas bogʻliq boʻldi.

IX asrning 40-yillarida Movarounnahrning shimoli-sharqida Qarluq davlati tashkil topishi oʻzbek xalqi etnogenezida muhim burilish boʻlib, qarluq turklari atrofida oʻtroq, yarim oʻtroq va chorvador turkiy qabilalar birlashgan holda barqaror siyosiy tuzilma vujudga keltirdi ((К.Шониёзов, 2001). Tarixiy manbalarga koʻra, qarluqlar VI–VII asrlardan boshlab Oʻrta Osiyoning shimoli va shimoli-sharqiy hududlarida keng tarqalib, Janubi Qozogʻiston, Toshkent vohasi, Zarafshon havzalari hamda ayrim guruhlari Tocharistongacha yetib borgan. Arab tarixchisi At-Tabariy ma'lumotlariga koʻra, VII–VIII asrlarda Balx, Tohariston, Badaxshon, Kuhiston, Seraxs, Chogʻoniyon, Buxoro, Choch va Fargʻona aholisi tarkibida turkiy qavmlar muhim oʻrin tutgan boʻlib, ular orasida qarluq turklari yetakchi mavqega ega edi. Garchi yozma manbalarda Somoniylar bilan Qarluq davlati oʻrtasida

chegaralar mavjudligi tilga olinsa-da, amalda turkiy qabilalar Sirdaryoning shimoli hududlaridan Movarounnahrga erkin koʻchib kelgan (В.Бартольд, 1963;). Turkiy qabilalarning tinch yoʻl bilan kirib kelishi arablar istilosidan avval ham, undan keyin ham uzluksiz davom etib, ularning oʻtroqlashuvi hamda mahalliy aholining turklashuvi jarayonini jadallashtirdi, natijada Movarounnahrda turkiy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma va etnosiyosiy uyushuv mustahkamlandi.

IX asr oxirlariga kelib bu jarayon turkiy etnik qatlam ichida mulkiy tabaqalanishning kuchayishi, yuqori tabaqa vakillarining oʻzaro nizolari va siyosiy beqarorlik bilan kechdi, bu esa kuchli markazlashgan hokimiyat zaruratini yuzaga chiqardi. Ana shunday hokimiyat sifatida Qarluq davlati namoyon boʻlib, uning ta'sir doirasi Yettisuvdan Fargʻonaning sharqiy hududlari va Sirdaryoning oʻrta havzalarigacha choʻzilgan, natijada keyinchalik oʻzbek nomi bilan tanilgan xalqning siyosiy jihatdan uyushishi uchun IX–X asrlarda mustahkam etnosiyosiy poydevor yaratildi (К.Шониёзов, 2001). Shu tariqa, aynan ushbu davrga kelib Oʻrta Osiyoning shimoli va sharqiy viloyatlari doirasida yirik turkiy etnogeografik birlik shakllanib, keyinchalik Movarounnahrning markaziy va janubi hududlarini ham qamrab oldi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan etnik jarayonlar murakkab migratsiyalar, siyosiy urushlar hamda mahalliy oʻtroq aholi bilan koʻchmanchi turkiy qatlamlar oʻrtasidagi uzoq muddatli oʻzaro ta'sir natijasida shakllandi. Arab istilolari natijasida mintaqada siyosiy boshqaruv tizimi tubdan oʻzgargan boʻlsa-da, bu jarayon etnik tarkibning keskin almashuviga olib kelmadi. Aksincha, arablar tomonidan olib borilgan markazlashtirish siyosati va islomiy boshqaruv tizimining joriy etilishi turkiy qabilalarning Movarounnahr va unga tutash hududlarda oʻtroqlashuvini tezlashtirdi hamda etnik-madaniy qorishuv jarayonini chuqurlashtirdi.

Xalifalik ma'muriyati dastlab mahalliy diniy va ijtimoiy elitalarga tayanmagan holda boshqaruvni markazlashtirishga uringan boʻlsa-da, keyinchalik Tohiriylar va Somoniylar bilan murosaga kelishi natijasida mintaqada nisbatan barqaror siyosiy muhit vujudga keldi. Bu holat Movarounnahr va Xurosonda ilmiy-ma'rifiy markazlarning shaklla-

nishiga, islomiy madaniyatning keng tarqalishiga va mahalliy aholining umumiy etnomadaniy makonda uyg‘unlashuviga xizmat qildi. Shu bilan birga, arab siyosati turkiy siyosiy ustunlikni zaiflashtirishga qaratilgan bo‘lsa-da, amalda mintaqada turkiy tillarning ijtimoiy muloqot tili sifatida mustahkamlanishiga to‘sqinlik qila olmadi.

Natijada Movarounnahr va unga tutash hududlarda turk-sug‘diy etnomadaniy makon shakllandi. Bu makon keyinchalik o‘zbek xalqining etnik shakllanishi uchun muhim tarixiy asos bo‘lib xizmat qildi. Demak, ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo etnik manzarasi faqat siyosiy bosqinlar natijasi emas, balki migratsiya, o‘troqlashuv, madaniy moslashuv va hududiy-etnik integratsiya jarayonlari bilan belgilanadigan murakkab etnogeografik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar etnogeografiyasi qanday manbalar asosida o‘rganiladi?
2. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda qaysi asosiy etnik jamoalar yashagan?
3. Ilk o‘rta asrlarda etnik jarayonlarning asosiy omillarini sanab bering.
4. Turk xoqonliklari davrida siyosiy jarayonlar etnik tarkibga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
5. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoga qaysi etnoslarning migratsiyasi kuzatilgan?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi tarixiy-madaniy viloyatlarning xo‘jaligi haqida tahlil qiling.
2. Turk, sug‘d, eftalit va boshqa etnik guruhlar o‘rtasidagi etnomadaniy aloqalarni misollar asosida izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Ч. 1. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1963. – 748 с.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху арабского завоевания. – Москва: Восточная литература, 1963. – 280 с.

3. Бернштам А.Н. Социально-экономический строй орхонских тюрков. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1946. – 284 с.

4. Бернштам А.Н. Очерки истории гуннов. – Ленинград: Наука, 1974. – 312 с.

5. Исхаков М.М., Камолиддин Ш.С., Бабаяров Г.Б. Заметки по истории нумизматики раннесредневекового Чача (III–VIII вв.) // Серия рабочие документы ИФЕАК. – Вып. 26. – Ташкент, 2007. – С. 7–26.

6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1960. – 3 жилд.

7. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Монография. – Тошкент: ART-FLEX, 2010. – 325 б.

8. Раҳмонов Н., Матбобоев Б. Ўзбек халқи этник тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 2006. – 248 б.

9. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – Москва: Изд-во АН СССР, 1948. – 392 с.

10. Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 352 б.

11. Якубовский А.Ю. К вопросу об этническом составе населения Средней Азии в раннем средневековье. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1950. – 214 с.

12. Якубовский А.Ю. Очерки по истории тюркских народов Средней Азии. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1952. – 236 с.

5-MAVZU: X-XV ASRLARDA MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

Reja:

1. Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar davri etnogeografiyasiga doir manbalar tahlili.

2. X-XIII asrlarda Markaziy Osiyoning etnik tarkibi va aholining joylashuvi dinamikasi.

3. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda etnik makonning transformatsiyasi.

Darsning maqsadi: *talabalarga X–XV asrlarda Markaziy Osiyo hududida kechgan etnik jarayonlar, aholining joylashuvi, siyosiy omillar ta’sirida yuz bergan etnik integratsiya va madaniy sintez jarayonlarini ilmiy asosda tushuntirish hamda tarixiy manbalar asosida tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *etnik makon, Movarounnahr, Chig‘atoy ulusi, Qoraxoniylar, Temuriylar, etnik integratsiya, ko‘chmanchi va o‘troq madaniyat, sug‘orma dehqonchilik, migratsiya, til birligi, Dashti Qipchoq, etnik transformatsiya.*

5.1. Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar davri etnogeografiyasiga doir manbalar tahlili.

Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar davri etnogeografiyasini tadqiq etishda Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yozilgan “Devonu lug‘otit turk” asari eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar nafaqat tilshunoslik yodgorligi, balki turkiy xalqlarning etnik tarkibi, qabilaviy tuzilishi, yashash hududlari va ularning makon bo‘ylab joylashuvi haqida boy tarixiy-geografik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli u Markaziy Osiyoda etnik makonning shakllanish jarayonlarini rekonstruksiya qilishda asosiy yozma manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Asarda turklar 20 ta asosiy qabiladan tashkil topgani ta’kidlanadi. Har bir qabilaning ko‘plab urug‘lari mavjud bo‘lib, Koshg‘ariy asosan ularning “ona urug‘lari”ni qayd etadi. Bu holat etnik tuzilmaning ichki ierarxik tizimini aks ettirib, turkiy jamiyatlarda urug‘-qabila asosidagi ijtimoiy tashkilotning ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘g‘uz

turkmanlarining kichik urug‘lari va ularning chorva mollari uchun ishlatilgan tamg‘alari batafsil tasvirlanadi. Bu ma’lumotlar nafaqat etnografik, balki iqtisodiy-geografik jihatdan ham muhim bo‘lib, chorvachilik madaniyatida mulkni belgilash va hududiy mansublikni aniqlash mexanizmlarini ochib beradi.

Mahmud Koshg‘ariyning etnogeografik yondashuvdagi eng muhim jihatlaridan biri – turkiy qabilalarning makon bo‘ylab joylashuvini tizimli tarzda bayon etishidir. U Sharqdan G‘arbga qarab yoki Rum (Vizantiya)dan boshlab Chin (Xitoy) tomon harakatlanib, qabilalarning yashash hududlarini ketma-ketlikda sanab o‘tadi. Bu uslub turkiy dunyoning o‘sha davrdagi geografik tasavvurini aks ettirib, Markaziy Osiyoni Sharq va G‘arb o‘rtasidagi keng etnik-hududiy makon sifatida talqin etish imkonini beradi.

Koshg‘ariy ma’lumotlariga ko‘ra, Rumga eng yaqin joylashgan turkiy qabilalar bijanak (badjanak), undan keyin qipchoq, o‘g‘uz, jamaq, bashg‘irt, basmil, qay, jabqu, tatar va qirg‘izlar bo‘lgan. Qirg‘izlar Chin hududlariga yaqin joylarda yashagan deb qayd etiladi. Bu tartib turkiy qabilalarning Sharqiy Yevropa dashtlaridan tortib Sharqiy Turkiston va Xitoy chegaralarigacha cho‘zilgan keng hududda tarqalganini ko‘rsatadi. Natijada Markaziy Osiyo turkiy dunyoning markaziy bo‘g‘ini sifatida shakllangan makon sifatida namoyon bo‘ladi.

Keyingi guruh sifatida chigil, tuxsi, jag‘ma, ig‘roq, jaruq, jumul, uyg‘ur, tangut va xita (xitoy) qabilalari zikr qilinadi. Bu ro‘yxat etnik makonning Sharqiy Turkiston va unga tutash hududlarga tomon kengayishini ifodalaydi. Ayniqsa, “Tavgač (Močin)” atamasining Sharqiy Xitoy hududlarini bildirishi, turkiy dunyoning Xitoy sivilizatsiyasi bilan tutash chegaralarini ko‘rsatib beradi. Bu holat Markaziy Osiyo o‘rta asrlarda turli sivilizatsiyalar tutashgan makon bo‘lganini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Devonu lug‘otit turk” asarining etnogeografik ahamiyati shundaki, u faqat etnik guruhlarning ro‘yxatini berib qolmay, balki ularning hududiy joylashuvi, siyosiy mavqeyi va madaniy aloqalari haqida ham bilvosita ma’lumotlar taqdim etadi. Masalan, ayrim qabilalarning Rumga yaqin yoki Chin hududlariga yaqin joylashgani

ularning siyosiy, savdo va madaniy aloqalar yo‘nalishlarini ham anglash imkonini beradi.

Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalarni “musulmon” va “nomusulmon” guruhlarga ajratib ko‘rsatadi. Bu ajratish diniy geografiya nuqtayi nazaridan muhim bo‘lib, XI asrga kelib islom dini Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda turkiy etnik makonning madaniy-iqtisodiy tashkil topishida muhim omilga aylanganini ko‘rsatadi. Natijada diniy mansublik etnik identiklik bilan chambarchas bog‘lanib, turkiy jamoalarning hududiy tashkil topishida yangi sivilizatsion qatlam yuzaga kelgan.

Etnogeografik nuqtayi nazardan, “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlarning faqat tarixiy o‘tmishini emas, balki ularning makon bilan munosabatini ham ochib beradi. Qabilalarning yaylovlari, ko‘chish yo‘nalishlari, chorvachilikka mos hududlarda joylashuvi va sug‘orma dehqonchilikka asoslangan vohalar bilan aloqalari etnik makonning tabiiy-landshaft sharoitlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi. Bu esa Markaziy Osiyo etnogeografiyasida ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi tarixan muhim jarayon bo‘lganini tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar davri etnogeografiyasini tadqiq etishda yozma manbalar orasida Abu Sa’d as-Sam’oniy (XII asr) tomonidan yaratilgan “Kitob al-Ansob” asari ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Asar dastlab biografik-lug‘aviy xarakterga ega bo‘lsa-da, unda keltirilgan geografik nomlar, hududiy nisbatlar va makon tavsiflari Markaziy Osiyo shahar va vohalarining etnik, madaniy hamda tabiiy-makoniy xususiyatlarini tiklash imkonini beradi.

As-Sam’oniy o‘z asarida joy nomlariga nisba shaklida murojaat qilib, ularning kelib chiqishi, joylashuvi va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini izohlaydi. Bu uslub orqali muallif shaxsiy tarjimai hol ma’lumotlari bilan bir qatorda muayyan hududlarning tabiiy sharoiti, iqtisodiy salohiyati va madaniy muhiti haqida ham muhim ma’lumotlarni yetkazadi. Natijada “Kitob al-Ansob” Markaziy Osiyo o‘rta asrlar etnik makonining ichki tuzilishini tushunishda muhim manbaga aylanadi.

As-Sam’oniy Samarqand vohasini “As-Sug‘d” nomi bilan tilga olib, uni nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz, balki tabiiy go‘zalligi va obodligi bilan mashhur hudud sifatida tasvirlaydi. U Xushufoqn qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan majlis haqidagi rivoyatni keltirib, Samarqand Sug‘dini dunyodagi “uch jannat”dan biri sifatida ta’riflaydi. Bu tasvir o‘rta asr manbalarida Sug‘d vohasining sug‘orma dehqonchilikka asoslangan serhosil yerlar, bog‘-rog‘lar va rivojlangan qishloq xo‘jaligi madaniyatiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

As-Sam’oniy ma’lumotlariga ko‘ra, Xushufoqn (keyinchalik Ra’s al-Qantara nomi bilan mashhur bo‘lgan) Samarqanddan taxminan o‘n farsax masofada joylashgan bo‘lib, vohaning ichki qishloq tizimida muhim maskan bo‘lgan. Bu hudud Zarafshon vodiysining sug‘orma dehqonchilik rivojlangan zonalariga kirib, Samarqand shahrini oziq-ovqat va xomashyo bilan ta’minlovchi agrar makon sifatida faoliyat yuritgan. Etnogeografik jihatdan Sug‘d vohasi o‘troq madaniyatning markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda shahar, qishloq va dehqonchalik vohalari o‘zaro uyg‘unlashgan murakkab makon tizimi shakllangan.

As-Sam’oniy tomonidan tasvirlangan Iloq hududi Shosh (hozirgi Toshkent) mamlakatining sharqiy qismida, turklar bilan qo‘shni bo‘lgan hudud sifatida qayd etiladi. U Shoshdan o‘n farsax masofada joylashgani, Navbaxt chegarasi orqali Farg‘ona vodiysiga tutashgani bilan ta’riflanadi. Bu ma’lumot Iloqning geografik jihatdan tog‘-vodiy o‘tish zonasida joylashganini va muhim tranzit hudud bo‘lganini ko‘rsatadi. Muallif Iloqni “go‘zal va serunum yurt” sifatida tasvirlab, uning sug‘oriladigan yerlari kengligi, tog‘larida oltin va kumush konlari mavjudligini alohida ta’kidlaydi. Bu ma’lumotlar Iloqning o‘rta asrlarda tog‘-kon resurslariga tayangan iqtisodiy makon bo‘lganini, shu bilan birga sug‘orma dehqonchilik ham rivojlangan hudud ekanini ko‘rsatadi. Qishloqlari suv bilan uzluksiz ta’minlanganligi va atrofining yam-yashilligi bu hududda tabiiy resurslardan samarali foydalanilganini anglatadi.

Etnogeografik nuqtayi nazardan, Iloq Shosh va Farg‘ona oralig‘idagi madaniy va iqtisodiy o‘tish zonasi sifatida shakllangan. Bu hudud tog‘li chorvachilik, tog‘-kon sanoati va sug‘orma dehqonchilik elementlari uyg‘unlashgan kompleks xo‘jalik makoni bo‘lgan.

As-Sam’oniy Baykandni Movarounnahr shaharlaridan biri sifatida tilga olib, uning Buxorodan bir marhala masofada joylashganini ko‘rsatadi. Arab fathlari davrida Baykand muhim strategik nuqta bo‘lib, islom lashkarlarining harbiy tayanch maskanlaridan biri hisoblangan. As-Sam’oniy Baykandga borganda faqat bir necha turkmanlar yashovchi rabotlarni ko‘rganini, ilgari bu yerda uch mingga yaqin rabot bo‘lganini eshitganini yozadi. Bu ma’lumot shahar harbiy-strategik ahamiyatining yuqori bo‘lgan davrida ko‘plab harbiy-inshootlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Baykandning Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgani uni savdo yo‘llari va harbiy yurishlar uchun qulay nuqtaga aylantirgan.

As-Sam’oniy asari Markaziy Osiyo o‘rta asrlar etnogeografiyasini o‘rganishda bir necha muhim jihatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, u hududlarni faqat siyosiy birlik sifatida emas, balki tabiiy-makoniy, iqtisodiy va madaniy tizimlar majmuasi sifatida tasvirlaydi. Sug‘d vohasining irrigatsion dehqonchilik asosidagi shahar-qishloq tizimi, Iloqning tog‘-kon va sug‘orma xo‘jalikka tayangan o‘tish zonasi, Baykandning harbiy-strategik shahar sifatida shakllanib, keyinchalik tanazzulga yuz tutishi Markaziy Osiyo makonining ichki xilma-xilligini ko‘rsatadi.

XII asr oxiri – XIII asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan Yoqut Abu Abdulloh Shihobiddin ar-Rumiy al-Hamaviy o‘rta asr Sharq geografik tafakkurining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning “Mu’jam al-buldon” (“Mamlakatlar qomusi”) asari tarixiy-geografik, etnografik va filologik ma’lumotlarni birlashtirgan ensiklopedik manba bo‘lib, o‘rta asr dunyo tasavvuri, joy nomlari, hududlarning tabiiy sharoiti, aholining turmush tarzi va etnik xususiyatlarini tizimli tarzda yoritadi.

Yoqut al-Hamaviy Movarounnahr hududini (Amudaryoning sharqiy sohili) qadimgi “Haytal shaharlari” bilan qiyoslab, islom davrida bu makon “Movarounnahr” nomi bilan mashhur bo‘lganini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, Amudaryoning g‘arbiy sohili Xuroson va Xorazm bilan chegaradosh bo‘lib, Xorazm alohida iqlimiy va madaniy hudud sifatida ajralib turadi. Bu tavsif Markaziy Osiyo makonining o‘rta asrlardagi hududiy farqli xususiyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Muallif Movarounnahrni serunum zamin, suvga boy vohalar, rivojlangan dehqonchilik va chorvachilik bilan ajralib turuvchi makon sifatida koʻrsatadi. Yoqut al-Hamaviyning qayd etishicha, bu hududda aholi saxovatli, mehmondoʻst va jasur boʻlib, ular yer va suv resurslaridan samarali foydalanish orqali barqaror xoʻjalik tizimini shakllantirganlar. Bu mulohazalar Movarounnahrda tabiiy muhit bilan inson faoliyati oʻrtasidagi uygʻunlik asosida mustahkam etnomadaniy makon vujudga kelganini koʻrsatadi.

Yoqut al-Hamaviy Movarounnahrning sugʻoriladigan dehqonchilikka asoslangan xoʻjaligini alohida ta’kidlaydi. Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi kanallar va ariqlar orqali yerlarning muntazam sugʻorilishi don, meva-sabzavot va texnik ekinlarning moʻl hosil berishini ta’minlagan. U mevalarning xilma-xilligi va moʻl-koʻlligi haqida yozib, Sugʻd, Ustrushona, Fargʻona va Shosh kabi vohalarni butun Sharqdagi eng serhosil hududlar qatoriga qoʻshadi. Bu tasvirlar oʻrta asr Markaziy Osiyosida sugʻorma dehqonchilik sivilizatsiyasi yuqori darajada rivojlanganini koʻrsatadi.

Muallifning yozishicha, Movarounnahrda chorvachilik ham muhim xoʻjalik tarmogʻi boʻlib, ot, tuya, eshak va boshqa yuk hayvonlari keng tarqalgan. Goʻsht, sut va jun mahsulotlari nafaqat ichki ehtiyojni qondirgan, balki ortiqcha qismi tashqi bozorlarga ham chiqarilgan. Bu esa hududda dehqonchilik va chorvachilik oʻzaro uygʻunlashgan kompleks xoʻjalik tizimi shakllanganini koʻrsatadi. Ayniqsa, yaylov va voha xoʻjaligining birgalikda mavjudligi koʻchmanchi va oʻtroq madaniyat elementlarining sintezini yuzaga keltirgan.

Etnogeografik nuqtayi nazardan, Yoqut al-Hamaviy Movarounnahrni nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan hudud, balki turkiy va sugʻdiy madaniyatlar sintezi yuzaga kelgan murakkab etnomadaniy makon sifatida tasvirlaydi. Sugʻdiy shahar madaniyati, sugʻoriladigan dehqonchilik an’analari va savdo aloqalari turkiy koʻchmanchi madaniyat elementlari bilan qoʻshilib, oʻziga xos sivilizatsion muhitni shakllantirgan. Masalan, Sugʻd vohasi Samarqand atrofida joylashgan sugʻorma dehqonchilik madaniyat markazi boʻlgan boʻlsa, Fargʻona vodiysi bogʻdorchilik va hunarmandchilik bilan

mashhur hudud sifatida tanilgan, Shosh esa savdo va tranzit yoʻllari chorrahasida joylashgan muhim makon boʻlib xizmat qilgan.

5.2. X-XIII asrlarda Markaziy Osiyoning etnik tarkibi va aholining joylashuvi dinamikasi.

X-XI asrlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasi uchun tub burilish davri hisoblanadi. Bu davrda hududda siyosiy hokimiyatning turkiy sulolalar qoʻliga oʻtishi, aholining joylashuvi va etnik tarkibining qayta shakllanishi hamda til-madaniyat birligining kuchayishi kuzatiladi. Xususan, Qoraxoniylar davlati hukmronligi ostida Movarounnahr va unga tutash hududlarda turkiy etnik asos mustahkamlanib, keyinchalik oʻzbek xalqining shakllanishi uchun muhim shart-sharoitlar yuzaga kelgan.

X asr oʻrtalarida Qarluq siyosiy an’analari asosida Qoraxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keldi. X asr oxiri – XI asr boshlariga kelib, ular Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Fargʻona, Toshkent vohasi, Sugʻdning bir qismi hamda Amudaryoning yuqori oqimi hududlarida siyosiy ustunlikni qoʻlga kiritdilar. Natijada keng hududiy makonda yagona siyosiy tuzilma vujudga keldi. Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayon turkiy aholi guruhlarining hududiy birlashuvi va oʻzaro integratsiyasini kuchaytirib, umumiy etnik-madaniy maydon shakllanishiga xizmat qildi.

Mazkur davrga kelib, Markaziy Osiyoda aholi tarkibi murakkab va koʻp qatlamli boʻlib, unda qadimiy sugʻdiy, xorazmiy va turkiy aholi bilan bir qatorda qarluq, chigil, yagʻmo, tuxsi, argʻun, turkash kabi qabilalar keng tarqalgan edi. Bu etnik guruhlar oʻtroq dehqonchilik vohalari – Zarafshon, Fargʻona, Toshkent va Amudaryo havzalarida hamda yarim koʻchmanchi hududlarda yonma-yon yashagan. Ular oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar, savdo, nikoh munosabatlari va madaniy almashinuv natijasida etnik chegaralar asta-sekin yumshab, assimilatsiya jarayonlari kuchaydi.

Etnogeografik jihatdan ayniqsa muhim jihat shundaki, Qoraxoniylar davlati davrida turkiy tillarning ijtimoiy mavqeyi keskin oshdi. Avvalgi Somoniylar davrida siyosiy va ma’muriy hayotda forsiy til ustun boʻlgan boʻlsa, endilikda turkiy til davlat boshqaruvi, adabiyot

va diniy-ma’rifiy muhitda keng qo‘llanila boshladi. Bu holat turkiy aholi guruhlarining madaniy o‘zligini mustahkamlab, ularni yagona etnik-makoniy tizim doirasida birlashtirdi. Shunday qilib, til birligi etnik integratsiyaning muhim omiliga aylandi.

XI asr o‘rtalarida Qoraxoniylar davlati Sharqiy va G‘arbiy qismlarga bo‘linib ketdi. G‘arbiy Qoraxoniylar hududi – asosan Movarounnahr va unga tutash viloyatlarni qamrab olgan makon – turkiy etnik guruhlarning yanada yaqinlashuvi uchun muhim ijtimoiy-madaniy sharoit yaratdi. Ayniqsa, qarluq-chigil lahjalari asosida jonli turkiy tilning shakllanishi uchun qulay muhit yuzaga keldi. Bu jarayon tilning faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki etnik o‘zlikni mustahkamlovchi omil sifatida rivojlanishiga olib keldi.

Mazkur davrda shahar va qishloq makonlarida aholi joylashuvi ham muhim o‘zgarishlarga uchradi. Samarqand, Buxoro, O‘tror, Toshkent, Farg‘ona shaharlari iqtisodiy va madaniy markaz sifatida rivojlanib, turkiy va forsiy aholi guruhlarini o‘ziga tortuvchi integratsiya zonalariga aylandi. Shahar muhitida hunarmandchilik, savdo va ma’muriy faoliyat rivojlangan bo‘lsa, qishloq hududlarida sug‘orma dehqonchilik asosida yashovchi aholi jamlangan edi. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi guruhlar esa tog‘ oldi zonalari, yaylovlar va cho‘l hududlarida chorvachilik bilan shug‘ullanib, shahar va voha iqtisodiyoti bilan o‘zaro bog‘lanib bordilar. Bu hududiy ixtisoslashuv etnik guruhlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirib, umumiy hududiy aloqa tizimni mustahkamladi.

Etnogenetik jarayonlarda esa turkiy qabilalar bilan mahalliy sug‘diy va xorazmiy aholining o‘zaro ta’siri alohida ahamiyat kasb etdi. Ularning uzoq davom etgan birgalikdagi yashashi natijasida moddiy madaniyatda uy-joy qurilishi, dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik uslublari hamda ma’naviy hayotda urf-odatlar, marosimlar, diniy tasavvurlarda o‘zaro sintez jarayonlari yuz berdi. Bu holat Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy-madaniy o‘ziga xosligini belgilab bergan ko‘p qatlamli etnomadaniy tizimni shakllantirdi.

Akademik K.Shoniyozov tadqiqotlarda qayd etilishicha, IX–X asrlardayoq Movarounnahrning shimoli va shimoli-sharqiy hududlarida turkiy etnik asoslar yetarlicha shakllangan edi. Biroq

siyosiy hokimiyatning forsiy tilli sulolalar qo‘lida bo‘lishi sababli bu jarayon uzoq vaqt davomida yakuniy shaklga ega bo‘lmadi. Qoraxoniylar davrida esa etnik asos bilan siyosiy tuzilma o‘rtasidagi muvofiqlik yuzaga kelib, etnik shakllanish jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon, ayniqsa, til birliklari orqali yaqqol namoyon bo‘ldi(K.Shoniyozov, 2001).

Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib asarlarida kuzatiladigan umumturkiy adabiy til an’analari XI asr madaniy muhitining mahsuli bo‘lsa, Ahmad Yassaviy va Ahmad Yugnakiy ijodida mahalliy turkiy lahjalarga yaqinlashgan til shakli rivojlanib, jonli eski o‘zbek tilining dastlabki namunalari sifatida baholanadi. Bu til jarayonlari etnik birlikning mustahkamlanishi va madaniy makonning ichki farqli xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq edi.

Ushbu davrlarga kelib, Movarounnahr va unga tutash hududlarda yashovchi aholi tarkibida turkiy unsurlar ustunlik qila boshladi. Tub mahalliy etnik qatlamlar turkiy aholi bilan keng miqyosda aralashib, umumiy etnomadaniy muhitni vujudga keltirdi. Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayon hududiy uzluksizlik asosida kechgan: ya’ni, aholining joylashuvi keskin ko‘chishlar orqali emas, balki mavjud hududlarda uzoq muddatli birga yashash va moslashuv orqali amalga oshdi. Natijada bir-biridan keskin farq qilgan etnik chegaralar sekin-asta yo‘qolib bordi.

Shu tariqa, XI–XIII asrlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasida hududiy integratsiya va madaniy sintez jarayonlarining yakuniy bosqichi sifatida baholanadi. Aynan shu davrda hozirgi o‘zbek xalqining shakllanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy etnik belgilar - umumiy hududiy makon, til birligi, moddiy va ma’naviy madaniyat uyg‘unligi hamda o‘zlikni anglash shakllari vujudga keldi. Bu jarayonlar nafaqat tarixiy-etnografik, balki madaniy-geografik jihatdan ham Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim bosqichini tashkil etadi.

Shunday qilib, X–XIII asrlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasi turkiy va mahalliy etnik unsurlar o‘rtasidagi uzoq davom etgan o‘zaro ta’sir, siyosiy birlik va hududiy integratsiya natijasida shakllangan murakkab jarayon sifatida tavsiflanadi. Bu davrda aholi joylashuvi, til muhiti va madaniy amaliyotlarning uyg‘unlashuvi yangi etnik

birliklarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Shu sababli mazkur davr Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining etnik tarixi va etnogeografiyasini tushunishda asosiy bosqich sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

G‘arbiy Qoraxoniylar davrida shakllangan etnik jarayonlar XIII asr boshlariga kelib murakkab siyosiy vaziyat fonida davom etdi. Qariyb ikki asr hukmronlik qilgan Qoraxoniylar sulolasi Xorazmshoh Muhammad tomonidan tugatildi. Markazlashgan hokimiyatga ega bo‘lgan Xorazmshoh davlatining siyosiy faoliyati Sirdaryo quyi havzalariga yo‘naltirildi. Bu hududlarda yashovchi qipchoq ko‘chmanchilarga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlar ularni to‘liq bo‘ysundira olmagan bo‘lsa-da, mintaqada ijtimoiy beqarorlikni kuchaytirdi va aholining turmush sharoitiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu davrda Ili daryosi havzasida yashovchi naymanlar kuchayib, Qoraxitoylar davlati inqirozidan foydalanib, Kuchlikxon boshchiligida yangi siyosiy tuzilma barpo etdilar. Naymanlar Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi qarluq, qangli, qipchoq va boshqa turkiy guruhlarga qarshi harbiy yurishlar olib borib, musulmon aholini talon-toroj qildilar. Bu holat mintaqada xavfsizlik muhitining izdan chiqishiga va aholi harakatining kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Naymanlar bosimidan xavotirlangan qipchoq va qangli sardorlari yordam so‘rab Chingizxonga murojaat qildilar. Natijada O‘rta Osiyoda ikki yirik siyosiy kuch – Xorazmshohlar davlati va mo‘g‘ullar imperiyasi o‘rtasida keskin qarama-qarshilik shakllandi. Bu qarama-qarshilik XIII asr boshlarida yuz bergan O‘tror voqeasi bilan ochiq harbiy to‘qnashuvga aylandi va keng ko‘lamli mo‘g‘ul bosqiniga olib keldi.

Mo‘g‘ullar istilosi Movarounnahr va unga tutash hududlarning shahar va qishloqlarini jiddiy vayron qildi. Samarqand, Buxoro, Urganch va Xo‘jand kabi yirik markazlarda aholi keskin kamaydi, irrigatsiya tizimlari ishdan chiqdi, hunarmandchilik va savdo faoliyati izdan chiqdi. Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayon vohalarda shakllangan o‘troq dehqonchilik madaniyatining vaqtincha inqirozga uchrashiga hamda aholi joylashuvi tizimining buzilishiga olib keldi.

Bosqindan omon qolgan aholi, asosan, o‘troq dehqonlar va shahar aholisi og‘ir iqtisodiy sharoitda yashashga majbur bo‘ldi. Hosilning

katta qismi mo‘g‘ullar tomonidan tortib olinar, chorvador aholining bir qismi esa qirilib ketgan yoki tarqalib ketgan edi. Natijada voha atrofidagi ko‘chmanchi chorvador qatlam keskin kamaydi. Ularning ko‘pchiligi tirikchilik izlab shahar va qishloqlarga ko‘chib, mahalliy aholiga aralashib, asta-sekin o‘troq hayot tarziga o‘tdi. Bu holat etnik guruhlarning hududiy va ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirib, ayrim qabila nomlarining yo‘qolishiga olib keldi.

Mo‘g‘ul bosqinidan keyingi qariyb yarim asr davomida Movarounnahr aholisi avvalgi demografik holatini tiklay olmadi. Shu bilan birga, tashqi hududlardan yangi etnik guruhlarning keng miqyosda kirib kelishi ham vaqtincha to‘xtadi. Natijada mintaqada mavjud etnik tarkib saqlanib qolgan holda, ichki ijtimoiy va makoniy moslashuv jarayonlari ustuvor bo‘ldi.

XIII asrning 60-yillariga kelib, Chingizxon imperiyasi ichidagi siyosiy ziddiyatlar kuchayishi natijasida Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida Chig‘atoy ulusi shakllandi. Harbiy-ma’muriy ehtiyojlar sababli bu hududlarga turk-mo‘g‘ul qabilalari joylashtirildi. Barlos, jaloyir, qavchin va arlot kabi qabilalar Movarounnahrning turli qismlariga o‘rnashib, mahalliy aholi bilan aralashdi. Xususan, jaloyirlar Angren vodiysi va Xo‘jand atrofiga joylashdi. Rashid ad-Din va Abulg‘oziy Bahodirxon yozmalariga ko‘ra, jaloyirlarning ilk ajdodlari Mongoliyaning Onon daryosi havzalarida yashagan. XIII asr boshlarida ularning ayrim guruhlari Ili daryosi vodiysiga, asrning 60-yillarida esa Movarounnahr hududlariga ko‘chib kelgan. Amir Temur davrida jaloyirlar harbiy-siyosiy hayotda faol qatnashgan bo‘lsalar-da, ayrim guruhlarning siyosiy qarshiliklari natijasida ularning ulusi tarqatib yuborilgan. Shunga qaramay, jaloyirlarning bir qismi Movarounnahrda qolib, mahalliy aholi bilan integratsiyalashgan. Bu holat etnik guruhlarning siyosiy jarayonlar ta’sirida hududiy joylashuvi o‘zgarib borishini ko‘rsatadi.

Barloslar ham dastlab Onon va Kerulen daryolari havzalarida yashagan bo‘lib, Chingizxon davrida ishonchli harbiy kuch sifatida tanilgan. XIII asrning birinchi yarmida ularning ayrim guruhlari Ili vodiysi va Sharqiy Turkistonning g‘arbiy hududlariga, keyinchalik esa Kesh viloyatiga ko‘chib kelgan. Barloslar orasidan Amir Temurning

yetishib chiqishi bu qabilaning Movarounnahr siyosiy hayotidagi oʻrnini yanada mustahkamlagan. Temuriylar davrida barloslar davlat boshqaruvi va harbiy tizimda muhim mavqega ega boʻlgan. Etnogeografik nuqtayi nazardan, barloslarning Movarounnahrda mustahkam joylashuvi siyosiy hokimiyat bilan etnik makon oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni namoyon etadi.

Qavchinlar asosan Fargʻona vodiysi va Qashqadaryo havzasida joylashgan boʻlib, ayrim guruhlari Qashgʻar hududlarida ham yashagan. Manbalarda “qavchin” soʻzi “harbiy” ma’nosini anglatadi va ular kelib chiqishi jihatidan turkiy guruh sifatida baholanadi. Arlotlar esa moʻgʻul urugʻlaridan boʻlib, dastlab Moʻgʻuliston hududida yashagan, keyinchalik Yettisuv orqali Surxondaryo vohasi va Shimoli Afgʻonistonga koʻchib kelgan. Bu jarayonlar etnik guruhlarning tabiiy-geografik yoʻlaklar boʻylab harakatlanganini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, mintaqaning asosiy turgʻun aholisi oʻzbek va tojiklardan iborat boʻlib, ular dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo faoliyati bilan shugʻullanganlar. Bu davrda etnik nomlardan koʻra hududiy mansublik ustuvor boʻlib, aholi koʻpincha oʻz yashash joyi nomi bilan atalgan. Fargʻona vodiysi, Toshkent va Xorazm vohalarida yashagan oʻtroq aholi manbalarda etnik nom emas, balki muayyan hududda yashovchi dehqon va hunarmand aholining umumiy ijtimoiy belgisini anglatgan. Shu bilan birga “turk” va “turk elati” iboralari uchraydi. Bu atamalar tor etnik ma’noda emas, balki Movarounnahr hududida yashagan barcha turkiy tilli aholiga nisbatan umumiy nom sifatida qoʻllangan.

Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayonlar hududiy aholi tarkibining keskin almashuvi emas, balki mavjud etnik qatlamlarning yangi siyosiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvi sifatida namoyon boʻldi. Turk-moʻgʻul qabilalarining oʻtroqlashuvi va mahalliy turkiy hamda forsiy tilli aholi bilan integratsiyasi keyingi asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarkibi va madaniy tuzilmasi shakllanishiga muhim ta’sir koʻrsatdi.

5.3. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda etnik makonning transformatsiyasi.

XIV–XV asrlarda mintaqadagi turkiy tilli aholi asosan o‘troq hayot tarziga o‘tgan edi. Bu jarayon ilgari ko‘chmanchi bo‘lgan qarluq, chigil, xalach, arg‘un, qipchoq va o‘g‘uz guruhlarining mahalliy aholiga aralashuvi bilan kechdi. Natijada hududda iqtisodiy faoliyat turlari sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo – etnik integratsiyaning asosiy omiliga aylandi. Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayon etnik makonning ko‘chmanchi-o‘troq tarzidan o‘troq, barqaror hududiy tuzilmalarga o‘tishini ifodalaydi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda iqtisodiy va madaniy tiklanish yuz berdi. Samarqand, Buxoro, Hirot va Toshkent kabi shaharlarda madaniyat rivojlandi, sug‘orish tizimlari qayta tiklandi, hunarmandchilik va savdo kengaydi. Bu jarayonlar turli etnik guruhlarning bir hududda barqaror yashashiga sharoit yaratdi. Yarim o‘troq va ko‘chmanchi aholi esa harbiy xizmat orqali davlat tizimiga va asta-sekin o‘troq hayot tarziga moslashdi.

“Temur tuzuklari”da qayd etilishicha, Amir Temur qo‘shini qabila-urug‘ tuzilmasi asosida tashkil etilgan bo‘lib, barlos, jaloyir, arg‘un, qipchoq, arlot, sulduz, tatar va boshqa qavmlar Sohibqironning asosiy harbiy tayanchi bo‘lgan. Ayrim qabilalar “tamg‘a” olib, xos navkarlar safida xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa qabilalar ulus amirliklari orqali harbiy-ma’muriy tizimga jalb etilgan. Bu holat etnik guruhlarning davlat boshqaruvi va harbiy tizim orqali hududiy aralashuvini kuchaytirgan.

Mazkur davrda o‘zbek xalqi ajdodlari tarkibiga turkiylashgan mo‘g‘ul guruhlari ham qo‘shildi. Chingizxon yurishlaridan keyin Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida joylashgan ayrim mo‘g‘ul guruhlari mahalliy aholi ta’sirida til jihatidan turkiylashdi, biroq qabila nomlarini saqlab qoldi. XIV–XV asrlarda bu guruhlar ham Movarounnahrning boshqa turkiy aholisi kabi o‘zlarini “turk” yoki “chig‘atoy turklari” deb atay boshladilar. Bu holat etnik identitetning hududiy va madaniy asosda shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Etnogeografik jihatdan muhim jarayonlardan biri – turkiy va turkiylashgan mo‘g‘ul guruhlarining faqat Movarounnahrda emas, balki

undan tashqarida ham joylashib qolganidir. Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur yurishlari natijasida barloslarning ayrim guruhlari Afg‘oniston, Hindiston shimoli va Kashmirda, jaloyirlar Shimoli Eron va Ozarbayjonda, arg‘unlar Tohariston va Afg‘onistonda, qipchoq, nayman va mo‘g‘ul guruhlari esa Afg‘oniston hududlarida joylashib qoldi. Bu holat Markaziy Osiyo etnik makonining keng transregional tarmoqlarga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash joizki, turkiylashgan mo‘g‘ul qabilalari Movarounnahr-ga bevosita Mo‘g‘ulistondan emas, balki Eney havzalari, Sharqiy Turkiston, Dashti Qipchoq va Yettisuv kabi hududlar orqali, turkiy qabilalar bilan uzoq muddat yonma-yon yashab, aralashib kelgan. Shu sababli ular mintaqaga yetib kelgan paytda til va madaniyat jihatidan allaqachon turkiylashgan bo‘lgan. Ularning katta qismi avvalgi yashash hududlarida qolgan, faqat ayrim guruhlari Movarounnahr, Xorazm va Toshkent vohalariga joylashgan.

Qipchoqlar misolida bu jarayon yaqqol ko‘rinadi. XIV–XV asrlarda ular Shimoli Kavkaz, Qrim, Volga bo‘ylari, Ural tog‘ oldi mintaqalari, Dashti Qipchoqning sharqiy qismi va Yettisuvda keng tarqalgan holda yashagan. Amir Temur quyi Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi qipchoqlarni Movarounnahrga ko‘chirgani bilan, bu jarayon mahalliy turg‘un turkiy va forsiy tilli aholining etnik tarkibini tubdan o‘zgartira olmadi. Aksincha, mavjud etnomadaniy muhit bu chorvador guruhlarning o‘troqlashuvini tezlashtirdi.

Amir Temur va temuriylar davrida manbalarda “turk” va “turk elati” iboralari keng qo‘llangan. Bu davrda Movarounnahrda iqtisodiy va madaniy tiklanish yuz berib, Samarqand va Hirotda ilmiy maktablar shakllandi, ilm-fan va adabiyot rivojlandi. Shu jarayonlar fonida o‘zbek xalqining etnik shakllanishi jadallashdi, hududiy, til va madaniyat asosida umumiy identitet mustahkamlandi.

Adabiy til bu davrda “turkiy”, “chig‘atoy” yoki “eski o‘zbek tili” nomlari bilan yuritilgan bo‘lib, XV asrning ikkinchi yarmida Alisher Navoiy ijodida eng yuqori rivoj bosqichiga yetdi. Uning asosini Movarounnahr va unga tutash hududlarda keng tarqalgan turkiy til tashkil etgan. Shu bilan birga, jonli xalq tili ko‘p lahjali bo‘lib, adabiy

tildan farq qilgan. U asosan qarluq-chigil, qipchoq va oʻgʻuz lahjalari asosida shakllangan.

Shu bilan Movarounnahrning etnik holati shunday darajaga yetdiki, bu hudud endi Turiston deb atalishga loyiq edi. Bularning Dashti Qipchoq va Yettisuvdagi urugʻ-aymoqlari XIV–XV va keyingi asrlarda ham Movarounnahrda yuz bergan siyosiy voqealarda faol ishtirok etgan.

K. Shoniyozovning yozishicha, ushbu asrlarda Movarounnahrda yashovchi qarluq, chigil, xalaj, argʻun, qipchoq va oʻgʻuz qavmlari salmoqli etnik guruh boʻlib, XIV–XV asrlar davomida oʻtroqlashib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Ularning faqat uncha katta boʻlmagan guruhlari yarim oʻtroqlikda yashab, lalmikor dehqonchilik bilan birga an'anaviy mashgʻulotlari – yaylov chorvachiligi bilan shugʻullangan.

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo etnik makonining qayta shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi guruhlarning vohalarga siljishi, siyosiy markazlashuv jarayonlari hamda harbiy yurishlar natijasida hududiy-etnik tuzilma sezilarli darajada oʻzgardi. Ayniqsa, Movarounnahr, Xorazm, Fargʻona vodiysi va Zarafshon havzasi etnik integratsiyaning asosiy zonalariga aylandi. Quyida biz ushbu etnointegratsion jarayonlarda faol qatnashgan ayrim qabila va urugʻlar bilan tanishtirib oʻtamiz.

Qangʻlilar qadimgi Qangʻar elatining davomchilari boʻlib, Chingizxon bosqiniga qadar Xorazm va Samarqand atroflarida yashagan. Ularning asosiy qismi Dashti Qipchoq, Balxash koʻli atrofi va Ili daryosi havzasida koʻchmanchi chorvachilik bilan shugʻullangan. Amir Temur davrida Dashti Qipchoq qangʻlilarining muhim qismi Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasiga koʻchib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib oʻtroqlashdi. Bu jarayon koʻchmanchi makonning voha hududlariga integratsiyasini kuchaytirib, etnik makonning barqaror-lashuviga xizmat qildi.

Qarluqlar ikki asosiy etnik qatlamdan iborat boʻlgan. Birinchi qatlam VI asrdan boshlab Fargʻona vodiysi, Toshkent vohasi va Toharistonda yashab, mahalliy aholi bilan aralashib oʻtroqlashgan. Ikkinchi qatlam moʻgʻullar davrida shakllanib, Ili vodiysi va Yettisuvdan

Toshkent, Zarafshon va Shimoli Tohariston hududlariga koʻchib kelgan. XV asrda Dashti Qipchoqdan Fargʻona vodiysiga, XVI asr boshlarida esa Shayboniylar bilan Movarounnahrga kirib kelgan qarluq guruhlari mavjud urugʻ-aymoqlar bilan qoʻshilib ketgan. Bu jarayon qarluq elementlarining voha madaniy makoniga singib borishini va ularning siyosiy-iqtisodiy tuzilmaga integratsiyalashuvini ta'minlagan.

Qarluqlarga qarindosh boʻlgan *xalaj* va *chigil* qabilalari XIV–XV asrlarda Zarafshon vodiysi va Toharistonda yashab, Movarounnahr siyosiy hayotida muhim rol oʻynagan. Ularning joylashuvi koʻchmanchi guruhlarning vohalardagi oʻtroq makonga moslashuvini koʻrsatadi.

Argʻunlar dastlab Sirdaryoning quyi havzalarida yashagan boʻlib, VIII–XII asrlarda Toshkent vohasi, Fargʻona vodiysi (Oʻzgan atrofi), Zarafshon vodiysi va janubi Oʻzbekiston hududlariga koʻchib kelgan. XIV–XV asrlarda ularning asosiy qismi Fargʻona vodiysi, janubi Oʻzbekiston va shimoli Afgʻonistonda joylashgan. Argʻunlarning muhim qismi mahalliy til muhitiga moslashib, turkiy madaniy makonda oʻtroqlashgan.

Amir Temur davrida argʻunlar "qirq oʻzbek qavmi" tarkibiga kirgan va imtiyozli harbiy-siyosiy qatlam - tarxonlar sifatida tan olingan. Argʻun amirlarining viloyat hokimligi lavozimlarida faoliyat yuritishi ularning siyosiy makondagi mavqeyini mustahkamlagan. Shayboniylar davrida esa ularning siyosiy ta'siri pasayib, asosan mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Bu jarayon etnik elita guruhlarining siyosiy hukmronlikdan ijtimoiy integratsiyaga oʻtishini koʻrsatadi.

Dugʻlatlar XIV–XV asrlarda Movarounnahrda yashagan yirik qabilalardan biri boʻlib, ularning kelib chiqishi masalasida ilmiy adabiyotda turli qarashlar mavjud. Ayrim manbalarda ular moʻgʻul, boshqalarida esa turkiy kelib chiqishga mansub deb izohlanadi. Dulu qabilalari turkiy boʻlganligi sababli, dugʻlatlarning ham turkiy asosga ega ekanligi keng tarqalgan ilmiy yondashuv hisoblanadi.

Chigʻatoy ulusi davrida Yettisuvdan Qashgʻargacha boʻlgan hududlar "Manglay Suba" mulki sifatida dugʻlatlar boshqaruviga topshirilgan. Natijada dugʻlatlar sharqiy Turkiston va Movarounnahr oʻrtasidagi strategik makonda siyosiy tayanch kuchga aylangan. XIV–XV

asrlarda ularning ayrim guruhlari Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Hisor va Qo‘rategin hududlariga tarqalib yashagan. Bu jarayon sharqiy tog‘ oldi hududlari bilan vohalar o‘rtasidagi etnik aloqalarni kuchaytirgan.

X asrda Sirdaryoning quyi havzalaridan ayrim *o‘g‘uz guruhlari* Somoniylar ruxsati bilan Nurota tog‘ etaklariga ko‘chib kelgan. XI–XII asrlarda esa o‘g‘uz-saljuqiy turkmanlar Buxoro atrofi va Shimoli Xurosonga joylashgan. XIV–XV asrlarda Dashti Qipchoq va Sirdaryoning quyi havzasidan Movarounnahrga yangi o‘g‘uz va saljuqiy guruhlar kirib kelgan. Ular asrlar davomida o‘zbeklar bilan yonma-yon yashab, qisman etnik nomini saqlagan, qisman esa mahalliy etnik muhitga singib ketgan. Ularning avlodlari keyinchalik “o‘zbek turkmanlari” yoki “Nurota turkmanlari” nomlari bilan tanilgan.

XIV–XV asrlarda Andijon viloyatining tog‘li hududlarida *chag‘roq* (chigrak) nomi bilan tanilgan etnik guruhlar yashagan. Ular qipchoq guruhlarining bir bo‘g‘ini bo‘lib, XI–XII asrlarda Farg‘ona vodiysining tog‘li hududlariga ko‘chib o‘rnashgan. Zahiridddin Muhammad Bobuir ma’lumotlariga ko‘ra, bu hududlarda chag‘roq, ashpori va turk urug‘lari chorvachilik bilan shug‘ullangan va harbiy yurishlarda qo‘shinlarni ot hamda chorva bilan ta’minlagan. Bu holat tog‘li hududlarning chorvachilikka ixtisoslashgan etnik makon sifatida shakllanganini hamda vohalar bilan xo‘jalik jihatdan o‘zaro bog‘langanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, XIV–XV asrlarda va undan keyingi davrlarda kelib joylashib qolgan arablar ham yashagan. Ular son jihatidan ko‘p bo‘lmasdan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro vohalarida, Samarqand, Buxoro va Kattaqo‘rg‘on shaharlari atrofida tirikchilik qilishgan. Arablar yarim o‘troq hayot kechirib, asosan chorvachilik (qorako‘lchilik) hamda qisman dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr aholisining asosiy qismini muqim yashovchi o‘troq turkiy tilli aholi tashkil etgan. Shuningdek, mazkur elat tarkibida yarim o‘troq holatda istiqomat qilgan etnik guruhlar ham mavjud bo‘lgan. XIV–XV asrlarda ular etnik qavmlar va urug‘-qabilalarga bo‘linish tartibini hamda xo‘jaligi va madaniyatiga oid an’anaviy xususiyatlarini ancha darajada saqlab qolib, keyinchalik o‘zbek millatining shakllanishida muhim rol o‘ynaganlar.

Amir Temur vafotidan soʻng, temuriylar davrida XV Dashti Qipchoq “oʻzbeklar mamlakati”dan koʻplab etnik qavmlarning ommaviy ravishda mintaqaga kirib kelishi kuchaydi. Fazulloh Roʻzbexonning qayd etishicha, ushbu davrlarda oʻzbeklar yashash hududini Uraldan Ishim va Sarisuv daryolarigacha, shimolda Muz okeanigacha, sharqda Sharqiy Qipchoq qabilalari hududlarigacha, gʻarbda Volga quyi oqimlarigacha, janubda esa Sirdaryo tekisliklaridan Astrobodgacha choʻzilgan keng etnik makon sifatida tasvirlaydi. Ushbu hududiy tasvir oʻzbek qabilalarining koʻchmanchi dasht makonidan vohalar tomon siljishi uchun keng geografik zamin mavjud boʻlganini koʻrsatadi (А.Семенов, 1954).

Ana shu keng etnik makon tarkibidagi qiyot, mangʻit, nayman, uygʻur, qarluq, kenagas, uyshun, ming, yuz, qoʻngʻirot, jaloyir, baroq, tuboy, toymas, tuman kabi koʻplab qabilalar boshliqlari Abulxayrxonni podshoh sifatida tan olgan. Bu holat XV asr oʻrtalariga kelib Dashti Qipchoqda siyosiy markazlashuv jarayoni yuzaga kelganini va u etnik makonning birlashuviga xizmat qilganini koʻrsatadi.

1435-1436-yillarda Xorazmning ixtiyoriy ravishda Abulxayrxon hokimiyatini tan olishi natijasida Sirdaryoning quyi va shimoli hududlaridagi etnik makon siyosiy jihatdan Dashti Qipchoq markazi bilan birlashtirildi. Shu davrda nayman, uygʻur, qoʻngʻirot, durmon, uyshun, kenagas, burqut, tangut va boshqa urugʻlarning harbiy-siyosiy ittifoqlari Joʻchi ulusi vakillariga qarshi kurashda qatnashdi. Natijada Abulxayrxon butun Dashti Qipchoq hududlari ustidan nazorat oʻrnatdi. Bu jarayon etnik makonning siyosiy chegaralari va qabila ittifoqlarining geografiyasini qayta shakllantirdi.

XV asr boshlaridan Movarounnahrda yer-mulk va taxt uchun kurashlar kuchaydi. Shu jarayonda Dashti Qipchoqdan koʻchib kelgan “oʻzbek” qabilalari mahalliy turkiy aholi bilan etnik jihatdan yaqin boʻlgani sababli, ular tezda oʻtroq dehqonchilik va shahar madaniyatiga moslashdi. Avval ma’muriy-geografik mazmunga ega boʻlgan “chigʻatoy” nomi ostida yashagan aholining oʻzini anglashida asta-sekin “oʻzbek” etnonimi ustuvorlik qila boshladi. Bu holat etnik identiklikning shakllanishida hududiy-siyosiy omillar ta’sir koʻrsatganligini oʻzida namoyon qiladi.

Ba’zi tadqiqotchilar XV asr voqealarini “o‘zbek xalqining xalq sifatida shakllanish bosqichiga chiqishi” bilan bog‘laydilar. Biroq etnogeografik tahlil shuni ko‘rsatadiki, XI–XII asrlardayoq Movarounnahr aholisi tarkibida qipchoq, qang‘li, qiyot, o‘g‘uz, mang‘it, uyg‘ur, barlos, arg‘un, jaloyir, qo‘ng‘irot, yuz, ming, uyshun, keraid, qurlo‘vut va boshqa ko‘plab urug‘lar allaqachon o‘troq va yarim o‘troq turmush tarziga o‘tgan edi. XV asr voqealari esa ushbu etnik qatlamlarning yagona siyosiy-madaniy makon doirasida konsolidat-siyalashuvini tezlashtirdi.

XIV–XV asrlarda Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga o‘zbek qabilalarining siljishi etnik makonning tub transformatsiyasiga olib keldi. Ko‘chmanchi dasht makoni voha va shahar hududlari bilan integratsiyalashib, o‘troq-dehqonchilik va siyosiy markazlashuv jarayonlari kuchaydi. “O‘zbek” etnonimining umumxalq nomiga aylanishi esa etnik identiklikning hududiy, siyosiy va xo‘jalik makoni bilan uzviy bog‘liqligini namoyon etdi. Natijada, XV asr Markaziy Osiyoda zamonaviy o‘zbek xalqining etnik hududiy asoslari shakllangan tarixiy bosqich sifatida namoyon bo‘ldi.

XIV–XV asrlarda Movarounnahrda etnik makonning transformat-siyasi asosan uch yo‘nalishda namoyon bo‘ldi. Birinchidan, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi guruhlarning o‘troqlashuvi kuchaydi. Ikkinchidan, turkiy va forsiy tilli aholi o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalar kengaydi. Uchinchidan, davlat boshqaruvi va harbiy tizim etnik guruhlarni yagona siyosiy makonga birlashtirdi. Natijada mintaqada hududiy, iqtisodiy va madaniy asosda shakllangan barqaror etnik tuzilma yuzaga keldi.

Savol va topshiriqlar:

1. X–XV asrlarda Markaziy Osiyo etnogeografiyasini o‘rganishda qaysi yozma manbalar muhim ahamiyatga ega?
2. Qoraxoniylar davrida etnik tarkib va til muhitida qanday o‘zgarishlar yuz berganini izohlab bering.
3. Mo‘g‘ullar istilosi Markaziy Osiyo etnik makoniga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
4. Amir Temur davrida etnik integratsiya jarayonlari qanday shakllandi?

5. XV asrga kelib o‘zbek xalqining etnik shakllanishi qanday omillar bilan bog‘liq edi?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Mahmud Koshg‘ariy va Yoqut al-Hamaviy asarlari asosida Markaziy Osiyoning o‘rta asrlardagi etnik xaritasini tahlil qiling.

2. XIV–XV asrlarda ko‘chmanchi guruhlarning o‘troqlashuvi jarayonini misollar asosida izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Агаджанов С.Г. Государство сельджукидов и Средняя Азия. – Москва: Наука, 1991. – 304 с.

2. Ашрафян К.Э. Этнополитические процессы в Средней Азии XI–XV вв. – Ташкент: Университет, 2005. – 276 с.

3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1963. – 760 с.

4. Босворт К. Государства и правители исламского мира в средние века. – Москва: Наука, 1981. – 392 с.

5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии XIV–XV вв. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1958. – 288 с.

6. Камалиддинов Ш.С. История средневекового Ташкента. – Ташкент: Фан, 1996. – 248 с.

7. Кляшторный С.Г. Государства и народы Центральной Азии в раннем Средневековье. – Санкт-Петербург: Наука, 2003. – 312 с.

8. Шониёзов К.У. Этнические процессы в Средней Азии в IX–XIII вв. – Ташкент: Фан, 1980. – 286 с.

9. Якубовский А.Ю. Образование узбекского народа. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1941. – 204 с.

6-MAVZU: XVI-XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

Rejalar:

1. XVI-XIX asrlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasini o‘rganishga doir manbalar.

2. XVI–XVIII asrlarda Markaziy Osiyo etnik tarkibi va joylashuv tizimi.

3. Ko‘chmanchi va o‘troq xo‘jalik-madaniy tiplar: etnomadaniy makonning shakllanishi.

4. Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyoning etnik geografiyasining tranformatsiyasi.

Darsning maqsadi: *talabalarga XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda etnik tarkib, aholi joylashuvi, koʻchmanchi va oʻtroq xoʻjalik-madaniy tizimlarning shakllanishi hamda Rossiya imperiyasi davrida etnogeografik makonning transformatsiyasini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirish.*

Tayanch soʻz va iboralar: *etnik makon, migratsiya, oʻtroq xoʻjalik, koʻchmanchilik, etnik integratsiya, xonliklar, etnotoponim, demografiya, tarixiy manbalar, kartografiya, madaniy aloqalar, savdo yoʻllari.*

6.1. XVI-XIX asrlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasini oʻrganishga doir manbalar.

XVI–XIX asrlar Markaziy Osiyodagi etnoslarning hududiy joylashuvi, migratsiyasi, xoʻjalik madaniy tiplar va etnik hududlarning shakllanish bosqichlari mahalliy tarixnavislar tomonidan yaratilgan asarlar, arxiv hujjatlari, solnomalar, sayyohlik kundaliklari, kartografik materiallar hamda arxeologik topilmalar asosida tadqiq etiladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda etnik makon tushunchasi nafaqat etnoslarning jismoniy joylashuvi, balki ularning madaniy ramzlari, tarixiy xotirasi, iqtisodiy faoliyati va siyosiy tashkilotlari bilan bogʻliq murakkab ijtimoiy-hududiy tizim sifatida talqin qilinmoqda (Paasi, 2009; Smith, 2020). Shu nuqtayi nazardan, XVI–XIX asrlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasini oʻrganish hududiy makonning etnik identiklik bilan qanday bogʻlanganini, etnik guruhlar qanday qilib makonni “oʻzlashtirganini” va mazkur jarayonlarning davlatchilik hamda madaniy rivojlanish bilan qanday uzviy aloqada boʻlganini ochib berish imkonini yaratadi.

Mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan asarlar.

XVI–XIX asrlarda Turkiston hududida yashab ijod qilgan koʻplab tarixchilar asarlarida mintaqa aholisining etnik tarkibi, demografik jarayonlar, etnomadaniy munosabatlar hamda etnointegratsiya jarayonlariga oid muhim ma’lumotlar uchraydi. Ushbu asarlar bevosita etnik masalalarga bagʻishlanmagan boʻlsa-da, ularning mazmunida siyosiy voqealar, sulolaviy kurashlar va hududiy oʻzgarishlar fonida

etnik guruhlarning joylashuvi, migratsiyasi hamda ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida muhim etnogeografik kuzatuvlar aks etgan.

Xususan, Buxoro xonligi tarixiga doir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Fazlulloh ibn Ruzbehonning “Mehmonnomayi Buxoro”, noma’lum muallifning “Tavorixi guzidayi nusratnoma”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Badriddin Kashmiriyning “Ravzat arrizvon va hadiqat al-g‘ilmon”, Mulla Sharafiddin A’lam ibn Nuriddin oxunning “Tarixi Sayyid Roqim”, Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning “Musaxxir al-bilod”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abdurahmon Tole’ning “Tarixi Abulfayzxon”, Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror fi manoqib al-axyor”, noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Tarixi Qashg‘ar”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini Mang‘itiya”, Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-mulk”, Ahmad Donishning “Tarixi saltanati Mang‘itiya” kabi turkiy va fors tillarida yozilgan asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalarda siyosiy voqealar bilan bir qatorda, aholi tarkibi, qabila va urug‘larning hududiy joylashuvi, etnik munosabatlarning shakllanish jarayonlariga oid muhim etnogeografik ma’lumotlar ham qayd etilgan.

Xuddi shuningdek, Xiva xonligi tarixiga doir Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, M.R.Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome‘ ul-voqeoti sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol”, Kamoliddin Binoiyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asarlari, Qo‘qon xonligi tarixiga oid Muhammad Hakimxonning “Muntaxab at-tavorix”, Mirzo Olim Mushrifning “Ansob as-salotin va tavorix al-havoqin”, Abu Ubaydullohning “Xulosat ulahvol”, Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand”, Muhammad Yunusjon shig‘ovulning “Tarixi Alimquli amirlashkar”, Muhammad Aziz Marg‘iloniyining “Tarixi Aziziy”, Ishoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Mul Olim Maxdum hojining “Tarixi Turkiston” kabi manbalari ham etnogeografik tadqiqotlar uchun muhim empirik asos vazifasini bajaradi.

Mazkur asarlarda xonliklar hududida yashagan qabila, urug‘ va etnik guruhlarning joylashuvi, ularning siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq

harakatlari hamda hududiy o‘zgarishlar fonida yuzaga kelgan etnik aloqalar aks etgan bo‘lib, bu holat Markaziy Osiyo etnik makonining shakllanishi va tarixiy dinamikasini tiklash imkonini beradi. Ushbu voqealarning mantiqiy va qiyosiy tahlili esa mintaqada kechgan etnogeografik, demografik va etnointegratsion jarayonlar hamda ularning muhim omillari yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi (Г.Султонова, Н.Аллаева, Ш.Маҳмудов, 2011).

Xorijlik sayyoh va elchilarning esdaliklari va safarnomalari.

XIX asrda Markaziy Osiyo hududi Rossiya imperiyasi hamda Yevropa davlatlarining siyosiy-iqtisodiy manfaatlari doirasiga faol jalb etilishi natijasida mintaqaning etnik tarkibi, aholi joylashuvi va tarixiy-geografik makonini o‘rganishga qaratilgan keng ko‘lamli safarlar amalga oshirildi. Ushbu jarayon natijasida yuzaga kelgan rus va xorijiy sayyohlar, diplomatlar hamda harbiy mutaxassislarning safarnomalari Markaziy Osiyo etnogeografiyasini tadqiq etishda muhim empirik manba sifatida shakllandi. Mazkur asarlarda etnik guruhlarning hududiy joylashuvi, migratsiya yo‘nalishlari, aholi punktlarining nomlanishi va madaniy muhit bilan bog‘liq ma’lumotlar tizimli tarzda qayd etilgan.

Mazkur manbalar orasida rus elchisi E. K. Meyendorfning qaydlari alohida ahamiyatga ega. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, amirlikdagi siyosiy hokimiyat asosan o‘zbeklarning mang‘it urug‘i qo‘lida bo‘lib, ular qora mang‘it, ko‘k mang‘it va oq mang‘it kabi uch guruhga bo‘lingan [1]. Shuningdek, jabg‘u, qalmiq, qarluq, nayman, xitoy, qipchoq, ming, qirq va juv kabi o‘zbek etnonimlarining Samarqand, Buxoro, Qarshi, Qorako‘l, G‘uzor hamda Miyonkolda keng tarqalganligi qayd etiladi [2]. Ushbu ma’lumotlar amirlik hududida etnik guruhlarning joylashuvi va ularning nomlari asosida shakllangan etnotoponimlarni aniqlash hamda etnik makonning hududiy tuzilishini tahlil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shu yo‘nalishda V. N. Xanikovning tadqiqotlari ham alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, u Buxoro hududida mang‘it, xitoy, nayman, qipchoq, saroy, qo‘ng‘irot, turkman, orlot, bozachi, do‘rmon, yobu, jid, juyt, batash, bahrin, qirq, ung, ungachit, qalmoq, qatagon, galachi, uzoy, chiljuyt, kirait, g‘urlat, yuyxup, uyg‘ur, tatar, chig‘atoy, aymoq, qarluq,

qavchin va qurama kabi ko‘plab etnonimlarning hududiy joylashuvi haqida aniq faktik ma’lumotlar beradi. Bu esa Markaziy Osiyo etnik makonining ichki tuzilishi va tarixiy shakllanish jarayonlarini etnogeografik nuqtayi nazardan tadqiq etish imkonini kengaytiradi.

Shuningdek, G.I.Danilevskiyning safar xotiralari asosida yaratilgan “Xiva xonligi tavsifi” asarida xonlik hududidagi 25 ta yirik shahar va 60 ga yaqin qishloqning joylashuvi, nomlanishi va hududiy muhit bilan bog‘liqligi haqida batafsil ma’lumot beriladi [1]. Ushbu asarda qayd etilgan *Chig‘atoy, Qipchoq, Xitoy, Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Aliyeli va Xo‘jayli* kabi shahar nomlarining etnotoponim sifatida tahlil qilinishi Markaziy Osiyoda etnik nomlarning geografik makonda mustahkamlanish jarayonini yoritishga xizmat qiladi.

XIX asr rus va xorijiy sayyohlarning safarnomalari Markaziy Osiyo etnogeografiyasini o‘rganishda muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega bo‘lib, ular mintaqaning etnik tarkibi, aholi joylashuvi, tarixiy geografiyasi va toponimik tizimini hududiy makon bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etishda ishonchli empirik asos vazifasini bajaradi. Mazkur manbalarni tanqidiy va qiyosiy yondashuv asosida o‘rganish Markaziy Osiyo etnik makonining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

XVIII-XIX asrlarda xorijda yaratilgan xaritalar.

XVIII-XIX asrlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasini o‘rganishda xorijiy mualliflar tomonidan tuzilgan kartografik manbalar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu xaritalar mintaqaning siyosiy-hududiy tuzilishi bilan bir qatorda, etnik guruhlarning joylashuvi, ularning hududiy tarqalishi va madaniy-geografik muhit bilan o‘zaro munosabatlarini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, Yevropa kartografiya maktabiga mansub xaritalarda Markaziy Osiyo hududi mustaqil etnogeografik makon sifatida tasvirlangan bo‘lib, ular mintaqaning etnogeografiyasini rekonstruksiya qilishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Shunday xaritalardan biri daniyalik kartograf Abraham Maas tomonidan 1728-yilda Sankt-Peterburgda tuzilgan “Kaspiy dengizi va O‘zbek mamlakati xaritasi” (Tabula Nova de Mare Caspium et Usbekorum region) hisoblanadi. Ushbu siyosiy xaritada butun O‘rta

Osiyo alohida rang bilan ajratilib, “Usbek” yoki “Usbekia” nomi ostida koʻrsatilgan. Xarita “Usbekia” hududini 11 ta ma’muriy birlikka – viloyat va oʻlkalarga boʻlib tasvirlab, Turkiston, Fargʻona, Toshkent, Oʻtror, Orol va Turkman choʻli kabi hududlarni alohida birliklar sifatida ajratadi. Bu holat Markaziy Osiyoning XVIII asr boshlarida Yevropa kartografik an’analarida etnosiyosiy makon sifatida idrok etilganini koʻrsatadi hamda mintaqaning etnogeografik yaxlitligi haqida muhim tasavvur beradi.

Mazkur kartografik an’anani davom ettirgan yunon sayyohi Vasilo Vatatsining 1732-yilda Londonda nashr etilgan “Kaspiy dengizi va Orol dengizi xaritasi” esa Markaziy Osiyo etnogeografiyasini yanada aniqroq aks ettirgan manbalardan biridir. Ushbu xaritada Kaspiy va Orol dengizlari oralig‘idagi hududlarda yashovchi xalqlar va qabilalar maxsus belgilar orqali koʻrsatilib, ularning koʻchmanchi yoki oʻtroq hayot tarzi, diniy mansubligi hamda siyosiy qaramligi haqida ham ma’lumot berilgan. Bu esa xaritani nafaqat geografik, balki etnogeografik manba sifatida ham alohida ahamiyatli qiladi.

V.Vatatsining sayohat kuzatuvlari asosida Amudaryoning Orol dengiziga quyilishi aniqlanib, Yevropa kartografiyasida uzoq vaqt hukmron boʻlib kelgan Amudaryoning Kaspiyga quyilishi haqidagi tasavvurlar rad etilgan. Shuningdek, xaritada Orol atrofida qoraqalpoqlar, undan sharqda va janubda qozoqlar, Sirdaryoning yuqori va oʻrta oqimlarida esa Turkiston hududlari belgilangan. Amudaryo havzasining katta qismi “Uzbekia” nomi ostida koʻrsatilib, uning tarkibida Xorazm, Buxoro, Badaxshon, Xiva, Samarqand, Balx, Qarshi, Xoʻjand va Qunduz kabi shaharlar qayd etilgan. Ushbu ma’lumotlar Markaziy Osiyo hududida etnik guruhlarning joylashuvi va ularning tarixiy-geografik muhit bilan bogʻliqligini aniqlash imkonini beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoga Rossiya va Yevropa orqali tashrif buyurgan Uyfalvilar oilasining safar xotiralari va kartografik ishlari ham mintaqaning etnogeografik manzarasini oʻrganishda muhim oʻrin tutadi. Mariya de Uyfalvi-Burdon safarnomasiga ilova qilingan xaritada Oʻrta Osiyo hududi 62° gʻarbiy kenglikdan 84° sharqiy uzunlikkacha qamrab olinib, unda toponimlar,

etnik guruhlarning joylashuvi va hududiy tarqalishi ranglar orqali tasniflangan. Jumladan, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar, galchalar, o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, quramalar va turklar yashaydigan hududlar alohida ranglarda ko‘rsatilgan.

Mazkur xarita asosida o‘zbek urug‘ va qabilalarining Buxoro amirligi, Farg‘ona vodiysi, Toshkent vohasi hamda Janubi Qozog‘iston hududlarida joylashgani aniqlanadi. Bu holat ushbu hududlarda uchraydigan etnotoponimlarni qiyosiy-etnogeografik jihatdan tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos yaratadi hamda Markaziy Osiyo hududida etnik guruhlarning tarixiy joylashuvi va migratsion jarayonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, XVIII–XIX asrlarga oid kartografik va sayohat manbalari Markaziy Osiyo etnogeografiyasini o‘rganishda muhim empirik asos bo‘lib, ular mintaqaning etnik tarkibi, hududiy tuzilishi va tarixiy-geografik taraqqiyotini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu manbalarni tanqidiy va qiyosiy yondashuv asosida o‘rganish Markaziy Osiyo etnik makonining shakllanish jarayonlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

6.2. XVI–XVIII asrlarda Markaziy Osiyo etnik tarkibi va joylashuv tizimi.

XVI asrda Buxoro xonligining siyosiy chegaralari asosan Dashti Qipchoqning janubidan Erongacha, Xorazm hududlaridan to Qoshg‘argacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan edi. Xususan, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro xonligining siyosiy ta’sir doirasi haqida quyidagicha ma’lumot beriladi: “Qoshg‘ar viloyati chegarasidan to Xorazmgacha va Dashti Qipchoq chegarasidan to Qandahor etagigacha bo‘lgan yerlar, butun Movarounnahr, Xuroson, Turkiston va Xorazm uning tobeligiga o‘tdi”. Mazkur ma’lumot XVI asrning ikkinchi yarmiga taalluqli bo‘lib, u Shayboniylar sulolasi vakili Abdullaxon II hukmronligi davridagi siyosiy-harbiy ustunlikni ifodalaydi. Biroq qayd etilgan hududlarning barchasi ham Buxoro xonligining doimiy ma’muriy-siyosiy tarkibiga kirmagan, balki ayrim hollarda vaqtinchalik bo‘ysunuv yoki siyosiy ta’sir doirasida bo‘lgan hududlar hisoblangan(Г.Султонова, Н.Аллаева, Ш.Маҳмудов, 2011).

XVI asr boshlarida, xususan, Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida xonlik aholisi asosan o‘z urug‘i bilan emas, balki ko‘proq hududiy identikligiga mos ravishda ma’lum guruhlarga bo‘lingan yoki shundan kelib chiqqan holda e’tirof etilgan. Xususan, “Boburnoma”da Andijon viloyatida ko‘chmanchi turmush tarzida yashovchi ayrim aholi guruhlari haqida ma’lumot beriladi. Ulardan biri chakrak eli (chagrak, chekrek, xukrak) bo‘lib, Boburning yozishicha, besh–olti ming xonadondan iborat ushbu yirik qabila Farg‘ona bilan Qoshg‘ar oralig‘idagi tog‘li hududlarda yashagan. Manbada qayd etilishicha, ularning ixtiyorida juda ko‘p ot va qo‘y bo‘lib, asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan (Zahiriddin Muhammad Bobur, 34–35). Boburning 1498–1499-yillarda Andijonni qayta qo‘lga kiritish jarayonida yuz bergan voqealar bayonidan esa Andijonning janubida, tog‘ etaklarida ashpar, to‘ruqshar, chag‘rak kabi ko‘chmanchi aholi, tekislik hududlarda esa o‘troq aholi istiqomat qilganini anglash mumkin. Ushbu ma’lumotlar Andijon viloyatining janubi tog‘li hududlarida o‘troq va ko‘chmanchi turmush tarzining yonma-yon mavjud bo‘lganini, shuningdek, ularning geografik joylashuvi va xo‘jalik faoliyatidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Aholini yashash joyining geografik xususiyatiga qarab tasniflash holatini Muhammad Amin Buxoriyning asarida ham kuzatish mumkin. Xususan, muallif Buxoro shahrida yashovchi aholiga nisbatan “shahriy”, Miyonqol atrofida istiqomat qilgan aholiga esa “sahroyi” atamasini qo‘llagan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda Buxoro shahri aholisi haqida so‘z yuritar ekan, muallif shahar qal’asi ichida yashovchilarni “shahrinishin”, qal’a tashqarisida istiqomat qiluvchilarni esa “sahronishin” deb ataganini ham ko‘rish mumkin (Mir Muhammad Amin Buxoriy, 153–155). Chunonchi, asarda Buxoroda o‘tkazilgan bir bayram tadbiri tasvirlanar ekan, muallif “barcha shahriy va sahroyi aholi xursand bo‘ldi”, deb qayd etadi. Shuningdek, mazkur atamalar muallif tomonidan Buxoro xoni saroyidagi amaldorlarni tavsiflash jarayonida ham qo‘llangan. “Ubaydullanoma”dagi ushbu ma’lumotlar mazkur davrda xonlik saroyida xizmat qilgan turli mansab egalari ham o‘troq, ham ko‘chmanchi aholi vakillaridan iborat bo‘lganini ko‘rsatadi.

XVI asrning soʻnggi choragidan keyin yaratilgan ilmiy asarlarda Buxoro xonligida yashovchi aholi guruhlari oʻz urugʻlari nomiga monand ravishda maʼlum bir etnonim asosida oʻzi yashagan doimiy hududga nisbat berilgan. Xususan, aymoqlar – Balx, Qunduz, Karki, Maymana atroflarida; baxrinlar – Karmana va Miyonqol atroflarida; doʻrmonlar – Qoʻbodiyon, Balx, Xoʻjand, Hisor atroflarida; kenagaslar – Shahrisabzda; minglar – Shibirgʻon, Kelif, Maymana, Urgut, Oʻratepa atroflarida; naymanlar – Buxoro, Termiz, Samarqandda; saroylar – Buxoro, Qorakoʻl, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Sherobod hamda Balxning chegara qishloqlarida; yuzlar – Hisor, Xoʻjand, Toshkent, Sayram, Turkiston, Zarafshon vodiysi, Jizzax va Oʻratepa atroflarida; qoʻngʻirotlar esa – Termiz, Samarqand, Balx, Amudaryo boʻylari, Gʻuzor, Boysun, Karki va Sherobod hududlarida istiqomat qilganligi qayd etiladi (Г.Султонова, Н.Аллаева, Ш.Маҳмудов, 2011). Bu maʼlumotlar xonlik hududida etnik guruhlarning joylashuvi va ularning tarixiy-etnogeografik makon bilan bogʻliqligini koʻrsatadi.

Xonlikdagi asosiy bekliklar Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabogʻ, Gʻuzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjoʻy, Hisor, Koʻlob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Shoʻgʻnon–Roʻshon, Qoʻrgʻontepa, Qabodiyon, Kelif, Bordalik, Qobogʻli va Xorazm bekliklaridan iborat boʻlib, har bir beklik oʻz navbatida amlokdorliklarga boʻlingan hamda bek tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan amlokdorlar tomonidan boshqarilgan. Amlokdorliklar esa bir necha qishloqlardan tashkil topgan boʻlib, ularni qishloqning yoshi ulugʻ va tajribali oqsoqollari boshqargan. Ushbu boshqaruv tizimi aholi joylashuvi va hududiy tuzilmaning etnogeografik xususiyatlarini aks ettiradi.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida taxminan 2 million atrofida aholi istiqomat qilgan. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashagan boʻlsa, jazirama issiq va suvsizlik hukmron boʻlgan Qizilqum sahrolari deyarli kimsasiz qolgan. Zarafshon vodiysida 300–350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda esa 500 ming aholi yashagan. Amirlikning yirik shaharlaridan Buxoroda 60 ming, Samarqandda esa 50 mingga yaqin kishi istiqomat qilgan. Ushbu

raqamlar aholining tabiiy-geografik sharoitlarga mos tarzda joylashganini koʻrsatadi.

Aholi etnik jihatdan koʻpgina qavm va urugʻlardan iborat boʻlib, ularning qariyb 57 foizini oʻzbeklar tashkil etgan. Oʻzbeklar bir qancha elatlardan tarkib topgan boʻlib, ular orasida mangʻit, saroy, qoʻngʻirot, jabgʻu, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming va yuz qabilalari koʻpchilikni tashkil etgan. Ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilgan boʻlib, bu holat xonlik hududida etnik guruhlarning tabiiy-geografik makon bilan uzviy bogʻlangan holda joylashganini koʻrsatadi.

Mahalliy hududlarni boshqarishni amalga oshirish hamda har bir tumanni tashkil etish maqsadida 80 tagacha aholi yashash joylari birlashtirilgan. A.R. Muhammadjanovning qayd etishicha, aholi yashash joylari sonining koʻpligiga qarab sharqiy bekliklar yuqori mavqega ega boʻlgan. Masalan, Baljuvonda 1420, Hisorda 1200, Qorateginda 700, Koʻlobda 635 taga yaqin aholi yashash joylari mavjud edi. Hozirgi Turkmaniston hududidagi bekliklarda esa aholi yashash joylari soni eng kam darajada boʻlib, Ostida 15, Bordaliqda 14, Kelifda esa 24 tadan aholi yashash joylari boʻlgan (A.Muhammadjanov, 2001). Mazkur ma’lumotlar amirlik hududida aholi zichligi va joylashuvining etnogeografik tafovutlarini aniqlash imkonini beradi.

Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, gʻarbda Kaspiy dengizi, shimolda esa qozoq juzlari bilan chegaradosh boʻlgan. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum hamda Qizilqum sahrolari xonlikni geografik jihatdan boshqa hududlardan ajratib turgan. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Koʻhna Urganch, Xazorasp, Qoʻngʻirot, Xoʻjayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik markazlari hisoblangan.

Ma’muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Koʻhna Urganch, Qoʻshkoʻprik, Pitnak, Gʻazovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz, Ambor-Manoq, Urganch, Xoʻjayli, Shumanay, Qoʻngʻirot kabi beklik va viloyatlarga boʻlingan. Shuningdek, xonlik tarkibida Beshariq va Qiyot-Qoʻngʻirot noibliklari ham mavjud boʻlgan. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni esa noiblar idora qilgan. Bek

va noiblar huzurida ularga xizmat qiluvchi koʻplab mansabdorlar faoliyat yuritgan.

XIX asrning birinchi choragiga oid maʼlumotlarda xonlik aholisi 300 ming, shu asrning 40-yillariga oid manbalarda ham 300 mingga yaqin, soʻnggi choragiga oid manbalarda esa 700 mingga yaqin deb koʻrsatiladi. Arxiv materiallarini chuqur oʻrgangan olim M. Yoʻldoshev XIX asr oʻrtalarida xonlikda 800 mingga yaqin aholi istiqomat qilganini qayd etadi.

XIX asrning oʻrtalariga kelib, xonlikda shahar hayotining rivojlanishi natijasida shahar aholisi soni ortib borgan. Rus sayyohlari bergan maʼlumotlarga koʻra, Xiva, Xazorasp, Xonqa, Urganch, Qoʻngʻirot, Koʻhna Urganch kabi shaharlarda 2 mingdan 5 minggacha xonadon yashagan. Xonlik poytaxti Xiva shahrida esa 21 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

Xonlik aholisining koʻpchiligini oʻzbeklar tashkil etib, ular orasida eng kuchli va koʻp sonli guruhlar qoʻngʻirot, nayman, qiyot, uygʻur, nukuz, qangʻli, xitoy va qipchoqlar boʻlgan. Munis, Ogahiy va Bayoniy maʼlumotlariga koʻra, alohida toʻplarga boʻlingan urugʻlarning Amudaryo boʻylab joylashtirilishi kuzatiladi. Xususan, naymanlar Pitnakdan Yangi Ariq va Urganchgacha boʻlgan Xazorasp hududlarini egallagan boʻlib, bu yerlarda shayx va burloqlar ham yashagan. Amudaryo boʻylab naymanlardan pastroqda, Urganch shahridan Gurlan tumanigacha va daryoning oʻng qirgʻogʻidagi yerlarda uygʻurlar oʻrnashgan.

Gurlandan Lavzan irmogʻigacha mangʻitlar, ulardan pastroqda daryo oqimi boʻylab hamda deltaning oʻrta qismida nukuzlar va mangʻitlarning yana bir qismi joylashgan. Juda qulay hisoblangan ushbu hududda Oroldan olib kelinadigan gʻalla va chorva bilan savdo amalga oshirilgan. Asosiy mashgʻulotlari chorvachilik boʻlgan mangʻitlar sharqiy deltaning oʻtlar bilan boy maydonlariga hamda gʻallachilik uchun qulay yerlariga koʻchib oʻtganlar. Shuni qayd etish lozimki, Xivaning hukmron doiralari bilan boʻlgan siyosiy kurash ham ularni yuqori deltadan ketishga majbur qilgan.

Deltaning butun gʻarbiy qismi, yaʼni Kuygʻunning gʻallachilik qilinadigan unumdor yerlari qoʻngʻirot va qiyotlarga tegishli boʻlgan.

Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi hozirgi Qipchoq tumanining bir qismi, Xo‘jakuldan Ko‘k O‘zakkacha bo‘lgan Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi barcha yer va yaylovlar, shuningdek, deltaning sharqiy qismidagi yerlar qang‘li-qipchoqlarga qarashli bo‘lgan (Г.Султонова, Н.Аллаева, Ш.Маҳмудов, 2011).

1819-1820-yillarda Xivaga safar uyushtirgan N.Muravyovning esdaliklarida yo‘l xaritalari va shaharlari tavsifi haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, xonlikning asosiy aholisi o‘zbeklar bo‘lib, ular Xivaga Buxoro hududlaridan ko‘chib kelgan va mahalliy sartlarni mag‘lub etib, ularning hududlarini egallagan. Albatta, bu o‘rinda Xivani egallagan o‘zbeklar deganda Shayboniyxon bilan Dashti Qipchoqdan ko‘chib kelgan o‘zbek qabilalarini tushunish lozim.

Muallif “o‘zbek” atamasi to‘g‘risida ham o‘z qarashlarini bildiradi. Uning fikricha, “o‘zbek” so‘zi turkcha “uz” (самъ и свой) va “bek” (господинъ) so‘zlaridan olingan bo‘lib, “o‘z-o‘ziga bek”, “o‘z-o‘ziga xo‘jayin” ma’nolarini anglatadi. Shuningdek, N. Muravyov o‘zbeklarning xonlik siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan yirik urug‘lari sifatida qiyot-qo‘ng‘irot, uyg‘ur-nayman, qang‘li-qipchoq va nukus-mang‘itlarni keltirib, ularning har birini inoq boshqarishini hamda ular orasida qiyot-qo‘ng‘irot urug‘i inog‘ining nufuzi nisbatan baland bo‘lganini ta’kidlaydi.

Safarnomada keltirilgan ushbu urug‘-qabila nomlari, ya’ni etnonimlar ko‘plab joy nomlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, N.Muravyov Qiyot, Qipchoq, Qo‘ng‘irot kabi qal’alarni qayd etgan bo‘lib, bu kabi o‘zbek urug‘lari nomi bilan bog‘liq joy nomlari keyingi davr sayyohlari safarnomalarida ham tadrijiy ravishda ko‘payib borgan.

Mazkur davrda Xiva xonligini ilmiy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan talab Buxoroga nisbatan kam bo‘lmagan. Xususan, 1842-yilda Xivaga polkovnik G.I.Danilevskiy va tabiatshunos F.I.Baziner boshchiligida jami 12 nafar mutaxassisni birlashtirgan yirik ekspeditsiya yuborilgan. G.I.Danilevskiyning safar xotiralari asosida yaratilgan “Описание Хивинскаго ханства” (“Xiva xonligi tavsifi”) asarida xonlik hududidagi ko‘plab etnotoponimlar qayd etilgan. Jumladan, asarda xonlik

boshqaruvidagi 25 ta yirik shahar qatorida Chigʻatoy, Qipchoq, Xitoy, Qoʻngʻirot, Mangʻit, Alieli, Xoʻjayli kabi etnotoponimlar mavjudligi koʻrsatiladi. Shuningdek, muallif Xiva shahri atrofidagi 60 ta qishloq haqida ham ma'lumot beradi. Bu qishloqlardan Bayot, Boboxoja, Besh uyli, Juvandi, Kenagas, Xitoy, Quruqtamdi, Naymankoʻl, Novka, Nukus, Sayot kabi nomlarning ham etnotoponimik xususiyatga ega ekanligi diqqatga sazovordir.

Umuman olganda, Xiva xonligidagi genonimlarning Buxoro amirligiga nisbatan kamroq uchrashi ikki davlatdagi aholining ichki migratsiyasi va oʻtroqlashuv jarayonlari bilan bogʻliqdir. Xiva xonligida oʻzbek qabilalarining oʻtroqlikka oʻtish jarayoni va murakkab ichki tuzilishini aniqroq tushunish uchun Abulgʻozixon davrida aholining ijtimoiy hayotini tartibga solishga qaratilgan siyosatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shermuhammad Munisning qayd etishicha, Abulgʻozixon oʻzbeklarni toʻrt guruhga boʻlib, ularning har birini "toʻp" deb atagan. Unga koʻra, birinchi toʻp uygʻur va naymanlardan, ikkinchi toʻp qiyot-qoʻngʻirotlardan, uchinchi toʻp nukus-mangʻitlardan, toʻrtinchi toʻp esa qipchoq va qangʻlilardan iborat boʻlgan. Shuningdek, ushbu urugʻlardan boshqa oʻzbek qavmlarini ham ularning tarkibiga kiritgan. Xususan, qiyotlar tarkibiga alieli va jaloyir, nukuslar tarkibiga kenagaslar, mangʻitlarga xoʻjaylilar, uygʻurlar tarkibiga esa doʻrmon, yuz hamda minglarni qoʻshib, Amudaryodan chiqqan kanallarni ular oʻrtasida taqsimlab bergan.

Natijada yirik oʻzbek urugʻlari tarkibiga kiritilgan boshqa urugʻlar ularning ta'siri ostida til xususiyati va urf-odatlarini qabul qilgan, ular tarkibida urugʻ tarmogʻi sifatida yashagan, biroq oʻz identikligi sifatida nomlarini genonim darajasida saqlab qolgan. Shu sababli Xiva xonligida oʻtroqlashuv natijasida yuzaga kelgan Mangʻit, Nukus, Qoʻngʻirot, Qipchoq kabi shahar etnotoponimlari tarkibida koʻplab oʻzbek urugʻlari bilan bogʻliq qishloq nomlari uchrab, ularni mustaqil urugʻ nomi emas, balki urugʻlar tarkibidagi genonim sifatida talqin etish mumkin.

Xususan, A. Vamberi asarida Qoʻngʻirot shahrida joylashgan Qiyot va Noʻgʻay, Xoʻjayli shahridagi Naymanlar, Mangʻit shahridagi Kenagas hamda Qiyot qishloqlari yuqoridagi tartib asosida paydo boʻlib, qishloq

nomlari mustaqil urug‘ nomi sifatida emas, balki ularning ichki tarmog‘i genonimi sifatida joy nomiga ko‘chganini ko‘rsatadi.

O‘zbek urug‘larining boshqa qabila va urug‘lar tarkibida genonim sifatida uchrashi Xiva xonligiga xos bo‘lsa-da, ushbu jarayon boshqa hududlarda ham kuzatiladi. Xususan, o‘zbeklarning tama urug‘i tarkibida - olchin, nayman tarkibida - chimboy, saroylar tarkibida - qipchoq va qo‘ng‘irot, yuzlar tarkibida esa - xitoy, tuyog‘li, nayman kabi nomlarning genonimga aylanishi muayyan hududlardagi etnogenetik jarayonlar mahsuli bo‘lib, mayda urug‘larning nisbatan yirikroq qabilalarga qo‘shilganini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zbek xonliklaridagi aholi ijtimoiy hayotining nihoyatda murakkab bo‘lganini, etnonim va etnotoponimlarning tarkiban aralash, o‘zaro qorishiq holda uchrashini hamda mahalliy aholining uzoq davom etgan integratsiya jarayonlarini aks ettiradi.

XVIII asr boshlarida shakllangan Qo‘qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi, shimolda qozoq juzlari, janubda esa Qorategin, Ko‘mob, Darvoz va Sho‘g‘non kabi tog‘li hududlar bilan chegaradosh bo‘lgan. Mazkur hududlar tabiiy-geografik sharoitlariga ko‘ra cho‘l-dasht, tog‘oldi va baland tog‘ mintaqalariga bo‘linib, aholi joylashuvi, xo‘jalik faoliyati hamda etnik tarkibning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, janubi tog‘li hududlar Qo‘qon va Buxoro o‘rtasidagi siyosiy raqobat makoni bo‘lish bilan birga, transhududiy etnik-madaniy aloqalar rivojlangan mintaqa sifatida ajralib turgan.

Xonlik tarkibida Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lib, ular hunarmandchilik, savdo va madaniy hayot markazlari sifatida aholi zich joylashgan urban hududlarni tashkil etgan. Manbalarga ko‘ra, XIX asr boshlarida xonlik aholisi Toshkent va Turkiston hududlari bilan birga taxminan 1 mln. kishini, asr o‘rtalarida 1,5–2 mln., ikkinchi yarmida esa 3 mln. kishini tashkil etgan. Rossiya imperiyasi tomonidan hududlarning bosib olinishi natijasida xonlik tasarrufida qolgan Farg‘ona vodiysida qariyb 2 mln. aholi istiqomat qilgan deb baholanadi. Demografik tarkibda o‘troq aholi ustun bo‘lib, XIX asr boshlarida 40 foizdan ortiqni tashkil etgan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi ulushi asr oxiriga kelib 15 foizga kamaygan.

Qo‘qon xonligi aholisi etnik jihatdan murakkab tarkibga ega bo‘lib, asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgan, shuningdek, shahar va vohalarda tojiklar, tog‘ va dasht mintaqalarida esa qirg‘iz, qipchoq, qozoq va boshqa guruhlar yashagan. Qirg‘izlar va qipchoqlar Sirdaryoning yuqori havzalaridan Balxash ko‘ligacha bo‘lgan hududlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog‘lari, Badaxshon hamda Farg‘ona vodiysida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzini saqlab kelgan. Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysida qoraqalpoqlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy cho‘l hududlarida esa ko‘chmanchi qozoq guruhlari istiqomat qilgan.

Mirzo Olim Mushrifning “Ansob as-salotin” asarida Qo‘qon xonligi aholisi tarkibida yuz, turk, afg‘on, alqor urug‘lari, shuningdek, qirg‘iz, tog‘liq, qoraqalpoq, tojik va arab guruhlari mavjud bo‘lgani qayd etiladi. Xususan, Sheralixonning (1842-1845) hokimiyatga kelishi jarayonida turli etnik guruhlarning siyosiy ittifoqlari muhim rol o‘ynagani ta’kidlanib, bu holat xonlikdagi etno-siyosiy integratsiya jarayonlarining faol kechganidan dalolat beradi. Xuddi shuningdek, Mallaxon (1858–1862) davrida ham qirg‘iz, qipchoq, turk va cho‘nbog‘ish guruhlarining siyosiy jarayonlardagi faolligi qayd etilgan.

F.Nazarovning 1813–1814-yillardagi sayohat qaydlariga asoslangan asar (V.A. Ramodin va V.A. Urvalova tomonidan izohlar bilan nashr qilingan) xonlik hududining etnogeografik manzarasini tiklashda muhim manba hisoblanadi. Ushbu nashrda keltirilgan sayohat yo‘nalishlari xaritalari tahlili F.Nazarov marshrutining Omskdan boshlanganini ko‘rsatadi. Xaritalarda gidronimlar va aholi manzilgohlari nomlari alohida grafik uslubda berilgan bo‘lsa-da, yirik va kichik aholi punktlarining bir xil shrift bilan ifodalanishi toponimik tasniflash jarayonini murakkablashtiradi. Masalan, Sirdaryoning o‘rta oqimidagi Suzoq Chimkentdan janubroqda joylashgan yirikroq shahar, Suzoqdan shimolda joylashgan Uvanas esa kichik qishloq bo‘lsa-da, xaritada ular bir xil ko‘rinishda berilgan. Shu bois xaritalardagi toponimik ma’lumotlarni boshqa manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

F.Nazarov qaydlarida xonlik hududida istiqomat qilgan turli urug‘, qabila va etnik guruhlar haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Uning

ma’lumotlariga ko‘ra, xonlikning shimoli hududlarida qirg‘izlar, g‘arbiy qismida – Buxoro bilan chegaradosh mintaqalarda arab va turkmanlar, janubi-sharqida esa sharqiy eroniy guruhlar istiqomat qilgan bo‘lib, ular o‘zlarini “g‘alcha” yoki “qorateginliklar” deb ataganlar. Bu holat XIX asr boshlarida aholi orasida hududiy identifikatsiya shakllarining kuchayganidan dalolat beradi.

Muallif Qo‘qondan Toshkentga qaytish yo‘lida Qoraqalpoq, Shaydam, Mullamir, Pishket, Qurama kabi aholi manzilgohlarida bo‘lganini qayd etadi. Ushbu toponimlarning aksariyati etnik guruhlar nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, mintaqadagi etnotoponimik jarayonlarning faol kechganini ko‘rsatadi.

Mazkur davr manbalarida Buxoro amirligi, xususan, Zarafshon vodiysida ko‘plab etnogidronimlar uchraydi. A.P.Xoroshxin ma’lumotlariga ko‘ra, Kattaqo‘rg‘on bo‘limida Mitansoy, Orlotsay, Dizmon, Eshonli, Xo‘jaariq, Mingariq kabi etnogidronimlar mavjud bo‘lgan. L.N.Sobolev Zarafshon okrugining 13 ta tumani yirik kanallar va ariqlar orqali Zarafshon daryosi suvi bilan sug‘orilganini qayd etib, ular orasida Qozoqariq, Sofiyon, Xo‘ja Mukur, Xo‘jaariq, Jui-Mo‘g‘ul, Sergali, Qatag‘on, Mingariq (Katta va Kichik), Qiyotariq, Urusariq, Turkestan ariqlari, Arabxona ariqlari kabi etnogidronimlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Qo‘qon xonligida Qatag‘on kanali bo‘lib, u shu nomdagi urug‘ bilan bog‘liq holda Beshqovoq Rais, Xol Cho‘ra, Mir Ayupboy, Utem Bakovul, Qazipil-Quzor, Qoshg‘ar, Olachabof kabi qishloqlarni suv bilan ta’minlagan.

Quramalar Qo‘qon xonligining tog‘li hududlarida, xususan, Ohangaron tog‘lari va Qurama tog‘ tizmalari atrofida istiqomat qilgan bo‘lib, Telov, Xonobod, Jaloyir, Abjaz, Qoraxitoy, Sarimsoqliq, Qoraqiya, Kendirdovon kabi manzilgohlar bilan bog‘liq etnotoponimlar orqali ularning joylashuvi aniqlanadi. N.I.Potanin Chirchiq daryosidan o‘tib, To‘ytepa orqali Qo‘qonga yo‘l olarkan, quramalar yashaydigan qishloqlardan o‘tganini va ularning markazi Kreyuchi (Kerovchi) shaharchasi bo‘lganini qayd etadi. Quramalar yirik o‘zbek urug‘laridan biri bo‘lib, asosan Toshkent vohasida yashagan, ularning tarkibida kerovchi nomli kichik urug‘ ham mavjud bo‘lgan. Shu bois Qurama va

Kerovchi toponimlari etnotoponim sifatida ushbu urug‘larning hududiy nufuzidan dalolat beradi.

Muallif Ohangaron daryosi yaqinida Telovqo‘rg‘on va Qoraxitoy-qo‘rg‘on kabi etnotoponimlarni ham qayd etadi. Qoraxitoy o‘zbeklarning 92 urug‘idan biri bo‘lsa, telovlar qurama o‘zbeklari tarkibidagi kichik urug‘lardan biri hisoblanadi. A.P.Xoroshxin Qo‘qonga eltuvchi yo‘lda dastlab Telov qishlog‘i va qal’asi, undan so‘ng To‘ytepa (Toy-tebe) qishlog‘i joylashganini, undan keyin esa nisbatan yirik aholi manzilgohi bo‘lgan Qurama kelishini qayd etadi. Qurama Chirchiq daryosining janubidan Xo‘jandgacha, sharqda Kendir-Dovon, g‘arbda esa Angren daryosining o‘ng sohiliga qadar cho‘zilgan hududlarni egallagan.

Quramalar etnik kelib chiqishiga doir manbalarda turli talqinlar uchraydi. Ayrim mualliflar ularni qozoqlar va mahalliy sartlarning aralashuvi natijasida shakllangan guruh sifatida izohlaydi. Biroq tarixiy-etnogeografik tahlil shuni ko‘rsatadiki, quramalar aslida Markaziy Osiyoda qadimdan yashab kelgan o‘zbek urug‘laridan biri bo‘lib, turli hududlarda ikki yoki undan ortiq urug‘larning uzoq muddatli etnomadaniy integratsiyasi natijasida shakllangan. Shu bois “qurama” atamasi ham “aralash” ma’nosida qo‘llanilib, Zarafshon vodiysi, Andijon va Namangan hududlarida ham keng tarqalgan.

Umuman olganda, Qo‘qon xonligidagi etnogidronimlar boshqa O‘rta Osiyo xonliklariga nisbatan kamroq uchraydi. Bu holat qabila va urug‘ nomlarining asosan o‘troqlashgan tekislik va tog‘oldi hududlar bilan bog‘liqligi bilan izohlanadi. Ya’ni, kanallar, ariqlar va soylar kabi suv obyektlarining nomlanishi Qo‘qon xonligida urug‘-qabilalar bilan kamroq bog‘langan bo‘lsa, Xiva xonligi va Buxoro amirligida urug‘larning o‘z bo‘linmalari bilan keng hududlarda o‘troqlashuvi, yangi sug‘oriladigan yerlarning o‘zlashtirilishi hamda irrigatsiya tarmoqlarining bevosita qabila kuchi bilan barpo etilishi etnogidronimlar va etnotoponimlarning ko‘payishiga sabab bo‘lgan.

6.3. Ko‘chmanchi va o‘troq xo‘jalik-madaniy tiplar: etnomadaniy makonning shakllanishi.

XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo etnik makoni tabiiy-geografik muhit, xo‘jalik faoliyati shakllari hamda siyosiy-tarixiy jarayonlarning

murakkab o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan ko‘p qatlamli va dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu davrda mintaqa aholisi asosan ikki asosiy xo‘jalik-madaniy tip o‘troq-dehqonchilik va ko‘chmanchi-chorvachilik tizimlariga mansub bo‘lib, ular hududiy ixtisoslashuv va iqtisodiy-madaniy almashinuv asosida yagona etnomadaniy makonni vujudga keltirgan. S.P.Tolstov ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyo tarixiy rivojida vohalar va dashtlar o‘rtasidagi uzluksiz aloqalar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini belgilab bergan asosiy omildir”.

O‘troq-dehqonchilik xo‘jalik-madaniy tipi sug‘orma dehqonchilik, rivojlangan shahar madaniyati va murakkab irrigatsiya tizimlariga tayangan bo‘lib, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg‘ona vodiysi hamda Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida keng tarqalgan. Ushbu hududlarda o‘zbek va tojik aholisining ko‘p asrlar davomida yonma-yon yashashi natijasida murakkab etnomadaniy muhit shakllangan. Abulg‘oziy Bahodirxonning yozishicha, “Amudaryo va Zarafshon bo‘ylaridagi dehqonchilik vohalari urug‘lar o‘troqlashuvi va siyosiy tuzilmaning mustahkamlanishida tayanch makon bo‘lib xizmat qilgan”.

Xorazm vohasi alohida etnogeografik model sifatida ajralib turadi. Bu hududda qadimiy sug‘orish tizimlari va Amudaryo deltasiga moslashgan xo‘jalik shakllari asosida qiyot-qo‘ng‘irot, nayman, mang‘it, qipchoq kabi urug‘larning o‘troqlashuvi sodir bo‘lgan. M. Yo‘ldoshev ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligida aholining 700–800 ming atrofida bo‘lishi shahar va qishloq makonlarining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shahar makonlarining kuchayishi etnik hududiylikning nisbatan barqarorlashuviga olib kelgan.

Ko‘chmanchi-chorvachilik makonlari Markaziy Osiyoning keng dashtlari, cho‘llari va tog‘ yaylovlarini qamrab olib, mavsumiy migratsiyaga asoslangan xo‘jalik tizimi bilan tavsiflanadi. Qozoq dashtlari –- Ustyurt, Betpakdala, Sariarqa va Yettisuv mintaqalari uch juzga mansub qabilalar uchun asosiy yaylov hududlari bo‘lib xizmat qilgan. A.Levshin yozishicha, “qozoqlar uchun yaylov hududlari faqat iqtisodiy resurs emas, balki urug‘-qabila identifikatsiyasining asosiy geografik tayanchi ham bo‘lgan”.

Qirg‘izlarning etnomadaniy makoni esa asosan Tyanshan va Pomir-Oloy tog‘ tizmalari bilan bog‘liq bo‘lib, vertikal migratsiya yozgi

yaylovlar va qishki qishloqlar oʻrtasidagi mavsumiy harakatlar asosida tashkil topgan. N.I. Potanin qirgʻiz jamiyatini tavsiflar ekan, “tog‘ makoni ularning xoʻjalik tizimini ham, ijtimoiy tuzilishini ham belgilab beruvchi asosiy geografik omil hisoblanadi”, deb ta’kidlaydi. Bu hududlarda koʻchmanchilik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy hayotning asosiy shakli sifatida namoyon boʻlgan.

Turkman choʻllari Qoraqum va Kaspiyboʻyi hududlari chorvachilikka moslashgan koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi xoʻjalik tizimlari bilan ajralib turgan. A.Vamberi qayd etganidek, “turkman qabilalari quduqlar va oʻtloqlar atrofida shakllangan makoniy tizim asosida yashab, choʻl muhitiga moslashgan mustaqil etnomadaniy modelni vujudga keltirgan”. Bu hududlarda etnik hududiylikdan koʻra, suv manbalari va yaylov yoʻllari ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Markaziy Osiyoning tog‘li mintaqalari, xususan, Pomir, Hisor, Qorategin, Darvoz va Sho‘g‘non hududlari tog‘li tojik aholisining asosiy makonini tashkil etgan. Bu hududlarda terasali dehqonchilik, chorvachilik va savdo yo‘llari bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat rivojlangan. L.N.Sobolevning qayd etishicha, “tog‘li hududlarda yashovchi tojik aholisi voha va dasht hududlari bilan doimiy iqtisodiy aloqalar orqali umumiy Markaziy Osiyo xo‘jalik tizimiga integratsiyalashgan”[7]. Natijada tog‘ makonlari voha va savdo shaharlarining tabiiy resurs bazasiga aylangan.

Koʻchmanchi va oʻtroq xoʻjalik tizimlari oʻrtasida keng oʻtish zonalari mavjud boʻlib, ular Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg‘ona vodiysi tog‘ oldi hududlari, Toshkent vohasi va Yettisuv mintaqasida shakllangan. Bu hududlarda yarim koʻchmanchi va yarim oʻtroq turmush tarzi keng tarqalgan boʻlib, chorvachilik va dehqonchilik elementlari uyg‘unlashgan. Shermuhammad Munis Abulg‘oziy davrida oʻzbek urug‘larining toʻrt yirik guruhga boʻlinib, Amudaryo boʻylab joylashtirilganini qayd etib, “urug‘larning hududiy taqsimoti xoʻjalik ehtiyojlari va siyosiy muvozanat asosida belgilangan”ligini ta’kidlaydi[8].

Qoʻqon xonligi hududida qirgʻiz, qipchoq, yuz, turk, qoraqalpoq va tojik aholisining birgalikda yashashi natijasida murakkab etnomadaniy makon vujudga kelgan. Mirzo Olim Mushrifning “Ansob as-salotin” asarida Sheralixonning hokimiyatga kelishida turli etnik guruhlarning

hamkorligi alohida qayd etilib, bu holat Farg‘ona vodiysining etnik jihatdan ochiq va integrativ makon bo‘lganidan dalolat beradi.

Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo‘qon, Urganch, O‘sh va Xo‘jand kabi shaharlar Buyuk Ipak yo‘lining ichki tarmoqlari bo‘ylab joylashgan bo‘lib, ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy almashinuvning asosiy markazlariga aylangan. G.I.Danilevskiy Xiva xonligini tavsiflar ekan, “shaharlar atrofida joylashgan qishloqlar ko‘chmanchi urug‘larning o‘troqlashuvi natijasida paydo bo‘lib, etnik makonning barqarorlashuviga xizmat qilgan”ligini ta’kidlaydi[10]. Shu sababli savdo shaharlarini etnomadaniy integratsiyaning asosiy geografik uzellari sifatida baholash mumkin.

Savdo yo‘llari orqali nafaqat tovar almashuvi, balki nikoh aloqalari, diniy g‘oyalar, hunarmandchilik an’analari va etnik o‘zaro ta’sir jarayonlari ham amalga oshgan. Natijada Markaziy Osiyo etnik makoni qatlamli va murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy tizim sifatida shakllangan.

XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda ko‘chmanchi va o‘troq xo‘jalik-madaniy tiplarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllangan etnomadaniy makon vohalar, dashtlar, cho‘llar va tog‘ hududlarini yagona tarixiy-geografik tizimga birlashtirdi. Qozoq dashtlari, qirg‘iz tog‘ yaylovlari, turkman cho‘llari va tog‘li tojik hududlari voha markazlari bilan uzviy aloqada bo‘lib, mintaqaning etnik xilma-xilligi va madaniy integratsiyasini ta’minladi. Ushbu jarayonlar hududiy differensiatsiya, demografik harakatchanlik va xo‘jalik ixtisoslashuvi orqali Markaziy Osiyoning tarixiy-etnik qiyofasini belgilab berdi hamda keyingi davrlardagi milliy va mintaqaviy rivojlanishlar uchun mustahkam etnogeografik asos yaratdi.

6.4. Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyoning etnik geografiyasining tranformatsiyasi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosqinchilik yo‘li bilan o‘z tarkibiga qo‘shib olishi mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu jarayon, ayniqsa, hududiy-etnik tuzilmaning qayta shakllanishida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Mustamlakachilik siyosati natijasida avval koʻchmanchi va oʻtroq xoʻjalik-madaniy tizimlar muvozanatida rivojlangan Markaziy Osiyo etnik makoni yangi maʼmuriy chegaralar, migratsiya oqimlari, yer-suv siyosati hamda iqtisodiy ixtisoslashuv taʼsirida tubdan transformatsiyaga uchradi.

Rossiya imperiyasi istilosigacha Markaziy Osiyo hududi etnogeografik jihatdan oʻtroq-dehqonchilik makonlari (Zarafshon, Fargʻona, Xorazm vohalari), koʻchmanchi-chorvachilik makonlari (Qozoq dashtlari, Qoraqum va Qizilqum sahrolari) hamda oʻtish zonalari (togʻ oldi hududlar va chegaraviy vohalar) oʻzaro uygʻunlashgan murakkab makon sifatida mavjud edi. Oʻtroq aholi asosan sugʻorma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shugʻullangan boʻlsa, koʻchmanchi qabilalar chorvachilik asosida yashab, mavsumiy migratsiya tizimiga tayangan edilar. Bu ikki xoʻjalik-madaniy tip oʻrtasidagi munosabatlar tarixan iqtisodiy almashinuv va madaniy integratsiya orqali muvozanatlashgan edi.

Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan mazkur tabiiy-etnik muvozanat izdan chiqa boshladi. Eng avvalo, hudud imperiya harbiy-maʼmuriy boshqaruvi ostiga oʻtkazildi va Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Yangi maʼmuriy chegaralar tarixiy-etnik makonning ichki mantiqiga emas, balki harbiy-strategik va siyosiy manfaatlarga asoslangan holda belgilandi. Natijada qadimiy iqtisodiy aloqalar zonalari boʻlinib ketdi, ayrim hududlar esa sunʼiy ravishda yangi markazlarga boʻysundirildi. Bu holat etnik makonning tarixiy yaxlitligiga putur yetkazib, hududiy identifikatsiyaning qayta shakllanishiga zamin yaratdi.

Mustamlaka boshqaruvining muhim yoʻnalishlaridan biri yer-suv munosabatlarini qayta tartibga solish boʻldi. Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan agrar siyosat Markaziy Osiyoni Rossiya sanoati uchun xomashyo bazasiga aylantirishni koʻzladi. Sugʻorma dehqonchilik rivojlangan vohalarda, ayniqsa, paxta yetishtirishga alohida eʼtibor qaratildi. Bu jarayonda yerlarning katta qismi davlat mulki deb eʼlon qilinib, mahalliy aholining anʼanaviy egalik huquqlari cheklana boshladi. Natijada koʻplab mahalliy dehqonlar yerlaridan

ajralib, iqtisodiy jihatdan qaram qatlamga aylana bordilar. Bu esa etnik makonning ijtimoiy tarkibida ham muhim siljishlarga sabab boʻldi.

Rossiya imperiyasi davrida etnogeografik transformatsiyaning eng muhim omillaridan biri rus aholisi va boshqa slavyan guruhlarining mintaqaga koʻchirilishi boʻldi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonga minglab rus dehqonlari joylashtirildi. Ular uchun maxsus qishloqlar tashkil etilib, serhosil yerlar ajratildi. Natijada Markaziy Osiyo hududida yangi etnik komponent shakllandi va bu jarayon mahalliy aholi joylashuv tizimiga sezilarli ta’sir koʻrsatdi. Ayniqsa, Sirdaryo, Yettisuv va Fargʻona viloyatlarida rus aholi punktlarining vujudga kelishi mintaqaning etnik xaritasini tubdan oʻzgartirdi.

Koʻchirish siyosati nafaqat demografik tarkibga, balki hududiy xoʻjalik tuzilishiga ham ta’sir koʻrsatdi. Yangi rus aholi punktlari atrofida zamonaviy irrigatsiya tizimlari, temiryoʻllar va sanoat infratuzilmasi shakllandi. Bu jarayon an’anaviy oʻtroq xoʻjalik makonlarini yangi iqtisodiy zonalarga aylantirdi hamda ularning imperiya bozor tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirdi. Shu bilan birga, koʻchmanchi chorvachilik hududlarida ham davlat nazorati kuchaydi, yaylovlar chegaralandi, chorvadorlarning mavsumiy koʻchish yoʻnalishlari qisqara boshladi. Natijada koʻchmanchi hayot tarzi asta-sekin inqirozga yuz tutdi va aholi oʻtroqlashuv jarayoniga tortildi.

Qozoq dashtlari va Qirgʻiziston togʻoldi hududlarida bu jarayon ayniqsa keskin namoyon boʻldi. Rossiya imperiyasi bu hududlarda volost va ovul tizimini joriy etib, urugʻ-qabila asosidagi boshqaruv shakllarini parchalashga harakat qildi. Koʻchmanchi aholi oʻrtasida yerlarni qayta taqsimlash, yaylovlardan foydalanish tartibining oʻzgartirilishi va soliq tizimining joriy etilishi natijasida koʻplab chorvador guruhlar iqtisodiy jihatdan zaiflashdi. Bu esa ularning oʻtroqlashuviga, shahar va qishloq bozorlariga bogʻlanishiga olib keldi. Natijada etnik makonning an’anaviy koʻchmanchi-chorvachilik xarakteri asta-sekin oʻtroq-dehqonchilik yoʻnalishiga siljidi.

Turkman choʻllari va Xorazm hududlarida ham etnogeografik transformatsiya jarayoni oʻziga xos shaklda kechdi. Turkman qabilalari asosan yarim koʻchmanchi chorvachilik bilan shugʻullanib kelgan boʻlsalar, Rossiya imperiyasi davrida ularning yashash hududlari qat’iy

ma’muriy chegaralar bilan belgilandi. Harbiy istehkomlar va temir yo‘l tarmoqlarining qurilishi cho‘l hududlarining strategik ahamiyatini oshirdi va ularni imperiya iqtisodiy makoniga jalb etdi. Natijada Turkmaniston hududlarida savdo yo‘llari jonlandi, aholi punktlari kengaydi va qabilaviy hududiylik asta-sekin ma’muriy-hududiy tuzilmalarga bo‘ysundirildi.

Tojik aholi istiqomat qilgan tog‘li hududlarda ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Tog‘li hududlarning tarixan yarim izolyatsiyalangan xo‘jalik tizimlari Rossiya imperiyasi davrida yangi transport yo‘llari va bozor aloqalari orqali pasttekislik vohalari bilan yaqinlashdi. Bu jarayon natijasida tog‘li hududlar iqtisodiy jihatdan vohalarga bog‘lanib, ularning etnik makoni ham kengroq hududiy tizimga integratsiyalashdi. Shuningdek, tog‘li tojik aholi yashaydigan hududlarda ham ma’muriy boshqaruvning joriy etilishi mahalliy an’anaviy tuzilmalarning zaiflashuviga olib keldi.

Shaharlarning rivojlanishi ham Rossiya imperiyasi davridagi etnogeografik transformatsiyaning muhim omili bo‘ldi. Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Andijon, Marg‘ilon, Ashxobod kabi shaharlarda rus aholisining joylashuvi natijasida yangi shahar qismlari shakllandi. Shaharlar “eski shahar” va “yangi shahar” qismlariga bo‘linib, bu hududlarda etnik tarkib ham farqlana boshladi. Yangi shahar qismlarida asosan rus va yevropalik aholi istiqomat qilgan bo‘lsa, eski shaharlar mahalliy musulmon aholining yashash makoni bo‘lib qoldi. Bu holat shahar makonida etnik segregatsiyaning kuchayishiga olib keldi hamda mintaqaning madaniy-geografik tuzilishida yangi qatlam paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Temiryo‘l tarmoqlarining barpo etilishi esa Markaziy Osiyo etnogeografiyasining transformatsiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. O‘rta Osiyo temir yo‘li, Toshkent–Orenburg temir yo‘li va boshqa yo‘nalishlar orqali mintaqa Rossiya imperiyasining umumiy iqtisodiy makoniga bog‘landi. Natijada savdo oqimlari yo‘nalishi o‘zgardi, yangi sanoat markazlari shakllandi va aholi migratsiyasi jadallashdi. Temir yo‘l atrofida yangi shahar va qishloqlar paydo bo‘lib, ular etnik tarkibi jihatidan aralash xarakter kasb etdi. Bu jarayon mintaqada yangi ko‘p millatli makonlarning shakllanishiga olib keldi.

Rossiya imperiyasi davrida amalga oshirilgan ma’muriy va sud-huquq islohotlari ham etnik makonning transformatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Mahalliy shariat sudlari bilan bir qatorda imperiya sudlarining joriy etilishi, boshqaruv tizimining markazlashuvi va mahalliy hokimiyat vakillarining imperiya amaldorlariga bo‘ysundirilishi natijasida an’anaviy hududiy boshqaruv shakllari izdan chiqdi. Bu esa mahalliy jamiyatlarning ichki ijtimoiy-madaniy tuzilishiga ham ta’sir ko‘rsatib, hududiy identifikatsiyaning yangi shakllarini vujudga keltirdi.

Etnogeografik transformatsiyaning muhim jihatlaridan yana biri mahalliy aholi xo‘jalik tizimlarining bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashuvi bo‘ldi. Paxtachilikning kengayishi, savdo-sanoat infratuzilmasining rivojlanishi va yollanma mehnatning ko‘payishi natijasida mahalliy aholi an’anaviy o‘zini-o‘zi ta’minlovchi xo‘jalik tizimidan tobora bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘ta boshladi. Bu jarayon etnik makonning iqtisodiy asoslarini o‘zgartirib, aholi joylashuvi va migratsiya yo‘nalishlarining qayta shakllanishiga olib keldi.

Umuman olganda, Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyo etnik geografiyasi chuqur va ko‘p qatlamli transformatsiyani boshdan kechirdi. Mustamlaka boshqaruvi natijasida tarixiy-etnik makonning ichki muvozanati buzildi, yangi ma’muriy chegaralar joriy etildi, demografik tarkibga rus va boshqa yevropalik guruhlar qo‘shildi hamda ko‘chmanchi va o‘troq xo‘jalik tizimlari o‘rtasidagi an’anaviy munosabatlar izdan chiqdi. Shu bilan birga, temiryo‘llar, shaharlar va yangi iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanishi mintaqani imperiya va jahon bozori tizimiga integratsiyalashuviga xizmat qildi.

Mazkur jarayonlar natijasida Markaziy Osiyo XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib ko‘p millatli, murakkab hududiy tuzilishga ega bo‘lgan yangi etnogeografik makonga aylandi. Bu makonda o‘troq-dehqonchilik vohalari, sobiq ko‘chmanchi chorvachilik hududlari va yangi shahar-sanoat zonalari o‘zaro uzviy bog‘langan holda mavjud bo‘lib, mintaqaning keyingi siyosiy va madaniy taraqqiyotiga mustahkam asos yaratdi. Shu tariqa Rossiya imperiyasi davridagi etnogeografik transformatsiya Markaziy Osiyoning zamonaviy etnik va hududiy qiyofasini shakllantirishda muhim tarixiy bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Savol va topshiriqlar:

1. XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo etnogeografiyasini o‘rganishda qanday manbalar muhim hisoblanadi?

2. Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida etnik tarkib va aholi joylashuvi qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?

3. Ko‘chmanchi va o‘troq xo‘jalik-madaniy tiplarning o‘zaro aloqasi qanday natijalarga olib kelgan?

4. Etnotoponim va etnogidronimlar etnik makonni o‘rganishda qanday ahamaiyatga ega ekanligini tushuntirib bering.

5. Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyo etnik geografiyasida qanday o‘zgarishlar yuz bergan?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo xonliklarida aholi joylashuvi xaritasini tahlil qiling.

2. Ko‘chmanchi va o‘troq xo‘jalik tizimlarining etnik integratsiyaga ta’siri haqida esse yozing.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этиши (XVI – XIX аср биринчи ярми) Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова, А.А.Аширов – Тошкент, 2011. – 128 б.

2. Becker S. Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. – London: Routledge Curzon, 2004.

3. DeWeese D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. – University Park: Penn State University Press, 2016.

4. Frankopan P. The Silk Roads: A New History of the World. – London: Bloomsbury, 2015.

5. Golden P.B. Central Asia in World History. – Oxford: Oxford University Press, 2011.

6. Hirsch F. Empire of Nations: Ethnographic Knowledge and the Making of the Soviet Union. – Ithaca: Cornell University Press, 2005.

7. Jordan-Bychkov T., Domosh M. The Human Mosaic: A Thematic Introduction to Cultural Geography. – New York: Freeman, 2003.

8. A.Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Ithaca: Cornell University Press, 2015.

9. Martin T. The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939. – Ithaca: Cornell University Press, 2001.

10. Morrison A. Russian Rule in Samarkand 1868–1910: A Comparison with British India. – Oxford Historical Review, 2008, 23(3), 393–418.

11. Soucek S. A History of Inner Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

7-MAVZU: MARKAZIY OSIYODA MINTAQADA MILLIY HUDUDIY CHEGARALANISH MASALASI VA TRANSCHEGARAVIY ZONALARNING ETNOGEOGRAFIYASI

Reja:

1. Markaziy Osiyoda milliy hududiy chegaralanish o‘tkazilishining mazmuni va mohiyati.

2. Markaziy Osiyoda milliy hududiy delmitatsiyaning etnogeografik xususiyatlari.

3. Mintaqada hududiy chegaralanishning oqibatlari va transchegaraviy zonalar etnogeografiyasi.

4. Xulosa.

Darsning maqsadi: talabalarda Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish jarayonining tarixiy mohiyati, etnogeografik asoslari va transchegaraviy zonalar shakllanishi haqidagi ilmiy tushunchalarni shakllantirish, chegara muammolarining zamonaviy ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tayanch so‘z va iboralar: delimitatsiya, demarkatsiya, transchegaraviy zonalar, anklav, eksklav, irrigatsiya tizimi, siyosiy chegaralar, etnik makon, migratsiya, suv resurslari.

7.1. Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning mazmuni va mohiyati.

Markaziy Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi g‘oyasi 1924-yilda amalga oshirilgan hududiy qayta tashkil etish jarayonida sovet milliy siyosatining mantiqiy davomiga aylandi. Aynan shu davrga kelib, ittifoqdosh davlat doirasida milliy-davlat tuzilmalarini barpo etish

konsepsiyasi sobiq Rossiya imperiyasi hududlari o‘rnida Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqini shakllantirishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraldi (Martin, 2001). Shu tariqa, milliy-hududiy chegaralanish siyosiy jihatdan yangi davlat tizimini mustahkamlash vositasi bo‘lishi bilan birga, Markaziy Osiyoning tarixiy-etnik makonini qayta tashkil etishga xizmat qilgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ldi.

Biroq Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishni amalga oshirish Rossiyaning Yevropa qismi yoki Kavkaz mintaqasiga nisbatan ancha murakkab kechdi. Chunki bu hududda millat sifatida barqaror shakllangan etnik birliklar hali to‘liq vujudga kelmagan, etnik va hududiy chegaralar esa tarixan qat’iy belgilanmagan edi (Shoniyozov, 1990). Natijada etnik va hududiy ziddiyatlar o‘zaro tutashgan murakkab vaziyat yuzaga keldi. Ayniqsa, qozoqlar, o‘zbeklar va tojiklar yashaydigan hududlarda etnik chegaralarning aniq emasligi delimitatsiya jarayonini murakkablashtirdi (Roy, 2000). Farg‘ona vodiysining janubi qismida o‘zbeklar, tojiklar va qirg‘izlarning aralash yashashi hududiy bahsli zonalarning shakllanishiga olib keldi. Aksincha, qirg‘izlar asosan Olatog‘ va Pomiroloy tog‘ mintaqalarida, turkmanlar esa Qoraqum va unga tutash cho‘l hududlarida yashaganlari sababli, ularni davlat tashkil etuvchi millatlar sifatida ajratish nisbatan osonroq kechdi (Shoniyozov, 1990). Shu bilan birga, Zarafshon havzasi, Farg‘ona vodiysi va janubi Turkiston hududlarida murakkab etnodemografik tarkib tufayli uzoq davom etuvchi hududiy kelishmovchiliklar yuzaga keldi (Roy, 2000). Bu holat milliy-hududiy chegaralanish jarayonining nafaqat siyosiy, balki chuqur etnogeografik mazmunga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Sovet rahbariyatining Markaziy Osiyoda milliy-davlat chegaralanishini amalga oshirishga ehtiyoj sezishi bir qator strategik omillar bilan izohlanadi. Tadqiqotchilar fikricha, millionlab musulmon aholiga ega Turkiston o‘lkasi yosh sovet davlatchiligi uchun potensial siyosiy va mafkuraviy xavf manbayi sifatida baholangan (Martin, 2001). Diniy birdamlikka asoslangan qarshilik harakatlari ehtimoli mavjud bo‘lganligi sababli, markaziy sovet rahbariyati mintaqani alohida respublikalarga ajratish orqali siyosiy nazoratni mustahkamlashga

intildi. Bu jarayon turkiy xalqlar va tojiklar uchun alohida hududlar ajratish, har bir yirik etnosning tili va madaniyatini rivojlantirish imkoniyatini yaratish kabi ijobiy g‘oyalar bilan asoslab borildi. Biroq natijada qirg‘izlar, qozoqlar, o‘zbeklar, tojiklar va turkmanlar nafaqat qo‘shni respublikalarda, balki Afg‘oniston, Xitoy va Eron kabi tashqi hududlarda ham yashab qolganliklari sababli etnik makonlarning tarixiy yaxlitligi ko‘p hollarda buzildi (Roy, 2000).

Manbalarga ko‘ra, 1924–1927-yillardagi milliy-hududiy chegaralanish jarayonida hududiy chiziqlar RSFSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi hamda SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tomonidan ko‘pincha shartli va yetarlicha aniqlashtirilmagan tarzda belgilangan (Martin, 2001). Hududlarni ajratishda aholi milliy tarkibi, mahalliy iqtisodiy hayotning xususiyatlari, til va madaniyat omillari, shuningdek, milliy konsentratsiyaning umumiy tendensiyalari hisobga olinishi lozimligi qayd etilgan bo‘lsa-da, amalda bu mezonlar har doim ham izchil qo‘llanmagan. Natijada ayrim hollarda tarixiy-iqtisodiy va etnomadaniy bog‘liqliklar sun’iy ma’muriy chegaralar bilan bo‘linib ketdi. Shu tariqa, Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish jarayoni nafaqat siyosiy-ma’muriy qayta tashkil etish hodisasi, balki mintaqaning tarixiy-geografik makonini tubdan qayta shakllantirgan murakkab etnogeografik jarayon sifatida namoyon bo‘ldi.

Texnik komissiyalar delimitatsiya jarayonida muhokama qilinayotgan hududlarda yashovchi aholining etnik tarkibini hisobga olish hamda yangi davlat tuzilmalarining hududiy yaxlitligini ta’minlash kabi asosiy tamoyillarga amal qilishi lozim edi. Biroq arxiv hujjatlari ushbu qoidalarga amalda har doim ham rioya etilmaganini ko‘rsatadi, chunki yuqori boshqaruv organlarining maxsus farmoyishlari natijasida delimitatsiya siyosiy manfaatlarga moslashtirilgan holda amalga oshirilgan. “Chegaralarni aniqroq belgilash materiallari”da qayd etilishicha, milliy mezon asosida hududiy ajratishni qiyinlashtirgan asosiy omillardan biri Markaziy Osiyo xalqlarining tarqoq joylashuvi bo‘lib, bu mintaqada sug‘oriladigan dehqonchilik yerlari ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilik yaylovlari bilan almashinib kelgan hamda bu holat delimitatsiya chiziqlarini barqaror etnik chegaralar asosida belgilash imkonini cheklagan (Т.Рискулов, 1920). Masalan,

Turkiston va Chimkent uyezdlarida o‘zbek aholi punktlari qozoq yaylovlari bilan o‘ralgan bo‘lsa, Toshkent shahri va unga tutash o‘zbek volostlari qozoqlarning trans-Chirchiq volostlari tomonidan ajratib qo‘yilgan edi, janubi-g‘arb tomonda esa tojik volostlari Farg‘ona vodiysini O‘zbekistonning boshqa qismlaridan ajratib turardi. Xuddi shuningdek, ko‘chmanchi qozoq va turkman yer egaligi tizimi Xorazm o‘zbeklarining dehqonchilik vohalarini Buxoro hududlaridan ajratib qo‘ygan edi (Shoniyozov, 1990).

Milliy-hududiy chegaralanishga qadar Markaziy Osiyoda aholini ro‘yxatga olish jarayonida (1897, 1911) ikki daryo oralig‘ida yashovchi aholining katta qismi o‘zini “o‘zbek” deb atagani qayd etiladi. Jumladan, Jizzax uyezdida aholining 75 foizi, Xorazmda 79,5 foizi, Buxoroda esa 63,9 foizi o‘zbek etnonimi bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Chirchiq, Ohangaron, Farg‘ona, Qashqadaryo va Surxondaryo aholisi ham o‘z urug‘ nomlaridan (qurama, jaloyir, kenagas, ming, boysun va boshqalar) ko‘ra “o‘zbek” nomi bilan o‘zini identifikatsiya qilishni afzal ko‘rgan. Bu holat etnik o‘zlikning hududiy konsolidatsiyasi kuchayganini ko‘rsatib, milliy-hududiy delimitatsiya jarayonlarida asosiy mezonlardan biri sifatida inobatga olingan (Shoniyozov, 1990).

Milliy-hududiy chegaralanish jarayonida o‘zbek-qozoq munosa-batlarida eng muhim strategik nuqta sifatida Chirchiq bo‘yidagi Toshkent shahri masalasi yuzaga chiqdi. Har ikki tomon bu hududni o‘z tarkibiga kiritishga intilgan sharoitda, I.Stalin buyrug‘i bilan Toshkent va Chinoz O‘zbekiston SSRga, Shimkent va Turkiston esa Qozog‘iston SSRga biriktirildi (Stalin, 1924). Toshkentning yana hududiy nizolar markaziga aylanishining oldini olish maqsadida esa 1930-yilda O‘zbekiston SSR poytaxti Samarqanddan Toshkent shahriga ko‘chirildi. Mazkur qarorlar etnogeografik nuqtayi nazardan aholining joylashuvi, iqtisodiy bog‘liqlik va transport-kommunikatsiya omillari bilan izohlanadi.

Tarixiy-madaniy jihatdan yaxlit bo‘lib kelgan mintaqani etnik belgilar asosida bo‘lib yuborish ijtimoiy va xo‘jalik nuqtayi nazardan muayyan nomuvofiqliklarni keltirib chiqargani ta’kidlanadi. Shu bilan birga, milliy-hududiy chegaralanish ilgari siyosiy jihatdan qoloq bo‘lgan xalqlarning o‘z hududlarida milliy davlatchilikni shakllantirish,

mahalliy sharoit va mentalitetga mos boshqaruv tizimini rivojlantirish, ona tilida ish yurituvchi sud, ma’muriyat va xo‘jalik tuzilmalarini barpo etish imkonini yaratgani ham e’tirof etiladi (Martin, 2001). Demak, bu jarayon ziddiyatli bo‘lsa-da, u milliy identiklik va siyosiy tizim nuqtayi nazaridan muhim tarixiy bosqich bo‘lib xizmat qilgan.

Buxoro va Xiva bilan birga Turkiston hududi 1 699 000 kvadrat kilometrni tashkil etib, bu Rossiyaning Yevropa qismi hududining qariyb uchdan bir qismiga teng bo‘lgan. 1897-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra, ushbu hudud aholisining 89 foizini turkiy xalqlar tashkil etgan, agar tojiklar ham qo‘shib hisoblansa, bu ko‘rsatkich 97 foizga yetgan (Roy, 2000). Viloyatlar bo‘yicha etnik tarkib turlicha bo‘lib, Semirechye viloyatida aholining taxminan 80 foizini qirg‘izlar (qozoqlar), Sirdaryo viloyatida 65 foizgacha, Transkaspiy viloyatida 20 foizgacha, Farg‘ona viloyatida 12 foizgacha, Samarqand viloyatida esa 8 foizgacha turkiy aholi tashkil etgan. Andijon viloyatida turkiy aholi 65,5 foizga, Namanganda 62,5 foizga, Samarqand viloyatida 60 foizga yetgan bo‘lsa, Transkaspiy viloyatida turkmanlar umumiy aholining 65 foizini tashkil qilgan (Shoniyozov, 1990).

Buxoro va Xiva xonliklari aholisining etnik tarkibi ham Turkiston hududiga o‘xshash bo‘lib, unda turkiy guruhlar ustunlik qilgan. Umumiy dunyoqarash, adolat haqidagi tasavvurlar, til va turmush sharoitlari bu katta va kichik turkiy guruhlarni bir-biriga yaqinlashtirgan (Roy, 2000). O‘zbeklar, qirg‘izlar (qozoqlar), turkmanlar va boshqa etnik guruhlar o‘rtasidagi farqlar asosan chorvachilik, dehqonchilik va shahar hayotining o‘ziga xos shakllari bilan belgilanib, ularning shevalari fors va arab tillari ta’sir darajasiga qarab shakllangan bo‘lsa-da, bu tillardan olingan leksik qatlamlar turli darajada o‘zlashgan (Shoniyozov, 1990). Shu sababli mazkur guruhlar o‘zaro sezilarli til to‘siqlarini his qilmagan holda muloqot qilganlar.

Til tafovutlari bilan bog‘liq bahslar jarayonida Turkdelegatsiya qirg‘izlar (qozoqlar), turkmanlar va o‘zbeklar bir hududda yashaganida o‘z dialektiga xos xususiyatlarni tezda yo‘qotishini ta’kidlagan, xuddi shu holat turkmanlar qirg‘iz (qozoq) muhitida bo‘lganida ham kuzatilganini qayd etgan (Т.Рискулов, 1920). Shu bois barcha turkiy guruhlar uchun umumiy adabiy til yaratishga intilish kuchaygan va

yangi imlo qoidalari ishlab chiqilgan. Arab yozuviga asoslangan yozma tilga turkiy tillarga xos tovushlarni ifodalovchi yangi belgilar hamda unli tovushlarni aks ettiruvchi grafik vositalar kiritilishi adabiy tilni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi kutilgan (Shoniyozov, 1990).

Turkdelegatsiya Turkistonning o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan viloyatlarining bo‘linishini maqsadga muvofiq emas deb hisoblab, bunday harakat ortiqcha ehtiyotkorlikni talab qilishi mumkinligini ta’kidlagan (Т.Рискулов, 1920). Ayniqsa, Turkiston yaxlitligini saqlashda suv resurslari masalasi muhim omil sifatida ko‘rilgan. Mintaqaning iqlim va tuproq sharoiti sun’iy sug‘orish tizimlarini rivojlantirishni talab etgan bo‘lib, irrigatsiya tizimlari chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlagan (Roy, 2000). Uzoq yillar davomida shakllangan suvdan foydalanish huquqlarini buzish yoki chorvachilik va dehqonchilik o‘rtasidagi mahsulot hamda xomashyo almashinuvini o‘zgartirish amaliy jihatdan murakkab bo‘lgan.

Shuningdek, Amudaryo Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari chegaralaridan, Sirdaryo esa Turkiston va Qozog‘iston hududlaridan o‘tganligi sababli, Orol dengizi hamda daryolar va ko‘llardagi resurslarni, xususan, baliq zaxiralarini ekspluatatsiya qilish yagona iqtisodiy siyosatni talab qilgan (Roy, 2000). Turkdelegatsiya Turkistonning bo‘linishi temiryo‘l hamda pochta-teleqraf aloqalarining yagona tizimini izdan chiqarishi, qo‘shni Osiyo davlatlari bilan xalqaro va valuta hisob-kitoblariga doimiy nazorat o‘rnatishni qiyinlashtirishi mumkinligini ham ta’kidlagan (Т.Рискулов, 1920).

Markaziy Osiyoda milliy-hududiy delimitatsiya jarayonida bahsli hududlarning iqtisodiy tamoyillar asosida chegaralanishi butun mintaqaning tarixiy-iqtisodiy yaxlitligini chuqur anglash zaruratini yuzaga chiqardi. Chunki delimitatsiyada ishtirok etgan mutaxassislar mintaqani yagona xo‘jalik makoni sifatida baholagan holda, siyosiy ajratish iqtisodiy integratsiyadan uzilib qolsa, uning barqarorligi ta’minlanmasligini ta’kidlaganlar (Q.Ataboyev, 1924). Shu munosabat bilan Fayzulla Xo‘jayev yangi tashkil topayotgan respublikalarni alohida iqtisodiy hududlar sifatida emas, balki SSSR iqtisodiy tizimining ajralmas tarkibiy qismlari sifatida ko‘rish lozimligini uqtiradi

(F.Xo‘jayev, 1924), S. Xo‘janov esa iqtisodiyot faqat huquqiy hujjatlar orqali belgilab bo‘ladigan soha emasligini, Markaziy Osiyoning iqtisodiy yaxlitligi delimitatsiyaga qaramay saqlanib qolishini ta’kidlagan (Xo‘janov, 1924). Aynan shu etnogeografik va iqtisodiy yaxlitlik tamoyillariga asoslanib, u Markaziy Osiyo Federatsiyasini tuzish loyihasini ilgari surgan bo‘lib, Turkiston Respublikasining qozoq hududlarini ajratib, ularni Qozoq ASSRga qo‘shish zarurligini ta’kidlar ekan, shu bilan birga, yangi tashkil topgan barcha respublika va avtonom viloyatlarni yagona davlat birligi sifatida saqlab qolish muhimligini qayd etgan (Xo‘janov, 1924).

Qirg‘iziston vakili T.Abdurahmonov ham Markaziy Osiyo iqtisodiyotining hududiy jihatdan o‘zaro chambarchas bog‘langanligini qayd etib, uni oddiy chiziqlar orqali ajratib bo‘lmasligini va mintaqa uchun eng maqbul muvozanatli yechim topish zarurligini bildirgan (Abdurahmonov, 1924), Sredazbyuro a’zosi O.Karklin esa qanday delimitatsiya amalga oshirilishidan qat’i nazar, respublikalar o‘rtasidagi mavjud iqtisodiy aloqalar saqlanib qolishi shartligini alohida urg‘ulagan (Karklin, 1924). Shunday qilib, Markaziy Osiyoning iqtisodiy mustaqilligi yoki yangi tashkil topgan davlat birliklarini yagona xo‘jalik tizimiga birlashtirish masalasi mintaqaning Rossiya tomonidan boshqarilishi bilan bog‘liq muammolar doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu jarayonda dastlab 1918-yilda Maxsus vaqtinchalik komissiya yuborilgan, 1919–1923-yillarda Turkkomissiya faoliyat yuritgan, 1920-yilda Turkbyuro tashkil etilib, 1922-yilda u Sredazbyuroga aylantirilgan hamda 1934-yilgacha mintaqaviy boshqaruvning asosiy siyosiy instituti sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, 1922-yil mart oyida SredazEKOSO – Markaziy Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuzilgan (Martin, 2001).

Garchi milliy-hududiy delimitatsiya natijasida Markaziy Osiyoda milliy respublikalar shakllanib, ularning siyosiy mustaqilligi rasman e’tirof etilgan bo‘lsa-da, amalda mintaqa ustidan Rossiyaning nazorati saqlanib qolgan. Bu nazorat asosan Sredazbyuro va SredazEKOSO kabi markaziy organlar orqali amalga oshirilib, iqtisodiy hamda siyosiy qarorlarning katta qismi Moskvada ishlab chiqilgan va mintaqaviy organlar tomonidan ijro etilgan (Shoniyozov, 1990). Shu sababli

delimitatsiya tashqi tomondan milliy davlatchilikni mustahkamlashga xizmat qilgandek koʻrinsa-da, uning real natijasi Markaziy Osiyoning markazlashgan boshqaruv tizimiga yanada chuqurroq integratsiya-lashuvi boʻldi.

Shu bilan birga, delimitatsiya jarayonida ishtirok etgan Sredazbyuro a'zolari va Markaziy hududiy komissiya vakillari ushbu hududiy qayta qurish yetarlicha ilmiy asoslanmaganini yaxshi anglab yetganlar. Ularning ta'kidlashicha, bunday murakkab jarayonni amalga oshirish uchun batafsil statistik ma'lumotlar, aholining etnik tarkibi boʻyicha ishonchli koʻrsatkichlar va aniq kartografik materiallar zarur boʻlgan, ammo mavjud ma'lumotlar koʻpincha yetarli emas yoki eskirgan edi (Martin, 2001). Shu bois delimitatsiya koʻplab hollarda tezkor siyosiy qarorlar asosida amalga oshirilib, real ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy omillar toʻliq hisobga olinmagan.

Markaziy Osiyoni iqtisodiy tumanlarga ajratish boʻyicha komissiya prezidiumi a'zosi F.Egorov oʻz hisobotida respublikalar chegaralari tasdiqlangach, ularning barqarorlashuvi uchun kamida bir yoki ikki yil talab etilishini qayd etgan. Uning fikricha, bu davr mobaynida asosiy e'tibor ichki ma'muriy-hududiy tuzilishni mustahkamlashga qaratilishi, tashqi chegaralarga esa keskin oʻzgartirishlar kiritishdan tiyilish lozim edi. Shuningdek, respublikalararo hududiy da'volar alohida material sifatida yigʻilib, chuqur ilmiy tadqiq etilishi zarurligi ta'kidlangan (F.Egorov, 1924). Bu mulohazalar delimitatsiyaning nafaqat siyosiy, balki uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ega murakkab jarayon ekanini koʻrsatadi.

7.2. Markaziy Osiyoda milliy hududiy delmitatsiyaning etnogeografik xususiyatlari.

Tarixiy jihatdan qaralganda, 1924-yil 15-iyulda Markaziy Osiyo byurosi milliy-hududiy chegaralanish loyihasini ishlab chiqib, 1924-yil 27-oktabrda boʻlib oʻtgan SSSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasining II sessiyasida Turkistonda milliy-hududiy delimitatsiya tadbirlarini toʻliq ma'qullagan edi (T.Martin, 2001). Natijada Turkiston hududi qadimdan umumiy yer-suv munosabatlariga asoslangan yaxlit xoʻjalik makonidan bir necha hududiy birliklarga boʻlinib ketdi. Delimitatsiya jarayoni tor siyosiy-ma'muriy yondashuv asosida amalga oshirilgani sababli

mintaqa xalqlarining tarixiy, geografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga yetarlicha e’tibor berilmadi. Aynan shu omil sobiq Ittifoq respublikalari orasida eng ko‘p anklavlar aynan Farg‘ona vodiysida shakllanishiga olib kelib, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlari bir-birining ichida joylashgan murakkab hududiy konfiguratsiyani yuzaga keltirdi (К.Шониёзов, 1990).

Milliy respublikalarni tashkil etish jarayoni 1924-yil 15-sentabrda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining favqulodda sessiyasi chaqirilishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu sessiyada yagona masala sifatida Markaziy Osiyoda milliy-hududiy delimitatsiya va milliy respublikalar barpo etish masalasi muhokama qilinib, R.Islomov bu jarayon tub aholi irodasining ifodasi ekanligini ta’kidladi (R.Islomov, 1924). 1924-yil 16-sentabrda TurTsIK SSSR tarkibidagi xalqlarning milliy shakllanish va millatlararo munosabatlar tamoyillariga muvofiq ravishda O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSRni mustaqil respublika sifatida tuzish, Qirg‘iz (qozoq) hududlarini Qozog‘iston SSRga qo‘shish, Qora-qirg‘iz avtonom viloyatini tashkil etish hamda Tojik avtonom viloyatini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilib, ushbu qarorni RSFSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tasdig‘iga taqdim etdi (T.Martin, 2001). Natijada 1924-yilgi milliy-hududiy delimitatsiya Markaziy Osiyo tarixidagi eng muhim siyosiy burilishlardan biri bo‘lib, O‘zbekiston va Turkmaniston SSR mustaqil respublikalar sifatida shakllandi, Qozog‘iston SSR hududi kengaytirildi, Qirg‘iziston va Tojikiston avtonom viloyatlari tashkil etildi (К.Шониёзов, 1990). Biroq bu jarayon partiyaning qattiq nazorati ostida kechgan bo‘lib, mahalliy aholining erkin va mustaqil ishtirokiga deyarli imkon berilmagan, sovet hokimiyati delimitatsiyani xalq irodasining ifodasi sifatida talqin qilgan bo‘lsada, amalda qarorlar Markazning geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlariga mos ravishda qabul qilingan edi (T.Martin, 2001).

Tojik xalqining milliy davlatchiligi masalasida 1924-yil oktabr oyida O‘zbekiston SSR Milliy-hududiy delimitatsiya bo‘yicha byurosi Tojik komissiyasi qarorini ma’qullab, Tojik avtonom viloyatini O‘zbekiston SSR tarkibida tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildi hamda Panjikent va O‘ratepa tumanlarini uning tarkibiga qo‘shishga e’tiroz bildirmaslikni belgiladi (К.Шониёзов, 1990). 1924-yil

14-oktabrda RSFSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi TurSIK qarorini tasdiqlab, Tojik avtonom viloyatini Oʻzbekiston SSR tarkibidan chiqarib, unga Tojik ASSR maqomini berish, Qoraqalpoq viloyatini Qozogʻiston ASSR tarkibiga kiritish hamda Qora-qirgʻiz avtonom viloyatini bevosita RSFSR tarkibiga qoʻshish toʻgʻrisida oʻzgartirishlar kiritdi (К.Шониёзов, 1990). Milliy-hududiy delimitatsiya jarayoni shu bilan yakunlanmay, 1929-yilda Tojik ASSR mustaqil Tojikiston SSRga aylantirildi va Xoʻjand tumani Tojikiston tarkibiga qoʻshilib, respublika aholisi 1 156 015 kishiga yetdi, ularning 78 foizini tojiklar tashkil etdi (T.Martin, 2001). 1926-yilda Qirgʻiz avtonom viloyati Qirgʻiz ASSRga aylantirildi, 1936-yilda esa Qirgʻiz ASSR va Qozoq SSR mustaqil sovet respublikalari sifatida bevosita SSSR tarkibiga kiritildi, Qoraqalpoq avtonom viloyati esa 1930-yilda RSFSR tarkibiga, 1932-yilda avtonom respublika maqomiga ega boʻlib, 1936-yildan boshlab Oʻzbekiston tarkibida qolgan (К.Шониёзов, 1990).

Milliy-hududiy delimitatsiya oqibatlari uzoq muddatli boʻlib, 1939, 1956 va keyingi yillarda ham hududiy oʻzgarishlar davom etdi hamda bu xatolar har bir respublikaning keyingi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy ta’sir koʻrsatdi. Ma’muriy organlarning oʻzlari qabul qilgan huquqiy normalarga rioya qilmasligi inson huquqlarining buzilishiga olib keldi va mintaqada etnik-madaniy hamda hududiy ziddiyatlarning chuqurlashishiga zamin yaratdi (T.Martin, 2001). Shu sababli tarixchilar Markaziy Osiyoda milliy-hududiy delimitatsiya jarayoniga oid yangi hujjatlarni yanada chuqurroq oʻrganishlari, ushbu jarayonni etnogeografik, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda qayta baholashlari zarur, chunki bu masala nafaqat sovet davri siyosiy merosi, balki bugungi Markaziy Osiyo davlatlarining chegaraviy, etnik va hududiy munosabatlarini tushunishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi (К.Шониёзов, 1990).

Oʻsha davr boshqaruv organlari nuqtayi nazaridan ayrim millatlar son jihatdan kam va iqtisodiy jihatdan zaif boʻlgani sababli ularning hududlari boshqa millatlarga tegishli yerlar hisobidan kengaytirilishi lozim, degan yondashuv ustun boʻlgan. Natijada dastlab oʻzbeklar yashaydigan Kelif tumani, Eski Chorjoʻy tumani va Toshhovuz shahar

kengashi Turkmaniston Respublikasiga qo‘shib yuborilgan. O‘zbekiston bilan madaniy va iqtisodiy jihatdan uzviy bog‘langan chegara volostlarida yashovchi o‘zbeklarning o‘z hududlarini O‘zbekistonga qo‘shish haqidagi talablarining aksariyati qanoatlantirilmagan bo‘lib, ayniqsa, Qirg‘iziston tarkibiga kiritilgan hududlardagi o‘zbeklar eng murakkab ahvolga tushib qolgan. Jumladan, 1923-yilgi ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, O‘sh shahrida yashovchi aholining 94 foizini o‘zbeklar tashkil etgan bo‘lsa-da, delimitatsiya natijasida O‘sh shahri va volosti Qirg‘iz avtonom viloyati tarkibiga kiritilgan (К.Шониёзов, 1990). Bu qaror O‘sh shahrining qirg‘iz volostlari uchun yirik iqtisodiy va madaniy markaz bo‘lgani bilan asoslangan bo‘lsa-da, mahalliy o‘zbek aholisi o‘zlarining til, urf-odat va madaniyat jihatidan ko‘chmanchi qirg‘izlardan farq qilishini ta’kidlab, keskin norozilik bildirgan (T.Martin, 2001). Natijada, O‘sh shahri va O‘sh volosti Andijon uyezdining ayrim volostlari bilan birgalikda O‘zbekiston SSR tarkibiga qayta kiritilgan. Hujjatlarda qayd etilishicha, ayrim hududlarda o‘zbek maktablari yopilib, ularning o‘rniga qirg‘iz maktablari tashkil etilgan, mahalliy sovet organlariga esa o‘zbek vakillari tayinlanmagan, bu esa milliy tenglik tamoyillarining buzilishiga olib kelgan (К.Шониёзов, 1990).

Bolsheviklarning milliy-hududiy chegaralanish siyosati natijasida ko‘plab etnik guruhlar o‘z tarixiy-etnik makonidan tashqarida qolib ketdi. Jumladan, 433 ming nafar o‘zbek O‘zbekiston tashqarisida yashab qolgan bo‘lib, ularning 120 ming nafari Qirg‘izistonda, 98 ming nafari Tojikistonda, 78 ming nafari Qozog‘istonda, 73 ming nafari Qoraqalpog‘istonda va 64 ming nafari Turkmanistonda istiqomat qilgan (T.Martin, 2001). Shu bilan birga, sobiq SSSR hududidagi barcha o‘zbeklarning qariyb 82 foizi O‘zbekistonda, tojiklarning esa 75,2 foizi Tojikistonda yashagan (T.Martin, 2001). Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xalqlar uchun milliy respublikalar tashkil etilishi jarayonida ularga shahar markazlarini biriktirish zarur deb topildi, biroq Markaziy Osiyodagi shaharlar tarixan dehqonchilik madaniyatiga mansub aholi tomonidan barpo etilganligi sababli, natijada o‘zbeklar ko‘pchilikni tashkil etuvchi O‘sh, Turkiston, Chimkent, Avliyo-ota,

Charjoʻy, Toshhovuz, Jalolobod va Suzoq kabi yirik shaharlar Oʻzbekiston hududidan tashqarida qoldi (К.Шониёзов, 1990).

SSSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi tomonidan tasdiqlangan chegara chizigʻiga koʻra, Toshkent shahri va Toshkent uyezdi Oʻzbekiston tarkibiga kiritildi, chunki Toshkent oʻsha davrda mintaqaning eng yirik iqtisodiy va savdo markazi boʻlib, aholining mutlaq koʻpchiligi oʻzbeklardan iborat edi, shu sababli Qozogʻiston tomonidan uni poytaxt sifatida qoʻlga kiritish haqidagi da’volar rad etildi (T.Martin, 2001). Mazkur qaror etnogeografik nuqtayi nazardan aholining joylashuvi, tarixiy xoʻjalik aloqalari hamda transport-kommunikatsiya omillari bilan asoslangan boʻlsa-da, umumiy mintaqaviy yaxlitlikning siyosiy chegaralar bilan boʻlinishi Markaziy Osiyo makonining tarixiy-etnik tuzilishida uzoq muddatli nomuvofiqliklarni yuzaga keltirdi.

Etnografik yondashuv asosida baholaganda, milliy-hududiy delimitatsiya jarayoni Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy joylashuvi, iqtisodiy faoliyat turlari va madaniy makonlarining oʻzaro uygʻunligini yetarlicha hisobga olmagan holda amalga oshirilgani bois, u hududiy yaxlitlik bilan etnik makon oʻrtasida muvozanatsizlikni keltirib chiqardi. Sugʻorma dehqonchilikka asoslangan vohalar, yaylov chorvachiligiga moslashgan togʻ va choʻl hududlari hamda shahar markazlari oʻrtasidagi tarixan shakllangan oʻzaro bogʻliqlik siyosiy-ma’muriy chegaralar bilan uzilib ketdi. Natijada transchegaraviy etnik hududlar, anklav va eksklav makonlar vujudga kelib, ular keyingi davrlarda suv resurslaridan foydalanish, transport-kommunikatsiya, yer-suv munosabatlari hamda etnomadaniy oʻzaro aloqalar sohasida murakkab ziddiyatlarni yuzaga chiqardi (К.Шониёзов, 1990; T.Martin, 2001).

Xulosa qilib aytganda, 1924–1936-yillarda Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy delimitatsiya sovet milliy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida yangi respublikalar shakllanishiga asos boʻlgan boʻlsa-da, u mintaqaning tarixiy-etnik, xoʻjalik va madaniy makonining yaxlitligini izdan chiqardi. Jarayon markazlashgan siyosiy manfaatlar ustuvorligi ostida olib borilgani bois, mahalliy aholining real etnodemografik tarkibi va hududiy hayotiy ehtiyojlari yetarlicha hisobga olinmadi. Natijada transchegaraviy etnik hududlar, anklav va

eksklav makonlar vujudga kelib, ular mustaqillikdan keyingi davrda ham Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi chegara, resurs va etnomadaniy munosabatlarda murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois milliy-hududiy delimitatsiya jarayonini etnogeografik, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv asosida qayta baholash nafaqat sovet davri siyosiy merosini chuqur anglash, balki bugungi Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror hududiy va etnik munosabatlarni shakllantirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

7.3. Milliy hududiy chegaralanishning oqibatlari va transchegaraviy zonalar etnogeografiyasi.

Milliy-hududiy chegaralanishning siyosiy-madaniy va iqtisodiy jihatdan ijobiy tomonlari sifatida, mavjud hukmron mafkuradan qat'i nazar, birinchi navbatda, koʻp millatli uchta yirik siyosiy tuzilma oʻrnida bir millatli "millat-davlat"larning shakllantirilganligini qayd etish mumkin. Bu jarayon oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, tojik, turkman va qoraqalpoq kabi etnoslarning milliy-hududiy jihatdan konsentratsiyalanishiga imkon yaratdi hamda tarixan koʻchmanchi turmush tarziga ega boʻlgan etnoslarning asta-sekin oʻtroqlashib, zamonaviy xalq va millat sifatida shakllanishiga zamin hozirladi. Shu bilan birga, har bir millatning oʻz hududiy ishlab chiqarish majmualariga ixtisoslashuvi natijasida hududiy mehnat taqsimoti va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari vujudga keldi. Polietnik aholining alohida millat-davlatlar doirasida joylashtirilishi milliy oʻzlikka asoslangan jamiyatlarning shakllanishiga xizmat qildi hamda har bir xalqning xoʻjalik yuritish xususiyatlariga mos hududiy ixtisoslashuv tizimi yuzaga kelishiga asos boʻldi. Ilmiy-metodologik jihatdan ushbu jarayonlar hozirgi Qozogʻiston, Turkmaniston, Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Tojikiston respublikalarining shakllanishi uchun tarixiy zamin yaratdi, deyish mumkin.

Biroq milliy-hududiy chegaralanish sovet hokimiyati tomonidan asosan mintaqa aholisi manfaatlaridan koʻra markazdan boshqariladigan mustamlakachilik siyosatini qulaylashtirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Chegaralanish jarayonida hududning geografik va xoʻjalik xususiyatlari metodologik poydevor sifatida belgilangan boʻlsa-

da, amalda ularga to‘liq amal qilinmadi, ya’ni milliy-hududiy va iqtisodiy prinsiplar Markaziy Osiyoning real etnogeografik sharoitlariga yetarli darajada moslashtirilmagan edi. Buning asosiy sababi sifatida jarayonni iloji boricha tezroq yakunlab, mintaqaga sotsialistik boshqaruv tizimini joriy etish maqsadi ko‘zlanganini ko‘rsatish mumkin. Natijada, mukammal asoslanmagan delimitatsiya keyinchalik iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy va geoiqtisodiy muammolarning yuzaga kelishiga olib keldi. Jumladan, yer-suv, yaylov, rekreatsiya hududlari va tabiiy resurslardan foydalanish, shuningdek, anklav va eksklav hududlar bilan bog‘liq muammolar hozirgi kungacha o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Milliy-hududiy chegaralanish natijasida tarixan yagona tabiiy-geografik va xo‘jalik tizim sifatida shakllangan hududlar sun’iy ravishda bo‘linib ketdi. Masalan, Sharqiy Buxoro deb atalgan forsiyzabon aholidan iborat Tojikiston SSR Zarafshon daryosining yuqori oqimi hududida, turkiy tilda so‘zlashuvchi o‘zbeklardan iborat O‘zbekiston SSR esa daryoning o‘rta va quyi oqimlarida joylashtirildi. Tabiiyki, daryolarning boshlanish qismida suv resurslarining boshqarilishi quyi oqimlarga keladigan suv miqdorining kamayishiga olib keladi, bu esa sug‘orma dehqonchilikka tayangan tekislik hududlaridagi o‘zbek aholisining xo‘jalik faoliyatida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirdi.

Farg‘ona vodiysini O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida taqsimlashda ham aniq va izchil tabiiy-geografik mezonlarga asoslanil-magan. Masalan, O‘sh va Jalolobod viloyatlarida aholining katta qismi o‘zbeklardan iborat bo‘lishiga qaramay, ular Qirg‘iziston tarkibiga kiritildi, aksincha, tub aholisi etnik tojiklardan iborat bo‘lgan So‘x hududi O‘zbekiston tarkibida qoldirildi. Tog‘ tizmalari suvayirg‘ichlari, daryo havzalari va relyef elementlari kabi tabiiy omillarga yetarli darajada tayangan holda amalga oshirilmagan bu chegaralanish natijasida daryolarning boshlanish qismi bir davlat hududida, quyi oqimi esa boshqa davlat hududida qolib, suvdan foydalanish masalasida murakkabliklar yuzaga keldi. Xususan, Norin daryosi, shuningdek, Oloy, Turkiston va Chotqol tog‘laridan boshlanadigan daryolardagi suv resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq muammolar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Farg‘ona vodiysida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida murakkab etnik-geografik vaziyat hosil bo‘lgan bo‘lib, tarixan yagona xo‘jalik, madaniy va demografik makon sifatida shakllangan. Natijada Qirg‘iziston hududidagi Tojikiston eksklavi – Vorux, Qirg‘iziston hududidagi O‘zbekiston eksklavlari – So‘x va Shohimardon kabi hududiy birliklar vujudga kelgan. Bunday anklav-eksklav zonalar aholining erkin harakatlanishi, transport kommunikatsiyalari, suv va yer resurslaridan foydalanish masalalarida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni yuzaga keltirdi. Etnogeografik nuqtayi nazardan qaraganda, bu hududlar tarixiy migratsiyalar, etnik aralashuv, xo‘jalik hududlarining umumiyligi va tabiiy resurslarning transchegaraviy xarakteri natijasida shakllangan bo‘lib, ularni faqat siyosiy-huquqiy chegaralar doirasida baholash yetarli emas.

Shuningdek, Turkmanistonning Dashog‘uz viloyati va O‘zbekistonning Xorazm viloyatlari chegaralanishgacha yagona irrigatsiya va xo‘jalik tizimiga ega bo‘lgan hudud bo‘lib, delimitatsiyadan so‘ng Dashog‘uz xo‘jaligi O‘zbekiston hududidan o‘tuvchi kollektor va kanallarga qaram bo‘lib qoldi. Bu holat suv va yer resurslaridan foydalanishda davlatlararo muvofiqlashtirish zaruratini kuchaytirdi. Umuman olganda, 1920–1930-yillarda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish Markaziy Osiyoning tarixiy-etnik makon tuzilmasini tubdan o‘zgartirib, asrlar davomida shakllangan iqtisodiy rayonlar, etnomadaniy birliklar hamda ko‘chmanchi va o‘troq hududlar yaxlitligini buzdi va transchegaraviy hududlarda murakkab etnogeografik jarayonlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonning oqibatlari XX asr davomida saqlanib qolib, hozirgi kunda ham mintaqaning geografik, iqtisodiy, siyosiy va demografik holatiga ta’sir etib kelmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida yaylovlardan chegaraoldi hududlarda birgalikda foydalanish deyarli muammo tug‘dirmagan bo‘lsada, mustaqillikdan keyingi davrda bu masala murakkablashdi. Masalan, Namangan viloyati Pop tumanining shimoli-g‘arbidagi Sarvaxoy havzasi 1935-yilda Tojikiston tomonidan ijaraga olingan bo‘lib, ijara muddati 1990-yilda tugaganiga qaramay, hozirga qadar mazkur hudud Tojikistonning O‘zbekistondagi eksklavi sifatida saqlanib qolmoqda. 1955-yilgacha So‘x O‘zbekiston hududi bilan bevosita tutash bo‘lgan

boʻlsa, 1950-1960-yillarda qirgʻiz chorvadorlarining Soʻx-Rishton oraligʻidagi yaylovlardan vaqtincha foydalanishi natijasida oraliq hududlar qaytarib berilmay, Soʻx va Choʻngʻara anklav hududlarga aylangan. Xuddi shuningdek, Tojikistonning Voruh hududi dastlab asosiy hudud bilan bevosita tutash boʻlgan boʻlsa-da, keyinchalik yaylovlarning qaytarilmasligi oqibatida u ham anklavga aylangan va Tojikiston-Qirgʻiziston munosabatlarida transport va kommunikatsiya masalalari boʻyicha doimiy tortishuvlar manbayiga aylangan.

1927–1928-yillarda Oʻzbekiston SSR tarkibidagi Isfara, Chapkoʻl va Boksa-Isfana hududlarining Qirgʻizistonga oʻtkazilishi, shuningdek, etnik jihatdan oʻzbeklar koʻpchilikni tashkil qilgan Oʻsh, Jalolobod, Novqat va Oʻzgan hududlarining Qirgʻiziston tarkibida qolishi ham keyinchalik murakkab etnosiyosiy vaziyatlarning shakllanishiga sabab boʻldi. 1930–1955-yillardagi demarkatsiya jarayonlarida geografik tamoyillarning yetarli hisobga olinmasligi natijasida bir davlat hududi ikkinchisining ichida qolib ketgan holatlar yuzaga keldi va bu Soʻx, Shohimardon, Jangail (Shimoli Shohimardon yoki Xalmion), Chongʻara, Voruh, Gʻarbiy Qalʻacha (Qayragʻoch), Sarvak va Barak kabi anklav va eksklav hududlarning vujudga kelishiga olib keldi. 1930-yilda Shohimardon qishlogʻining Oʻzbekiston hududiga oʻtishi kelgusida anklav muammolarining paydo boʻlishiga zamin yaratgan boʻlsa, 1955-yilda eng yirik submilliy anklav sifatida Soʻxning shakllanishi ushbu jarayonning mintaqaviy koʻlamda chuqurlashganini koʻrsatdi. Soʻxning “kontinental orol”ga aylanishi uning shimolidagi Chongʻaraning ham eksklav maqomiga tushishiga sabab boʻldi, Jangail hududi esa uzoq yillar davomida iqtisodiy rivojlanishdan deyarli uzilib qolgan ijtimoiy-madaniy makon sifatida shakllandi.

Shu bilan birga, Tojikistonning Oʻzbekistondagi Sarvak, Qirgʻizistondagi Voruh va Gʻarbiy Qalʻacha eksklavlari, shuningdek, Qirgʻizistonning Oʻzbekistondagi Barak eksklavi orqali asosiy davlat, anklav hudud va ularni oʻrab turgan davlat oʻrtasidagi murakkab munosabatlar shakllandi. Xususan, Barak boʻyicha ikki davlat oʻrtasida harakatlanish, irrigatsiya va savdo-iqtisodiy aloqalar masalalarida muntazam kelishmovchiliklar kuzatilgan. Umuman olganda, anklav va eksklav hududlar sobiq Ittifoq davrida deyarli siyosiy-iqtisodiy

ahamiyat kasb etmagan bo‘lsa-da, mustaqillik yillarida ular davlatlararo munosabatlarda “nozik geosiyosiy makon” sifatida shakllanib, doimiy siyosiy hushyorlik va muvofiqlashtirilgan boshqaruvni talab qiladigan hududlarga aylangan.

Mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida chegara delimitatsiyasi va demarkatsiyasi jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Ushbu jarayonlarning asosiy maqsadi davlat chegaralarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, hududiy da’volarni bartaraf etish va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdan iborat edi. Eng muvaffaqiyatli misollardan biri Qozog‘iston-O‘zbekiston chegarasining belgilanishidir. 2001–2002-yillarda ikki bosqichda amalga oshirilgan delimitatsiya natijasida 2 159 km uzunlikdagi chegara huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi, ayrim bahsli hududlar bo‘yicha murosa yechimlari topildi hamda eksklavlar bilan bog‘liq muammolar qisman yumshatildi. Bu jarayon ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlash va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi.

Biroq Qirg‘iziston-O‘zbekiston chegarasi post-sovet hududidagi eng murakkab va muammoli zonalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu chegarani delimitatsiya qilish jarayonida tomonlar turli tarixiy xaritalarga tayangan bo‘lib, Toshkent 1927-yilgi xaritani, Bishkek esa 1954-yilgi xaritani asos qilib olgan. Natijada chegaraning katta qismi bo‘yicha kelishuvga erishilgan bo‘lsa-da, muayyan hududlar hanuz bahsli bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston-Tojikiston chegarasi ham delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlarining murakkabligi bilan ajralib turadi. Bugungi kungacha umumiy chegaraning muayyan qismi to‘liq rasmiylashtirilmagan bo‘lib, bu holat suv resurslari, yaylovlardan foydalanish, transport yo‘llari va chegaraoldi hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat masalalarida ziddiyatlarni kuchaytirib kelmoqda. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi hududidagi etnik aralash aholi joylashuvi va anklav-eksklav zonalar mavjudligi ushbu muammolarni yanada murakkablashtirmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, Xitoy bilan ham tashqi chegaralarni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish zarurati

yuzaga keldi. Sovet davrida hal etilmagan 25 dan ortiq bahsli chegara uchastkalari mavjud bo‘lib, umumiy bahsli hudud maydoni o‘n minglab kvadrat kilometrni tashkil etgan. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston 1990-yillardan boshlab Xitoy bilan muzokaralar olib borib, bahsli hududlarni murosa asosida taqsimlashga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu jarayonlar nafaqat chegaraviy masalalarni hal etish, balki mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining shakllanishiga ham zamin yaratdi. Shu jihatdan, Markaziy Osiyo – Xitoy chegara muzokaralari transchegaraviy hamkorlik va diplomatik murosaning muvaffaqiyatli modeli sifatida baholanishi mumkin.

Mustaqillikdan keyingi davrda suv-energetika infratuzilmasining rivojlanishi, xususan, Panj va Vaxsh daryolarida GES va suv omborlarining qurilishi Amudaryo havzasida suv resurslarining kamayishiga olib keldi. Bu holat nafaqat O‘zbekiston, balki Turkmaniston va Afg‘onistonning shimoli hududlarida ham suv taqchilligini kuchaytirdi. Suv resurslarining transchegaraviy xususiyati mintaqadagi chegaraviy muammolarni yanada murakkablashtirib, anklav-eksklav hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy bosimni oshirdi. Shu bois, suv masalasi Markaziy Osiyoda nafaqat ekologik yoki iqtisodiy muammo, balki etnosiyosiy va geostrategik ahamiyatga ega omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Etnogeografik yondashuv nuqtayi nazaridan Markaziy Osiyodagi chegara muammolari faqat hududiy nizolar sifatida emas, balki tarixiy migratsiyalar, etnik aralashuv, xo‘jalik hududlarining umumiyligi va tabiiy resurslarning transchegaraviy xarakteri bilan bog‘liq murakkab tizimli hodisa sifatida baholanishi lozim. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi singari yuqori demografik zichlikka ega hududlarda siyosiy chegaralarning sun’iy ravishda chizilishi etnik va iqtisodiy makonning tabiiy yaxlitligini buzib, ijtimoiy keskinlik manbalarini yuzaga keltirdi. Shu sababli mustaqillikdan keyingi delimitatsiya jarayonlari nafaqat davlat suverenitetini mustahkamlash, balki etnik barqarorlik, transchegaraviy resurslardan adolatli foydalanish va mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish vazifalarini ham bajarishi zarur edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yer va suv masalalarida ziddiyatlar yuzaga keldi. Xususan, XX asr oxirlarida Panj va Vaxsh daryolarida suv omborlari, gidroelektr stansiyalari va gidrotexnik inshootlarning qurilishi Amudaryo havzasida suv miqdorining kamayishiga olib kelib, bu holat nafaqat O‘zbekiston, balki Turkmaniston va Afg‘oniston shimoli hududlarida ham suv tanqisligini kuchaytirdi. Natijada suv resurslari masalasi mintaqada ekologik xavfsizlik, oziq-ovqat ta’minoti va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq strategik muammoga aylandi.

Bugungi kunda ham suv bilan bog‘liq muammoli vaziyatlar anklav-eksklav hududlarda dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, So‘x, Vorux va Shohimardon kabi yirik anklavlarda suv ta’minoti, yer resurslaridan foydalanish va transport kommunikatsiyalariga kirish masalalari tez-tez ijtimoiy keskinlik manbayi bo‘lib xizmat qilmoqda. Garchi hozirgi kunda hukumatlararo muzokaralar orqali ushbu muammolarni hal etish yo‘lida muayyan qadamlar tashlanayotgan bo‘lsa-da, bu masalalarning tagzamirida tarixiy chegaraviy nomutanosiblik va xo‘jalik hududlari bilan siyosiy chegaralar o‘rtasidagi mos kelmaslik yotgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyodagi chegara muammolari murakkab tarixiy, demografik, iqtisodiy va siyosiy omillar uyg‘unligida shakllangan ko‘p qatlamli hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. 1920–1930-yillardagi milliy-hududiy delimitatsiya jarayonlari mintaqaning etnik tarkibi, migratsion jarayonlari va xo‘jalik hududlarining tabiiy yaxlitligini yetarlicha hisobga olmagani sababli anklav-eksklav hududlar, etnik aralash zonalar va transchegaraviy resurslardan foydalanish muammolarini yuzaga keltirdi. Mustaqillikdan keyingi delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlari bu muammolarni qisman yumshatgan bo‘lsa-da, ularni to‘liq bartaraf etishga erisha olmadi.

Shu sababli kelajakda Markaziy Osiyo davlatlari chegara nizolarini xalqaro huquq normalari asosida hal etish, transchegaraviy suv va tabiiy resurslardan birgalikda foydalanish mexanizmlarini rivoj-lantirish, anklav-eksklav hududlarda aholi xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan siyosat yuritish orqali mintaqada uzoq muddatli barqarorlik va hamkorlik muhitini shakllantirishlari

zarur. Aynan shunday yondashuv Markaziy Osiyoda siyosiy chegaralar bilan tarixiy-etnik va iqtisodiy makon o‘rtasidagi nomutanosiblikni yumshatib, mintaqaning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiluvchi etnogeografik muvozanatni ta’minlash imkonini beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyoda 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanishning asosiy siyosiy va etnogeografik sabablari nimalardan iborat edi?
2. Milliy-hududiy delimitatsiya jarayonida Farg‘ona vodiysining murakkab etnik-geografik holati qanday muammolarni keltirib chiqardi?
3. Anklav va eksklav hududlarning shakllanishiga olib kelgan tarixiy omillarni izohlang.
4. Milliy-hududiy chegaralanishning Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ijobiy va salbiy ta’sirlarini tahlil qiling.
5. Mustaqillikdan keyingi delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlarining mintaqaviy barqarorlikka ta’sirini baholang.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari

1. Farg‘ona vodiysidagi anklav-eksklav hududlar misolida transchegaraviy zonalarning etnogeografik xususiyatlarini yozma tahlil qiling.
2. Markaziy Osiyoda suv resurslarining transchegaraviy xususiyati va uning davlatlararo munosabatlarga ta’siri haqida referat tayyorlang.

Foydanalingan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Т. Марказий Осиё иқтисодий чегараланиши масалалари бўйича маърузалар. – Тошкент, 1924.
2. Атабоев. Марказий Осиё ҳудудий-иқтисодий тузилмаси масалалари. – Тошкент, 1924.
3. Егоров Ф. Вопросы стабилизации границ республик в Средней Азии. – Ташкент, 1924.
4. Карлин О. Об экономических связях между республиками Средней Азии. – Ташкент, 1924.
5. Martin T. The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939. – Ithaca: Cornell University Press, 2001.

6. Рискулов Т. Доклады по вопросам административно-территориального переустройства Туркестана. – Ташкент, 1920.

7. Roy O. The New Central Asia: The Creation of Nations. – London: I.B. Tauris, 2000.

8. Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник шаклланиши ва этногенези. – Тошкент, 1990.

9. Хўжаев Ф. Вопросы экономической политики и территориального переустройства Средней Азии. – Ташкент, 1924.

10. Хўжанов С. К идее федерации Средней Азии. – Ташкент, 1924.

8-MAVZU: MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA ETNIK ZIDDIYATLARNING PAYDO BO‘LISHI VA YECHIMI MASALALARI

Reja:

1. Milliy-hududiy chegaralanish va etnik makonning qayta tashkil etilishi.

2. Sovet davrida migratsion jarayonlarning etnik ziddiyatlar-dagi o‘rni.

3. Sovet tizimi inqirozi va ochiq etnik to‘qnashuvlar davri.

4. Xulosa.

Darsning maqsadi: *talabalarda Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlarning shakllanishi, etnik ziddiyatlarning tarixiy, etnogeografik va migratsion omillar bilan bog‘liqligi hamda ularni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlari haqida ilmiy-nazariy bilimlarni shakllantirish.*

Tayanch so‘z va iborlari: *migratsiya, demarkatsiya, delimitatsiya, resurslar, ziddiyat, integratsiya, identiklik, transchegaraviy hudud, urbanizatsiya, deportatsiya, barqarorlik, mojarolar*

8.1. Milliy-hududiy chegaralanish va etnik makonning qayta tashkil etilishi.

XX asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish jarayoni mintaqaning etnik makonini tubdan o‘zgartirdi. Ushbu siyosiy qaror Sovet hokimiyati tomonidan “millatlar o‘z taqdirini o‘zi belgilashi” tamoyili ostida amalga oshirilgan

bo‘lsada, amalda tarixiy-etnik makonlarning sun’iy ravishda bo‘linishiga olib keldi. Akademik V.V.Bartold ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyoda etnik chegaralar hech qachon siyosiy chegaralar bilan to‘liq mos kelmagan” (В.В.Бартольд, 1977), shu bois milliy respublikalar yaratish jarayoni murakkab etnogeografik muammolarni keltirib chiqardi.

Birinchidan, ko‘plab etnik guruhlar o‘zining tarixiy yashash hududlaridan ajralib qoldi. O‘zbek-tojik, o‘zbek-qirg‘iz va tojik-qirg‘iz chegaralarining belgilanishi aholining ko‘p asrlik migratsion yo‘llarini kesib o‘tdi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning uzilishiga olib keldi. Ayniqsa, tog‘li hududlarda yashovchi qirg‘izlar bilan vohalardagi o‘zbeklar o‘rtasida yer, suv va yaylov resurslaridan foydalanish masalalari murakkablashdi. Bu holat keyinchalik ijtimoiy taranglik va ochiq etnik mojarolarning yuzaga chiqishi uchun zamin yaratdi.

Ikkinchidan, milliy-hududiy chegaralanish natijasida transchegaraviy etnik makonlar shakllandi. Farg‘ona vodiysi, So‘x, Voruh, Cho‘ng‘ara kabi anklav va eksklav hududlar sun’iy chegaralar bilan ajratilib, transport aloqalari, suv ta’minoti va infratuzilma masalalarida doimiy muammolar manbayiga aylandi. Ushbu hududlarda etnik guruhlar o‘zaro yaqin yashagan bo‘lsalar-da, turli davlat-huquqiy tizimlarga bo‘ysundirilishi ularning kundalik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini murakkablashtirdi.

Uchinchidan, chegaralanish jarayoni etnik makonlarning tarixiy barqarorligini izdan chiqardi. Tarixan o‘zbeklar vohalarda, qirg‘izlar tog‘ va tog‘oldi hududlarda, tojiklar esa tog‘li va vodiy mintaqalarda joylashib, o‘zaro iqtisodiy to‘ldiruvchanlik asosida yashab kelganlar. Sovet davrida chizilgan siyosiy chegaralar bu tabiiy makonlarni sun’iy ravishda bo‘lib, an’anaviy dehqonchilik, chorvachilik va yaylovdan foydalanish tizimlarini cheklab qo‘ydi. Natijada, resurslarga kirish imkoniyatining notekisligi etnik ziddiyatlarning muhim omiliga aylandi.

Milliy-hududiy chegaralanishning muhim oqibatlaridan biri etnik guruhlarning tarixiy makonidan ajralib qolishidir. Masalan, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi chegaralar Zarafshon vodiysidagi an’anaviy xo‘jalik hududlarini ikkiga bo‘ldi. Bu masala haqida A.A.Semyonov

yozganidek, “Zarafshon vohasida tojik va oʻzbek aholisining iqtisodiy hayoti asrlar davomida yagona irrigatsiya tizimi asosida shakllangan boʻlib, yangi siyosiy chegaralar ushbu tabiiy-iqtisodiy yaxlitlikni buzdi”. Natijada, sugʻorish tizimlari, savdo yoʻllari va migratsion aloqalar sun’iy ravishda uzildi.

Qozoq-qoraqalpoq hududiy munosabatlari ham milliy chegaralanishning murakkab oqibatlarini koʻrsatadi. Qoraqalpoqlar Amudaryo deltasi va quyi oqimi hududlarida qadimdan yashab kelgan. Sovet davrida esa ularning tarixiy makoni bir necha siyosiy birliklar oʻrtasida taqsimlandi. S.G.Agadjanov bu jarayonni “transchegaraviy etnik makonning shakllanishi” deb baholab, uning kelajakda resurslar, suv va yer munosabatlari sohasida ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishini qayd etadi (С.Г.Агаджанов, 1987).

Milliy-hududiy chegaralanishning eng murakkab oqibatlari Fargʻona vodiysida yuzaga keldi. Bu hudud tarixan oʻzbek, qirgʻiz va tojik aholisining zich joylashgan va iqtisodiy jihatdan oʻzaro bogʻlangan makoni boʻlib kelgan. A. Bennigsenning fikricha, “Fargʻona vodiysi Sovet milliy siyosatining eng nozik nuqtalaridan biri boʻlib, bu yerda chizilgan chegaralar real etnik-geografik tuzilishga mos kelmagan”. Natijada, togʻli hududlarda yashovchi qirgʻizlar va pasttekisliklarda yashovchi oʻzbeklar oʻrtasida yaylov va suv resurslariga kirish masalalari keskinlashdi. Ushbu strukturaviy nomuvofiqlik 1989–1990-yillardagi etnik mojarolar uchun hududiy zamin yaratdi (А.Беннигсен, 1983).

Sharqiy Buxoro hududining qayta tashkil etilishi ham etnogeografik jihatdan muhim jarayon boʻldi. Forsiyzabon aholi ustun boʻlgan togʻli hududlar asosida Tojikiston SSR, turkiy tilli aholi yashagan vohalar asosida esa Oʻzbekiston SSR shakllantirildi. Bu masala boʻyicha A.N.Bernshtam “suv resurslari manbalarining yuqori oqimda joylashuvi siyosiy jihatdan bir respublika qoʻliga oʻtishi quyi hududlarda sugʻorma dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi aholi uchun uzoq muddatli iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirganini” ta’kidlaydi (А.Н.Бернштам, 1980). Demak, milliy chegaralanish faqat etnik emas, balki ekologik va xoʻjalik tizimlarining ham notekis taqsimlanishiga olib kelgan.

Chegaralanish jarayoni Markaziy Osiyodagi tarixiy savdo yoʻllari va migratsion aloqalarning uzilishiga ham sabab boʻldi. Sovet davrida

esa bu yo‘llar respublika chegaralari bilan bo‘linib, mahalliy bozorlararo integratsiya zaiflashdi. T. Shanin bu holatni “sun’iy siyosiy hududlar doirasida an’anaviy iqtisodiy makonning parchalanishi” sifatida tavsiflaydi (Т.Шанин, 1999).

Etnogeografik yondashuv nuqtayi nazaridan, milliy-hududiy chegaralanishning asosiy xususiyati tarixiy hududiy yaxlitlik va etnik birlik tamoyillarining real demografik vaziyatga mos kelmaganidadir. J.Stalin tomonidan ilgari surilgan “millat – til, hudud, iqtisodiy hayot va madaniyat birligiga ega tarixiy jamoa” haqidagi nazariy model amaliyotda Markaziy Osiyo kabi ko‘p qatlamli etnik makonlarda to‘liq ishlamadi. Shu bois, ko‘plab hollarda respublika chegaralari etnik tarkibni emas, balki siyosiy va strategik manfaatlarni aks ettirdi.

Shu bilan birga, sovet davrida yuzaga kelgan ushbu muammolar ochiq etnik mojarolarga aylanmadi, chunki yagona markaziy hokimiyat kelishmovchiliklarni siyosiy va ma’muriy vositalar bilan nazorat qilib turdi. Biroq, S.Roy ta’kidlaganidek, “markaziy nazorat zaiflashgach, ilgari bostirib turilgan hududiy-etnik ziddiyatlar tezda ochiq shaklga chiqdi”(О.Рой, 2000). Mustaqillik davrida Markaziy Osiyodagi ko‘plab etnik muammolarning faollashuvi aynan XX asr boshidagi milliy-hududiy delimitatsiya jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish Markaziy Osiyoda etnik makonning tabiiy rivojlanish tizimini buzib, tarixiy migratsion yo‘llar, irrigatsiya tizimlari va xo‘jalik aloqalarini sun’iy ravishda parchaladi. Ushbu jarayon mintaqada transchegaraviy etnik makonlarning shakllanishiga, resurslar ustidan raqobatning kuchayishiga va millatlararo ziddiyatlarning hududiy asoslarini yuzaga keltirishga xizmat qilgan muhim etnogeografik omil sifatida baholanadi.

8.2. Sovet davrida migratsion jarayonlarning etnik ziddiyatlardagi o‘rni.

XX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda yuz bergan migratsion jarayonlar mintaqaning etnik tarkibi, aholi joylashuvi va ijtimoiy-madaniy muhitiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Sovet davlati tomonidan amalga oshirilgan sanoatlashtirish, qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish va majburiy ko‘chirish siyosati natijasida Markaziy

Osiyo koʻp millatli makonga aylanish jarayonini tezlashtirdi. Migratsiya jarayonlari etnik makonning ichki muvozanatini oʻzgartiruvchi asosiy omillardan boʻlib, ushbu davrdagi demografik harakatlar keyinchalik yuzaga kelgan etnik ziddiyatlarning hududiy asoslarini shakllantirdi.

1940-yillarning oxirlaridan boshlab Sovet Ittifoqi Markaziy Osiyoni agrar xomashyo mintaqasidan sanoatlashgan iqtisodiy hududga aylantirish strategiyasini kuchaytirdi. Bu siyosat doirasida Fargʻona, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Toshkent, Termiz kabi shaharlarda yirik sanoat markazlari barpo etildi. A.Bennigsenning fikricha, “Markaziy Osiyo sanoatlashuvi mahalliy demografik resurslarga emas, balki tashqi mehnat migratsiyasiga tayangan loyiha boʻlgan” (Беннигсен А., 1983). Natijada, RSFSR va Ukraina SSRdan muhandis-texnik xodimlar, ishchi kadrlar, shuningdek, ilmiy mutaxassislar keng miqyosda mintaqaga koʻchirildi.

XX asrning 50-60-yillarida paxtachilikka ixtisoslashgan yirik kolxoz-sovxozlar tizimining shakllanishi ham ichki va tashqi migratsiyani jadallashtirdi. A.Zayonchkovskayaning qayd etishicha, “paxta ishlab chiqarish zonalarida ishchi kuchiga boʻlgan ehtiyoj koʻpincha mahalliy demografik resurslardan oshib ketgan” (Ж.А.Зайончковская, 1988). Bu esa Markaziy Osiyoga boshqa respublikalardan mehnat resurslari jalb qilinishiga sabab boʻlgan. Natijada, iqtisodiy oʻsish qisqa muddatda ta’minlangan boʻlsa-da, etnik tarkibdagi notekis oʻzgarishlar uzoq muddatli ijtimoiy-psixologik muammolarni yuzaga keltirdi.

Sovet davridagi migratsiyaning eng keskin shakli majburiy deportatsiyalar bilan bogʻliq boʻldi. 1937-yilda Uzoq Sharqdan koreyslarning koʻchirilishi Markaziy Osiyoda etnogeografik muhitni tubdan oʻzgartirdi. Koreyslar asosan Toshkent viloyati, Fargʻona vodiysi va Qoraqalpogʻiston hududlariga joylashtirildi. 1944-yillarda esa chechenlar, ingushlar, qrim tatarlari va mesxeti turklari majburiy ravishda Kavkaz va Qrim hududlaridan Markaziy Osiyoga koʻchirildi. N.F.Bugayning ma’lumotlariga koʻra, “1944-yilda 400 mingdan ortiq shimoli kavkaz xalqlari Markaziy Osiyo hududlariga deportatsiya qilingan”(Н.Ф.Бугай, 1996).

Deportatsiya qilingan aholi koʻpincha aholi siyrak joylashgan yoki irrigatsion imkoniyatlari cheklangan hududlarga joylashtirilgan boʻlsada, yer va suv resurslarining tanqisligi ularning mahalliy aholi bilan iqtisodiy raqobatga kirishuvini tezlashtirdi. Ayniqsa, mesxeti turklari va qrim tatarlari anʼanaviy ravishda dehqonchilik bilan shugʻullanganlari sababli, oʻzbek va tojik aholisi bilan yer taqsimoti, sugʻorish tarmoqlaridan foydalanish masalalarida ziddiyatlar yuzaga kela boshladi. T. Shanin bu jarayonni “majburiy migratsiya natijasida yuzaga kelgan resurslar boʻyicha struktural raqobat” deb izohlaydi (С.Н.Абашин, 2015).

1950–1970-yillar oraligʻida Markaziy Osiyo shaharlari va sanoat zonalarida etnik tarkib sezilarli darajada oʻzgardi. Masalan, rasmiy statistik maʼlumotlarga koʻra, 1960-yillarga kelib Toshkent shahrida rus va ukrainlar ulushi 40 foizdan oshgan. Fargʻona vodiysidagi Qoʻqon, Margʻilon, Fargʻona kabi sanoat markazlarida mahalliy boʻlmagan aholi ulushi 30–45 foiz oraligʻida shakllandi. Chirchiq, Angren va Olmaliq sanoat mintaqalarida esa rus tilida soʻzlashuvchi aholi ustun mavqega ega boʻldi. S.Abashin taʼkidlaganidek, “sanoatlashgan shaharlar koʻp hollarda rus tilida soʻzlashuvchi aholining ijtimoiy-madaniy markazlariga aylangan, mahalliy aholi esa periferik mavqega surilgan” (С.Н.Абашин, 2015).

Migratsiya jarayonlarining uzoq muddatli etnogeografik oqibatlaridan biri transchegaraviy etnik makonlarning mustahkamlanishidir. Deportatsiya qilingan aholi guruhlari va tashqi mehnat migrantlari koʻpincha kompakt yashash hududlarini shakllantirib, oʻz ichki ijtimoiy institutlarini saqlab qolishga intildilar. Bu esa etnik integratsiya jarayonini sekinlashtirib, ayrim hududlarda yashirin ziddiyatlarning toʻplanishiga olib keldi. S.Roy bu holatni “bostirilgan etnik raqobat modeli” deb atab (О.Рой, 2000), markaziy siyosiy nazorat zaiflashgach, bunday ziddiyatlar ochiq mojaro shakliga oʻtishini qayd etadi.

Sovet davrida Markaziy Osiyo shaharlarida boshqaruv apparati asosan slavyan kelib chiqishiga mansub kadrlar tomonidan egallangani mahalliy aholining siyosiy va iqtisodiy ierarxiyadagi mavqeyini cheklab qoʻydi. Tadqiqotchi A. Bennigsen qayd etganidek, “Sovet markazi milliy respublikalarda siyosiy barqarorlikni taʼminlash uchun boshqaruvni

koʻpincha markazga sodiq rusiyzabon kadrlar orqali amalga oshirdi" (А.Беннигсен, 1983), bu esa mahalliy elitalarning shakllanish jarayonini sekinlashtirdi. Natijada, mahalliy aholida ijtimoiy adolatsizlik va institutsional tengsizlik hissi kuchaydi.

Fargʻona vodiysi Sovet davrida Markaziy Osiyoning eng zich aholi joylashgan hududiga aylandi. Rasmiy statistik maʼlumotlarga koʻra, 1940–1980-yillar oraligʻida vodiyning aholisi qariyb uch baravar oshdi. Demografik bosim suv va yer resurslari tanqisligini kuchaytirdi hamda aralash yashash zonalarining kengayishiga olib keldi. Sirdaryo havzasiga bogʻliq irrigatsiya tizimlarining kengayishi, xususan, Andijon suv omborining qurilishi va Norin-Qoradaryo tarmoqlarining rivojlanishi suvdan foydalanishda hududlararo raqobatni kuchaytirdi. T.Royning taʼkidlashicha, "suv ustidan nazorat Markaziy Osiyoda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ustunlik mexanizmi sifatida ham namoyon boʻlgan"(О.Рой, 2000).

Suv resurslari ustidan boshqaruvning koʻp hollarda markazga sodiq slavyan mutaxassislar qoʻlida boʻlishi mahalliy aholining noroziligini kuchaytirdi. Norin, Oloy, Turkiston va Chotqol togʻlaridan boshlanadigan daryolar suvlarining yuqori oqimi Qirgʻiziston hududida, quyi oqimi esa Oʻzbekiston hududida joylashgani sababli, suvdan foydalanish masalalari doimiy murakkablik kasb etdi. V. Trevorsning fikricha, "Sovet davrida suv resurslarini boshqarish markazlashtirilgan boʻlsa-da, real foydalanish hududiy nomuvofiqliklarni kuchaytirgan".

Xuddi shuningdek, Dashogʻuz va Xorazm vohalari ham tarixan yaxlit irrigatsiya makonini tashkil etgan boʻlsa-da, milliy-hududiy chegaralanishdan soʻng bu hududlar turli respublikalarga boʻlinib qoldi. Natijada, Dashogʻuz viloyati irrigatsiya tizimi Oʻzbekiston hududidan keladigan kollektor va kanal suvlarga qaram boʻlib qoldi. Bu holat suv resurslari bilan bogʻliq hududiy kelishmovchiliklarning etnogeografik ildizlarini yanada mustahkamladi.

Suv tanqisligi bilan bogʻliq ziddiyatlar ayniqsa anklav va eksklav hududlarda keskin tus oldi. Soʻx, Vorux va Shohimardon kabi anklavlarda suv va yaylov masalalari muntazam ijtimoiy taranglik manbayi boʻlib kelgan. Masalan, Qirgʻizistonning Qadamjoy tumani va Soʻx anklavi chegarasida joylashgan Chashma bulogʻidan foydalanish

masalasi 2020-yil may oyida ochiq mojaro bilan yakunlandi. Garchi mazkur vaziyat davlatlararo kelishuv asosida bartaraf etilgan boʻlsa-da, tadqiqotchilar bu holatni Sovet davrida chizilgan chegaralarning resurs geografiyasiga mos kelmasligi bilan izohlaydilar (С.Н.Абашин, 2015).

Sovet paxta siyosati ham etnik ziddiyatlar uchun muhim strukturaviy asos boʻldi. Sugʻoriladigan yerlarning yirik paxta xoʻjaliklariga safarbar etilishi, yangi koʻchib kelgan aholi guruhlariga kolxoz va sovxoz yerlaridan yerlar berilishi Fargʻona vodiysida oʻzbek, tojik va qirgʻiz jamiyatlari oʻrtasidagi hududiy talablarni murakkablashtirdi. K.Shoniyozov ta'kidlaganidek, "paxtachilikka yoʻnaltirilgan iqtisodiy model yer va suv resurslari ustidan raqobatni keskin kuchaytirgan va etnik omilni ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan chambarchas bogʻlab qoʻygan"(К.Шониёзов, 2001).

Oʻsh, Andijon, Namangan, Isfara, Xoʻjand va Konibodom kabi hududlarda etnik guruhlarning aralash yashashi tobora murakkablashib bordi. Bu jarayon quyidagi shakllarda namoyon boʻldi: chekka qishloqlarning tojik yoki oʻzbeklar tomonidan bosqichma-bosqich kengayishi; qirgʻiz hududlarida oʻzbek qishloqlarining zichlashuvi; sanoat korxonalari atrofida rus-slavyan massivlarining shakllanishi. Natijada, etnogeografiyada "etnik mozaika zonalari" deb ataluvchi hududlar vujudga keldi. Tadqiqotchilar bunday hududlar ijtimoiy barqarorlik nuqtayi nazaridan yuqori ziddiyat potentsialiga ega ekanini qayd etadilar.

Sovet Ittifoqi milliy respublikalarda boshqaruv tizimini koʻpincha markazlashgan va rusiyzabon kadrlar orqali amalga oshirdi. Bu holat mahalliy etnik guruhlarning siyosiy vakilligi kamayishiga, boshqaruvda rus tilining mutlaq ustunligi shakllanishiga hamda tarixiy etnik muvozanatning buzilishiga olib keldi. Masalan, Toshkent shahar ijro qoʻmitasi, Fargʻona vodiysi sanoat komplekslari va Qirgʻizistonning Oʻsh viloyati boshqaruv apparati uzoq vaqt davomida slavyan kadrlar tomonidan boshqarilgan. A. Bennigsenning fikricha, "mahalliy aholining siyosiy jarayonlardan chetlashtirilishi etnik norozilikning institutsional asosini yaratgan" (Беннигсен А., 1983).

Shu tariqa, 1950–1980-yillarda Markaziy Osiyoda etnik ziddiyatlar ochiq shaklda namoyon boʻlmagan boʻlsa-da, etnogeografik

omillar ta’sirida “yashirin ijtimoiy qarama-qarshiliklar zaxirasi” shakllanib bordi. Bu jarayon quyidagi omillar bilan izohlanadi:

– Resurslar tanqisligi – yer, suv va uy-joy masalalarining keskinlashuvi;

– Ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar – yuqori lavozimlarning ko‘pini kelginlar egallashi;

– Etnogeografik aralash zonalarning kengayishi – Farg‘ona vodiysi, O‘sh, Sirdaryo havzasi;

– Deportatsiya qilingan guruhlar integratsiyasining murakkab kechishi;

Tadqiqotchilar fikricha, aynan shu omillar 1989–1991-yillardagi O‘sh voqealari, Farg‘ona hodisalari va Toshkentdagi ijtimoiy tarangliklarning strukturaviy ildizlarini tashkil etgan. Sovet davrida bostirilgan etnik muammolar markaziy siyosiy nazorat zaiflashgach, tezkor ravishda ochiq mojaro shakliga o‘tgan.

Xulosa qilib aytganda, Sovet davrida migratsiya, urbanizatsiya va resurslarni markazlashgan boshqarish siyosati Markaziy Osiyoda etnik makonning ichki muvozanatini o‘zgartirdi. Ushbu jarayonlar qisqa muddatda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlagan bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda hududiy nomuvofiqliklar, resurslar uchun raqobat va siyosiy vakillikdagi notengliklar orqali millatlararo ziddiyatlarning etnogeografik poydevorini yaratdi.

Shu tariqa, Sovet davrida amalga oshirilgan ichki va majburiy migratsiya siyosati Markaziy Osiyoda etnik makonning tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirdi. Bu jarayon qisqa muddatda iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda etnik muvozanatning buzilishi, resurslar ustidan raqobatning kuchayishi va shahar-qishloq tafovutining chuqurlashuviga olib keldi. Natijada, Sovet davrida shakllangan migratsion-demografik konfiguratsiya mustaqillik davrida yuzaga kelgan millatlararo ziddiyatlarning muhim etnogeografik asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

8.3. Sovet tizimi inqirozi va ochiq etnik to‘qnashuvlar davri.

1980-yillarning oxiri Sovet Ittifoqi tarixida siyosiy-iqtisodiy tizimning chuqur inqirozi davri bo‘ldi. “Qayta qurish” va “oshkoralik” siyosati markaziy nazoratning zaiflashuviga olib keldi hamda ilgari

bostirib kelinayotgan ijtimoiy va etnik muammolarni ochiq maydonga chiqardi. T.Roy ta'kidlaganidek, "Sovet davrida muzlatib qo'yilgan milliy masalalar siyosiy erkinliklar kengaygan sari tezkor ravishda ochiq ziddiyat shakliga o'tdi"(O.Рой, 2000). Shu bois, 1989–1991-yillarda Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan etnik to'qnashuvlar tasodifiy hodisa emas, balki uzoq yillar davomida shakllangan etnogeografik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning natijasi sifatida baholanadi.

Sovet davrida bir qator etnik guruhlar sun'iy chizilgan hududiy chegaralar doirasida yashashga majbur qilingan edi. 1989–1991-yillar ushbu sun'iy tuzilmalarning barqaror emasligini ochiq ko'rsatdi. S.Abashin qayd etganidek, "milliy-hududiy chegaralanish mintaqada etnik makonning tarixiy uzviyligini buzgan va bu holat inqiroz sharoitida tezkor mojarolarga aylangan" (С.Н.Абашин, 2015). Iqtisodiy resurslar ustidan raqobat, demografik bosim va migratsion jarayonlar mavjud ziddiyatlarni ochiq shaklga chiqarish uchun yetarli sharoit yaratdi.

1989-yilgi Farg'ona voqealari Markaziy Osiyodagi etnik aralash makonlarning tashqi reaksiyasini yaqqol namoyon etdi. Farg'ona vodiysi tarixan o'zbeklar, qirg'izlar, tojiklar, ruslar hamda boshqa oz sonli guruhlar aralash yashagan hudud sifatida shakllangan. Shu bilan birga, vodiyning suv, yer, yaylov va shahar infratuzilmasi kabi resurslari yuqori demografik zichlik sharoitida har bir etnik guruh manfaatlari o'rtasida raqobatni kuchaytirgan. O.Royning ta'kidlashicha, "resurs tanqisligi sharoitida etnik chegaralar ijtimoiy raqobatning eng qulay shakliga aylanadi"(O.Рой, 2000).

Farg'ona voqealari jarayonida asosiy mojaro Mesxeti turklari va mahalliy aholi o'rtasida yuzaga keldi. Mesxeti turklari 1944-yilda Kavkazdan majburiy deportatsiya qilinib, Markaziy Osiyoga, jumladan, Farg'ona vodiysiga joylashtirilgan edi. Ular uzoq vaqt davomida ijtimoiy-huquqiy cheklovlar sharoitida yashab, yer va turar joy masalalarida barqaror maqomga ega bo'la olmagan. A.Bennigsenning qayd etishicha, "deportatsiya qilingan guruhlarning huquqiy va iqtisodiy noaniq maqomi mahalliy jamiyat bilan yashirin taranglikni kuchaytirgan" (А.Беннигсен, 1983). 1989-yilda esa iqtisodiy inqiroz va

markaziy nazoratning zaiflashuvi sharoitida ushbu taranglik ochiq to‘qnashuvga aylandi.

Demografik ma’lumotlarga ko‘ra, 1989-yilda Farg‘ona vodiysida o‘zbeklar aholining taxminan 70–75 foizini, qirg‘izlar 20–25 foizini, Mesxeti turklari va boshqa oz sonli guruhlar esa qariyb 5 foizini tashkil etgan. Bunday notekis tarkib resurslarga teng bo‘lmagan kirish imkoniyatlari bilan birga etnik guruhlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatni kuchaytirgan. S.Abashinning fikricha, “etnik aralash hududlarda demografik bosim ijtimoiy barqarorlikni eng tez izdan chiqaruvchi omillardan biridir” (Абашин С.Н., 2015).

1990-yilda O‘sh va O‘zgon shaharlarida yuz bergan etnik mojaro esa o‘zbeklar va qirg‘izlar o‘rtasidagi tarixiy hududiy nomuvofiq-liklarning ochiq shaklga chiqishini ifodaladi. Etnogeografik jihatdan, qirg‘izlar asosan tog‘ oldi va adir hududlarida, o‘zbeklar esa voha va shahar markazlarida zich joylashgan edi. Bu joylashuv “markaz–periferiya” modelini shakllantirgan bo‘lib, shahar infratuzilmasi, savdo tarmoqlari va siyosiy vakillik masalalarida o‘zbeklar ustun mavqega ega bo‘lgan. Tog‘li hududlarda yashovchi qirg‘izlar esa iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanishi va yer masalasidagi muammolarni keskin his qilganlar. T.Roy bu holatni “hududiy nomuvofiqlikning etnik shaklda namoyon bo‘lishi” deb izohlaydi (О.Рой, 2000).

Etnogeografik tahlil shuni ko‘rsatadiki, “markaz–periferiya” modeli nafaqat iqtisodiy resurslar, balki ijtimoiy va siyosiy vakillikni ham o‘z ichiga oladi. Qirg‘izlarning shahar hududlariga nisbatan cheklangan kirishi, suv resurslari va yer maydonlariga bo‘lgan huquqlar bilan bog‘liq ziddiyatni kuchaytirdi. Shu bilan birga, shahar markazlaridagi o‘zbeklar o‘z hududini iqtisodiy va siyosiy jihatdan himoya qilmoqchi bo‘ldi, bu esa etnik ziddiyatning kengayishiga olib keldi.

O‘sh voqealari shuni ko‘rsatdiki, Sovet davrida shakllangan etnik makon modeli iqtisodiy resurslar, siyosiy vakillik va hududiy tenglik tamoyillariga mos kelmagan. Markaziy hokimiyat zaiflashgach, ushbu nomuvofiqliklar tezkor ravishda ochiq ziddiyat shakliga o‘tdi. S.Abashinning ta’kidlashicha, “SSSR parchalanish arafasida Markaziy

Osiyodagi etnik mojarolar etnik nafratning emas, balki institutsional va hududiy nomutanosibliklarning natijasi edi”(С.Н.Абашин, 2015).

Shu tariqa, 1989–1991-yillardagi Farg‘ona va O‘sh voqealari Markaziy Osiyoda Sovet davrida shakllangan etnogeografik modelning inqirozini ochib berdi. Ushbu to‘qnashuvlar etnik sabablar bilan cheklanmay, balki resurslar taqsimoti, hududiy nomuvofiqliklar, siyosiy vakillikdagi notenglik va migratsion jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisalar sifatida namoyon bo‘ldi. Shu sababli, bu davrni Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlarning yangi, ochiq va siyosiy jihatdan keskin bosqichi sifatida baholash mumkin.

Tojikiston fuqarolar urushi (1992–1997) postsovet Markaziy Osiyosidagi eng murakkab ijtimoiy-siyosiy mojarolardan biri bo‘lib, unda etnik, diniy va siyosiy omillar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ldi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ushbu mojaro “klassik etnik urush” emas, balki hududiy-mintaqaviy guruhlar, siyosiy elitalar va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi raqobatning keskinlashuvi natijasi bo‘lgan. Shu bilan birga, mojaroning rivojlanishida etnogeografik omillar hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Urush hududi etnogeografik jihatdan mintaqaning eng nozik makonlaridan biri bo‘lib, Garm (Qarategin), Hisor vodiysi, Ko‘lob va Badaxshon (Tog‘li Badaxshon) kabi tarixiy-madaniy hududlarni qamrab oldi. Ushbu hududlar tabiiy relyef tog‘ tizmalari, tor vodiylar va murakkab transport yo‘llari bilan ajralib turgan bo‘lib, bu omillar etnik guruhlarning joylashuvi, iqtisodiy faoliyati va siyosiy aloqalarini uzoq muddat davomida belgilab kelgan. S.Olimova va A.Malashenko ta’kidlaganlaridek, “Tojikistonda hududiy identiklik ko‘pincha etnik identiklikdan kuchliroq bo‘lib, mojaro ham aynan shu mintaqaviy bo‘linishlar asosida shakllangan”(С.Олимова, 2003).

Etnogeografik tahlil shuni ko‘rsatadiki, Garm va Hisor vodiysining tog‘li hududlari alohida aholi guruhlari uchun tabiiy chegaralar vazifasini bajargan. Transport aloqalarining cheklanganligi, sug‘oriladigan yerlar va suv resurslarining tanqisligi har bir guruhning o‘z hududiy makonini iqtisodiy jihatdan himoya qilishga intilishiga olib kelgan. Kulob va Badaxshon hududlari esa strategik joylashuvi tufayli

harbiy-siyosiy nazorat markazlariga aylangan. O.Royning qayd etishicha, “tog‘li hududlarda siyosiy hokimiyatni nazorat qilish, aslida, asosiy transport yo‘llari va resurs markazlarini nazorat qilish bilan barobar bo‘lgan”.

Urush yillarida etnik guruhlar joylashuvi va migratsion oqimlar keskin o‘zgardi. Garm va Qarategin hududlaridan yuz minglab aholi Hisor vodiysi, Dushanbe atrofi va boshqa mintaqalarga majburiy ko‘chishga majbur bo‘ldi. BMT Qochqinlar bo‘yicha Oliy Komissarligi (UNHCR) ma’lumotlariga ko‘ra, 1993–1994-yillarda Tojikistonda ichki ko‘chirilganlar soni 500 ming kishidan oshgan. Bu holat mamlakatning etnogeografik tuzilishini tubdan o‘zgartirib, ayrim hududlarda demografik bosimni kuchaytirdi va yangi hududiy nizolar uchun zamin yaratdi.

Shu bilan birga, tog‘li relyef harbiy harakatlar xarakterini ham belgilab berdi. Tor dovonlar, vodiylararo yo‘llar va tabiiy to‘siqlar qurolli guruhlar harakatini murakkablashtirdi hamda hududlar ustidan nazoratni strategik ahamiyatga ega omilga aylantirdi. A.Malashenko ta’kidlaganidek, “Tojikistondagi urush geografiyasi siyosiy jarayonlarning rivojlanish sur’ati va shaklini bevosita belgilab bergan”.

Demokratlashayotgan jamiyatlardagi etnik mojarolarni tahlil qilarkan, Y.Prazauskas etnik ziddiyatlar elitalar tomonidan tengsizlik holatlari butun jamoaning manfaatlariga tahdid sifatida talqin etilganda yuzaga chiqishini qayd etadi. Uning fikricha, etnik ziddiyatlarning kuchayishiga quyidagi omillar sabab bo‘ladi: guruh mavqeyining yo‘qolishi yoki yo‘qolish xavfi; assimilatsiya tahdidi; madaniy yaxlitlikning zaiflashuvi; ona tilining qo‘llanish doirasining qisqarishi; migratsiya oqibatida etnik-hududiy makonning yemirilishi; real o‘zini-o‘zi boshqarish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillar sabab bo‘lib, aslida, etnik ziddiyatlarning vujudga kelishiga to‘g‘ridan-tog‘ri ikki va undan ortiq millat o‘rtasidagi bevosita emas, balki bilvosita, ya’ni, resurslar va boshqa omillar ortidan kelib chiqqan ziddiyatlar sabab bo‘lar ekan.

Mazkur omillar Tojikiston tajribasida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Sovet davrida shakllangan hududiy-iqtisodiy nomutanosibliklar, siyosiy vakillikdagi tengsizliklar va mintaqaviy identifikatsiyaning

kuchayishi 1990-yillarning boshlarida davlat tizimi zaiflashgan sharoitda ochiq mojaro shakliga oʻtdi. S.Olimovaning ta’kidlashicha, “Tojikiston fuqarolar urushi etnik nafratdan koʻra koʻproq hududiy resurslar, siyosiy hokimiyat va ijtimoiy mavqe uchun kurash bilan belgilanadi”(Олимова С., 2003).

Shu tariqa, Tojikiston fuqarolar urushi etnik, diniy va siyosiy omillarning oʻzaro uygʻunlashuvi natijasida yuzaga kelgan boʻlsa-da, uning chuqur ildizlari mamlakatning etnogeografik tuzilishi, hududiy nomuvofiqliklar va resurslar taqsimotidagi tengsizliklar bilan bevosita bogʻliq edi. Bu mojaro Markaziy Osiyoda postsovet davrida millatlararo munosabatlar va etnik makon transformatsiyasini tushunishda muhim ilmiy model sifatida baholanadi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, XX asrning 20–30-yillarida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish mintaqaning tarixiy etnik makonini sun’iy ravishda parchalab, koʻplab etnik guruhlarni transchegaraviy holatga keltirdi. Bu jarayon uzoq muddatli istiqbolda resurslar taqsimoti, siyosiy vakillik va hududiy identikligi bilan bogʻliq ziddiyatlar uchun geografik asos yaratdi.

Sovet davrida amalga oshirilgan migratsion siyosat, deportat-siyalar va sanoatlashuv jarayonlari Markaziy Osiyoning etnik tarkibini tubdan oʻzgartirdi. Rossiyaning markaziy shaharlaridan kelgan aholining ustun mavqega ega boʻlishi, qishloq hududlarida esa yer va suv resurslarining cheklanishi mahalliy aholi orasida nisbiy tengsizlik hissini kuchaytirdi. Bu holat etnik munosabatlarning yashirin ziddiyatli shaklga oʻtishiga olib keldi va 1980-yillarning oxirida markaziy nazorat zaiflashgan sharoitda ochiq mojarolar yuzaga chiqishi uchun strukturaviy zamin hozirladi.

1989–1991-yillardagi Fargʻona va Oʻsh voqealari, shuningdek, 1992–1997-yillardagi Tojikiston fuqarolar urushi etnik ziddiyatlarning nafaqat madaniy yoki identifikatsion omillar bilan, balki resurslar ustidan raqobat, hududiy nomuvofiqlik, demografik bosim va siyosiy vakillikdagi tengsizlik bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatdi. Etnogeografik yondashuv bu jarayonlarni tushuntirishda muhim metodologik vosita boʻlib xizmat qiladi, chunki u etnik ziddiyatlarning

hududiy asoslarini, joylashuv modeli va resurslarga kirish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, mustaqillik davrida Markaziy Osiyo davlatlari millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, transchegaraviy hududiy muammolarni muloqot va hamkorlik orqali hal etish hamda mintaqaviy identiklikni mustahkamlash yo‘lida muayyan tajriba to‘pladi. Mintaqaviy integratsiya tashabbuslari, suv-energetika resurslarini birgalikda boshqarish mexanizmlari va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish siyosati etnik ziddiyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, etnik barqarorlik faqat ma’muriy nazorat yoki repressiv mexanizmlar orqali emas, balki tarixiy-etnogeografik xususiyatlarni inobatga olgan holda adolatli resurs taqsimoti, siyosiy inkluziya va madaniy xilma-xillikni tan olish asosida ta’minlanishi mumkin. Shu bois, mintaqada millatlararo munosabatlarni barqaror rivojlantirish masalasi zamonaviy etnogeografiya va ijtimoiy fanlar uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Milliy-hududiy chegaralanish Markaziy Osiyoda etnik makon tuzilishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
2. Sovet davridagi migratsion jarayonlar etnik ziddiyatlarning kuchayishiga qanday omillar orqali ta’sir etdi?
3. Farg‘ona vodiysi etnik mojarolarining asosiy hududiy va demografik sabablarini tushuntiring.
4. Sovet tizimi inqirozi davrida ochiq etnik to‘qnashuvlarning yuzaga chiqish omillarini izohlang.
5. Mustaqillik davrida millatlararo munosabatlarni barqarorlash-tirish mexanizmlarini baholang.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Farg‘ona vodiysidagi anklav va eksklav hududlar misolida transchegaraviy etnik makon muammolarini yozma tahlil qiling.
2. Sovet davridagi deportatsiyalar va ularning Markaziy Osiyo etnik tarkibiga ta’siri haqida esse tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Сочинения. Т. IX. – Москва: Наука, 1977. – 640 с.
2. Беннигсен А. Советский ислам и мусульмане Средней Азии. – Париж: Mouton, 1983. – 295 с.
3. Рой О. Новая Средняя Азия или изобретение наций. – Москва: Восточная литература, 2000. – 312 с.
4. Абашин С.Н. Средняя Азия: этничность и идентичность. – Москва: РОССПЭН, 2015. – 365 с.
5. Бугай Н.Ф. Депортации народов СССР (1930–1950-е годы). – Москва: ИНСАН, 1996. – 248 с.
6. Шанин Т. Поздний марксизм и судьбы крестьянства. – Москва: Дело, 1999. – 420 с.
7. Агаджанов С.Г. Этническая история Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1987. – 314 с.
8. Бернштам А.Н. История культуры народов Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1980. – 276 с.
9. Зайончковская Ж.А. Миграция населения в СССР. – Москва: Наука, 1988. – 259 с.
10. Малашенко А.В. Исламский фактор в постсоветской политике. – Москва: Carnegie, 2001. – 288 с.
11. Олимова С. Гражданская война в Таджикистане: причины и последствия. – Душанбе: Ирфон, 2003. – 210 с.
12. Празаускас Ю. Этнические конфликты и современная политика. – Москва: Academia, 2002. – 230 с.
13. Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник тарихи. – Тошкент: Фан, 2001. – 352 б.
14. UNHCR. Tajikistan: Internal Displacement and Post-Conflict Recovery. – Geneva: UNHCR, 1998. – 145 p.

9-MAVZU:
MARKAZIY OSIYODA MIGRATSION JARAYONLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Migratsiya tushunchasi va uning Markaziy Osiyo etnogeografiyasidagi mazmuni.

2. Markaziy Osiyodagi demografik vaziyat va uning istiqboldagi holati.

3. Migratsiyaning etnomadaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlari.

4. Xulosa.

Darsning maqsadi: *talabalarda Markaziy Osiyoda migratsiya jarayonlarining tarixiy, demografik va etnogeografik xususiyatlari, ichki va tashqi migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy oqibatlari, shuningdek, transmilliy makon va identiklik shakllanishiga ta’siri haqida ilmiy bilim va tahliliy ko‘nikmalarni shakllantirish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *ichki migratsiya, tashqi migratsiya, mehnat migratsiyasi, urbanizatsiya, demografik bosim, hududiy notekislik, gender munosabatlari, demografik transformatsiya.*

9.1. Migratsiya tushunchasi va uning Markaziy Osiyo etnogeografiyasidagi mazmuni.

Migratsiya zamonaviy ijtimoiy fanlarda nafaqat aholining bir hududdan boshqasiga ko‘chib o‘tishi sifatida, balki jamiyatning hududiy tuzilishi, ijtimoiy munosabatlari, etnik tarkibi va identiklikning o‘zgarishiga olib keluvchi murakkab jarayon sifatida talqin qilinadi (Castles, de Haas & Miller, 2020). Etnogeografik jihatdan esa migratsiya aholi harakatining makondagi ifodasi bo‘lish bilan birga, etnik makonlarning kengayishi, zichlashuvi yoki konsolidatsiyasi orqali hududiy-etnik tizimlarning doimiy ravishda qayta shakllanishiga sabab bo‘ladigan jarayon sifatida qaraladi (Brubaker, 2004).

An’anaviy nazariyalarda migratsiya asosan iqtisodiy imkoniyatlar va hududiy farqlar bilan izohlangan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda u transmilliy aloqalar, ko‘p qirrali identiklik va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanadigan dinamik jarayon sifatida tushuntirilmoqda (Portes et al., 2002). Shu bois, etnogeografiyada migratsiya hududiy chegaralar bilan

cheklanmaydigan, koʻp darajali va uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida oʻrganiladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan yuqori etnik xilma-xilligi, koʻchmanchi va oʻtroq madaniyatlar sintezi, turkiy va eron tilli xalqlarning murakkab oʻzaro aloqalari bilan ajralib kelgan. Sovet davrida hududiy-etnik munosabatlar markazlashgan siyosiy-iqtisodiy tizim doirasida tartibga solingan boʻlsa, 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil rivojlanish yoʻliga oʻtdi. Bu geosiyosiy burilish migratsiya tizimlarining tubdan qayta shakllanishiga olib keldi: xususan, yagona mehnat bozori, transport-logistika infratuzilmasi va ma'muriy chegaralarning yoʻqolishi aholining hududiy harakatlanish mexanizmlarini oʻzgartirdi va migratsiyani jamiyat moslashuvining asosiy strategiyalaridan biriga aylantirdi (Reeves, 2014).

Mustaqillikdan keyingi davrda urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi, iqtisodiy islohotlar natijasida hududlararo notekislikning kuchayishi, ekologik inqirozlar (masalan, Orolboʻyi muammosi) va mehnat bozorining global integratsiyalashuvi Markaziy Osiyoda migratsiyaning intensivlashuviga olib keldi. Bu jarayonlar migratsiyani nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarga moslashuv shakli deb koʻrsatibgina qolmay, balki ijtimoiy stratifikatsiya, hududiy identiklik va etnik tuzilmalarning qayta tashkil etilishi jarayoni sifatida ham ochadi (Abashin, 2015).

Markaziy Osiyoning demografik tuzilmasi yosh aholining yuqori ulushi bilan tavsiflanadi. Oʻzbekiston va Tojikistonda aholining katta qismi mehnatga layoqatli yosh guruhlariga toʻgʻri keladi, bu esa tabiiy oʻsish sur'atlarining yuqoriligi bilan uygʻunlashgan holda migratsion bosimni kuchaytiradi. Demografik oʻsish, ayniqsa, qishloq hududlarida etnik konsentratsiyani barqaror saqlab qolgandek tuyulsada, iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi mehnat resurslarining shaharlar va xorijiy mehnat bozorlariga oqimini ragʻbatlantiradi (World Bank, 2024).

Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayon ayrim hududlarda aholining vaqtinchalik "demografik boʻshashi" bilan namoyon boʻladi: ishchi yoshdagi aholining migratsiya tufayli chiqib ketishi natijasida

qariyalar va bolalar ulushining ortishi, gender va yosh strukturalarining nomutanosibligi mahalliy etnik makonning ijtimoiy tashkil etilish shakllarini qayta belgilaydi. Misol uchun, Tojikistonning tog‘li hududlarida erkak aholi tashqi migratsiya tufayli uzluksiz ravishda chet el bozorlariga yo‘naltirilmoqda; bu jarayon ayollar va keksa aholining jamoa hayotini, iqtisodiy jarayonlarni va ijtimoiy rollarni qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Bu fenomenlar gender munosabatlari, oila tizimi va mahalliy identitet strukturalarining transformatsiyasini tezlashtirmoqda (Olimova, 2016).

1990-yillardan boshlab O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston Markaziy Osiyo mintaqasida mehnat migratsiyasining asosiy hududlariga aylangan bo‘lsa, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan keng bo‘lganligi sababli asosiy qabul qiluvchi makon sifatida shakllandi. Ushbu tashqi migratsiya oqimlari etnik makonning vaqtinchalik va ko‘p markazli tizimini yuzaga keltirib, transmilliy tarmoqlar rivojlanishiga xizmat qilmoqda (Castles & Miller, 2020).

Migratsiya jarayonlarining etnogeografik tahlili shuni ko‘rsatadiki, migrantlar o‘z vatani va qabul qiluvchi mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolgan holda, hududiy chegaralardan ustun turuvchi transmilliy makonlarni shakllantiradilar. Bu jarayon etnik hudud tushunchasining an’anaviy, qat’iy geografik chegaralar bilan bog‘liq talqinini nisbiylashtiradi va uni ko‘proq ijtimoiy-amaliy munosabatlar orqali belgilanuvchi dinamik makon sifatida qayta tushunishga imkon beradi.

Shu bilan birga, transmilliy migratsiya ijtimoiy aloqalar, migrant jamoalari va iqtisodiy bog‘lanishlar orqali odamlarning global mehnat bozorlariga chiqishini kuchaytiradi. Bu jarayon migrantlar, ularning oilalari va kelib chiqish hududlaridagi jamoalar o‘rtasida doimiy aloqalar va o‘zaro ta’sirni saqlab, identitetlarning kengayishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladi (Portes, 2003).

Ichki migratsiya ham Markaziy Osiyo etnogeografik manzarasida muhim o‘rin tutadi. Qishloqdan shaharga yo‘naltirilgan migratsiya Toshkent, Olmaota, Bishkek, Dushanbe, Samarqand kabi yirik markazlarning tez sur’atlarda o‘sishiga olib kelmoqda. Bu jarayon

natijasida shahar zonalari etnik jihatdan murakkablashib, ijtimoiy farqlar kuchaymoqda va ushbu hududlar yangi funksional zonalarga ajralmoqda. Bu sharoitda klassik “etnik hudud” tushunchasi tobora “etnik ijtimoiy makon” tushunchasiga almashmoqda, ya’ni etnik guruhlarning joylashuvi endilikda faqat geografik chegaralar bilan emas, balki mehnat bozori segmentlari, savdo faoliyati, ta’lim muassasalari va madaniy institutlar bilan belgilanadi (Haggett, 2001).

Urbanizatsiyaning o‘ziga xos tasviri shundan iboratki, migratsiya shahar makonining ijtimoiy-etnik tuzilmasini qayta ishlab chiqib, yangi identiklik shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonlar mahalliy hamda migrant jamoalar o‘rtasida madaniy almashinuvni birlashtirib, yangi ijtimoiy identiklik formalarini yaratadi.

Markaziy Osiyoda migratsiya va etnik makon o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar ko‘pincha siyosiy chegaralarning kundalik amaliyoti orqali ifodalanadi. Farg‘ona vodiysi bunday holatning yorqin misoli bo‘lib, bu hududda o‘zbek, qirg‘iz va tojik aholisi tarixan o‘zaro aralash hayot kechirgan. Qarindoshlik, savdo va mehnat aloqalari davlat chegaralaridan qat’i nazar, davom etib, chegaraning kundalik amaliyoti konsepsiyasi doirasida izohlanadi (Reeves, 2014). Bu jarayon transchegaraviy ijtimoiy tarmoqlarning mustahkamlanishi va etnik makonning siyosiy chegaralardan mustaqil qayta ishlab chiqilishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu esa mintaqadagi etnik munosabatlarning moslashuvchanligini va barqarorligini tushuntirishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya orqali etnik jamoalar iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan moslashuvchanlik kasb etib, global ijtimoiy-madaniy makonga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayonlar Markaziy Osiyoning etnik, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglashni talab qiladi. Shu sababli migratsiyani etnogeografik o‘rganish mintaqaning etnik, ijtimoiy va hududiy rivojlanish qonuniyatlarini anglashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

9.2. Markaziy Osiyodagi demografik vaziyat va uning istiqboldagi holati.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi demografik jarayonlar zamonaviy ijtimoiy fanlarda aholi sonining o‘zgarishi bilangina cheklanmay, balki jamiyatning hududiy tashkiloti, etnik tarkibi, migratsiya oqimlari, urbanizatsiya jarayonlari va ijtimoiy identiklikning hududiy qayta tuzilishi bilan uzviy bog‘liq murakkab tizim sifatida talqin qilinmoqda. Etnogeografik yondashuv nuqtayi nazaridan demografiya aholi soni va tarkibini emas, balki ularning muayyan makonlarda joylashuvi, harakati va hududiy ijtimoiy munosabatlarni qayta ishlab chiqish mexanizmlarini tushuntirish imkonini beruvchi asosiy analitik kategoriya hisoblanadi. Shu sababli Markaziy Osiyodagi demografik vaziyatni tahlil qilish nafaqat statistik o‘zgarishlarni qayd etish, balki ularning hududiy tafovutlar, tarixiy qatlamlanish va etnik makonlarning transformatsiyasi bilan qanday bog‘lanishini ochib berishni ham talab etadi.

2025-yil holatiga ko‘ra Markaziy Osiyo aholisi jami taxminan 84-85 million kishini tashkil etib, bu ko‘rsatkich XX asrning ikkinchi yarmiga nisbatan qariyb uch baravar oshganini ko‘rsatadi (World Bank, 2024; UN DESA, 2023). Mintaqa aholisi tarkibining nisbatan yosh bo‘lishi uning demografik rivojlanishidagi eng muhim xususiyatlardan biridir: o‘rtacha yosh 26–27 yosh atrofida bo‘lib, mehnatga layoqatli aholi ulushining yuqoriligi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ushbu demografik holat Markaziy Osiyoda mehnatga layoqatli aholi ko‘payishi orqali iqtisodiy rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi, biroq ayni paytda ish o‘rinlari, ta’lim va infratuzilma tizimlariga bo‘lgan talabni ham oshiradi, hududiy rivojlanish strategiyalarini murakkablashtiradi.

Markaziy Osiyoda demografik jarayonlar tarixan turli siyosiy-iqtisodiy tizimlar, xo‘jalik shakllari va madaniy landshaftlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Sovet davrida mintaqada sog‘liqni saqlash tizimining kengayishi, savodxonlikning oshishi va urbanizatsiyaning jadallashuvi tug‘ilish ko‘rsatkichlarining yuqori darajada saqlanib qolishi bilan birga o‘lim, ko‘rsatkichlarining keskin pasayishiga olib kelgan. Natijada, XX asr o‘rtalaridan boshlab Markaziy

Osiyo respublikalari demografik o‘sish sur’atlari bo‘yicha sobiq SSSR hududida yetakchi mintaqalardan biriga aylangan. Mustaqillikdan keyingi davrda esa iqtisodiy transformatsiya, migratsiya va ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlari demografik dinamikaning yangi hududiy tuzilishlarini shakllantirdi.

Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayonlar aholi sonining oddiy o‘sishi sifatida emas, balki etnik makonlarning kengayishi, zichlashuvi yoki konsolidatsiyasi, shuningdek, shahar va qishloq hududlari o‘rtasidagi ijtimoiy-makoniy munosabatlarning qayta tashkil etilishi sifatida talqin qilinadi. Demografik o‘sish mintaqaning turli hududlarida turlicha namoyon bo‘lib, bu Markaziy Osiyo ichida sezilarli hududiy farqlanishlarni yuzaga keltirmoqda.

2025-yilda O‘zbekiston aholisi taxminan 38,2 million kishini tashkil etib, bu Markaziy Osiyo aholisining qariyb 43 foiziga tengdir[4]. O‘zbekiston mintaqadagi eng yuqori aholi zichligiga ega davlat bo‘lib, ayniqsa Farg‘ona vodiysi, Toshkent shahri va Zarafshon vodiysi hududlarida aholi joylashuvi nihoyatda zichlashgan. Farg‘ona vodiysida aholi zichligi ayrim tumanlarda kvadrat kilometriga 600–800 kishiga yetib, bu hududni Markaziy Osiyodagi eng intensiv demografik makonlardan biriga aylantiradi. Mazkur holat yer resurslaridan foydalanish, suv ta’minoti, infratuzilma va ekologik barqarorlik masalalarini keskinlashtirmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda urbanizatsiya darajasi 2024-yilda taxminan 51–52 foizni tashkil etgan bo‘lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan va Andijon kabi shaharlar ichki migratsiya oqimlarining asosiy markazlariga aylanmoqda. Qishloq hududlaridan shahar markazlariga bo‘lgan migratsiya, ayniqsa yoshlar orasida kuchayib, shahar makonida yangi ijtimoiy qatlamlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Etnogeografik nuqtayi nazardan bu jarayon shahar muhitida an’anaviy mahalla tizimi, qarindoshlik tarmoqlari va diniy-madaniy amaliyotlarning yangi makoniy shakllarda qayta ishlab chiqilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu tariqa O‘zbekiston demografik rivojlanishi aholi zichligi, urbanizatsiya va yosh tarkibi o‘rtasidagi murakkab muvozanat bilan tavsiflanadi.

[4] https://stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3 26.01.2026

Qozog‘iston aholisi 2025-yilda taxminan 20 million kishiga yetib, Markaziy Osiyodagi ikkinchi yirik demografik makon hisoblanadi (World Bank, 2024). Biroq bu ko‘rsatkich mamlakat hududining nihoyatda kengligi bilan taqqoslanganda, aholi zichligi juda past bo‘lib, o‘rtacha kvadrat kilometriga 7 kishidan oshmaydi. Bu holat Qozog‘iston demografiyasining asosiy hududiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, shimoli va sharqiy viloyatlarda aholining kamayishi, janubi va g‘arbiy hududlarda esa demografik o‘sishning yuqoriligi bilan ifodalanadi.

Janubi Qozog‘iston viloyatlari – Turkiston, Jambul va Olmaota viloyatlari - yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichlari va ichki migratsiya oqimlari sababli aholining tez o‘sib borayotgan hududlari hisoblanadi. Aksincha, Shimoli Qozog‘iston, Kostanay va Pavlodar viloyatlarida aholining kamayishi va o‘rtacha yoshning nisbatan oshishi kuzatilmoqda. Bu esa mintaqaviy rivojlanishning hududiy nomutanosibligini kuchaytirmoqda. Urbanizatsiya darajasi 2024-yilda 58 foizdan oshib, Astana va Olmaota shaharlarini mamlakatning asosiy demografik va iqtisodiy markazlariga aylantirdi. Qozog‘istondagi bu jarayonlarni aholi joylashuvining oddiy statistik tafovutlari sifatida emas, balki tarixiy migratsion jarayonlar, sovet davridagi ko‘chirish siyosati, mustaqillikdan keyingi global mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq murakkab hududiy transformatsiyalar sifatida talqin qiladi.

Tojikiston aholisi 2025-yilda taxminan 10,3 million kishini tashkil etib, mintaqadagi eng tez o‘sayotgan demografik makonlardan biri hisoblanadi (World Bank, 2024). Tug‘ilish ko‘rsatkichlarining yuqoriligi va aholi tarkibining nihoyatda yosh bo‘lishi Tojikiston demografiyasining asosiy xususiyati hisoblanadi: aholining qariyb 60 foizi 30 yoshdan kichikdir. Shu bilan birga, urbanizatsiya darajasi past bo‘lib, aholining atigi 27–28 foizi shahar hududlarida yashaydi, bu esa mamlakatni Markaziy Osiyodagi eng kam urbanizatsiya ko‘rsatgichiga ega davlatlardan biriga aylantiradi.

Tojikiston demografiyasining muhim jihati mehnat migratsiyasining keng ko‘lamda rivojlanganligidir. Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘istonga yo‘naltirilgan tashqi migratsiya millionlab tojik fuqarolarini xalqaro mehnat makonlariga bog‘lab, mamlakat ichki demografik muvozanatini saqlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Migrantlar tomonidan yuboriladigan pul o‘tkazmalari milliy yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etib, demografik barqarorlikning iqtisodiy asoslaridan biriga aylanmoqda. Hududiy jihatdan Tojikistonda aholi asosan Vaxsh va Zarafshon vodiylari, shuningdek, Sug‘d viloyatida zichlashgan bo‘lib, Pomir tog‘li hududlari demografik jihatdan siyrak joylashgan. Bu hududiy tafovutlar infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining makoniy notekis rivojlanishiga olib kelmoqda hamda davlat siyosatida hududiy muvozanat masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Qirg‘iziston aholisi 2025-yilda taxminan 7,1 million kishini tashkil etib, mintaqadagi o‘rtacha demografik ko‘rsatkichlarga ega davlatlardan biridir (World Bank, 2024). Urbanizatsiya darajasi nisbatan past bo‘lib, aholining qariyb 38 foizi shahar hududlarida yashaydi. Biroq Bishkek va O‘sh shaharlari mamlakat ichki migratsiyasining asosiy markazlariga aylanib, qishloq hududlaridan kelayotgan aholining zichlashuvi natijasida tez sur’atlarda kengaymoqda.

Qirg‘iziston hududining tog‘li relyefi va tabiiy-geografik sharoitlari aholi joylashuvining notekisligini belgilovchi omil hisoblanadi. Chuy vodiysi, O‘sh viloyati va Jalolobod hududlari aholi zich joylashgan makonlar bo‘lsa, Issiqko‘l viloyati va tog‘li rayonlar demografik jihatdan siyrak bo‘lib qolmoqda. Etnogeografik jihatdan ushbu holat nafaqat tabiiy resurslar taqsimoti bilan, balki tarixiy xo‘jalik tizimlari, ko‘chmanchilik an’analari va sovet davrida shakllangan hududiy infratuzilma bilan ham bog‘liq edi. Migratsiya jarayonlari Qirg‘iziston demografiyasining asosiy strukturaviy omillaridan biri bo‘lib, Rossiya va Qozog‘istonga yo‘naltirilgan tashqi mehnat migratsiyasi ichki aholi o‘sishi bilan muvozanat hosil qilmoqda.

Turkmaniston aholisi 2025-yilda taxminan 6,5–7 million kishi atrofida bo‘lib (World Bank, 2024), urbanizatsiya darajasi nisbatan yuqori, aholining 54 foizdan ortig‘i shahar hududlarida yashaydi. Bu esa uni Markaziy Osiyodagi eng shaharlashgan davlatlardan biriga aylantiradi. Ashxobod shahri mamlakatning asosiy demografik va siyosiy markazi sifatida aholining sezilarli qismini o‘ziga tortmoqda.

Turkmanistonda demografik jarayonlar haqida ochiq statistik ma’lumotlarning cheklanganligi mintaqaviy taqqoslashlarni murakkablashtiradi. Shunga qaramay, mavjud baholashlar tug‘ilish ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori ekanini va aholining yosh tarkibi ustunligini ko‘rsatadi. Etnogeografik nuqtayi nazardan Turkmaniston demografiyasi aholi joylashuvining davlat tomonidan boshqariladigan urbanizatsiya siyosat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yangi shahar massivlari, infratuzilma loyihalari hududiy jihatdan qayta tashkil etilmoqda.

Hududiy jihatdan Turkmaniston aholisi asosan Kopetdog‘ etaklari, Murg‘ob va Amudaryo vodiylari, shuningdek, Kaspiybo‘yi hududlarida joylashgan. Cho‘l zonalarining kengligi esa aholi zichligining pastligiga olib kelmoqda. Bu holat etnogeografik jihatdan tabiiy landshaft va demografik makon o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni ifodalaydi.

Markaziy Osiyo demografiyasining eng muhim zamonaviy tendensiyalaridan biri urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining jadallashuvidir. 1990-yillardan boshlab ichki migratsiya qishloq hududlaridan yirik shaharlar tomon yo‘naltirilgan bo‘lib, bu shahar makonining tez sur’atlarda kengayishiga, infratuzilma yuklamasining ortishiga va ijtimoiy qatlamlarning murakkablashuviga olib kelmoqda. Toshkent, Olmaota, Astana, Bishkek, Dushanbe va Ashxobod kabi shaharlar mintaqaning asosiy yuqori demografik ko‘rsatkichga ega hududlar sifatida shakllanib, aholi harakatining asosiy yo‘nalishlarini belgilamoqda.

Tashqi migratsiya esa asosan Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Janubi Koreya va Turkiya mehnat bozorlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda millionlab markaziy osiyoliklarni doimiy yoki vaqtinchalik harakat rejimlariga bog‘lab, hududiy chegaralar bilan cheklanmagan ijtimoiy makonlarni yuzaga keltirmoqda.

Migratsiya, shuningdek, mintaqa ichida hududiy notekisliklarni kuchaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Aholi iqtisodiy imkoniyatlar yuqori bo‘lgan markaziy va shahar hududlariga to‘planar ekan, periferik va chekka hududlarda demografik bo‘shashuv, aholining o‘rtacha yoshining ortishi va ijtimoiy infratuzilmaning qisqarishi

jarayonlari yuzaga kelmoqda. Bu holat Markaziy Osiyo etnogeografiyasida “markaz-periferiya” hududiy tafovutlarining paydo bo‘lishi sifatida talqin qilinadi.

Markaziy Osiyoda aholining yosh tarkibi iqtisodiy rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnatga layoqatli yoshlar sonining ko‘pligi ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va jamiyatni modernizatsiya qilish uchun qulay sharoit bo‘lishi mumkin. Biroq bu imkoniyatlardan samarali foydalanish ta’lim sifati, mehnat bozori, sog‘liqni saqlash tizimi va hududiy rivojlanish siyosatiga bevosita bog‘liq. Aks holda, yoshlar sonining tez ko‘payishi ish o‘rinlari yetishmasligi, norasmiy bandlikning oshishi, migratsiya bosimi va ijtimoiy infratuzilmaning haddan tashqari yuklanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bu jarayon shunchaki aholining ko‘pligi emas, balki uni to‘g‘ri rejalashtirish va oqilona ijtimoiy siyosat orqali samarali foydalaniladigan imkoniyatdir.

Etnogeografik nuqtayi nazardan, bunday siyosat hududlar o‘rtasidagi farqlarni kamaytirish, shahar va qishloq rivojini muvozanatlash, migratsiyani tartibga solish hamda xalqaro ijtimoiy aloqalarni samarali yo‘lga qo‘yishga qaratilishi kerak. Demografik siyosatning muvaffaqiyati esa aholi sonining ko‘payishi bilan emas, balki aholining qayerda yashashi, qanday harakatlanishi va jamiyat hayotiga qanchalik moslashgani bilan baholanadi.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasi doirasida demografik vaziyatni chuqur tahlil qilish mintaqaning ijtimoiy makonini, etnik strukturalarini va hududiy rivojlanish jihatlarini tushunishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois demografiya mintaqaning faqat biologik yoki statistik tavsifi emas, balki uning tarixiy xotirasi, hududdiy identikligi va kelajak rivojlanish istiqbollarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaralishi lozim.

9.3. Migratsiyaning etnomadaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasida migratsiya zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisa faqat aholining bir hududdan boshqasiga ko‘chishi bilangina cheklanmay, balki etnik tarkib, hududiy joylashuv, shahar va qishloq

munosabatlari, mehnat bozori, madaniy aloqalar hamda davlatlararo munosabatlarning qayta shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Etnogeografik yondashuv migratsiyani demografik hodisa sifatida emas, balki makon, madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni yuzaga chiqaruvchi jarayon sifatida talqin qiladi.

Sovet Ittifoqi parchalanishidan so‘ng Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlarni belgiladi. Natijada ilgari yagona mehnat bozorida erkin harakatlangan aholi oqimlari milliy chegaralar bilan cheklanib, yangi migratsiya tizimlari shakllandi. Bu jarayon Rossiya va Qozog‘istonni asosiy migrantlarni qabul qiluvchi davlatlarga, O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistonni esa migrant yuboruvchi mamlakatlarga aylantirdi. Shu bilan birga, ichki migratsiya ham kuchayib, aholi oqimi yirik shahar markazlari va sanoat hududlariga yo‘nala boshladi. Natijada mintaqada etnik makonning hududiy konfiguratsiyasi o‘zgarib, yangi ijtimoiy va madaniy muhitlar yuzaga keldi.

Markaziy Osiyoda migratsiyaning asosiy shakli mehnat migratsiyasi bo‘lib, u asosan bandlik yetishmovchiligi, daromadlar tafovuti va demografik bosim bilan bog‘liq. Mintaqa aholisining yosh tarkibga ega bo‘lishi har yili mehnat bozoriga katta miqdorda yangi ishchi kuchi kirib kelishini ta’minlaydi, biroq ichki iqtisodiyot bu ehtiyojni to‘liq qondira olmaganda tashqi migratsiya kuchayadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Tojikistonda pul o‘tkazmalari yalpi ichki mahsulotning taxminan 45 foizini, Qirg‘izistonda 24 foizini, O‘zbekistonda esa 14 foizini tashkil etgan. Bu raqamlar migratsiyaning mintaqa iqtisodiy barqarorligidagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi. Migrantlar yuborgan mablag‘lar oilalarning turmush darajasini oshirish, uy-joy qurilishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlarini qoplashda muhim manbaga aylanmoqda.

2025-yilda O‘zbekiston fuqarolarining qariyb 2,3 million nafari xorijda mehnat faoliyati bilan shug‘ullangan bo‘lib, ularning asosiy qismi Rossiya va Qozog‘istonda ishlagan. So‘nggi yillarda Janubi Koreya, Turkiya va Yevropa davlatlariga yo‘nalishlar ham kengaymoqda. Bu holat Markaziy Osiyo mehnat resurslarining global bozor bilan tobora chuqurroq integratsiyalashayotganini ko‘rsatadi.

Migratsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy, balki etnomadaniy oqibatlarga ham ega. Qishloqdan shaharga yoki bir davlatdan boshqasiga koʻchgan migrantlar yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida oʻz madaniy qadriyatlarini saqlab qolish bilan birga, yangi madaniy tajribalarni ham oʻzlashtiradi. Natijada shaharlarda koʻp madaniyatli ijtimoiy muhit shakllanib, etnik guruhlar oʻrtasida madaniy almashinuv kuchayadi. Masalan, Moskva, Olmaota, Istanbul va Seul shaharlarida markaziy osiyolik migrantlar milliy oshxonalar, diniy amaliyotlar va madaniy marosimlar orqali oʻz etnik identitetini saqlab qolmoqda, shu bilan birga qabul qiluvchi jamiyat bilan oʻzaro moslashuv jarayoniga kirishmoqda.

Migratsiya natijasida migrantlar va ularning vatandagi oila aʼzolari oʻrtasida doimiy iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalar saqlanib qoladi. Bu holat transmilliy ijtimoiy makonlarning shakllanishiga olib keladi. Bunday makonlarda etnik guruhlar bir vaqtning oʻzida bir nechta davlat hududida ijtimoiy faoliyat yuritadi. Migrantlar yuborgan pul mablagʻlari mahalliy iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlaydi, oilaviy marosimlar va diniy tadbirlar transchegaraviy tarzda davom etadi, yangi migratsiya yoʻnalishlari esa aynan shu ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanadi. Shu tariqa etnik makon endilikda faqat anʼanaviy yashash hududi bilan emas, balki migratsion tarmoqlar orqali bogʻlangan ijtimoiy makon bilan ham belgilanmoqda.

Ichki migratsiya Markaziy Osiyoda urbanizatsiya jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Toshkent, Olmaota, Bishkek, Dushanbe va Ashxobod kabi yirik shaharlar qishloq hududlardan koʻchib kelayotgan aholi hisobiga kengayib bormoqda. Bu jarayon shahar infratuzilmasiga bosimni oshiradi, norasmiy turar-joy hududlarining paydo boʻlishiga sabab boʻladi va urban madaniyatning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Qishloq hududlarida esa mehnatga layoqatli yoshlarning chiqib ketishi natijasida demografik qarish, ishchi kuchi kamayishi va ijtimoiy infratuzilmaning zaiflashuvi kuzatilmoqda. Shu sababli migratsiya siyosatini hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uygʻunlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy va institutsional tizimlariga ham kuchli taʼsir koʻrsatmoqda. Migrantlar huquqlarini

himoya qilish, ularni qabul qiluvchi jamiyatlarga moslashtirish, noqonuniy migratsiyani kamaytirish va migratsiya oqimlarini tartibga solish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylangan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida mehnat migrantlari huquqlarini himoyalashga qaratilgan ikki tomonlama bitimlar kengaytirildi, Qozog‘istonda esa soddalashtirilgan mehnat ruxsatnomalari tizimi joriy etildi. Xalqaro tashkilotlar ishtirokida migrantlarni ijtimoiy moslashtirish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu choralar migratsiyani nazorat qilish bilangina cheklanmay, uni iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik omiliga aylantirishga qaratilgan.

Migratsiya Markaziy Osiyo demografik jarayonlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mintaqada aholining yosh tarkibga ega bo‘lishi mehnat migratsiyasini kuchaytirayotgan bo‘lsa, tashqi migratsiya ayrim hududlarda erkaklar ulushining kamayishi, oilaviy tuzilmaning o‘zgarishi va gender rollarining qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Masalan, Tojikiston va Qirg‘izistonning ayrim qishloq hududlarida mehnat migrantlarining uzoq muddat chet elda bo‘lishi ayollar zimmasiga xo‘jalik yuritish va oilaviy mas’uliyatning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ijtimoiy munosabatlar va madaniy me’yorlarning yangilanishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda migratsiya oddiy aholi harakati emas, balki hududiy, etnik, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning murakkab tizimidir. Etnogeografik yondashuv migratsiyani makoniy harakat orqali etnik makonning qayta tashkil etilishi, identitet shakllarining yangilanishi va ijtimoiy aloqalarning kengayishi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Migratsiya milliy iqtisodiyotlar uchun muhim moliyaviy resurs, shahar va qishloq makonlarining rivojlanish omili, transmilliy ijtimoiy tarmoqlarning shakllanish mexanizmi hamda etnik va madaniy xilma-xillikni kuchaytiruvchi jarayon sifatida Markaziy Osiyo etnogeografiyasining markaziy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Shu bois migratsiyani ilmiy asosda o‘rganish va uni samarali boshqarish mintaqaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Migratsiya tushunchasining etnogeografik mazmunini tushuntiring.

2. Mustaqillikdan keyin Markaziy Osiyoda migratsiya jarayonlari qanday omillar ta’sirida kuchaydi?

3. Mehnat migratsiyasining demografik va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qiling.

4. Urbanizatsiya jarayonlarida ichki migratsiyaning o‘rni qanday?

5. Transmilliy migratsiya etnik identiklik va madaniy makon shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyoda tashqi mehnat migratsiyasining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari haqida referat yozing.

2. Qishloqdan shaharga migratsiyaning etnik makon tuzilishiga ta’siri bo‘yicha misollar asosida tahlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абашин С.Н. Средняя Азия: пространство, идентичность, власть. – Москва: Новое литературное обозрение, 2015. – 352 с.

2. Бугай Н.Ф. Миграционные процессы в постсоветском пространстве. – Москва: РОССПЭН, 2004. – 296 с.

3. Castles, S., de Haas, H., & Miller, M. J. (2014). *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World* (5th ed.). London: Palgrave Macmillan. 401 p.

– 412 с.

4. Козлов В.И. Этногеография населения. – Москва: Изд-во МГУ, 2008. – 320 с.

5. Масанов Н.Э. Кочевая цивилизация казахов. – Алматы: Атамұра, 1995. – 256 с.

6. Олимова С. Миграция и социальные трансформации в Таджикистане. – Душанбе: Ирфон, 2016. – 214 с.

7. Reeves, M. (2014). Border Work: Spatial Lives of the State in Rural Central Asia. Ithaca: Cornell University Press. 288 p.

8. Roy, O. (2000). The New Central Asia: The Creation of Nations. London: I.B. Tauris. 264 p.

9. Султанов Т.И. Кочевые народы Центральной Азии в средние века. – Алматы: Дайк-Пресс, 2001. – 240 с.

10. Шониёзов К. Ўзбек халқининг этник тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 368 б.

11. Юсупов У. Марказий Осиёда аҳоли миграцияси жараёнлари. – Тошкент: Фан, 2018. – 196 б.

10-MAVZU: MINTAQA XALQALARINING DINIY AN'ANALARI VA ULARNING MADANIY GEOGRAFIK FARQLANISHI

Reja:

1. Dinning etnogeografik kategoriya sifatidagi mohiyati va metodologik asoslari.

2. Markaziy Osiyoda diniy an'analar va madaniy landshaftlarning hududiy shakllanishi.

3. Diniy identiklik, etnik guruhlar va ijtimoiy-madaniy makonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir.

4. Globallashuv sharoitida diniy geografiya va etnomadaniy transformatsiyalar.

Darsning maqsadi: *talabalarga Markaziy Osiyo mintaqasida diniy an'analarning shakllanishi, hududiy tarqalishi va madaniy landshaftlarga ta'sirini etnogeografik yondashuv asosida tushuntirish, diniy identiklik, makon va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.*

Tayanch so'z va iboralar: *diniy geografiya, madaniy landshaft, diniy identiklik, ziyoratgohlar, konfessional makon, globallashuv, etnomadaniy transformatsiya, ramziy makon, tasavvuf, voha madaniyati.*

10.1. Dinning etnogeografik kategoriya sifatidagi mohiyati va metodologik asoslari.

Markaziy Osiyo tarixan Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini bog'lovchi, turli diniy, madaniy va etnik oqimlar chorrahasida joylashgan mintaqa sifatida shakllangan. Bu hududda zardushtiylik, buddaviylik, manixeylik, xristianlik, islom va mahalliy e'tiqod tizimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida o'zaro aloqada bo'lib kelgan. Natijada mintaqa xalqlarining diniy an'analari nafaqat konfessional tizim sifatida, balki etnik identiklik, hududiy makon, madaniy landshaft va

ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan etnogeografik hodisa sifatida shakllangan.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasi fani dinni “faqat e’tiqod tizimi” sifatida emas, balki mintaqada hududiy xususiyat, madaniy diffuziya, tarixiy xotira, ijtimoiy amaliyot va etnik identiklikni shakllantiruvchi kuchli omil sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar diniy an’analarning hududiy jihatdan qayta tashkil topishi, ularning yangi identiklik shakllari bilan uyg‘unlashuvi hamda global jarayonlar bilan o‘zaro aloqasini yaqqol namoyon etdi (A.Khalid, 2007;).

Shu bois mazkur mavzu mintaqa etnogeografiyasi doirasida nafaqat dolzarb, balki metodologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. U diniy amaliyotlar, muqaddas makonlar, ziyorat geografiyasi, konfessional va madaniy hududiylik tushunchalarini birlashtirgan holda, mintaqa xalqlarining tarixiy va zamonaviy rivojlanishini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda dinni o‘rganish faqat teologik yoki tarixiy yondashuv bilan cheklanmay, balki geografik, sotsiologik, antropologik va madaniyatshunoslik yondashuvlari orqali keng qamrovli tahlil qilinmoqda. Xususan, diniy geografiya fanining shakllanishi dinni hududiy joylashuvi, diffuziyasi, migratsiya, muqaddas joylar, konfessional hududlar va madaniy landshaftlar kontekstida tahlil qilish imkonini berdi (L.Kong, 2010; Park, 2004;).

Lily Kong diniy geografiyani “dinning makonda namoyon bo‘lishi, joy bilan aloqasi va hududiy amaliyotlar orqali namoyon bo‘lishini o‘rganuvchi fanlararo soha” sifatida ta’riflaydi (L.Kong, 2010;). Bu yondashuvga ko‘ra, din faqat ichki e’tiqod tizimi emas, balki ijtimoiy makon, madaniy muhit va geografik landshaftlarni shakllantiruvchi faol kuchdir.

Shu bilan birga, etnogeografiya fanida din etnik guruhlarning tarixiy xotirasi, madaniy identiklik va hududiy joylashuvini belgilovchi omillardan biri sifatida talqin qilinadi (Jordan-Bychkov & Domosh, 2003). Shu nuqtayi nazardan qaralganda, diniy an’analar muayyan etnik guruhning hayot tarzini, marosim amaliyotlarini, kundalik

hududiy tajribasini va jamiyat bilan munosabatini belgilovchi muhim omildir.

Taniqli amerikalik geograf Karl Sauer tomonidan ilgari surilgan madaniy landshaft konsepsiyasi geografiyada inson faoliyati natijasida shakllangan makoniy tuzilmalarni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, din madaniy landshaftning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u masjidlar, maqbaralar, ziyoratgohlar, qabristonlar, diniy maktablar, monastirlar va muqaddas joylar orqali hududiy ifodasini topadi (K.Sauer, 1925;).

Dinning madaniy landshaftga ta’siri nafaqat moddiy obyektlar shaklida, balki ramziy makonlar, muqaddas qadamjolar, xotira joylari va rasm-rusumlar orqali ham namoyon bo‘ladi (Knott, 2005). Shu bois, dinni etnogeografik hodisa sifatida o‘rganish hududiy shakllar bilan bir qatorda, ularning ramziy va ijtimoiy mazmunini ham tahlil qilishni talab etadi.

Markaziy Osiyo misolida qaralganda, masjid va madrasalar bilan bir qatorda, avliyolar qabrlari, ziyoratgohlar, qadamjolar, muqaddas tog‘lar, daraxtlar va buloqlar diniy madaniy landshaftning muhim unsurlari hisoblanadi (DeWeese, 2016; Frank & Usmanov, 2019). Ular nafaqat diniy amaliyot markazlari, balki mahalliy identiklik, tarixiy xotira va hududiy birdamlik ramzlari sifatida ham faoliyat yuritadi.

Etnik identiklik – bu muayyan guruhning o‘zini “boshqalardan farqli” sifatida anglash jarayoni bo‘lib, u til, madaniyat, tarix, hudud va din kabi omillar orqali shakllanadi (Smith, 1991). Markaziy Osiyoda esa din ko‘pincha etnik identiklikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik xalqlarining aksariyati sunniy islomning hanafiy mazhabiga mansub bo‘lsa-da, bu diniy birlik ularning etnik farqlanishini yo‘qota olmaydi. Aksincha, mahalliy urf-odatlar, marosimlar va kundalik madaniy amaliyotlar orqali diniy e’tiqod etnik o‘ziga xoslikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi (A.Khalid, 2007; Olcott, 2010).

Shu jihatdan, din Markaziy Osiyo etnogeografiyasida bir vaqtning o‘zida ham birlashtiruvchi va farqlovchi funksiyalarni bajaradi: u mintaqa xalqlarini umumiy islomiy sivilizatsiya doirasida birlashtirsa-da, hududiy-madaniy an’analar orqali ularning o‘ziga xosligini ham

ta’minlaydi (DeWeese, 2016). Shuning uchun mintaqa kesimida etnogeografik nuqtayi nazardan diniy o‘ziga xoslikni tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo kesimida etnogeografik nuqtayi nazardan dinni tahlil etar ekanmiz, ushbu jarayonda bir qator metodologik yondashuvlarni inobatga olish zarur. Bunda mintaqa etnogeografiyasida dinni tarixiy-geografik yondashuv, madaniy-geografik yondashuv, sotsiogeografik yondashuvlar asosida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Tarixiy-geografik yondashuv XX asrning 80-yillarida fransuz tarixshunosligi, xususan, annalar maktabining yetakchi olimlaridan biri Fernans Braudel tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, ushbu yondashuvga ko‘ra diniy an’analarning shakllanishi, tarqalishi va hududiy transformatsiyasini tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish nazarda tutiladi (F.Braudel, 1980). Misol uchun, Markaziy Osiyoda qadimdan shakllangan e’tiqodlar zardushtiylik, buddaviylik, manixeylik mintaqaning ma’lum tarixiy geografik hududi bilan bog‘liqdir. Xususan, zardushtiylik, Amudaryo quyi havzasi va Sug‘d hududlarida mustahkam diniy-geografik makon sifatida shakllangan. Zardushtiylik ibodatxonalarining joylashuvi, muqaddas suv manbalari va dafn marosimlariga oid elementlar dinning territorial jihatdan tashkil topganini ko‘rsatadi. Bu holat diniy amaliyotlarning muayyan ekologik va geografik muhit bilan bog‘liqligini namoyon etadi (M.Boys, 2001).

Buddaviylik esa Kushonlar davrida (mil. I–III asrlar) janubi Markaziy Osiyo, xususan, Baqtriya va To‘xariston hududlarida mustahkam diniy makon yaratdi. Fayoztepa, Qoratepa va Dalverzintepa yodgorliklari diniy markazlarning savdo yo‘llari bo‘ylab joylashganini ko‘rsatadi. Bu esa diniy g‘oyalarning makon bo‘ylab tarqalishida transport-geografik omillarning muhim rol o‘ynaganini tasdiqlaydi (E.Rtveladze, 2005).

Tarixiy-geografik yondashuv ushbu jarayonlarni lokal diniy hodisalar sifatida emas, balki mintaqaviy makonning tarixiy transformatsiyasi sifatida izohlaydi. Ya’ni, diniy makon geografik muhitdan ajralgan holda emas, balki savdo, migratsiya va siyosiy jarayonlar bilan birgalikda shakllangan ijtimoiy-madaniy tizim sifatida talqin qilinadi (Sauer, 1925).

VIII asrdan boshlab arablar orqali islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi mintaqaning diniy va madaniy makonida chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Tarixiy-geografik yondashuv bu jarayonni faqat dinni qabul qilish bilan cheklamay, balki siyosiy boshqaruv tizimi, xo‘jalik aloqalari va madaniy tuzilmalarning hudud bo‘ylab qayta shakllanishi sifatida talqin qiladi (Lapidus, 2014).

Islom dastlab Amudaryo vodiysi, Sug‘d va Farg‘ona hududlaridagi shaharlarda keng tarqaldi. Buxoro, Samarqand va Termiz kabi markazlar diniy-ma’rifiy maskanlarga aylanib, mintaqada yangi diniy markazlashuv tizimini shakllantirdi. Ushbu shaharlarda masjidlar, madrasalar, rabotlar va ziyoratgohlar barpo etilib, diniy hayotning tashkiliy asoslari vujudga keldi (Hodgson, 1974).

Tarixiy-geografik yondashuvda muhim jihat shundan iboratki, islomning mintaqaga singib borishi bir xillik jarayoni emas, balki mahalliy diniy an’analar bilan aralashuvi orqali yuz bergan ko‘p qatlamli jarayon sifatida talqin qilinadi. Masalan, zardushtiylik va shomoniylik tasavvurlarining ayrim elementlari tasavvufiy amaliyot-larga singib ketgan bo‘lib, bu hol Markaziy Osiyo islomining hududiy-madaniy xususiyatlarini belgilab berdi (DeWeese, 1994).

Markaziy Osiyo diniy makonining tarixiy-geografik shakllanishida tasavvuf harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Yassaviylik, Kubraviylik va Naqshbandiylik tariqatlari diniy g‘oyalarni keng hududlarga yoyishda va mahalliy jamiyat tuzilmalari bilan qorishuvida muhim rol o‘ynagan (DeWeese, 1994; Algar, 2010).

Tarixiy-geografik yondashuvga ko‘ra, tasavvuf tariqatlari faqat diniy ta’limot emas, balki hudud bo‘ylab yoyilgan ijtimoiy va madaniy tizimlar sifatida qaraladi. Xoja Ahmad Yassaviy (Turkiston), Bahouddin Naqshband (Buxoro) va Najmiddin Kubro (Xorazm) majmualari mintaqaviy diniy markazlarga aylanib, diniy o‘zlikni hududiy jihatdan mustahkamlovchi muhim maskanlar bo‘lib xizmat qilgan (DeWeese, 1994).

Bu ziyoratgohlar faqat ibodat joylari emas, balki savdo yo‘llari, ilm-ma’rifat aloqalari va diniy tartibotni ta’minlash jarayonlarining ham markaziy nuqtalari bo‘lgan. Natijada diniy makon mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasiga chuqur singib ketgan murakkab tizimga

aylangan (Knysh, 2017). Tarixiy-geografik yondashuv bu jarayonni diniy makonning hududiy shakllanishi sifatida izohlaydi, ya’ni diniy amaliyotlar muayyan joylarga bog‘lanib, jamiyatning hududiy tuzilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tarkibiga kirishi diniy-geografik makonning yangi siyosiy-hududiy tartibga solinishiga olib keldi. Tarixiy-geografik yondashuv bu jarayonni diniy institutlarning davlat tomonidan nazorat qilinishi, hududiy chegaralanishi va ijtimoiy funksiyalarining qayta belgilanishi sifatida tahlil qiladi (A.Khalid, 2015).

Imperiya ma’muriyati musulmon jamiyatlarini boshqarishda diniy institutlardan siyosiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida foydalangan va ularni markazlashgan boshqaruv tizimiga qo‘shishga intilgan. Natijada masjidlar, madrasalar va muftiylik tizimi davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog‘langan holda qayta tashkil etilgan (A.Khalid, 2015).

Bu jarayon diniy makonning hududiy jihatdan farqlanishiga ham olib kelgan: shaharlar diniy va ma’rifiy markaz sifatida mustahkamlangan bo‘lsa, qishloq va ko‘chmanchi hududlarda diniy amaliyotlar asosan norasmiy shakllarda saqlanib qolgan. Natijada diniy hayotda ijtimoiy va hududiy tengsizlik kuchaygan.

XX asrning 1920-yillaridan boshlab Sovet siyosati diniy institutlarni keskin cheklash va dunyoviy mafkurani jamiyat hayotiga singdirishga qaratildi. Tarixiy-geografik yondashuv bu jarayonni diniy makonning ochiq va rasmiy tuzilmalardan yashirin hamda norasmiy shakllarga o‘tishi sifatida talqin qiladi (Pelkmans, 2011).

Masjid va madrasalarning yopilishi, ziyoratgohlarning qat’iy nazoratga olinishi natijasida diniy amaliyotlar asosan xonadonlar, mahalla doiralari va norasmiy diniy guruhlar ichida davom etdi. Natijada diniy hayot rasmiy hududiy markazlardan chekinib, kichik va yashirin makonlar doirasida saqlanib qoldi (Pelkmans, 2011).

Tarixiy-geografik nuqtayi nazardan, bu jarayon diniy makonning yo‘qolishi emas, balki uning vazifaviy o‘zgarishi sifatida baholanadi. Ya’ni, din makoniy jihatdan toraygan bo‘lsa-da, ijtimoiy xotira, marosimlar va kundalik hayot orqali yashab qoldi. Shu sababli bu holat

Sovet davridan keyingi diniy tiklanish jarayonlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi (A.Khalid, 2007).

1991-yildan keyin Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqil–likka erishishi diniy hayotning ochiq va tashkiliy shakllarda qayta jonlanishiga olib keldi. Tarixiy-geografik yondashuv bu jarayonni Sovet davrida cheklangan diniy tuzilmalarning hududiy makonda yana faollashuvi sifatida izohlaydi (Heathershaw & Montgomery, 2014).

Masjidlar, madrasalar va ziyoratgohlarning qayta tiklanishi jamiyatning diniy manzarasini nisbatan yaqqolroq tasvirlab berdi. Shu bilan birga, diniy makon davlat siyosati, milliy o‘zlikni shakllantirish jarayonlari va global diniy oqimlar bilan murakkab o‘zaro ta’sirga kirdi. Natijada Markaziy Osiyoda diniy hayot bir xil tarzda emas, balki hududlarga xos farqlar asosida rivojlandi (Laruelle, 2018).

Masalan, Farg‘ona vodiysi diniy faollikning yuqori darajasi bilan ajralib tursa, Qozog‘istonning shimoli hududlarida diniy makon ko‘proq dunyoviy-milliy identiklik bilan uyg‘unlashgan. Turkmanistonda esa diniy hayot davlat tomonidan qat’iy tartibga solingan tashkiliy shaklda rivojlandi. Bu holat diniy geografiyaning siyosiy va hududiy sharoitlarga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi (Heathershaw & Montgomery, 2014).

Tarixiy-geografik yondashuvga ko‘ra, bu jarayonlar vaqt davomida shakllangan hududiy xususiyatlarning davomiyligi va o‘zgarishi sifatida baholanadi. Ya’ni, mustaqillik davridagi diniy makon faqat yangi siyosiy sharoit mahsuli emas, balki tarixiy-geografik qatlamlarning uzviy davomidir.

Madaniy-geografik yondashuv dinni faqat e’tiqod tizimi yoki ijtimoiy institut sifatida emas, balki makonda mujassamlashgan madaniy amaliyotlar majmui hamda kundalik hayot geografiya-si sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv Karl Sauer tomonidan ishlab chiqilgan madaniy landshaft konsepsiyasiga tayangan holda, madaniyatning tabiiy makon ustidan “ustma-ust namoyon bo‘lishi” natijasida shakllanadigan hududiy ramzlarni izohlaydi (Sauer, 1925).

Madaniy-geografik yondashuv dinning eng muhim xususiyat-laridan biri sifatida uning makon yaratish qobiliyatini ajratib ko‘rsatadi.

Muqaddas joylar – masjidlar, maqbaralar, ziyoratgohlar, qadamjolar va qabrlar – diniy e’tiqodning hududiy “belgilar tizimi” bo‘lib, ular jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy identikligi va axloqiy qadriyatlarini makon orqali mustahkamlaydi (Kong, 2010;). Masalan, Buxorodagi Bahouddin Naqshband maqbarasi, Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi nafaqat diniy ziyorat obyektlari, balki madaniy xotira markazlari sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu obyektlar orqali diniy e’tiqod tarixiy shaxslar, mahalliy rivoyatlar va hududiy identiligi bilan integratsiyalashib, muqaddaslikning “joylashgan” shaklini vujudga keltiradi (DeWeese, 1994; Privratsky, 2001).

Madaniy-geografik yondashuv bu holatni diniy makon nafaqat rasmiy institutlar bilan, balki ramziy ma’nolar va marosim-amaliyotlar orqali ham shakllanishi bilan izohlaydi. Ziyoratchilar uchun muqaddas joy nafaqat tarixiy obyekt, balki baraka manbayi, ruhiy poklanish makoni va ijtimoiy birdamlik maydonidir. Natijada muqaddas makonlar diniy tajribani individual e’tiqoddan jamoaviy madaniy amaliyotga aylantiradi (Kong, 2010).

Madaniy-geografik yondashuv doirasida muhim masalalardan biri – ramziy makon tushunchasi bo‘lib, u diniy g‘oyalar va qadriyatlarning hududiy tasvirlar, me’moriy shakllar, toponimlar va ritual yo‘nalishlar orqali mujassamlashuvini anglatadi (Knott, 2005). Markaziy Osiyoda bu jarayon ayniqsa shahar va qishloq hududlaridagi muqaddaslashtirilgan joylar o‘rtasidagi diniy farqlanishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, tarixan Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda diniy obyektlar asosan rasmiy va tashkil etilgan shaklda rivojlangan. Jome masjidlar, madrasalar, vaqf tizimi va shariat sudlari shahar muhitida dinning boshqariladigan va me’yoriy tuzilmasini shakllantirgan. Qishloq va yarim ko‘chmanchi hududlarda esa diniy hayot ko‘proq mahalliy muqaddas joylar, tabiat obyektlari (buloq, daraxt, tog‘) hamda avliyolar qabrlari bilan bog‘liq bo‘lib, din kundalik turmush, dehqonchilik marosimlari va mavsumiy hayot shakllari bilan uzviy aloqada bo‘lgan.

Madaniy-geografik yondashuv dinni faqat muqaddas joylar yoki rasmiy diniy tashkilotlar bilan cheklamaydi, balki uni kundalik hayot

makoni doirasida – ovqatlanish, kiyinish, ijtimoiy munosabatlar, vaqtni tashkil etish va makondan foydalanish orqali ham tahlil qiladi (Kong, 2010). Markaziy Osiyoda bu holat ayniqsa diniy bayramlar, marosimlar va hayot bosqichlariga oid urf-odatlarda yaqqol koʻrinadi. Masalan, Ramazon va Qurbon hayitlari nafaqat diniy sanalar, balki shahar va qishloq makonining vaqtinchalik qayta tashkil etilishiga sabab boʻladi: masjidlar ijtimoiy hayot markaziga aylanadi, bozorlar va jamoaviy ovqatlanish joylari kengayadi, mahallalar oʻrtasidagi aloqalar kuchayadi. Shu tariqa diniy marosimlar makon va ijtimoiy hayot tizimini vaqtincha oʻzgartiradi (Kong, 2010; Knott, 2005).

Madaniy-geografik yondashuvning yana bir muhim jihati – diniy merosning madaniy landshaft sifatida qayta talqin qilinishi va turizm bilan bogʻlanishidir. Markaziy Osiyoda ziyorat joylari tarixan diniy e'tiqod bilan bogʻliq boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda ular madaniy merosni saqlash, hududiy oʻzlikni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda.

Masalan, Turkistondagi Ahmad Yassaviy majmuasi UNESCO roʻyxatiga kiritilgach, u nafaqat diniy ziyorat maskani, balki xalqaro madaniy turizm markaziga ham aylandi. Bu jarayonda muqaddas makon diniy ma'nodan tashqari milliy tarix, madaniy siyosat va iqtisodiy rivojlanish bilan ham bogʻlanmoqda. Madaniy-geografik yondashuv buni diniy landshaftning yoʻqolishi emas, balki uning ma'nolar jihatidan koʻp qatlamli tarzda yangilanishi sifatida izohlaydi (Salazar, 2010).

Sotsiogeografik yondashuv dinni makonda joylashgan e'tiqod tizimi sifatida emas, balki ijtimoiy tuzilmalar, siyosiy hokimiyat shakllari, iqtisodiy munosabatlar va migratsiya jarayonlari bilan oʻzaro ta'sirda shakllanadigan institutsional-amaliy tizim sifatida tahlil qiladi (Park, 2004;). Markaziy Osiyo sharoitida sotsiogeografik yondashuv alohida metodologik ahamiyat kasb etadi, chunki bu mintaqa tarixan islom an'analari va shariat asosida boshqariladigan davlatchilik iyerarxiyalari, sovet davridagi sekularizm hamda mustaqillik yillaridagi milliy-davlat qurilishi kabi keskin ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalarni boshdan kechirgan. Natijada diniy institutlarning makoniy joylashuvi, ijtimoiy funksiyalari va siyosiy ahamiyati doimiy ravishda qayta

shakllanib kelgan. Shu bois Markaziy Osiyoda dinni nafaqat e'tiqod yoki marosim tizimi sifatida, balki ijtimoiy tashkilotlar, hokimiyat legitimatesiyasi va hududiy boshqaruv mexanizmlarining tarkibiy qismi sifatida o'rganish sotsiogeografik yondashuvning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi (A.Khalid, 2007; Heathershaw & Montgomery, 2014).

Sotsiogeografik yondashuv doirasida dinning makoniy tashkil etilishi, avvalo, ijtimoiy institutlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi sifatida tahlil qilinadi. Markaziy Osiyoda bu jarayon, eng avvalo, mahalla, masjid va diniy bilim elitalari (ulamolar, imomlar, shayxlar) atrofida shakllangan hududiy ijtimoiy strukturalarda namoyon bo'ladi.

Tarixan Buxoro, Samarqand, Toshkent va Qo'qon kabi shahar markazlarida masjid va madrasalar nafaqat diniy ta'lim maskanlari, balki ijtimoiy tartib va axloqiy me'yorlarni ishlab chiqaruvchi institutlar sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu muassasalar orqali diniy bilimlar tarqatilishi bilan birga, nikoh, meros, sud masalalari va jamoaviy nizolarni tartibga solish amaliyotlari ham amalga oshirilgan. Sotsiogeografik nuqtayi nazardan, bu jarayon diniy institutlarning ijtimoiy birdamlik mexanizmi sifatida ishlaganini ko'rsatadi.

Sotsiogeografik yondashuv din va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni hududiy kontekstda tahlil qilishni muhim metodologik vazifa sifatida belgilaydi. Markaziy Osiyoda tarixan diniy muassasalar siyosiy legitimatsiyaning muhim manbayi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Temuriylar va Shayboniylar davrida hukmdorlar o'z hokimiyatini ulamolar va shayxlar bilan ittifoq orqali mustahkamlashga intilgan. Bu jarayon natijasida diniy elita siyosiy markazlar atrofida jamlangan, muayyan shaharlarda (Buxoro, Samarqand, Toshkent, Turkiston) diniy boshqaruvga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamning konsentratsiyasi yuzaga kelgan.

Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet davrida esa dinning siyosiy makondagi roli tubdan qayta shakllantirildi. Sovet hokimiyati diniy institutlarni rasmiy cheklash, ijtimoiy hayotdan siqib chiqarish orqali dinning makoniy nazoratini markazlashtirilgan davlat apparati foydasiga qayta taqsimlashga harakat qildi (A.Khalid, 2007).

Sotsiogeografik yondashuv doirasida dinning iqtisodiy munosabatlar bilan uzviy aloqasi ham muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Tarixiy jihatdan Markaziy Osiyoda diniy institutlar va iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi munosabatlar, avvalo, vaqf tizimi orqali namoyon bo‘lgan. Masjidlar, madrasalar va ziyoratgohlarning moddiy ta’minoti savdo yo‘llari, yer egaligi va shahar iqtisodiy markazlari bilan bog‘langan bo‘lib, bu diniy institutlarning muayyan hududlarda mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy pozitsiya egallashiga xizmat qilgan. Bu jihatdan vaqf tizimi diniy makonning iqtisodiy asoslarini yaratish bilan birga, ijtimoiy stratifikatsiya mexanizmi sifatida ham ishlagan: diniy elitalar, savdogarlar va shahar zodagonlari o‘rtasidagi hamkorlik diniy institutlarning muayyan hududlarda ijtimoiy nufuzini mustahkamlagan. Natijada masjid va madrasa atrofida ijtimoiy-iqtisodiy birlashmalar shakllanib, diniy makon shahar iqtisodiy tuzilmasining muhim nuqtalariga aylangan.

Bugungi kunda esa, Markaziy Osiyodagi islom me’morchiligi asosida bunyod etilgan me’moriy majmualar diniy ziyorat bilan bir qatorda turizm iqtisodiyotining muhim obyektlariga aylangan. Bu jarayon diniy makonning iqtisodiy mazmunini o‘zgartirib, uni faqat ibodat joyi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy resurs sifatida ham shakllantirmoqda. Sotsiogeografik yondashuv bu holatni dinning “tijoratlashuvi” sifatida emas, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasining yangi bosqichi sifatida talqin qiladi. Diniy makon iqtisodiy resurslarga ulanib borar ekan, u ijtimoiy stratifikatsiya va hududiy rivojlanish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Natijada diniy institutlar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarni yumshatish yoki, aksincha, ayrim hududlarda kuchaytirish omiliga aylanishi mumkin.

Sotsiogeografik yondashuv dinning makondagi o‘zgarishini tushuntirishda migratsiya va urbanizatsiyani asosiy omillardan biri sifatida ko‘radi(Park, 2004). Markaziy Osiyoda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ichki ko‘chishlar, shaharlarning tez o‘sishi va mehnat migratsiyasining kuchayishi diniy hayotning yangi ijtimoiy shakllarini yuzaga keltirdi. Masalan, Qozog‘iston, Rossiya va Janubi Koreyaga yo‘nalgan mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyo musulmonlarini transmilliy diniy tarmoqlarga bog‘ladi. Migrantlar orasida masjidlar,

diniy ta’lim markazlari va xayriya tashkilotlari orqali diniy o‘zlik saqlanib, yangi makoniy shakllarda davom etdi (Heathershaw & Montgomery, 2014). Natijada diniy makon faqat milliy hududlar bilan cheklanmay, transmilliy ijtimoiy makon sifatida shakllana boshladi.

Urbanizatsiya jarayonlari ham diniy institutlarning joylashuviga ta’sir ko‘rsatdi. Yangi shahar hududlarida masjidlar, islom me’morchiliga asoslangan obyektlar, xayriya markazlari qurilishi dinning shahar muhitiga moslashayotganini ko‘rsatadi. Sotsiogeografik yondashuv bu jarayonlarni diniy institutlarning zamonaviy shahar hayotiga moslashuvi va ijtimoiy tarmoqlar orqali qayta tashkil etilishi sifatida izohlaydi.

10.2. Markaziy Osiyoda diniy an’analar va madaniy landshaftlarning hududiy shakllanishi.

Din jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u nafaqat e’tiqod va marosimlar majmuyi, balki makon, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo‘ladi. Har qanday diniy tizim muayyan geografik muhitda vujudga keladi, o‘sha hududning tabiiy sharoitlari, xo‘jalik faoliyati, ijtimoiy tuzilmasi va tarixiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Diniy an’analarning makon bo‘ylab qanday tarqalishi, muayyan hududlarda qanday shakllanishi va mahalliy madaniyat bilan qanday uyg‘unlashishini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Markaziy Osiyo hududida qadimdan zardushtiylik, buddaviylik, manixeylik, xristianlik va nihoyat islom kabi diniy tizimlar tarixan muayyan iz qoldirgan. Buyuk Ipak yo‘li Markaziy Osiyoni transkontinental savdo yo‘lagi sifatida mashhur qilgan bo‘lsa-da, uning tarixiy ahamiyati faqat tovar ayirboshlash bilan cheklanmaydi; u diniy va madaniy diffuziyaning muhim makoni sifatida ham faoliyat yuritgan (Frankopan, 2015). Shu sababli Markaziy Osiyo diniy geografiyasi bir vaqtning o‘zida ko‘p qatlamli, murakkab va hududiy jihatdan rang-barang bo‘lgan madaniy landshaft sifatida shakllangan.

IX–X asrlardan boshlab islom mintaqaning asosiy diniy tizimiga aylanishi bilan Markaziy Osiyoda diniy madaniy landshaft tubdan o‘zgardi. Masjidlar, madrasalar, maqbaralar, ziyoratgohlar va muqaddas makonlar jamiyat hayotining markaziy elementlariga

aylandi. Lekin, etnogeografik nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo diniy makoniy xususiyatlarini yagona, standart model asosida emas, balki hududiy-madaniy variantlar majmuasi sifatida tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Voha hududlari – O‘zbekiston va Tojikistonning Zarafshon, Farg‘ona, Hisor va Surxondaryo havzalari islomiy madaniy landshaftning institutsional va monumental shakllari shakllangan makonlar hisoblanadi. Bu hududlarda masjidlar, madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va rabotlar nafaqat diniy ibodat joylari, balki ilmiy-ta’limiy, huquqiy va ijtimoiy faoliyat markazlari sifatida ham xizmat qilgan. Masalan, Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Kalon masjidi majmuasi va Bahouddin Naqshband ziyoratgohi Markaziy Osiyo islomiy ilm-fani va tasavvufiy an’analarining muhim markazlari bo‘lgan. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi va Shohi Zinda majmuasi esa diniy bilim, me’morchilik va ziyorat amaliyotlarining bir makonda uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi va Hazrati Imom majmuasi islomiy bilim, Qur’on ilmi va diniy marosimlarning markaziy nuqtalari sifatida shakllangan.

Tojikiston hududida, xususan, Zarafshon vodiysi va Hisor mintaqasida, islomiy madaniy landshaft voha tipidagi muhit bilan bog‘liq bo‘lib, masjid va madrasalar mahalliy jamoalarning diniy va ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, Pomir tog‘li hududlarida islomning ismoiliy mazhabi ustun bo‘lib, u tog‘li hududlar aholisi diniy tafakkurida, jamoaviy turmush tarzi va mahalliy kosmologik tasavvurlar bilan moslashgan shaklda rivojlangan (Abramson, 2010). Bu hududlarda diniy makon ko‘proq jamoaviy yig‘inlar, uy ibodatlari va mahalliy ziyoratgohlar orqali tashkil topgan bo‘lib, monumental me’morchilik kamroq rivojlangan. Pomirdagi muqaddas tog‘ cho‘qqilari, buloqlar va g‘orlar atrofida shakllangan ziyorat amaliyotlari islomiy duolar va marosimlar bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu holat diniy madaniy landshaftning tog‘li hududlarda ko‘proq tabiat bilan uyg‘un, moslashuvchan xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Qozog‘iston hududida esa diniy madaniy landshaft asosan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarziga moslashgan

shakllarda namoyon bo‘lgan. Dasht mintaqalarida diniy institutlar tarixan voha hududlaridagidek markazlashgan va monumental bo‘lmagan. Buning o‘rniga, diniy amaliyotlar ko‘proq ziyoratgohlar, qadamjolar va mahalliy avliyolar kultlari atrofida shakllangan. Masalan, Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqbarasi nafaqat Qozog‘iston, balki butun Markaziy Osiyo musulmonlari uchun muqaddas ziyorat maskanlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqbara ko‘chmanchi va o‘troq jamiyatlar o‘rtasida diniy va madaniy aloqalarni mustahkamlovchi ramziy markaz vazifasini bajargan (DeWeese, 2016). Bundan tashqari, Arslon Bab, Beket Ata va Shopan Ata kabi ziyoratgohlar Qozog‘istonning Mang‘istau va Yettisuv hududlarida diniy identiklik va hududiy birdamlikni mustahkamlovchi muhim makonlar sifatida faoliyat yuritgan.

Qirg‘iziston hududida diniy madaniy landshaft islomiy an’analar ko‘pincha mahalliy e’tiqodlar, tabiat va avliyolar kultlari bilan uyg‘un shaklda namoyon bo‘ladi (Abramson, 2010). Masalan, Issiqko‘l atrofi va Norin viloyatidagi muqaddas buloqlar, tog‘lar va daraxtlar atrofida shakllangan ziyoratgohlar islomiy duolar va marosimlar bilan uyg‘unlashgan holda amal qiladi. O‘sh shahri esa tarixan Farg‘ona vodiysi madaniy makonining muhim markazlaridan biri bo‘lib, u yerda masjidlar, madrasalar va ziyoratgohlar orqali islomiy madaniyatning o‘troq madaniyatga xoslangan shakllari rivojlangan.

Turkmaniston hududida diniy madaniy landshaft cho‘l va yarim cho‘l mintaqalariga moslashgan shaklda namoyon bo‘ladi. Amudaryo bo‘yi, Murg‘ob vodiysi va Kopetdog‘ etaklarida islomiy an’analar mahalliy turmush tarzi va ijtimoiy tuzilmalar bilan uyg‘unlashgan holda shakllangan. Masalan, Ko‘hna Urganchdagi Najmiddin Kubro maqbarasi Markaziy Osiyo tasavvufiy an’analarining muhim markazlaridan biri bo‘lib, u nafaqat diniy ziyorat maskani, balki mintaqaviy ruhiy identiklik ramzi sifatida ham faoliyat yuritgan (DeWeese, 2016). Turkmanistonning cho‘l hududlarida esa diniy amaliyotlar ko‘proq jamoaviy ziyoratlar, duolar va mahalliy avliyolar kultlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa, Markaziy Osiyoda islomiy madaniy landshaft yagona va standartlashgan tizim emas, balki turli tabiiy-geografik muhitlarga

moslashgan hududiy variantlar orqali namoyon bo‘ladigan moslashuvchan diniy makondir (DeWeese, 2016). Bu holat dinning hududiy muhit bilan o‘zaro ta’sirda shakllanadigan madaniy tizim sifatidagi mohiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Aynan shu moslashuvchanlik islomning Markaziy Osiyoda uzoq tarixiy davrlar davomida jamiyat hayotida barqaror o‘rin egallab kelishini ta’minlagan.

Markaziy Osiyo diniy madaniy landshaftining muhim tarkibiy qismi ziyorat turizmi hisoblanadi. Ziyorat, ya’ni muqaddas joylarni ziyorat qilish amaliyoti, mintaqa musulmonlari uchun diniy hayotning markaziy elementlaridan biri bo‘lib, u rasmiy ibodatdan tashqari, mahalliy madaniyat, xalq e’tiqodlari va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan (Privratsky, 2001;). Ziyoratgohlar diniy marosimlar o‘tkaziladigan joy bo‘lish bilan birga, ijtimoiy birdamlik, tarixiy xotira va hududiy identiklikni mustahkamlovchi makon sifatida ham faoliyat yuritadi (Knott, 2005).

Ziyorat turizmining muhim jihati shundaki, u ko‘pincha rasmiy davlat chegaralaridan tashqariga chiqadigan transchegaraviy diniy makonni shakllantiradi. Masalan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlaridagi muqaddas joylar o‘rtasida ziyorat marshrutlari mavjud bo‘lib, bu holat diniy makonning siyosiy chegaralardan mustaqil tarzda shakllanishini ko‘rsatadi (Olcott, 2010). Bunday ziyorat tarmoqlari diniy identiklikning hududiy emas, balki madaniy va ma’naviy asoslarda shakllanishini mustahkamlaydi. Shu jihatdan ziyorat amaliyoti Markaziy Osiyo etnogeografiyasida dinning birlashtiruvchi va bog‘lovchi xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

Markaziy Osiyo diniy madaniy landshaftining yana bir muhim xususiyati mahalliy e’tiqodlar bilan islomiy an’analar o‘rtasidagi kuchli qorishuvida namoyon bo‘ladi. Daraxtlar, buloqlar, tog‘lar, g‘orlar va boshqa tabiiy obyektlarning muqaddaslashtirilishi ko‘pincha islomiy ramzlar va marosimlar bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi (Privratsky, 2001; Abramson, 2010). Masalan, Qirg‘iziston va Tojikiston tog‘li hududlarida muqaddas buloqlar atrofida Qur’on tilovat qilish, duolar qilish va nazr berish amaliyotlari keng tarqalgan bo‘lib, bu holat islomgacha tabiat kultlari va ibtidoiy e’tiqodlarning islomiy marosimlardagi qorishuvini o‘zida namoyon etadi. Qozog‘iston va

Turkmaniston hududlarida esa avliyolar qabrlari, muqaddas toshlar va daraxtlar atrofida shakllangan e’tiqodlar islomiy duolar va marosimlar bilan uyg‘unlashgan holda amal qiladi. Bu jarayon dinning “sof turg‘un e’tiqodiy tizim” sifatida emas, balki mahalliy madaniy muhit bilan moslashuvchan o‘zaro ta’sir qiluvchi amaliyotlar majmuasi sifatida shakllanishini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, Markaziy Osiyo diniy madaniy landshafti hududiy jihatdan farqli, ayni paytda mazmunan bir-biriga yaqin tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U voha, dasht, tog‘li va cho‘l mintaqalarida turlicha shakllarga ega bo‘lsa-da, umumiy islomiy ramzlar, marosimlar va qadriyatlar orqali mintaqaviy birdamlikni ta’minlaydi. Bu holat dinning hududiy muhit bilan o‘zaro ta’sirda moslashuvchan shakllarda namoyon bo‘lishi bilan bir qatorda, umumiy sivilizatsion maydonni ham shakllantiruvchi kuch sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo tajribasi dinning faqat e’tiqod va marosimlar majmuyi emas, balki makon, madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimi ekanini yaqqol namoyon etadi. Mintaqada islomning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jihatdan voha, dasht, tog‘li va cho‘l hududlarining tabiiy-geografik sharoitlari, ijtimoiy tuzilmalari va madaniy an’analari bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Natijada Markaziy Osiyoda yagona, standartlashgan diniy makon emas, balki hududiy jihatdan differensiallashgan, ammo mazmunan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan madaniy landshaftlar majmuasi vujudga kelgan.

Madaniy-geografik jihatdan islom dini mintaqada hududiy muhit bilan o‘zaro ta’sirda moslashuvchan shakllarda namoyon bo‘ladigan madaniy tizim sifatida tushuntirish imkonini beradi. Aynan shu moslashuvchanlik Markaziy Osiyoda islomning uzoq tarixiy davrlar davomida jamiyat hayotida barqaror o‘rin egallab kelishini ta’minlagan. Demak, Markaziy Osiyo diniy madaniy landshaftini hududiy, madaniy va ijtimoiy omillar uyg‘unligi asosida tahlil qilish nafaqat mintaqa tarixini chuqurroq anglashga, balki din va makon o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni umumiy nazariy jihatdan tushuntirishga ham muhim hissa qo‘shadi.

10.3. Diniy identiklik, etnik guruhlar va ijtimoiy-madaniy makonlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir.

Din va identiklik masalasi zamonaviy ijtimoiy fanlarda eng murakkab va koʻp qatlamli muammolardan biri sifatida qaraladi. Etnologiya, sotsiologiya va antropologiya fanlarida identiklik tushunchasi barqaror, oʻzgarmas kategoriya emas, balki tarixiy tajriba, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy va madaniy jarayonlar taʼsirida doimiy ravishda qayta shakllanib boradigan dinamik tizim sifatida talqin qilinadi (Smith, 1991; Brubaker, 2004). Diniy identiklik ham ana shunday jarayon boʻlib, u insonning oʻzini muayyan eʼtiqod tizimiga mansub deb anglashi bilangina cheklanmaydi, balki uning etnik, hududiy, madaniy va ijtimoiy mansubliklari bilan uzviy bogʻliq holda namoyon boʻladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi diniy identiklikning etnik guruhlar va ijtimoiy-madaniy makonlar bilan oʻzaro taʼsirini oʻrganish uchun ayniqsa qulay ilmiy makondir. Chunki bu hudud tarixan koʻp etnosli, koʻp madaniyatli va koʻp konfessional muhit sifatida shakllangan boʻlib, islomning mintaqada asosiy diniy tizimga aylanishi jarayoni ham turli hududiy, etnik va ijtimoiy sharoitlarga moslashgan holda kechgan (DeWeese, 2016). Natijada Markaziy Osiyoda diniy identiklik hech qachon yagona va standartlashgan shaklga ega boʻlmagan, balki mahalliy madaniyat, urf-odatlar, ijtimoiy tuzilma va tarixiy xotira bilan uygʻunlashgan koʻp qatlamli tizim sifatida namoyon boʻlgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining aksariyati – oʻzbeklar, qozoqlar, qirgʻizlar, turkmanlar va tojiklar – oʻzlarini musulmon sifatida anglaydilar. Biroq bu umumiy diniy mansublik ularning etnik oʻziga xosligini yoʻqotmaydi; aksincha, mahalliy urf-odatlar, marosimlar, diniy amaliyotlarning hududiy variantlari orqali etnik identiklikni mustahkamlaydi. Masalan, Oʻzbekistonning Fargʻona vodiysida toʻy, sunnat, janoza va hayit marosimlari oʻziga xos mahalliy anʼanalar bilan uygʻunlashgan holda amalga oshiriladi. Shu kabi marosimlar Qozogʻiston dasht hududlarida, Qirgʻiziston togʻli mintaqalarida yoki Turkmaniston choʻl hududlarida boshqa shakllarda namoyon boʻladi. Bu farqlar diniy identiklikning etnik va hududiy madaniyat bilan moslashuvchan tarzda birlashib ketganligini koʻrsatadi.

Qozog‘iston misolida diniy identiklik va etnik identiklik o‘rtasidagi munosabat ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tarixan ko‘chmanchi turmush tarziga asoslangan qozoq jamiyatida islomiy amaliyotlar shariat qoidalarining qat’iy institutsional shakllaridan ko‘ra, avliyolar kultlari, ziyoratgohlar va jamoaviy marosimlar orqali namoyon bo‘lgan (Privratsky, 2001). Masalan, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi qozoq xalqining diniy identikliki bilan etnik xotirasi o‘rtasidagi ramziy bog‘lovchi markaz sifatida faoliyat yuritgan. Bu yerda ziyorat qilish nafaqat diniy ibodat, balki etnik birdamlikni mustahkamlovchi ijtimoiy marosim sifatida ham amalga oshirilgan. Natijada islom qozoq jamiyatida universal diniy tizim sifatida emas, balki mahalliy etnik madaniyat bilan moslashgan diniy-amaliy tizim sifatida shakllangan.

Qirg‘iziston hududida ham shunga o‘xshash jarayonlarni kuzatish mumkin. Issiqko‘l atrofidagi muqaddas buloqlar, Sulaymon tog‘i (O‘sh) kabi ziyoratgohlar islomiy ramzlar bilan bir qatorda qadimgi kosmologik tasavvurlarni ham o‘zida mujassam etadi. Bu joylarda amalga oshiriladigan diniy marosimlar qirg‘iz etnik identikliki va mahalliy madaniy xotira bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, diniy identiklikning etnik va hududiy asoslarda shakllanishini ko‘rsatadi.

Turkmaniston misolida esa diniy identiklik ko‘proq mahalliy urug‘-qabila tuzilmalari, an’anaviy turmush tarzi va cho‘l geografiyasi bilan moslashgan holda shakllangan. Najmiddin Kubro, G‘ozli Ata kabi avliyolar kultlari turkman jamiyatida diniy e’tiqod bilan bir qatorda ijtimoiy birdamlik va etnik xotirani mustahkamlovchi ramziy markazlar sifatida ham faoliyat yuritgan (DeWeese, 2016). Bu holat diniy identiklikning etnik tuzilma bilan qanchalik chuqur birlashib ketganligini o‘zida namoyon qiladi. Shu bois Markaziy Osiyoda dinni etnik madaniyat, hududiy tajriba va tarixiy xotira bilan integratsiya-lashgan ko‘p qatlamli identiklik tizimi sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir (Olcott, 2010). Bunday yondashuv diniy identiklikning nafaqat birlashtiruvchi, balki farqlab ko‘rsatuvchi funksiyalarini ham ochib berishga imkon beradi.

XX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan davrda din davlat siyosati doirasida cheklangan

ijtimoiy institut sifatida talqin qilindi. Masjidlar, madrasalar va diniy tashkilotlar qat’iy nazorat ostiga olindi, diniy ta’lim tizimi deyarli tugatildi, jamoaviy diniy marosimlar esa rasmiy jihatdan cheklab qo‘yildi. Biroq bu jarayon dinning jamiyat hayotidan butunlay yo‘qolishiga olib kelmadi. Mintaqaning ko‘plab hududlarida Sovet davrida masjidlar soni keskin qisqargan bo‘lsa-da, ziyoratgohlar, avliyolar qabrlari va mahalliy marosimlar faoliyatini to‘xtatmadi (DeWeese, 2016). Masalan, O‘zbekiston va Tojikiston vohalarida janoza, nikoh, sunnat va hayit marosimlari ko‘pincha norasmiy shaklda, mahalliy jamoalar doirasida davom ettirildi. Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlarida esa avliyolar kultlari va ziyoratgohlar ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi jamoalar orasida diniy identiklikni saqlab qolishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qildi (Privratsky, 2001).

Natijada Sovet davrida diniy makon rasmiy institutlar doirasidan chekinib, ko‘proq xususiy, norasmiy va mahalliy darajada qayta tashkil topdi. Bu jarayon etnogeografik jihatdan rasmiy va norasmiy makonlar o‘rtasidagi tafovutni kuchaytirdi. Masjid va madrasalar rasmiy nazorat ostida faoliyat yuritgan bo‘lsa, ziyoratgohlar, uy ibodatlari va mahalliy marosimlar norasmiy diniy makonning asosiy shakllari sifatida rivojlandi (A.Khalid, 2007).

Mustaqillikdan so‘ng masjidlar va madrasalar qurilishi, diniy ta’lim muassasalarining ochilishi, diniy adabiyotlar nashri va ziyorat turizmining kengayishi bilan tavsiflangan jarayonlar diniy identiklikning jamoaviy va hududiy shakllarini qayta faollashtirdi (A.Khalid, 2014). Masalan, O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin minglab yangi masjidlar barpo etildi, tarixiy ziyoratgohlar restavratsiya qilindi va diniy meros davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Shuningdek, bu jarayonlar din va davlat, din va jamiyat, din va identiklik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

10.4. Globallashuv sharoitida diniy geografiya va etnomada-niy transformatsiyalar.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuv jarayonlari jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida, jumladan, dinning hududiy shakllanishi va ijtimoiy funksiyalarida ham chuqur o‘zgarishlarni

yuzaga keltirdi. Migratsiya oqimlarining kuchayishi, transport va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali bilimlarning tezkor tarqalishi diniy g‘oyalar, amaliyotlar va idektiklik shakllarining milliy chegaralardan chiqib, transmilliy makonlarda shakllanishiga imkon yaratdi (Castells, 1996; Levitt, 2007). Shu jihatdan qaralganda, zamonaviy etnogeografiyada din masalasi endilikda faqat muayyan hudud yoki davlat doirasidagi diniy jarayonlarni emas, balki global va mahalliy omillarining o‘zaro ta’sirida shakllanadigan murakkab hududiy e’tiqodiy tafakkurni o‘rganishga yo‘naltirilmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonlarni kuzatish uchun alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki, mintaqa bir tomondan, o‘zining chuqur tarixiy e’tiqodiy an’analari, mahalliy diniy-amaliy tajribalari va ziyorat madaniyati bilan ajralib tursa, ikkinchi tomondan, migratsiya, ta’lim almashinuvi, global axborot oqimlari tobora ko‘proq yuzlashmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali diniy bilimlarning tarqalishi ham Markaziy Osiyoda diniy idektiklikning umumiy manzarasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yosh avlod diniy bilimlarni mahalliy diniy muassasalardan tashqari, global diniy platformalar, onlayn va’zlar va turli diniy yetakchilarning chiqishlari orqali egallamoqda (A.Khalid, 2014). Bu holat diniy identiklikning shakl-lanishida hududiy va mahalliy omillar bilan bir qatorda, global axborot muhitining ham muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Natijada diniy makon endilikda faqat moddiy obyektlar – masjidlar, ziyoratgohlar yoki diniy markazlar bilangina cheklanmay, virtual makonlarda ham faol shakllanmoqda.

Globallashuv sharoitida diniy meros obyektlarining madaniy turizm va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan integratsiyalashuvi ham Markaziy Osiyo etnogeografiyasida muhim transformatsiyalarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Ahmad Yassaviy maqbarasi (Qozog‘iston), Bahouddin Naqshband majmuasi va Shohi Zinda (O‘zbekiston), Hazrati Ali maqbarasi (Balx), Sulaymon Tog‘i (Qirg‘iziston) kabi muqaddas joylar nafaqat diniy ziyorat markazlari, balki xalqaro turizm obyektlari sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Bu jarayon diniy-madaniy landshaftlarning funksional transformatsiyasini

anglatadi: muqaddas joylar bir vaqtning o‘zida ibodat, tarixiy xotira, madaniy meros va iqtisodiy resurs sifatida xizmat qilmoqda.

Globallashuv jarayonlari Markaziy Osiyoda diniy pluralizm va konfessional xilma-xillik geografiyasini ham murakkablashtirmoqda. Mintaqa asosan musulmon aholiga ega bo‘lsa-da, pravoslav xristianlar, katoliklar, protestantlar, yahudiylar, va boshqa diniy guruhlar ham tarixan mavjud bo‘lib kelgan (O.Roy, 2000; A.Khalid, 2007). Bu konfessional xilma-xillik asosan shahar markazlari, sanoat hududlari va migratsiya yo‘llari bilan bog‘liq holda shakllangan. Masalan, Toshkent, Olmaota, Bishkek va Dushanbe kabi yirik shaharlarda turli konfessional jamoalar yonma-yon yashaydi, bu esa diniy makonning ko‘p konfessional xarakterini kuchaytiradi. Diniy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning hududiy joylashuvi hamda ijtimoiy rollari jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega (Knott, 2005). Shu bois, diniy pluralizmni nafaqat konfessional xilma-xillik sifatida, balki ijtimoiy-madaniy makonning murakkab strukturasi sifatida tahlil qilish muhimdir.

Diniy an’analar orqali tabiatga hurmat va ehtiyotkor munosabatning shakllanishi ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim madaniy resurs bo‘lishi mumkin. Markaziy Osiyoda suv resurslari tanqisligi, cho‘llanish va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda muqaddas makonlar bilan bog‘liq diniy-amaliy tajribalar ekologik ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan etnogeografiyada din ekologik tadqiqotlar bilan integratsiyalashgan holda barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo etnogeografiyasida din masalasi ko‘p darajali va dinamik tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Din bu jarayonda nafaqat e’tiqod tizimi, balki madaniy landshaftni shakllantiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va hududiy identiklikni qayta ishlab chiqaruvchi muhim etnomadaniy omil sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bois, etnogeografik nuqtayi nazardan dinni globallashuv kontekstida o‘rganish Markaziy Osiyoda madaniy barqarorlik, ijtimoiy integratsiya va barqaror

rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Dinning etnogeografik kategoriya sifatidagi mohiyatini izohlang.
2. Markaziy Osiyoda diniy madaniy landshaftlarning hududiy farqlanish sabablarini tushuntiring.
3. Diniy identiklik va etnik identiklik o‘rtasidagi munosabatlarni misollar asosida sharhlang.
4. Ziyoratgohlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy va madaniy funksiyalarini tahlil qiling.
5. Globallashuv sharoitida diniy makon qanday transformatsiyalarga uchramoqda?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyodagi bir ziyoratgoh misolida uning diniy, madaniy va ijtimoiy funksiyalarini tahlil qiling.
2. “Din va makon o‘rtasidagi munosabatlar” mavzusida 8–10 slayddan iborat taqdimot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abramson, D. (2010). Identity, Religion and Power in Central Asia. London: Routledge. 256 p.
2. Algar, H. (2010). Sufism and Central Asian Islam. New York: SUNY Press. 304 p.
3. Braudel, F. (1980). On History. Chicago: University of Chicago Press. 290 p.
4. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell. 556 p.
5. DeWeese, D. (2016). Islamization and Native Religion in the Golden Horde. University Park: Penn State University Press. 456 p.
6. Frankopan, P. (2015). The Silk Roads: A New History of the World. London: Bloomsbury. 636 p.
7. A.Khalid, A. (2007). Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. Berkeley: University of California Press. 240 p.
8. Knott, K. (2005). The Location of Religion: A Spatial Analysis. London: Equinox. 224 p.

9. Laruelle, M. (2018). Central Asia’s New Geopolitics. London: Routledge. 272 p.

10. Olcott, M. B. (2010). Central Asia’s Second Chance. Washington, DC: Carnegie Endowment. 204 p.

11. Privratsky, B. (2001). Muslim Turkistan: Kazak Religion and Collective Memory. London: Curzon. 320 p.

12. Smith, A. D. (1991). National Identity. London: Penguin. 256 p.

11-MAVZU: MARKAZIY OSIYO ETNOTURIZMINING ETNOGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Etnoturizmning nazariy jihatlari, maqsad va vazifalari.

2. Markaziy Osiyo etnoturizmning etnogeografik jihatlari.

3. Mintaqaning transchegaraviy zonalarida etnoturizmning rivojlantirish istiqbollari.

4. Xulosa

Darsning maqsadi: *talabalarga Markaziy Osiyo etnoturizmining etnogeografik xususiyatlari, hududiy shakllanish omillari va transchegaraviy rivojlanish istiqbollarini tushuntirish, etnik makon, madaniy landshaft va turizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.*

Tayanch so‘z va iboralar: *etnoturizm, transchegaraviy hududlar, yaylov turizmi, etnoqishloq, hunarmandchilik, madaniy meros, barqaror turizm, turistik obraz, agrolandshaft, diasporalar, madaniy diplomatiya.*

11.1. Etnoturizmning nazariy jihatlari, maqsad va vazifalari

Bugungi kunda etnoturizm zamonaviy ijtimoiy fanlar va geografik tadqiqotlarda turizmning eng tez rivojlanayotgan, nazariy jihatdan murakkab va amaliy jihatdan strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. U rekreatsiya va dam olish faoliyatidan tashqari, hududiy identiklik, madaniy meros, etnik makonlarning qayta tuzilishi hamda mahalliy jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tushuntiruvchi muhim ilmiy kategoriya sifatida shakllanmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, etnoturizm ko‘pincha iqtisodiy jihatdan nisbatan kam rivojlangan yoki rivojlanayotgan hududlarda turizmni jadallashtirishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lib

xizmat qiladi. UNWTO[5] (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, mahalliy madaniyatga asoslangan turizm yo‘nalishlari rivojlanayotgan mamlakatlarda bandlikni oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiyalash va qishloq hududlarini rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda (Odilov B., Zokirov B., Abirov V., 2024). Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarda ham etnoturizm urbanizatsiya, standartlashuv va globallashuv jarayonlari fonida hududiy o‘ziga xoslikni saqlash, madaniy xilma-xillikni targ‘ib qilish va turizm bozorida raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatida qo‘llanilmoqda (Richards, 2018). Bunda mahalliy aholi turizm jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida ishtirok etib, o‘z madaniyatini, hunarmandchilik mahsulotlarini, gastronomik an’analarini va kundalik hayot tajribasini turistlarga namoyon qiladi. Natijada etnoturizm nafaqat turistlar uchun bilim va tajriba manbayi, balki mahalliy jamoalar uchun iqtisodiy foyda, ijtimoiy kapital va madaniy merosni saqlash mexanizmi sifatida shakllanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda “etnoturizm” atamasi XX asr oxirida, ayniqsa Yevropa va Shimoli Amerika ilmiy maktablarida keng qo‘llanila boshlagan bo‘lib, dastlab antropologik turizm, etnik turizm yoki madaniy turizm tushunchalari bilan sinonim sifatida ishlatilgan (Odilov B., Zokirov B., Abirov V., 2024). Keyinchalik u mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllanib, madaniyat, makon va iqtisodiyot o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni tushuntirishda muhim konseptual asosga aylandi (Smith, 2015). Ta’riflarga ko‘ra, etnoturizm – bu sayyohlarning mahalliy madaniyat, xalq an’analari, urf-odatlari va turmush tarzini bevosita kuzatish va tajribada his qilishga qaratilgan turizm turi bo‘lib, bunda sayyohlar nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi (Timothy & Nyaupane, 2009). Ular mahalliy bayramlarda qatnashadi, milliy taomlar tayyorlash jarayoniga jalb etiladi, an’anaviy hunarmandchilik bilan shug‘ullanadi yoki jamoa marosimlarida ishtirok etadi. Shu tariqa turizm tajribasi passiv iste’moldan interaktiv, immersiv va tajribaviy madaniy faoliyat shakliga aylanadi.

[5] UNWTO - United Nations World Tourism Organization, ya’ni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turizm Tashkiloti.

Etnoturizmni tushuntirishda bir qator muhim nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular ushbu hodisaning ijtimoiy-madaniy mohiyatini, iqtisodiy mexanizmlarini va hududiy jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Jumladan, konstruktiv yondashuv (Salazar, 2012), sahnalashtirilgan autentiklik nazariyasi (MacCannell, 1973), madaniy kapital konsepsiyasi (Bourdieu, 1986), postkolonial tanqidiy yondashuv (Smith, 2015), shuningdek, etnogeografik makon va identiklik nazariyalari (Cohen, 2008; Richards, 2018) etnoturizmni ilmiy tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Noel Salazar etnoturizmni “mobilizatsiya qilingan tasavvurlar tizimi” sifatida talqin qilib, sayyohlik tajribasi real madaniy muhitning bevosita aks ettirilishi emas, balki sayyohlar kutishlariga mos ravishda qayta ishlangan va estetik hamda tijorat ehtiyojlariga moslashtirilgan madaniy kontent ekanini ta’kidlaydi (Salazar, 2012). Ushbu yondashuvda etnoturizm haqiqiy tajriba emas, balki madaniyatning saralangan, me’yoriy va ramziy qayta taqdim etilgan shakli sifatida baholanadi. Natijada turistlar “haqiqiy madaniyat”ni emas, balki ularning kutishlari va tasavvurlariga moslashtirilgan, estetiklashtirilgan va bozorga yo‘naltirilgan madaniy sahnalarni kuzatadilar. Bu jarayon madaniyatning tovarlashuvi va madaniy identiklikning bozor mexanizmlariga moslashuvi bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu bilan birga, Dean MacCannell tomonidan ilgari surilgan “sahnalashtirilgan autentiklik” konsepsiyasi etnoturizmda namoyish etilayotgan madaniy tajribalar ko‘pincha mahalliy jamoa uchun emas, balki turistlar auditoriyasi uchun maxsus sahnalashtirilgan va marketing talablariga moslashtirilgan bo‘lishini ta’kidlaydi (MacCannell, 1973). Ushbu yondashuvga ko‘ra, turistlar ko‘pincha “orqa sahna” deb qabul qilinadigan, go‘yoki haqiqiy hayotga oid jarayonlarni tomosha qilayotgan bo‘lsalar-da, aslida ular ham turizm industriyasining loyihasi asosida qayta qurilgan tajribalar bilan yuzlashadilar. Bu esa etnoturizmni mahalliy madaniyatning real shakli emas, balki uning turizmga moslashtirilgan talqini sifatida baholashga olib keladi.

Piyer Bourdieuning madaniy kapital konsepsiyasi ham etnoturizmda yuzaga keladigan nomoddiy va madaniy resurslarning iqtisodiy

qiymatga aylanishi hamda madaniy tovarlashuv jarayonlarini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi (Bourdieu, 1986). Mazkur yondashuvga muvofiq, mahalliy madaniy unsurlar: marosimlar, kiyim-kechaklar, hunarmandchilik buyumlari hamda gastronomik an’analar iqtisodiy qiymatga ega resurslar sifatida talqin qilinadi. Ularni tijoratlashtirish orqali foyda olishga intilish esa madaniy asllikning mazmuni va shakliga muayyan darajada o‘zgarish kiritadi. Natijada madaniyat nafaqat ramziy resurs, balki iqtisodiy kapitalga aylangan ijtimoiy mahsulot sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon madaniy merosni himoya qilish va tijoratlashtirish o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Mazkur nazariy yondashuvlar etnoturizmni faqat turistik faoliyat turi sifatida emas, balki hududiy makon, madaniyat, identiklik va iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni aks ettiruvchi ko‘p qatlamli ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Aynan shu jihatdan etnogeografik yondashuv etnoturizmni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Etnogeografiyada turizm hududiy makonning madaniy mazmuni, etnik guruhlarning joylashuvi, madaniy landshaftlarning qayta talqin qilinishi va makoniy tasavvurlarning shakllanishi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaraladi (Timothy & Boyd, 2003; Richards, 2018). Bu yondashuv etnoturizmni faqat iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki etnik makonlarning ijtimoiy-madaniy rekonstruksiyasi, hududiy identiklikning qayta ishlab chiqilishi va madaniy merosning makon bilan hamohang tarzda qayta talqin qilinishi jarayoni sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Mahalliy jamoalar turizm jarayonida o‘z madaniy merosini tanlab taqdim etar ekan, ular bir vaqtning o‘zida o‘z identikliklarini qayta kashf qiladi. (Richards, 2018). Bu jarayon ko‘pincha “madaniy o‘z-o‘zini baholash” fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, jamoalar tashqi auditoriya uchun o‘z madaniyatini namoyon etish jarayonida uni ichki jihatdan qayta anglay boshlaydi. Shu tariqa etnoturizm nafaqat madaniyatni tashqi tomoshabinga taqdim etuvchi mexanizm, balki jamoaning o‘z-o‘zini anglash jarayonini ham faollashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Etnogeografik nuqtayi nazardan etnoturizm, shuningdek, hududiy differensiallashuv va ijtimoiy makonning qayta tashkil etilishiga olib

keladi. Turizm oqimlari, investitsiyalar va infratuzilma loyihalari muayyan hududlarni iqtisodiy jihatdan faollashtirsa-da, boshqa hududlarni nisbatan chetda qoldirishi mumkin. Natijada hududlar o‘rtasidagi tafovut kuchayadi, madaniy boyliklardan tanlab foydalanish holatlari ortadi va jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi bo‘linib boradi. (Timothy & Boyd, 2003). Shu sababli etnoturizmni hududiy rivojlanish strategiyalari bilan hamohang tarzda etnogeografik tahlil va ular asosida shakllanadigan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnoturistik faoliyatni amalga oshirish faqat etnografik obyektlar va tirik madaniy amaliyotlar mavjud bo‘lgan sharoitda mumkin bo‘lib, ushbu obyektlar an’anaviy-maishiy madaniyatning etnik namoyon-larini aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy resurslarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda etnoturistik resurslar moddiy (me’moriy yodgorliklar, hunarmandchilik mahsulotlari, kiyim-kechak, uy-joy shakllari) hamda nomoddiy (folklor, og‘zaki ijod, marosimlar, diniy amaliyotlar, musiqa va raqs san’ati) komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida talqin qilinadi (Timothy & Nyaupane, 2009; Richards, 2018). Ushbu resurslarning muhim jihati shundaki, ular turistlarning nafaqat rekreatsion ehtiyojlarini, balki kognitiv, estetik va identiklikka oid ehtiyojlarini ham qondiradi. Shu bois etnoturizm ko‘pincha “ma’naviy-intellektual turizm”ning alohida shakli sifatida baholanadi.

Etnoturizm, odatda, etnografik va o‘lkashunoslik muzeylari, tarixiy qishloqlar, an’anaviy turar joylar, hunarmandchilik markazlari, marosim makonlari va madaniy landshaftlar bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Etnografik va o‘lkashunoslik muzeylari etnomadaniy turizmning muhim va istiqbolli obyektlari sifatida mahalliy madaniyatni vizual, ramziy va tajribaviy ko‘rinishda namoyon etish imkonini beradi (Smith, 2015). Ular bir vaqtning o‘zida bir necha ijtimoiy funksiyalarni bajaradi: xalqlarning madaniy xilma-xilligiga hurmat va bag‘rikenglikni rivojlantirish; an’anaviy hunarmandchilikni qayta tiklash va saqlash; tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish; tarixiy-madaniy landshaftlarni muhofaza qilish; etno-qishloqlarni saqlab qolish. Shu tariqa muzeylar etnoturizmning

tashkiliy tizimini rivojlantirib, madaniy merosni jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi resursga aylantiradi.

Etnoturizmning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan aborigen turizmi mahalliy aholi vakillarining bevosita ishtiroki asosida tashkil etiladigan turizm shakli bo‘lib, bunda sayyohlar mahalliy jamoa muhitiga moslashib, ularning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va madaniy amaliyotlari bilan bevosita tanishadi (Butler & Hinch, 2007). Aborigen turizmi, ayniqsa, Shimoli Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Skandinaviya va Markaziy Osiyo hududlarida mahalliy xalqlarning madaniy merosini saqlash, iqtisodiy mustaqilligini oshirish va siyosiy tan olinishini kuchaytirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda (UNWTO, 2023). Shu bilan birga, bu turdagi turizm madaniyatning yo‘qolib borishi, urf-odatlarning sun’iy ko‘rinishga keltirilishi kabi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu masala ilmiy manbalarda tanqidiy yondashuv asosida o‘rganilmoqda. (Smith, 2015; Salazar, 2012).

Antropologik turizm etnoturizmning yana bir muhim yo‘nalishi bo‘lib, u yo‘qolib ketgan yoki yo‘qolish xavfi ostida turgan etnik jamoalar madaniyatini o‘rganish, ularning tarixiy merosi va zamonaviy ijtimoiy hayoti bilan tanishish maqsadida tashkil etiladigan sayohatlarni o‘z ichiga oladi (Cohen, 2008). Ushbu turizm turi ko‘pincha ilmiy ekspeditsiyalar, madaniy tadqiqotlar va etnografik kuzatuvlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sayyohlik faoliyati bilan akademik izlanishlar o‘rtasidagi chegaralarni nisbiylashtiradi (Odilov B., Zokirov B., Abirov V., 2024). Shu jihatdan antropologik turizm nafaqat rekreatsion, balki ilmiy-bilish faoliyatining muhim shakliga aylanadi.

Nostalgik (genealogik) turizmi – odamlarning o‘z tug‘ilgan joylariga yoki ota-bobolari yashagan hududlarga tashrif buyurishini o‘z ichiga olgan turizm shaklidir (Timothy & Boyd, 2003). Ushbu turizm turi migratsiya, diaspora va transmilliy identiklik jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsiy xotira, oilaviy tarix va etnik ildizlarni qayta kashf etish ehtiyoji asosida shakllanadi. 1999-yilda Buyuk Britaniya sayyohlik boshqarmasi muhojirlar va deportatsiya qilingan shaxslarning avlodlarini o‘z vatanlariga qaytishga va ularning nasl-nasabini o‘rganishga chaqirgani genealogik turizmning tizimli

rivojlanishiga muhim turtki bo‘ldi (Timothy, 2011). Bugungi kunda ushbu turizm turi, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi natijasida keng ko‘lamli migratsiya jarayonlari yuz bergan Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, diasporalarning madaniy aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Etnoturizmning nisbatan yangi va o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri – yaylov turizmi bo‘lib, u qirg‘izcha “jaylo” (tog‘ yaylovi) so‘zidan kelib chiqqan va ko‘chmanchi hayot sharoitida, sivilizatsiya qulayliklaridan uzoqda bo‘lgan hududlarda dam olishni anglatadi. Yaylov turizmi Qirg‘izistonda 1990-yillarning oxirida mahalliy turoperatorlar tomonidan sayyohlarga bir muddat o‘tov uylarda yashash, tog‘ chorvadorlarining kundalik hayoti bilan tanishish va an’anaviy ko‘chmanchi madaniyat tajribasini boshdan kechirish imkoniyati taklif qilingan paytda shakllangan (Higgins-Desbiolles, 2018). Hozirgi kunda Qirg‘iziston yaylov turizmi bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanib, ushbu turizm turi tog‘ hududlarida bandlikni oshirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va ko‘chmanchi madaniyatni saqlashda muhim rol o‘ynamoqda (Odilov B., Zokirov B., Abirov V., 2024).

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda etnoturizm nafaqat turizm industriyasining muhim segmenti, balki zamonaviy jamiyatda madaniyat, makon va identiklik o‘rtasidagi munosabatlarni qayta tushunish uchun muhim ilmiy konseptual maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Uni etnogeografik yondashuv asosida tadqiq etish Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, madaniy merosni boshqarish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash yo‘lida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

11.2. Markaziy Osiyo etnoturizmining etnogeografik jihatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan etnik xilma-xilligi, ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlar simbiozi, turkiy va eroniy tilli xalqlarning murakkab o‘zaro aloqalari bilan ajralib kelgan. Ipak yo‘li hududlari sifatida shakllangan ushbu makon ming yillar davomida savdo, migratsiya, madaniy almashinuv va diniy g‘oyalar harakatining muhim markazi bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan Markaziy Osiyo

etnogeografik makoni o‘zining madaniy landshaftlari, etnik o‘ziga xosliklari, va tarixiy nomoddiy va madaniy merosi bilan etnoturizm rivoji uchun katta salohiyatga ega (Reeves, 2014; Laruelle, 2021).

Sovet davrida Markaziy Osiyoda madaniy meros davlat mafkurasi asosida qayta talqin qilinib, ko‘plab an’anaviy urf-odat va madaniy amaliyotlar xalqona ko‘rinishga keltirilgan yoki rasmiy nazorat ostiga olingan. Etnografik muzeylar, xalq san’ati jamoalari va milliy bayramlar madaniyatni namoyish etishning asosiy shakliga aylangan bo‘lsa-da, ularning mazmuni ko‘pincha mafkuraviy qarashlar bilan cheklangan (A.Khalid, 2015). Mustaqillikdan keyin esa milliy o‘zlikni tiklash, tarixiy merosni qayta baholash va mahalliy madaniyatni jahon madaniy muhitiga qo‘shish jarayonlari kuchaydi. Natijada etnoturizm mintaqa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishiga aylandi.

2020-yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida etnoturizm rivoji sezilarli darajada jadallashdi. Jahon Banki va UNWTO (2023–2024) hisobotlariga ko‘ra, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikistonda madaniy va etnik turizmga yo‘naltirilgan loyihalar davlat turizm siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylangan (Odilov B., Zokirov B., Abirov V., 2024).

Markaziy Osiyoda etnoturizmning etnogeografik ahamiyati, avvalo, hududiy o‘ziga xosliklarning qayta namoyon qilinishi, etnik makonlarning ramziy talqini va madaniy landshaftlarning qayta shakllanishi bilan bog‘liq. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida 2023–2024-yillarda ichki va tashqi turizm oqimlarining o‘sishi asosan madaniy meros obyektlari, tarixiy shaharlar, etnografik qishloqlar va hunarmandchilik markazlariga yo‘naltirilgan marshrutlar hisobiga yuz berdi. O‘zbekistonning Buxoro, Xiva va Samarqand shaharlarida tarixiy-me’moriy meros bilan bir qatorda mahalliy hunarmandchilik, gastronomiya va kundalik madaniy amaliyotlar turizm tajribasining markaziy elementlariga aylantirilmoqda. Shu jarayonda tarixiy shahar makoni nafaqat me’moriy yodgorliklar majmuasi, balki “jonli madaniyat” makoni sifatida qayta talqin qilinmoqda. Bu esa etnogeografiyaning muhim obyektiga aylangan turistik shahar

makonlarining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasini koʻrsatadi (Richards, 2018; Laruelle, 2021).

Qirgʻiziston misolida esa etnoturizm koʻchmanchi madaniyat va togʻ yaylovlari bilan bogʻliq madaniy landshaftlarni turizm resursiga aylantirish jarayonida namoyon boʻlmoqda. Jaylov turizmi doirasida oʻtov uylarda yashash, anʼanaviy chorvachilik faoliyatida ishtirok etish, milliy sport oʻyinlarini tomosha qilish va xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻrganish sayyohlik tajribasining markaziy komponentlariga aylangan. Bu jarayon togʻli hududlarning etnogeografik makon sifatidagi mazmunini kuchaytirib, ularni “anʼanaviylik”, “tabiiylik” va “asllik” diskurslari bilan bogʻlaydi (Higgins-Desbiolles, 2018). Shu bilan birga, mazkur hududlarda turizm infratuzilmasining rivojlanishi tabiiy landshaftlarning funksional transformatsiyasiga, mahalliy ijtimoiy munosabatlarning qayta tashkil etilishiga va madaniy amaliyotlarning bozorga moslashtirilishiga olib kelmoqda.

Tojikistonda etnoturizm togʻli hududlarda yashovchi mahalliy jamoalar madaniyatini, anʼanaviy mehnat faoliyatini va kundalik hayot tajribasini namoyon etishga yoʻnaltirilgan loyihalar orqali rivojlanmoqda. Pomir hududidagi etnoqishloqlar, xalq hunarmandchiligi markazlari va mahalliy festivallar orqali madaniy meros turizm resursiga aylantirilmoqda. Ushbu jarayon mahalliy jamoalarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ularning hududiy identikligini mustahkamlash va madaniy oʻziga xosligini global madaniy maydonda namoyon etish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, turizm bilan bogʻliq madaniyatni bir xillashtirish va urf-odatlarni sunʼiy koʻrinishga keltirish jarayonlari madaniyatning haqiqiy ijtimoiy muhitdan uzilib, faqat tomosha obyekti boʻlib qolish xavfini kuchaytirmoqda.

Qozogʻistonda etnoturizm asosan koʻchmanchi meros, qabilalar madaniyati, milliy kiyimlar, anʼanaviy taomlar va folklor amaliyotlariga asoslangan turistik klasterlar orqali rivojlanmoqda. Etnomadaniy parklar, ochiq osmon ostidagi muzeylar va tarixiy rekonstruksiya loyihalari orqali koʻchmanchi madaniyat makoniy va ramziy jihatdan qayta ishlab chiqilmoqda (OECD, 2022). Bu jarayon etnik identiklikning institutsional shaklga kelishiga, milliy narrativlarning hududiy

landshaftlarga singdirilishiga va turizm orqali milliy imij yaratish strategiyalarining kuchayishiga olib kelmoqda. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda etnoturizm etnogeografik nuqtayi nazardan makon, madaniyat va iqtisodiyot oʻrtasidagi murakkab oʻzaro ta'sirlarni tahlil qilish uchun muhim empirik maydon yaratadi.

Etnogeografik nuqtayi nazardan barqaror etnoturizm hududiy makon va madaniy landshaftlarning ekologik, ijtimoiy va ramziy barqarorligini saqlashni ham nazarda tutadi. Masalan, tog' hududlarida joylashgan etnoqishloqlar va yaylov turizmi zonalarida infratuzilma rivoji landshaftlarning ekologik yuklamasini oshirmasligi, an'anaviy yerdan foydalanish tizimlarini izdan chiqarmasligi va mahalliy jamoalarning madaniy amaliyotlarini standartlashtirib yubormasligi lozim. Shu jihatdan etnogeografik monitoring, hududiy rejalashtirish va madaniy merosni boshqarish mexanizmlari etnoturizm siyosatining muhim tarkibiy qismlariga aylanishi zarur.

Markaziy Osiyo sharoitida globallashuv va etnoturizm oʻrtasidagi bogʻliqlik diasporalar, migratsiya va davlatlararo aloqalar orqali yanada kuchaymoqda. Jumladan, Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Tojikiston diasporalari vakillari tarixiy vatanlariga tashrif buyurib, nasl-nasab va xotira bilan bogʻliq turizm turlarida ishtirok etmoqda. Bu jarayon shaxsiy xotira, oilaviy tarix va etnik ildizlarni qayta anglashga xizmat qilib, transmilliy oʻzliklarning shakllanishiga hissa qoʻshadi (Timothy, 2011). Shu tariqa, etnoturizm migratsiya va diaspora tadqiqotlari bilan uzviy bogʻlanib, global ijtimoiy makonning etnomadaniy tuzilishini tushuntirishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Etnomadaniy turizm orqali har qanday hudud inson faoliyati ta'sirida tabiiy makondan madaniy makonga aylanadi. Ya'ni, turizm industriyasi asosida har qanday makonni yana qayta shakllantirib, uni iqtisodiy, ramziy va aloqa vositasi boʻlgan makonga aylantirish mumkin. Natijada landshaft faqat yashash joyi emas, balki madaniyatni namoyish etish va oʻzlikni ifodalash maydoniga ham aylanadi (Cresswell, 2015). Turizm geografiyasi doirasida Butler (1980) tomonidan ishlab chiqilgan "turistik hududlar hayotiy sikli" modeli etnoturizmni hududiy rivojlanish bosqichlari kontekstida tushuntirish uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu modelga koʻra,

har qanday turistik hudud kashf etilish, rivojlanish, barqarorlashuv va pasayish bosqichlarini bosib o‘tadi. Etnoturistik hududlar ham aynan shu jarayondan o‘tadi, biroq ularning o‘ziga xos jihati shundaki, bunda asosiy resurs tabiiy landshaft emas, balki madaniy-makoniiy meros – etnik identiklik, tarixiy xotira va tirik an’analar hisoblanadi (Butler, 1980; Hall & Page, 2014). Shu sababli etnogeografik yondashuvda etnoturizm hududiy rivojlanishning “madaniy intensiv” modeli sifatida talqin qilinadi, ya’ni iqtisodiy samaradorlik madaniy resurslarning to‘g‘ri boshqarilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Geografik fanlar nuqtayi nazaridan etnoturizm makoniy jarayon sifatida hududiy identiklikning shakllanishi, joylik hissining mustahkamlanishi va madaniy landshaftlarning qayta talqin qilinishi bilan chambarchas bog‘liqdir (Tuan, 1977; Relph, 1976; Cresswell, 2015). Etnogeografik yondashuvda madaniyat statik fenomen emas, balki muayyan hududda shakllanadigan va vaqt davomida o‘zgarib boradigan makoniy jarayon sifatida qaraladi. Shu sababli etnoturizm hududning nafaqat iqtisodiy resursi, balki uning ramziy kapitali ham hisoblanadi.

Etnografik sayohatni, bir tomondan, geografik makon doirasidagi bilish (kognitiv) harakati sifatida, ikkinchi tomondan esa tarixiy-madaniy xotira bilan bog‘liq bo‘lgan ramziy sayohat sifatida talqin etish mumkin. Bu jarayonda turist nafaqat jismoniy makonda harakat qiladi, balki ma’naviy va intellektual makonda ham safarga chiqadi, ya’ni boshqa madaniyatning hayotiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan bevosita tanishadi (MacCannell, 1976; Urry & Larsen, 2011).

Etnoturistik salohiyat tushunchasi geografik, iqlimiy, etnografik, arxeologik va tarixiy-madaniy resurslar majmuasining turistik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik sharoitlar bilan uyg‘unlashgan holdagi yig‘indisini anglatadi (Hall & Page, 2014). Etnogeografik nuqtayi nazardan bu salohiyat hududning madaniy landshaftini iqtisodiy va ramziy kapitalga aylantirish imkoniyatlarini ifodalaydi. Bu jarayonda madaniy merosning faqat mavjudligi emas, balki uni interpretatsiya qilish, ma’lum bir tizimga solish va turizm bozoriga integratsiyalash mexanizmlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnoturizm tashkil etilgan sayohatlar tizimi sifatida resurslarga yo‘naltirilgan bo‘lib, u bevosita muayyan hududiy makon bilan bog‘liqdir. Hudud, madaniy-landshaft muhiti va aholining etnomadaniy xususiyatlari o‘rtasida barqaror assotsiativ bog‘lanish shakllanadi. Aynan shu bog‘lanish asosida hududning turistik obrazi (tourism image) yaratiladi va vaqt o‘tishi bilan rivojlantiriladi (Echtner & Ritchie, 1993). Turistik obraz hudud haqidagi tasavvurlar, ramziy belgilar, tarixiy narrativlar va madaniy stereotiplarning murakkab sintezidan iborat bo‘lib, u turistlarning tanlov strategiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Etnomadaniy turizm maqsad va vazifalariga mos ravishda eng muhim etnomadaniy landshaft turlarini ajratish mumkin. Ulardan biri agrolandshaftlar bo‘lib, ular xo‘jalik-madaniy turning ustun ta’siri ostida shakllangan tarixiy makonlar sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy qishloq xo‘jaligi va chorvachilikka asoslangan jamiyatlarda dalalar, yaylovlar, sug‘orish tizimlari va mavsumiy ko‘chish yo‘nalishlari muayyan etnografik guruhlarning hayotiy faoliyatini tashkil etuvchi asosiy hududiy tuzilmalar bo‘lib xizmat qilgan (Crang, 1998; Ingold, 2000). Biroq postindustrial jamiyat sharoitida ushbu landshaftlar faqat ishlab chiqarish makoni emas, balki madaniy xotira, estetik tajriba va identiklikni ifodalovchi ramziy makon sifatida qayta talqin qilinmoqda. Shu sababli agroturizm va etnoturizm integratsiyasi zamonaviy turizm geografiyasida muhim yo‘nalish sifatida qaralmoqda (Lane, 2009; Richards, 2018).

Agrolandshaftlar etnomadaniy turizmga qiziqqan sayohatchi uchun kuchli tas’irga ega axborot maydonini yaratadi. Ular turistning tasavvurini faollashtirib, uni tarixiy o‘tmish, an’anaviy mehnat madaniyati va tabiiy-madaniy uyg‘unlik haqidagi tasvirlarga olib kiradi. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda etnografik qishloqlar, ochiq osmon ostidagi muzeylar va etnoparklar tashkil etilib, sayohatchilarga muayyan tarixiy davr va hududga xos mehnat faoliyatlari tanlovi taklif etilmoqda. Xususan, temirchilik, sopolsozlik, to‘qimachilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, novvoychilik, chorvachilik va dehqonchilikka oid amaliy mashg‘ulotlar turistlarni faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb

etadi (Salazar & Graburn, 2014; Richards, 2018). Bu esa etnoturizmni passiv kuzatuvdan interaktiv tajriba darajasiga koʻtaradi.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasida agrolandshaftlar va yaylov madaniyati etnoturizm resurslarining asosiy yadrosini tashkil etadi. Mintaqada tarixan shakllangan koʻchmanchi chorvachilik, yarim koʻchmanchi hayot tarzi hamda sugʻorma dehqonchilik tizimlari makoniy madaniyatning murakkab qatlamlarini yuzaga keltirgan. Chorvador jamiyatlarda makon faqat yashash muhiti emas, balki ijtimoiy xotira, madaniy tajriba va kosmologik qarashlarning mujassamlashgan shaklidir. Shu bois Markaziy Osiyo adirlari, qishlovlari, koʻchish yoʻnalishlari va mavsumiy yaylovlari nafaqat iqtisodiy faoliyat hududi, balki etnik identiklikning geografik ifodasi sifatida ham namoyon boʻladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyoda etnoturizm etnogeografik jihatdan koʻchmanchi yaylov madaniyati va oʻtroq shahar sivilizatsiyasi asosida shakllangan madaniy landshaftlarga tayangan holda rivojlanmoqda. Yaylov hududlarida oʻtov hayoti, chorvachilik an’analari, xalq ogʻzaki ijodi va marosimlar turistlar uchun mazmunli tajriba manbayiga aylanib, “yaylov” va “nomad” turizmi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa tarixiy shaharlarda hunarmandchilik, diniy-ma’rifiy markazlar hamda mahalla madaniyati urban etnomadaniyatni turizm makoniga aylantirish imkonini bermoqda

Mazkur jarayonlar hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish, mahalliy aholi bandligini ta’minlash va madaniy merosni keng targʻib etishga xizmat qilsa-da, ularni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, madaniy autentiklikni saqlash, mahalliy jamoalar manfaatlarini hisobga olish va madaniyatni soddalashtirib yubormaslik etnoturizmning uzoq muddatli samaradorligini ta’minlovchi asosiy shartlar hisoblanadi. Shu bois, Markaziy Osiyo sharoitida etnoturizm makon, madaniyat va iqtisodiyot oʻrtasidagi muvozanatni ta’minlovchi muhim rivojlanish omili sifatida qaraladi.

11.3. Mintaqaning transchegaraviy zonalarida etnoturizmning rivojlantirish istiqbollari.

Markaziy Osiyo mintaqasi o‘zining ko‘p qirrali tarixiy taraqqiyoti, boy etnik tarkibi va madaniy merosining hududiy xilma-xilligi bilan global miqyosda muhim sivilizatsion makonlardan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo sivilizatsiyalararo muloqotlar, migratsiya jarayonlari va madaniy innovatsiyalarning uzluksiz almashinuviga sahna bo‘lib kelgan (Frankopan, 2015). Ana shu tarixiy-geografik sharoit Markaziy Osiyoda transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirish uchun mustahkam makoniy va madaniy asos yaratadi.

Etnogeografik nuqtayi nazaridan, transchegaraviy etnoturizm – bu davlat chegaralari bilan bo‘lingan, ammo tarixiy, madaniy va etnik jihatdan uzviy bog‘liq hududlarning yagona madaniy makon sifatida turistik faoliyat orqali qayta integratsiyalanishi jarayonidir. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy hamkorlik shakli, balki hududiy identiklik, tarixiy xotira va madaniy merosning transmilliy miqyosda qayta talqin qilinishi mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi (Timothy, 2011; Salazar, 2012). Shu bois transchegaraviy etnoturizm Markaziy Osiyo etnogeografiyasida makon, madaniyat va siyosiy chegaralar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarni ochib beruvchi muhim ilmiy kategoriya hisoblanadi (Odilov B., Zokirov B., Abirov V., 2024).

Markaziy Osiyo xalqlari – o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman va qoraqalpoq etnoslari – tarixan umumiy xo‘jalik madaniyati, savdo yo‘llari, diniy makonlar va migratsiya jarayonlari orqali uzviy bog‘langan. Ularning urf-odatlari, folklori, hunarmandchiligi va turmush tarzida umumiy sivilizatsion kodlar mavjud bo‘lib, bu kodlar mintaqaning yagona etnomadaniy makon sifatida shakllanishiga xizmat qilgan (Soucek, 2000; Edgar, 2016). Etnoturizm ana shu umumiyliklarni zamonaviy turizm amaliyotlari orqali qayta faollashtirib, mintaqaviy integratsiyaning madaniy asoslarini mustahkamlash imkonini beradi.

Markaziy Osiyoning strategik geografik joylashuvi uni Yevrosiyo makonidagi savdo, transport va madaniy almashinuv yo‘llarining muhim tuguniga aylantiradi. Buyuk Ipak yo‘li doirasida shakllangan tarixiy yo‘nalishlar bugungi kunda transchegaraviy etnoturizm uchun tayanch geografik karkas vazifasini o‘taydi (UNESCO, 2014; Frankopan,

2015). Ushbu yo‘nalishlar orqali turli davlatlar hududlarida joylashgan tarixiy shaharlar, ziyorat maskanlari, hunarmandchilik markazlari va etnomadaniy landshaftlar yagona turistik tizim sifatida shakllanmoqda.

Etnoturizmda etnogeografik yondashuvga ko‘ra, transchegaraviy hududlar “chegaraviy madaniyat zonalari” sifatida talqin qilinadi, ya’ni bu hududlarda etnik guruhlar, tillar, diniy an’analar va xo‘jalik madaniyatlari bir-biri bilan tutashib, murakkab ko‘p qatlamli madaniy makonlarni shakllantiradi (Newman, 2006; Reeves, 2014). Masalan, Farg‘ona vodiysi hududi O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston chegaralari kesishgan makon sifatida tarixan yagona etnomadaniy maydon bo‘lib kelgan. Bu yerda yashovchi jamoalar o‘rtasida qarindoshlik, savdo, diniy va madaniy aloqalar uzoq asrlar davomida siyosiy chegaralardan mustaqil ravishda saqlanib kelgan (Reeves, 2014). Shu sababli mazkur hudud transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirish uchun eng istiqbolli makonlardan biri hisoblanadi.

Etnogeografiyada chegaralar ko‘pincha faqat siyosiy funksiyaga ega bo‘lib, madaniy jarayonlar esa ularni nisbiylashtiradi (Paasi, 2009). Turizm aynan shu nisbiylashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lib, chegaradosh hududlarni ajratib turuvchi emas, balki ularni bog‘lovchi madaniy-makoniy elementga aylantiradi. Shu bois Markaziy Osiyo transchegaraviy hududlari etnoturizm orqali tarixiy madaniy birlikni zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy integratsiya shakllariga aylantirish imkoniyatiga ega.

Markaziy Osiyoda qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda transchegaraviy turizm marshrutlarini shakllantirish orqali mintaqaning boy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkoniyati sezilarli darajada kebgayishi mumkin. Bu yo‘nalishlar nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, hunarmandchilik an’analarini tiklash va mintaqaviy madaniy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi (Timothy & Boyd, 2003; UNWTO, 2018).

Masalan, O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Tojikiston hududlarini qamrab olgan Farg‘ona vodiysi marshrutlari mahalliy hunarmandchilik markazlari, an’anaviy bozorlar, diniy ziyorat joylari va milliy festivallar

orqali etnik madaniyatning hududiy xilma-xilligini kompleks tarzda namoyish etish imkonini beradi. Xuddi shuningdek, Qozog‘iston-O‘zbekiston-Turkmaniston yo‘nalishlari Buyuk Ipak yo‘li shaharlari – Turkiston, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Marv orqali shahar madaniyati, ilmiy meros va islom sivilizatsiyasi tarixini yagona makon doirasida izchil tarzda namoyish etish imkonini beradi (Edgar, 2016).

Etnogeografik jihatdan, bunday turmarshrutlar madaniy landshaft-larning transmilliy integratsiyasini ta’minlaydi. O‘z o‘rnida, madaniy landshaft – bu inson faoliyati natijasida tabiiy makonning madaniy mazmun bilan to‘ldirilgan shaklidir. Transchegaraviy etnoturizm sharoitida esa madaniy landshaftlar milliy chegaralardan tashqariga chiqib, mintaqaviy sivilizatsion makon sifatida qayta talqin qilinadi. Natijada hududiy identiklikning tor milliy doirasidan mintaqaviy va transmilliy identiklik modellariga o‘tish jarayoni tezlashadi (Paasi, 2009).

Etnoturizm Markaziy Osiyoda madaniy va tarixiy merosni saqlash hamda uni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy talablarga moslashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har bir hudud o‘zining noyob etnografik obyektlari, hunarmandchilik maktablari, xalq og‘zaki ijodi, musiqa va raqs san’ati bilan ajralib turadi. Rishton kulolchilik maktabi, Chust pichoqlari, Buxoro ipakchilik an’analari, Marg‘ilon atlas va adras matolari, Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi, Turkiston maqbaralari va Pomir tog‘li hududlaridagi an’anaviy me’morchilik shakllari mintaqaning etnomadaniy landshaftlarini tashkil etuvchi asosiy elementlardir (Edgar, 2016; Soucek, 2000). Mazkur obyektlar va amaliyotlar etnoturizm jarayonida iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan ramziy resurslarga aylanadi. Hunarmandchilik buyumlari, urf-odatlar va madaniy namoyishlar sayyohlar uchun sotiladigan mahsulotga aylanib, mintaqa iqtisodiyotining muhim daromad manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq bu holat madaniyatning tijoratlashuvi, ma’lum bir qolipga solinishi va mazmunan soddalashib borishi xavfini ham keltirib chiqaradi.

Shu sababli etnogeografik yondashuvda etnoturizmni rivojlantirish jarayonida madaniy merosni muhofaza qilish, mahalliy jamoalarning manfaatlarini ustuvor qo‘yish va madaniy asllikni saqlash asosiy ilmiy

va amaliy vazifalardan biri sifatida qaraladi. UNESCO (2014) va UNWTO (2018) hisobotlariga koʻra, madaniy merosga asoslangan turizm loyihalarida barqarorlik tamoyillarini joriy etish, ya'ni mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlash va madaniy resurslardan foydalanishda uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Markaziy Osiyo sharoitida bu, ayniqsa, tarixiy shaharlar va etnik qishloq hududlarida infratuzilmani rivojlantirish bilan birga, mahalliy jamoalarning madaniy nazoratini saqlab qolish masalasini dolzarb qiladi. Chunki madaniyatning turistik mahsulot sifatida standart-lashtirilishi mahalliy madaniy xilma-xillikni qisqartirish xavfini yuzaga keltiradi. Shu bois etnoturizm siyosatida madaniy xilma-xillikni saqlash, mahalliy bilim tizimlarini qoʻllab-quvvatlash va jamoaviy ishtirokni kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim.

Turizm, ayniqsa etnoturizm, chegaradosh hududlar iqtisodiyoti uchun muhim daromad manbayi hisoblanadi. U xizmat koʻrsatish, savdo, transport, hunarmandchilik va qurilish sohalarining rivojlanishini ragʻbatlantiradi. Markaziy Osiyoda etnoturizm infratuzilmasining rivojlanishi – mehmonxonalar, mehmon uylari, transport yoʻllari, madaniy markazlar va savdo maskanlarining tashkil etilishi mahalliy aholi uchun yangi ish oʻrinlari yaratib, daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Etnogeografik nuqtayi nazardan, ushbu jarayon hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy makonning qayta tashkil etilishi sifatida talqin qilinadi. Turizm rivojlangan hududlar iqtisodiy jihatdan faollashib, periferik hududlar bilan solishtirganda yangi hududiy ustunliklarga ega boʻlishi mumkin. Shu sababli transchegaraviy etnoturizmni rivoj–lantirishda hududlararo tengsizliklarni kamaytirish, resurslardan adolatli foydalanish va iqtisodiy foydaning mahalliy jamoalar foydasiga qayta taqsimlanishini ta'minlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Masalan, Qirgʻizistonning Oʻsh shahri bilan Oʻzbekistonning Andijon va Fargʻona shaharlarini bogʻlovchi transchegaraviy etnomadaniy marshrutlar hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, hunar–mandchilik, savdo va xizmat koʻrsatish sohalarining rivojlanishiga

ijobiy ta’sir koʻrsatmoqda. Ushbu hududlarda milliy festivallar, hunarmandchilik yarmarkalari va folklor tadbirlari nafaqat turistlarni jalb etadi, balki mahalliy aholining madaniy oʻzini anglashini mustahkamlashga ham xizmat qiladi (Reeves, 2014).

Transchegaraviy etnoturizm Markaziy Osiyoda madaniy diplomatiyaning muhim instrumentiga aylanishi mumkin. J.Nye (2004) tomonidan ishlab chiqilgan “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasiga koʻra, madaniyat, qadriyatlar va tarixiy meros xalqaro maydonda davlatlar oʻrtasida ijobiy imij yaratish va hamkorlikni kuchaytirishda muhim rol oʻynaydi. Etnoturizm esa ushbu yumshoq kuchni ma’lum hududiy makonda mujassamlashtirib, xalqlar oʻrtasida oʻzaro tushunish va ishonchni mustahkamlash imkonini beradi.

Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy madaniy ildizlari, tarixiy tajribasi va etnik umumiyliklari transchegaraviy etnoturizm orqali xalqaro auditoriyaga namoyish etilar ekan, bu jarayon mintaqaviy birdamlikni kuchaytirish bilan bir qatorda, mintaqaning global maydondagi ijobiy imijini shakllantirishga xizmat qiladi (Timothy, 2011; Salazar, 2012). Shu tariqa etnoturizm nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki siyosiy-madaniy kommunikatsiya shakliga ham aylanadi.

Transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirish uchun infratuzilma, transport aloqalari va institutsional hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Chegaradosh hududlarda turizm rivoji uchun qulay vizaviy rejimlar, chegara oʻtish punktlarining soddalashtirilishi, transport-logistika tarmoqlarining integratsiyasi va qoʻshma marketing strategiyalarining ishlab chiqilishi zarur. Markaziy Osiyo sharoitida soʻnggi yillarda oʻzaro chegaralar ochiqligining barqarorlashuvi, transport kommunikatsiya-larining yaxshilanishi va davlatlararo turizm dasturlarining joriy etilishi transchegaraviy etnoturizm rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda.

Ipak yoʻlini markaziy mavzulardan biri sifatida targʻib qilish orqali Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaning umumiy tarixiy-madaniy merosini global auditoriyaga integratsiya qilish imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Bu konsepsiya nafaqat turistik mahsulot sifatida, balki mintaqaviy identiklikni shakllantirish va iqtisodiy integratsiyani

chuqurlashtirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi (UNESCO, 2014; Frankopan, 2015).

Markaziy Osiyodagi ko‘plab etnoqishloqlar tog‘li, cho‘l va yaylov zonalarida joylashgan bo‘lib, ular ekologik jihatdan ham farqli hisoblanadi. Turizm infratuzilmasining tez sur’atlarda rivojlanishi bu joylarda tabiatga zarar yetkazishi, madaniy muhitning buzilishi va an’anaviy turmush tarzining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin (Hall & Page, 2014). Shu bois transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirishda ekologik rejalashtirish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va madaniy barqarorlikni ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, etnoqishloqlardagi mahalliy jamoalarni turizm jarayonlarining faol subyekti sifatida jalb etish barqaror etnoturizmni rivojlantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi (Timothy & Nyaupane, 2009). Bu yondashuv Markaziy Osiyo sharoitida ham muhim bo‘lib, etnoturizm loyihalarida mahalliy aholi ishtiroki, madaniy nazorat va iqtisodiy foydaning adolatli taqsimlanishini ta’minlash orqali madaniy merosning uzoq muddatli saqlanishiga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda transchegaraviy etnoturizmni o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv zarur bo‘lib, bunda etnogeografiya, madaniy antropologiya, iqtisodiy geografiya, turizmshunoslik va siyosiy geografiya metodlari integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Etnografik dala tadqiqotlari, ishtirokchi kuzatuv, intervyular va madaniy xaritalash usullari mahalliy jamoalarning turizm jarayonlariga munosabatini aniqlash imkonini bersa, statistik tahlil va GIS texnologiyalari hududiy turizm oqimlarini, infratuzilma joylashuvini va resurslarning makoniy taqsimotini aniqlashga xizmat qiladi (Hall & Page, 2014).

Shuningdek, transchegaraviy tadqiqotlar doirasida qiyosiy yondashuv muhim bo‘lib, u turli davlatlar hududlarida joylashgan o‘xshash etnomadaniy makonlarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi (Timothy, 2011). Bu yondashuv Markaziy Osiyo sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mintaqadagi etnik guruhlar tarixan yagona madaniy makonda shakllangan bo‘lsa-da, hozirda turli siyosiy-iqtisodiy tizimlar doirasida rivojlanmoqda. Shu

bois transchegaraviy etnoturizmni oʻrganish mintaqaviy integratsiya jarayonlarining madaniy-geografik mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan esa madaniy geografiya, hududiy identiklik, madaniy landshaft va turizm antropologiyasi konsepsiyalarini integratsiyalash orqali transchegaraviy etnoturizmni chuqurroq talqin qilish mumkin (Sauer, 1925; Paasi, 2009; Salazar, 2012). Bu esa mazkur fenomenni nafaqat amaliy iqtisodiy jarayon sifatida, balki hududiy makonning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi mexanizmi sifatida ham tushuntirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasi transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirish uchun ulkan tarixiy, madaniy va geografik salohiyatga ega. Ushbu mintaqaning umumiy sivilizatsion merosi, etnik xilma-xilligi va tarixiy makoniy birligi etnoturizmni nafaqat iqtisodiy foyda manbayi, balki mintaqaviy integratsiya, madaniy diplomatiya va barqaror rivojlanishning muhim vositasi sifatida shakllantirish imkonini beradi. Etnogeografik yondashuv asosida olib borilgan tahlil shuni koʻrsatadiki, transchegaraviy etnoturizm hududiy makon, madaniy identiklik va iqtisodiy rivojlanish oʻrtasidagi murakkab oʻzaro bogʻliqliklarni mujassamlashtirgan kompleks jarayondir.

Transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirish nafaqat infratuzilmani yaxshilash, transport aloqalarini mustahkamlash va marketing strategiyalarini ishlab chiqishni talab etadi, balki madaniy merosni muhofaza qilish, mahalliy jamoalarning manfaatlarini ta’minlash va ekologik barqarorlikni saqlashni ham zarur shart sifatida belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, etnoturizm loyihalarida mahalliy hamjamiyatga tayangan yondashuvni qoʻllash, joylardagi bilim va tajribani inobatga olish hamda madaniy asllikni saqlash eng muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasida hamkorlikda ishlab chiqilgan transchegaraviy turizm marshrutlari, xususan, Ipak yoʻli konsepsiyasi asosidagi loyihalar, mintaqaning umumiy tarixiy-madaniy merosini global miqyosda ommalashtirish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat turistik oqimni koʻpaytirishga, balki mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, madaniy diplomatiyani rivojlantirish va hududiy

identikliklarning transmilliy darajada qayta konfiguratsiyalanishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, transchegaraviy etnoturizm Markaziy Osiyoda nafaqat iqtisodiy sektor, balki madaniy-geografik jarayon sifatida ham muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u mintaqaning barqaror rivojlanishi, madaniy merosni asrash va xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish hamda hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi integrativ platforma sifatida shakllanmoqda. Etnogeografik tahlil ushbu jarayonlarni chuqurroq anglash va ilmiy asoslangan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Etnoturizm tushunchasining nazariy asoslarini izohlang.
2. Markaziy Osiyoda etnoturizm rivojiga ta’sir etuvchi etnogeografik omillarni tahlil qiling.
3. Yaylov turizmining mintaqa etnoturizmidagi o‘rni va ahamiyatini baholang.
4. Transchegaraviy hududlarda etnoturizm rivojining imkoniyat va muammolarini ko‘rsating.
5. Etnoturizmning madaniy merosni saqlashdagi ijobiy va salbiy jihatlarini muhokama qiling.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyodagi bir etnoturistik hudud misolida uning etnogeografik salohiyatini tahlil qiling.

2. “Transchegaraviy etnoturizm va madaniy integratsiya” mavzusida 8–10 slayddan iborat taqdimot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. Greenwood Press.

2. Cohen, E. (1988). Authenticity and commoditization in tourism. Annals of Tourism Research, 15(3), 371–386.

3. Cresswell, T. (2015). Place: An Introduction (2nd ed.). Wiley-Blackwell.

4. Edgar, A. (2016). Central Asia: A Cultural History. Oxford University Press.

6. Frankopan, P. (2015). The Silk Roads: A New History of the World. Bloomsbury.

7. Greenwood, D. (1989). Culture by the pound: An anthropological perspective on tourism as cultural commoditization. In V. Smith (Ed.), Hosts and Guests. University of Pennsylvania Press.

8. Hall, C. M., & Page, S. J. (2014). The Geography of Tourism and Recreation (4th ed.). Routledge.

9. Newman, D. (2006). The lines that continue to separate us: Borders in our "borderless" world. Progress in Human Geography, 30(2), 143–161.

10. Nye, J. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. PublicAffairs.

11. Paasi, A. (2009). The resurgence of the region and regional identity. European Urban and Regional Studies, 16(2), 121–135.

12. Reeves, M. (2014). Border Work: Spatial Lives of the State in Rural Central Asia. Cornell University Press.

13. Salazar, N. (2012). Tourism imaginaries: A conceptual approach. Annals of Tourism Research, 39(2), 863–882.

14. Sauer, C. (1925). The morphology of landscape. University of California Publications in Geography, 2(2), 19–54.

15. Soucek, S. (2000). A History of Inner Asia. Cambridge University Press.

16. Odilov B., Zokirov B., Abirov V. Rishton, Chust, Yangiqo'rg'on va Boysun tumanlari etnoturizm salohiyatini oshirishda lokal atributlardan foydalanish. Monografiya//. – T.: "Best-publish" nashriyoti, 2024. – 192 b.

17. Timothy, D. J., & Nyaupane, G. P. (2009). Cultural Heritage and Tourism in the Developing World. Routledge.

18. UNESCO. (2014). Silk Roads Heritage Corridors in Central Asia. UNESCO Publishing.

19. UNWTO. (2018). Tourism and Culture Synergies. World Tourism Organization.

12-MAVZU: MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASINING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI VA ILMIY TADQIQOT ISTIQBOLLARI

Reja:

1. Etnogeografik tadqiqotlarda zamonaviy metodlar va fanlararo yondashuvlar

2. Markaziy Osiyoda raqamli etnogeografiya va amaliy tadqiqotlar

3. Etnogeografiyada kelajak tadqiqotlari va sohaga Sun’iy intellekt(AI)ni jalb qilish imkoniyatlari

4. Xulosa.

Darsning maqsadi: *talabalarda Markaziy Osiyo etnogeografiyasining zamonaviy yo‘nalishlari, raqamli va fanlararo metodologiyalari, SI yordamida etnik makon transformatsiyasi, migratsiya, urbanizatsiya va resurslar boshqaruvi jarayonlarining hududiy rivojlanishga ta’siri haqida ilmiy tushunchani shakllantirish.*

Tayanch so‘z va iboralar: *etnik makon, raqamli etnogeografiya, GIS, SI, fanlararo yondashuv, fazoviy tahlil, madaniy transformatsiya, transchegaraviy hududlar, barqaror rivojlanish.*

12.1. Etnogeografik tadqiqotlarda zamonaviy metodlar va fanlararo yondashuvlar

Etnogeografik tadqiqotlar zamonaviy ijtimoiy fanlar tizimida muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, etnik guruhlarning hududiy joylashuvi, migratsiya jarayonlari, madaniy makonning transformatsiyasi hamda siyosiy-hududiy o‘zgarishlarning etnik identiklarga ta’sirini kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo singari tarixiy-etnik qatlamlari murakkab, transchegaraviy makonlar ustuvor bo‘lgan mintaqalarda etnogeografiya nafaqat akademik bilim sohasi, balki amaliy siyosat, hududiy rejalashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. So‘nggi o‘n yilliklarda ilmiy tafakkurda yuz bergan raqamli inqilob, geoinformatsion tizimlarning keng joriy etilishi, statistik va demografik modellashtirish usullarining rivoji hamda fanlararo yondashuvlarning kuchayishi etnogeografik tadqiqotlarni yangi

bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayon Markaziy Osiyo etnik makonining murakkab tarixiy merosi va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy muammolarini chuqurroq anglash imkonini yaratdi.

Etnogeografik tadqiqotlarda zamonaviy metodlar va ilmiy yondashuvlarning shakllanishi, avvalo, makon va jamiyat munosabatlariga yangicha nazar bilan qarash zarurati bilan bog‘liq bo‘ldi. Klassik etnografiya asosan madaniy tavsif va lokal jamoalar hayotini tasvirlashga e’tibor qaratgan bo‘lsa, zamonaviy etnogeografiya etnik jarayonlarni hududiy tizimlar, iqtisodiy tarmoqlar, siyosiy institutlar va ekologik omillar bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu esa etnik makon tushunchasini statik geografik hudud emas, balki tarixiy jarayonlar davomida shakllanib, siyosiy qarorlar, migratsiya oqimlari va iqtisodiy modernizatsiya ta’sirida doimiy transformatsiyaga uchraydigan dinamik ijtimoiy makon sifatida talqin qilish imkonini berdi (Roy, 2000). Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish natijasida yuzaga kelgan etnik makonning o‘ziga xos jihatlari, anklav va eksklavlar tizimi, transchegaraviy suv resurslari atrofidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar aynan shu dinamik yondashuv zarurligini ko‘rsatdi (Martin, 2001;).

Zamonaviy etnogeografiyada muhim metodologik o‘zgarishlar-dan biri hududiy tahlilga matematik-statistik modellar va raqamli texnologiyalarni keng jalb etish bilan bog‘liqdir. Avvalgi davrlarda hududiy-etnik jarayonlar asosan sifat tadqiqotlari[6] va tarixiy hujjatlar asosida izohlangan bo‘lsa, bugungi kunda katta hajmdagi statistik ma’lumotlar, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, masofadan zondlash texnologiyalari hamda GIS platformalari yordamida etnik birliklarning hududiy joylashuvini aniq o‘lchash, solishtirish va modellashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu jarayon Markaziy Osiyoda, ayniqsa, suv resurslari, migratsiya, urbanizatsiya va chegaradosh hududlar bilan bog‘liq etnik muammolarni tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

[6] Sifat tadqiqoti (Quality research) – bu hodisa, jarayon yoki inson tajribasini chuqur va mazmunan tushunishga qaratilgan ilmiy yondashuv bo‘lib, raqamlar emas, balki ma’no, sabab, kontekst va talqin**ni** tahlil qilishga urg‘u beradi.

Kartografik va GIS texnologiyalarining etnogeografik tadqiqotlarda qo‘llanilishi hududiy-etnik jarayonlarni vizualizatsiya qilish, ularning fazoviy qonuniyatlarini aniqlash va prognozlash imkonini sezilarli darajada kengaytirdi. Kartografiya uzoq vaqt davomida etnik tarkibni tasvirlashning asosiy vositasi bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, zamonaviy GIS texnologiyalari bu jarayonni interaktiv, ko‘p qatlamli va tahliliy darajaga olib chiqdi. Etnik xaritalar endilikda nafaqat aholi tarkibini ko‘rsatish, balki migratsiya yo‘nalishlari, iqtisodiy faoliyat zonalari, infratuzilma tarmoqlari va ekologik omillar bilan etnik makon o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni aniqlash imkonini bermoqda (Longley et al., 2015;). Markaziy Osiyoda, xususan, Farg‘ona vodiysi, Zarafshon havzasi va Amudaryo deltasi hududlarida etnik guruhlarning zich joylashuvi, irrigatsiya tarmoqlariga bog‘liqligi va tarixiy migratsiya oqimlarini GIS asosida tahlil qilish hududiy siyosat va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda (Roy, 2000;).

GIS texnologiyalari yordamida etnogeografik tadqiqotlarda anklav va eksklavlarning shakllanish mexanizmlarini, transchegaraviy hududlarda etnik va iqtisodiy resurslarning taqsimlanishini hamda hududiy nizolarning geografik va fazoviy jihatdan chuqurroq tahlil qilish mumkin bo‘ldi. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi So‘x, Vorux va Shohimardon kabi anklav hududlarining shakllanishi tarixiy migratsiya, sovet davridagi ma’muriy chegaralash va iqtisodiy-logistik omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini tushunish faqat tarixiy hujjatlar bilan emas, balki makoniy tahlil va GIS modellashtirish orqali ham o‘rganish imkoniyati mavud. Bunday yondashuv etnik makonni faqat siyosiy chegaralar bilan cheklanmagan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Kartografik metodlarning rivojlanishi bilan etnogeografik tadqiqotlarda tarixiy xaritalarni raqamlashtirish va ularni zamonaviy ma’lumotlar bilan solishtirish amaliyoti ham kengaymoqda. Bu usul Markaziy Osiyoda XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi etnik joylashuv, migratsiya jarayonlari va ma’muriy-hududiy bo‘linishlarni bugungi vaziyat bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini yaratadi (Martin, 2001).

Masalan, 1897-yilgi aholi roʻyxati asosida tuzilgan xaritalarni zamonaviy GIS platformalariga joylashtirish orqali etnik tarkibdagi uzoq muddatli oʻzgarishlarni, urbanizatsiya jarayonlari va irrigatsiya tizimlarining kengayishi bilan bogʻliq migratsiya oqimlarini aniqlash mumkin boʻladi. Bu esa etnik makonning tarixiy transformatsiyasini chuqurroq anglash, zamonaviy hududiy siyosat uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bermoqda.

Statistik va demografik tahlil zamonaviy etnogeografiyaning ajralmas metodologik komponenti sifatida shakllanib, etnik jarayonlarni miqdoriy koʻrsatkichlar asosida modellashtirish va prognozlash imkonini yaratdi. Aholi roʻyxatlari, migratsiya statistikasi, urbanizatsiya surʼatlari, tugʻilish va oʻlim koʻrsatkichlari kabi maʼlumotlar etnik makonning ichki dinamikasini tahlil qilishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi (Anselin, 1988;). Markaziy Osiyoda sovet davridan boshlab olib borilgan keng qamrovli aholi roʻyxatlari etnik tarkib, til, Shahar va qishloq aholi nisbatlari hamda migratsiya oqimlari boʻyicha boy statistik materialni taqdim etgan boʻlib, u bugungi kunda ham etnogeografik tadqiqotlar uchun muhim empirik asos vazifasini bajaradi.

Demografik tahlil Markaziy Osiyoda etnik birliklarning hududiy farqlanishini, urbanizatsiya jarayonlarining etnik tarkibga taʼsirini va transchegaraviy migratsiya oqimlarining ijtimoiy oqibatlarini aniqlash imkonini berdi. Masalan, sovet davrida sanoatlashtirish siyosati natijasida yirik shaharlar atrofida yuzaga kelgan koʻp millatli mehnat migratsiyasi Toshkent, Olmaota, Bishkek, Dushanbe va Ashxobod kabi shaharlarda murakkab etnik-demografik tizimlarning shakllanishiga olib keldi. Statistik modellashtirish bu jarayonlarning uzoq muddatli oqibatlarini, xususan, shaharlarda etnik integratsiya va segregatsiya tendensiyalarini aniqlashga xizmat qildi.

Demografik tahlilning yana bir muhim jihati etnik guruhlarning tabiiy koʻpayish surʼatlari va migratsiya oqimlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni oʻrganishdan iboratdir. Markaziy Osiyoda XX asr ikkinchi yarmidan boshlab ayrim etnik guruhlar orasida tugʻilish darajasining yuqoriligi, boshqa guruhlarda esa urbanizatsiya va migratsiya bilan bogʻliq demografik transformatsiyalar kuzatilgan

bo‘lib, bu jarayon hududiy-etnik muvozanatning o‘zgarishiga olib kelgan. Statistik tahlil yordamida ushbu tendensiyalarni aniqlash va prognozlash hududiy rejalashtirish, ijtimoiy infratuzilma joylashtirish va madaniy siyosatni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demografik modellashtirishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri hududiy statistik tahlil usullarining qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir. Bunday yondashuv etnik guruhlarning hududiy kontsentratsiyasi, segregatsiya darajasi va migratsiya yo‘nalishlarining fazoviy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi (Goodchild, 1992). Markaziy Osiyoda suv resurslari atrofidagi etnik-iqtisodiy munosabatlarni, irrigatsiya tizimlariga bog‘liq qishloq aholisining joylashuvini va shahar markazlari bilan periferiya hududlar o‘rtasidagi migratsiya oqimlarini hududiy statistik modellar asosida tahlil qilish mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarning etnik o‘lchamlarini aniqlashga yordam bermoqda.

Tarixiy-etnografik va dala tadqiqotlari zamonaviy etnogeografiy-aning sifat metodlari tizimini tashkil etib, statistik va kartografik tahlil natijalarini chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun bilan boyitadi. Tarixiy-etnografik yondashuv etnik makonning shakllanish jarayonlarini uzoq muddatli tarixiy kontekstda tahlil qilish imkonini berib, hududiy tuzilmalarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi. Markaziy Osiyoda milliy-hududiy delimitatsiya jarayonining tarixiy-etnografik tahlili bu jarayonning faqat siyosiy qarorlar mahsuli emas, balki tarixiy migratsiya, irrigatsiya tizimlari, savdo yo‘llari va madaniy aloqalar bilan bog‘liq murakkab etnogeografik jarayon ekanini ko‘rsatadi.

Dala tadqiqotlari esa etnik jamoalarning kundalik hayoti, ijtimoiy amaliyotlari, madaniy identikligi mexanizmlari va hududiy makonga munosabatlarini bevosita empirik kuzatish orqali o‘rganishga imkon beradi. Zamonaviy etnogeografiyada dala tadqiqotlari nafaqat sifat tavsiflari bilan cheklanib qolmay, balki GIS ma’lumotlari, statistik ko‘rsatkichlar va tarixiy hujjatlar bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanilmoqda. Bu esa etnik makonning ko‘p qatlamli strukturasi va uning dinamikasini kompleks tahlil qilish imkonini beradi (Longley et al., 2015;).

Markaziy Osiyoda dala tadqiqotlari, ayniqsa, transchegaraviy zonalar, anklav va eksklavlar, koʻp millatli qishloqlar hamda suv resurslari atrofidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Fargʻona vodiysidagi anklav hududlarda olib borilgan etnografik tadqiqotlar mahalliy aholining hududiy identikligi, chegaraga munosabati, iqtisodiy moslashuv strategiyalari va transchegaraviy ijtimoiy tarmoqlarini aniqlash imkonini beradi. Bu natijalar hududiy nizolarni faqat siyosiy-huquqiy muammo sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida tushunish zarurligini koʻrsatdi.

Tarixiy-etnografik usullar irrigatsiya tizimlari va suv resurslarining etnik makon shakllanishidagi rolini tahlil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo tarixida sugʻoriladigan dehqonchilik vohalari va koʻchmanchi chorvachilik yaylovlari oʻrtasidagi hududiy munosabatlar etnik guruhlarning joylashuvi, migratsiyasi va ijtimoiy tuzilmasiga bevosita ta’sir koʻrsatgan. Tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va dala tadqiqotlari asosida olib borilgan etnogeografik tahlillar irrigatsiya infratuzilmasi, suvdan foydalanish an’analari va yer egaligi tizimlari etnik makonning barqarorligini ta’minlashda muhim rol oʻynaganini koʻrsatadi.

Zamonaviy etnogeografiyada fanlararo yondashuvlarning kuchayishi ilmiy tafakkurda yuz bergan muhim metodologik burilishlardan biridir. Etnogeografiya bugungi kunda antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, ekologiya va axborot texnologiyalari bilan uzviy integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Bu esa etnik makonni faqat madaniy yoki demografik fenomen sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-ekologik tizim sifatida talqin qilish imkonini bermoqda (Longley et al., 2015). Markaziy Osiyoda suv resurslari, migratsiya, urbanizatsiya va chegaradosh hududlar bilan bogʻliq muammolarni hal etishda bunday fanlararo yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda (Martin, 2001).

Fanlararo yondashuv, avvalo, etnogeografik tadqiqotlarda siyosiy geografiya va iqtisodiy geografiya metodlari bilan integratsiyani taqozo etadi. Milliy chegaralar, hududiy suverenitet va resurslar taqsimoti kabi masalalar etnik makonning shakllanishi va transformatsiyasiga

bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyoda sovet davrida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish jarayoni natijasida yuzaga kelgan anklav va eksklavlar tizimi, transchegaraviy suv resurslari atrofidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va migratsiya oqimlari etnogeografik tadqiqotlarni siyosiy geografiya bilan integratsiya-lashgan holda olib borishni taqozo etadi.

Fanlararo yondashuvning yana bir muhim yo‘nalishi ekologiya va resurslar geografiyasi bilan hamkorlikda namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyo ekologik jihatdan nozik hudud bo‘lib, suv tanqisligi, cho‘llanish, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan foydalanish masalalari etnik makonning barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Irrigatsiya tizimlari, daryo havzalari va suv omborlari atrofidagi etnik jamoalar o‘rtasidagi munosabatlarni etnogeografik nuqtayi nazardan tahlil qilish ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari va raqamli gumanitar fanlar bilan integratsiya etnogeografiyada yangi metodologik imkoniyatlarni ochdi. Raqamli xaritalar, ochiq ma’lumotlar bazalari, mobil ilovalar va masofadan zondlash texnologiyalari yordamida etnik jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish, monitoring qilish va prognozlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Markaziy Osiyoda migratsiya oqimlari, urbanizatsiya jarayonlari va transchegaraviy iqtisodiy aloqalarni raqamli plat-formalar asosida tahlil qilish etnogeografik tadqiqotlarni amaliy siyosat bilan integratsiyalashgan holda olib borishga imkon bermoqda.

12.2. Markaziy Osiyoda raqamli etnogeografiya va amaliy tadqiqotlar

XXI asr boshlaridan boshlab Markaziy Osiyo etnogeografiyasi an’anaviy tavsifiy-etnografik yondashuvlardan zamonaviy analitik, fazoviy va fanlararo metodologiyalarga asoslangan ilmiy izlanishlarga o‘tish davri boshlandi. Bu jarayon global ilm-fan makonida sodir bo‘layotgan raqamlashtirish, ma’lumotlar hajmining keskin ortishi, siyosiy-geografik muammolarning murakkablashuvi hamda mintaqa-viy integratsiya jarayonlarining faollashuvi bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa Markaziy Osiyo kabi tarixan ko‘p qatlamli etnik makon,

murakkab chegaraviy tuzilma va transchegaraviy tabiiy resurslarga ega hudud uchun etnogeografik bilimlar nafaqat nazariy, balki amaliy siyosiy, iqtisodiy va madaniy rejalashtirishda ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois zamonaviy Markaziy Osiyo etnogeografiyasi ilmiy istiqbollarini raqamli texnologiyalar, mintaqaviy integratsiya va amaliy boshqaruv kontekstida tahlil qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Birinchidan, zamonaviy etnogeografiyaning asosiy rivojlanish tendensiyalaridan biri - raqamli etnogeografiya va ma'lumotlar bazasi (Data science) asosida ilmiy tadqiqotlar olib borishdir. Avvallari etnik tarkib, migratsiya oqimlari, madaniy makonlar va hududiy identiklik masalalari asosan ro‘yxatga olish materiallari, tarixiy manbalar va maydon kuzatuvlari orqali o‘rganilgan bo‘lsa, bugungi kunda sun'iy yo‘ldosh tasvirlari, raqamli xaritalar, mobil aloqa ma'lumotlari, ijtimoiy tarmoqlar va ochiq statistik platformalar etnogeografik tahlil uchun yangi empirik asos yaratmoqda (Martin; 2001). Markaziy Osiyo sharoitida bu metodologik burilish ayniqsa muhim, chunki mintaqada etnik guruhlarning hududiy joylashuvi tarixiy ko‘chishlar, majburiy deportatsiyalar, sovet davridagi delimitatsiya jarayonlari va mustaqillikdan keyingi migratsiyalar natijasida murakkab shakllangan.

Raqamli etnogeografiya Markaziy Osiyoda avvalo aholi joylashuvi va etnik tarkibning dinamik o‘zgarishini hududiy modellashtirish imkonini bermoqda. Masalan, Qozog‘iston shimoli va sharqida sovet davrida shakllangan ko‘p millatli makon mustaqillikdan so‘ng demografik jihatdan sezilarli transformatsiyaga uchradi: rus, ukrain va nemis aholisining migratsiyasi, qishloq aholisining shaharlarga ko‘chishi hamda janubi hududlardan shimoli viloyatlarga ichki migratsiya jarayonlari etnik makonni qayta tizimlashtirishga olib keldi. Ushbu jarayonlarni an'anaviy statistik jadvallar yordamida tahlil qilish cheklangan bo‘lsa, GIS texnologiyalari va katta ma'lumotlar asosida hududiy-dinamik xaritalar tuzish orqali etnik landshaftning makon va vaqt kesimidagi o‘zgarishlarini chuqurroq anglash mumkin.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston misolida esa raqamli etnogeografiya Farg‘ona vodiysidagi etnik atlasini, transchegaraviy migratsiya oqimlarini va anklav-eksklav tizimlarining ijtimoiy-demografik

oqibatlarini fazoviy modellashtirish imkonini bermoqda. Masalan, So‘x, Shohimardon, Barak kabi hududlarning demografik tarkibi, transport oqimlari va iqtisodiy aloqalarini katta ma’lumotlar asosida tahlil qilish ushbu hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaviy va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini yaratadi. Bu esa etnogeografiyaning nafaqat akademik, balki bevosita amaliy siyosatga xizmat qiluvchi fan sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Raqamli etnogeografiyaning yana bir muhim istiqboli madaniy merosni raqamlashtirish va etnik makonning madaniy qatlamlarini xaritalashdir. Markaziy Osiyoda tarixiy shaharlar, ziyoratgohlar, muqaddas joylar, etnik guruhlarning an’anaviy yaylov va sug‘orish hududlari ko‘pincha siyosiy chegaralardan qat’i nazar, shakllangan yagona madaniy makonning tarkibiy qismlari bo‘lib kelgan. Raqamli platformalar yordamida ushbu obyektlarni yagona geoaxborot tizimiga joylashtirish mintaqada madaniy turizmni rivojlantirish, madaniy merosni muhofaza qilish va transchegaraviy hamkorlikni kuchaytirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, raqamli etnogeografiya Markaziy Osiyo etnik makonini faqat siyosiy chegaralar doirasida emas, balki tarixiy-madaniy hududiylik nuqtayi nazaridan qayta konseptuallashtirish imkonini bermoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy Markaziy Osiyo etnogeografiyasining muhim istiqbollaridan biri mintaqaviy integratsiya jarayonlarida etnogeografiyaning rolining kuchayishidir. Sovet Ittifoqi parchalan-ganidan so‘ng Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida siyosiy mustaqillik mustahkamlangan bo‘lsa-da, iqtisodiy, demografik, madaniy va ekologik jarayonlar mintaqani yagona transchegaraviy makon sifatida saqlab qoldi. Ayniqsa, suv resurslari, migratsiya, savdo yo‘llari, mehnat bozorining integratsiyalashuvi hamda madaniy almashinuv jarayonlari etnogeografik yondashuvsiz samarali boshqarilishi qiyin bo‘lgan murakkab tizimlarni tashkil etmoqda.

Masalan, Amudaryo va Sirdaryo havzalari Markaziy Osiyoning asosiy irrigatsion tizimini tashkil etib, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston hududlarini yagona gidrogeografik makonga birlashtiradi. Ushbu havzalarda yashovchi aholi etnik jihatdan turli bo‘lsa-da, tarixan umumiy sug‘orish tizimlari,

qishloq xo‘jaligi madaniyati va iqtisodiy aloqalar asosida integratsiyalashgan hududiy jamiyatni tashkil etgan. Shu sababli suv resurslarini boshqarishda faqat texnik-iqtisodiy mezonlar emas, balki etnik tarkib, mahalliy jamoalarning tarixiy huquqlari, an’anaviy foydalanish shakllari va madaniy moslashuv mexanizmlari ham hisobga olinishi zarur. Zamonaviy etnogeografiya ana shu ijtimoiy-madaniy omillarni geografik tahlil asosida aniqlash va mintaqaviy integratsiya siyosatini ilmiy asoslash imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasi jarayonlari ham etnogeografiyaning mintaqaviy integratsiyadagi rolini kuchaytirayotgan muhim omillardan biridir. Mustaqillikdan keyingi davrda millionlab fuqarolar Qozog‘iston va Rossiyaga vaqtinchalik yoki doimiy mehnat migratsiyasiga yo‘nalgani natijasida mintaqa ichida va tashqarisida transmilliy etnik tizimlar shakllandi. Ushbu jarayonlar faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki migratsiya hududlarida etnik moslashuv, identiklik transformatsiyasi, madaniy aloqalar va transchegaraviy ijtimoiy makonlarning shakllanishi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinishi lozim. Etnogeografiya bu jarayonlarni fazoviy modellashtirish orqali migratsiya oqimlarining hududiy ta’sirini, shaharlar etnik tarkibidagi o‘zgarishlarni va diasporaviy makonlarning shakllanish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish imkonini beradi.

Shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida etnogeografiya siyosiy chegaralar va etnik makon o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni yumshatish uchun ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Sovet davrida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish jarayoni Markaziy Osiyoda etnik guruhlarning hududiy joylashuvi bilan siyosiy chegaralar o‘rtasida sezilarli tafovutlar keltirib chiqardi. Natijada, Farg‘ona va Zarafshon vodiylari, Qoraqalpog‘iston, Janubi Qozog‘iston va Pomir tog‘li hududlarida transchegaraviy etnik makonlar shakllandi. Zamonaviy etnogeografik tadqiqotlar ushbu makonlarni mintaqaviy integratsiya nuqtayi nazaridan qayta talqin qilib, chegaraviy hududlarni to‘siq emas, balki madaniy va iqtisodiy aloqalarni bog‘lovchi tranzit zonalar sifatida ko‘rishga asos yaratmoqda. Bu esa mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, etnik ziddiyatlarning oldini olish va

transchegaraviy barqarorlikni ta’minlashda etnogeografiyaning strategik rolini oshirmoqda.

Uchinchidan, zamonaviy Markaziy Osiyo etnogeografiyasining istiqbollari amaliy siyosiy va hududiy rejalashtirishda etnogeografik bilimlar ahamiyatining ortishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Avvallari etnogeografiya asosan tavsifiy fan sifatida etnik guruhlarning tarixi, madaniyati va hududiy joylashuvini hujjatlashtirish bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda u davlat boshqaruvi, hududiy rivojlanish strategiyalari, infratuzilmaviy loyihalar va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda muhim analitik vositaga aylanmoqda. Markaziy Osiyo sharoitida bu ayniqsa dolzarb, chunki mintaqada hududiy rivojlanish masalalari ko‘pincha etnik tarkib, madaniy landshaft va tarixiy yer-suv munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Masalan, O‘zbekistonning tog‘li hududlarida yashovchi tojik, qirg‘iz va o‘zbek jamoalarining joylashuvi tarixan sug‘orish tizimlari, yaylovlar va savdo yo‘llari asosida shakllangan bo‘lib, bu hududlarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda etnogeografik omillarni inobatga olmaslik ijtimoiy qarama-qarshiliklar va madaniy moslashuv muammolariga olib kelishi mumkin. Shu bois zamonaviy hududiy rejalashtirishda faqat iqtisodiy samaradorlik yoki muhandislik mezonlari emas, balki mahalliy etnik guruhlarning tarixiy yerdan foydalanish tizimlari, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tashkilot shakllari ham hisobga olinishi zarur. Etnogeografiya ana shu omillarni ilmiy asosda aniqlash va qaror qabul qilish jarayoniga integratsiyalash imkonini bermoqda.

Xuddi shuningdek, Qirg‘iziston va Tojikistonning tog‘li hududlarida yaylovlardan foydalanish, ko‘chmanchi chorvachilik an’analari va suv resurslarini taqsimlash masalalari etnik guruhlarning hududiy madaniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Sovet davrida markazlashgan rejalashtirish ushbu an’anaviy tizimlarni ko‘pincha hisobga olmagan bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi davrda hududiy siyosatda etnogeografik yondashuvga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yaylovlarni boshqarish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va qishloq hududlarini rivojlantirishda mahalliy etnik jamoalarning tarixiy tajribasi va

madaniy moslashuv mexanizmlarini inobatga olish iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshiradi. Shu jihatdan, etnogeografiya mintaqada barqaror rivojlanish siyosatini shakllantirish uchun muhim bilim bazasini ta’minlamoqda.

Amaliy siyosiy rejalashtirishda etnogeografiyaning yana bir muhim istiqboli chegaraviy hududlarni boshqarish masalasidir. Markaziy Osiyoda davlat chegaralari ko‘pincha etnik makonlar, iqtisodiy aloqalar va madaniy landshaftlar bilan mos kelmaydi. Natijada chegara hududlarida savdo, migratsiya, madaniy almashinuv va resurslardan foydalanish jarayonlari murakkablashadi. Zamonaviy etnogeografik tadqiqotlar chegaraviy hududlarni “periferik zona” sifatida emas, balki transchegaraviy madaniy va iqtisodiy makon sifatida qayta talqin qilish imkonini bermoqda. Bu esa chegara boshqaruvi siyosatini yanada moslashuvchan, inkluziv va barqaror shakllantirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Masalan, Farg‘ona vodiysidagi O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Tojikiston chegaralari hududida yashovchi aholi tarixan yagona sug‘orish tizimi, bozor aloqalari va madaniy makonga mansub bo‘lgan. Siyosiy chegaralanish natijasida ushbu makon sun’iy ravishda bo‘linib, anklav va eksklav tizimlari shakllandi. Zamonaviy etnogeografiya ushbu hududlarni transchegaraviy integratsiya zonalari sifatida qayta modellashtirish, mahalliy jamoalarning kundalik harakat yo‘nalish-larini, iqtisodiy aloqalarini va madaniy tarmoqlarini hududiy tahlil qilish orqali chegara boshqaruvini optimallashtirish imkonini bermoqda. Bu esa ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish, savdo va transport aloqalarini rivojlantirish hamda mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy Markaziy Osiyo etnogeografiyasining ilmiy istiqbol-lari, shuningdek, nazariy-metodologik transformatsiya bilan ham chambarchas bog‘liqdir. An’anaviy etnik hudud tushunchasi ko‘pincha etnosni muayyan geografik makon bilan statik tarzda bog‘lab talqin qilgan bo‘lsa, hozirgi ilmiy qarashlarda etnik makon dinamik, ko‘p qatlamli va ijtimoiy tizim hisoblanadi. Migratsiya, urbanizatsiya, globalizatsiya va raqamli kommunikatsiya jarayonlari natijasida etnik identiklik faqat an’anaviy hudud bilan emas, balki transmilliy

tarmoqlar, virtual makonlar va madaniy almashinuv jarayonlari bilan ham shakllanmoqda. Shu bois zamonaviy etnogeografiya etnik makonni nafaqat hududiy joylashuv emas, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy munosabatlar tizimi sifatida talqin etishga intilmoqda.

Bu nazariy burilish Markaziy Osiyo misolida ayniqsa muhim, chunki mintaqada sovet davrida shakllangan milliy respublikalar tizimi etnik identiklikni hududiy davlatchilik bilan bog‘lashga intilgan bo‘lsada, amalda ko‘plab etnik guruhlar transchegaraviy makonlarda yashab qolgan. Zamonaviy etnogeografik tadqiqotlar ushbu murakkablikni “muammo” sifatida emas, balki mintaqaning tarixiy-madaniy boyligi va integratsion salohiyati sifatida talqin qilishga asos yaratmoqda. Bu esa Markaziy Osiyoni etnik jihatdan parchalanib ketgan hudud sifatida emas, balki tarixan o‘zaro bog‘langan, ko‘p qatlamli madaniy makon sifatida tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va ma’lumotlar bazasi asosida etnik makonning modellashtirilishi ilmiy gipotezalarni empirik asosda tekshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, urbanizatsiya jarayonlarining etnik tarkibga ta’siri, ichki va tashqi migratsiyaning madaniy landshaftni qayta shakllantirish mexanizmlari, transchegaraviy hududlarda identiklik transformatsiyasi kabi masalalar ilgari asosan sifat tavsiflar bilan izohlangan bo‘lsa, hozirgi kunda geografik-statistik modellar orqali ilmiy asosda tahlil qilinmoqda. Bu esa Markaziy Osiyo etnogeografiyasining global ijtimoiy fanlar tizimiga integratsiyalashuvini kuchaytirib, mintaqaviy tadqiqotlarni xalqaro ilmiy diskursga olib chiqmoqda.

Yuqoridagi jarayonlar Markaziy Osiyo etnogeografiyasining istiqbollari nafaqat metodologik va texnologik yangilanish bilan, balki uning ijtimoiy mas’uliyatli fan sifatidagi rolini kuchaytirish bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Mintaqada etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar, chegaraviy hududlardagi ijtimoiy barqarorlik, resurslardan foydalanish va madaniy merosni muhofaza qilish masalalari bevosita inson xavfsizligi, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish bilan bog‘liqdir. Shu bois etnogeografiya nafaqat tavsiflovchi yoki tushuntiruvchi fan, balki siyosiy qarorlar, hududiy rejalashtirish va

ijtimoiy strategiyalarni ilmiy asoslovchi amaliy fan sifatida ham qaralmoqda.

Shunday qilib, zamonaviy Markaziy Osiyo etnogeografiyasining ilmiy istiqbollari uch asosiy yo‘nalishda mujassamlanmoqda: birinchidan, raqamli etnogeografiya va katta ma’lumotlar asosida etnik makonning dinamik modellashtirilishi va ilmiy tahlilining chuqurlashuvi; ikkinchidan, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida etnogeografiyaning strategik rolini kuchaytirish orqali transchegaraviy barqarorlik, resurslarni adolatli taqsimlash va madaniy hamkorlikni rivojlantirish; uchinchidan, amaliy siyosiy va hududiy rejalashtirishda etnogeografik bilimlarni qaror qabul qilish tizimiga integratsiyalash orqali ijtimoiy adolat, madaniy moslashuv va barqaror rivojlanishni ta’minlash. Markaziy Osiyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, etnogeografiya nafaqat o‘tmishdagi etnik jarayonlarni tushuntirishga xizmat qiluvchi fan, balki hozirgi va kelajakdagi hududiy taraqqiyot strategiyalarini shakllantirish uchun muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib bormoqda.

12.3. Etnogeografiyada kelajak tadqiqotlari va sohaga Sun’iy intellekt(AI)ni jalb qilish imkoniyatlari.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasining kelajak tadqiqot yo‘nalish-lari raqamli metodologiyalar, sun’iy intellekt va yangi ilmiy tadqiqotlar asoslangan yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanmoqda. XXI asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi etnogeografik tadqiqotlar uchun nafaqat tarixiy-etnik murakkablik, balki zamonaviy geosiyosiy, ekologik va ijtimoiy transformatsiyalar makoni sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

An’anaviy etnogeografiya asosan etnoslarning tarixiy joylashuvi, migratsiyasi, madaniy makoni va hududiy shakllanishini tavsiflashga yo‘naltirilgan bo‘lib, u ko‘proq “qayerda kim yashaydi?” degan savolga javob berishga intilgan. Shu bois, kelajak etnogeografiyasi faqat mavjud holatni tasvirlash bilangina cheklanmay, balki etnik makon qanday shakllanmoqda, u qanday omillar ta’sirida o‘zgarmoqda va bu jarayonlar kelajakda qanday yo‘nalishda rivojlanishi mumkin degan murakkab savollarga ham javob topishga intilishi lozim. Markaziy Osiyo sharoitida bunday qarashlarning almashinuvi ayniqsa dolzarbdir,

chunki mintaqa hududiy tuzilishining tarixiy asoslari koʻchmanchi va oʻtroq xoʻjalik tizimlari, suv havzalari atrofida shakllangan dehqonchilik vohalari hamda karvon yoʻllari boʻylab rivojlangan shahar markazlari bugungi siyosiy chegaralar bilan toʻliq mos kelmaydi. Natijada etnik makonning real geografiyasi bilan ma’muriy-siyosiy makon oʻrtasida muayyan nomuvofiqlik vujudga kelib, u anklav va eksklavlar, transchegaraviy suv resurslari nizolari, migratsiya bosimi hamda madaniy identiklik muammolari shaklida namoyon boʻlmoqda.

Kelajak etnogeografiyasi ana shu murakkablikni tavsiflash bilan cheklanmay, balki uni tizimli modellashtirish, risklarni prognoz qilish va barqaror rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish vazifasini ham bajarishi lozim. Bu esa fan sohasida katta ma’lumotlar tahlili, geoinformatsion tizimlar, sun’iy intellekt asosidagi loyihalash va bashoratlash algoritmlari kabi yangi metodologik vositalarning joriy etilishini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo etnogeografiyasi kelajakda geografiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, antropologiya, ekologiya va SI kesishmasida joylashgan fanlararo ilmiy makonga aylanishi ehtimoldan xoli emas.

Raqamli etnogeografiya va sun’iy intellekt texnologiyalari ushbu ilmiy transformatsiyaning markazida turadi. Soʻnggi yillarda GIS, masofadan zondlash, dron texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlari, mobil telefon lokatsiya ma’lumotlari va ochiq ma’lumotlar bazalarining kengayishi insonlarning hududiy harakati, joylashuvi va madaniy xulq-atvorini real vaqt rejimida kuzatish imkonini bermoqda. Markaziy Osiyo sharoitida bu texnologiyalar migratsiya jarayonlari, yaylovlardan foydalanish, suv resurslari taqsimoti, shaharlarning etnik tarkibi va chegaraviy hududlardagi ijtimoiy dinamika tahlilida muhim ilmiy manba vazifasini bajarishi mumkin. Sun’iy intellektning etnogeografik tadqiqotlarga joriy etilishi esa bir necha fundamental oʻzgarishlarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, sun’iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi tizimlashtirilgan ma’lumotlarni matnlar, xaritalar, suratlar va sun’iy yoʻldosh tasvirlarini avtomatik tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Markaziy Osiyo hududlarida yerdan foydalanish dinamikasini sun’iy yoʻldosh tasvirlari asosida aniqlash, suv havzalari qisqarishi yoki yaylov degradatsiyasi

jarayonlarini modellashtirish mumkin bo‘ladi. Bu esa etnik guruhlarning iqtisodiy hayoti va hududiy joylashuvidagi o‘zgarishlarni bilvosita aniqlash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, sun’iy intellekt algoritmlari asosida etnik makonning evolutsion modellarini yaratish mumkin bo‘lib, tarixiy demografik ma’lumotlar, migratsiya oqimlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ekologik omillarni integratsiya qilgan holda muayyan hududda etnik tarkibning kelajakdagi o‘zgarishlarini prognozlovchi modellar ishlab chiqiladi. Bunday modellar siyosiy rejalashtirish, hududiy rivojlanish strategiyalari va ziddiyatlarning oldini olish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Uchinchidan, sun’iy intellekt etnogeografik tadqiqotlarda subyektivlikni kamaytirish, empirik dalillar bazasini kengaytirish va tahlil jarayonining qayta tekshirilishini ta’minlash imkonini beradi. An’anaviy etnografiyada tadqiqotchining shaxsiy kuzatuvi va interpretatsiyasi markaziy o‘rinda turgan bo‘lsa, raqamli etnogeografiyada katta hajmdagi ma’lumotlar asosida avtomatlashtirilgan tahlil usullari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa Markaziy Osiyo etnogeografiyasini global ilmiy maydonda metodologik jihatdan raqobatbardosh fan sohasiga aylantirishi mumkin.

Kelajak tadqiqotlari uchun ilmiy gipotezalar ishlab chiqish Markaziy Osiyo etnogeografiyasining nazariy va amaliy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday gipotezalardan biri shundan iboratki, raqamli texnologiyalar sharoitida etnik identiklik va madaniy amaliyotlarning virtual makondagi ifodalanishi hududiy makondagi o‘zgarishlarga nisbatan tezroq kechadi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn jamoalar va transmilliy kommunikatsiya platformalari orqali etnik guruhlar o‘z identikliklarini hududiy chegaralardan qat’i nazar, qayta ishlab chiqmoqdalar. Shu bois, kelajak etnogeografiyasi real geografik makon bilan bir qatorda, “raqamli etnik makon” tushunchasini ham ilmiy muomalaga kiritishi lozim bo‘ladi. Markaziy Osiyo diasporalari va migrant jamoalari misolida olib boriladigan empirik tadqiqotlar bu gipotezani ilmiy asoslash imkonini beradi.

Yana bir muhim gipoteza shundan iboratki, suv va ekologik resurslar atrofidagi transchegaraviy raqobat Markaziy Osiyoda etnik makonni qayta tizimlashtirishga olib keladi. Iqlim o‘zgarishi, muzliklarning qisqarishi va suv resurslarining kamayishi mintaqaning hududiy va etnik munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Kelajak tadqiqotlari suv havzalari, irrigatsiya tizimlari va yaylov resurslari atrofidagi raqobat etnik guruhlarning joylashuvi, migratsiya yo‘nalishlari va hududiy identiklik shakllanishida hal qiluvchi omilga aylanishini ko‘rsatishi mumkin. Sun’iy intellekt asosida ekologik va demografik ma’lumotlarni integratsiyalash orqali ushbu jarayonlarning uzoq muddatli ssenariylarini prognoz qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Urbanizatsiya va mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyoda “gibrid etnik makon”larning shakllanishiga olib kelmoqda, degan gipoteza ham kelajak etnogeografiyasi uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi o‘n yilliklarda mintaqada shaharlarning tez sur’atlar bilan o‘sishi, ichki va tashqi migratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida an’anaviy etnik hududiy kontsentratsiyalar parchalana boshladi. Natijada yirik shahar markazlarida ko‘p qatlamli va madaniy jihatdan gibrid etnik makonlar shakllanmoqda. Kelajak etnogeografiyasi ushbu jarayonlarni nafaqat tavsiflash, balki ularning ijtimoiy barqarorlik, madaniy integratsiya va siyosiy identiklikka ta’sirini modellashtirish vazifasini ham bajarishi lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosida modellashtirilgan etnogeografik prognozlar siyosiy mojarolarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Etnik mojarolar ko‘pincha hududiy resurslar taqsimoti, demografik bosim va identiklik inqirozi bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar etnogeografik ma’lumotlar sun’iy intellekt algoritmlari orqali real vaqt rejimida tahlil qilinsa, potensial konflikt zonalarini oldindan aniqlash va profilaktik siyosiy choralarni ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Markaziy Osiyodagi chegaraviy hududlar, anklav va eksklav makonlar hamda transchegaraviy suv havzalari bunday modellarni sinovdan o‘tkazish uchun muhim empirik maydon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelajakda Markaziy Osiyo etnogeografiyasi uchun sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan nazariy tadqiqot modeli ishlab chiqilishi mumkin bo‘lib, unda ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash, tahlil qilish,

modellashtirish, prognozlash va vizualizatsiya qilish bosqichlari yagona raqamli platformada integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, dron monitoringi, demografik statistika, migratsiya reyestrlari, ijtimoiy tarmoqlar ma’lumotlari, tarixiy xaritalar va arxiv hujjatlari bir tizimda jamlanib, sun’iy intellekt algoritmlari yordamida standartlashtiriladi. Shundan so‘ng etnik joylashuv, migratsiya oqimlari, resurslardan foydalanish va madaniy identiklik indikatorlari o‘rtasidagi yashirin bog‘liqliklar aniqlanadi hamda asoslangan modellar orqali turli siyosiy, iqtisodiy va ekologik ssenariylar sinovdan o‘tkaziladi. Natijalar GIS va interaktiv platformalar yordamida vizual xaritalar shaklida taqdim etilib, hududiy rejalashtirish, transchegaraviy hamkorlik va ijtimoiy integratsiya siyosatini ilmiy asoslashda qo‘llaniladi. Sun’iy intellekt yordamida ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar, vizual materiallar va geolokatsion ma’lumotlarni tahlil qilish orqali Markaziy Osiyo etnik jamoalarining raqamli madaniy geografiyasini modellashtirish mumkin bo‘ladi.

Iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan ekologik transformatsiyalar muzliklarning qisqarishi, suv havzalari sathining pasayishi va cho‘llanish jarayonlari Markaziy Osiyoda aholi joylashuvi va xo‘jalik tizimlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, kelajak etnogeografiyasi ushbu jarayonlarni etnik makon bilan integratsiyalangan holda tahlil qilishi zarur bo‘ladi.

Chegaraviy hududlar, anklav va eksklav makonlari Markaziy Osiyo etnogeografiyasining eng murakkab muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Kelajak tadqiqotlari bu hududlarni faqat konflikt zonalari sifatida emas, balki transchegaraviy integratsiya va madaniy almashinuv makoni sifatida qayta talqin qilishi mumkin. Sun’iy intellekt asosida chegara hududlaridagi savdo oqimlari, migratsiya harakati va madaniy aloqalarni modellashtirish orqali transchegaraviy hamkorlik yo‘nalishlarini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Bu yondashuv hududiy mojarolarni kamaytirish va mintaqaviy integratsiyani mustahkamlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniy meros obyektlari, muqaddas joylar, tarixiy landshaftlar va etnik makon o‘rtasidagi bog‘liqlik ham kelajak etnogeografiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Raqamli arxivlar, 3D

modellashtirish va sun’iy intellekt asosida madaniy landshaftlarni rekonstruksiya qilish orqali Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy makonini zamonaviy ilmiy vositalar bilan qayta tiklash mumkin bo‘ladi. Bu esa nafaqat akademik tadqiqotlar, balki madaniy merosni muhofaza qilish siyosati uchun ham muhim ilmiy asos yaratadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini Markaziy Osiyo etnogeografiyasiga joriy etish natijasida bir qator fundamental va amaliy ilmiy natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Avvalo, etnik makonning real vaqt rejimida yangilanadigan dinamik modellari yaratiladi, bunda aholi joylashuvi, migratsiya oqimlari va resurslardan foydalanishdagi o‘zgarishlar tizimli ravishda kuzatib boriladi. Bundan tashqari, etnik, ekologik va iqtisodiy omillar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni modellashtirish orqali real mojarolarni oldindan aniqlash va profilaktik choralarni ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi. Hududiy rejalashtirish, urbanizatsiya strategiyalari va transchegaraviy hamkorlik loyihalari etnogeografik prognozlar bo‘yicha ilmiy jihatdan asoslanadi. Eng muhimi, etnogeografiya fani hududiy tavsiflovchi tamoyillar doirasidan chiqib, raqamli antropologiya bilan integratsiyalashgan yangi ilmiy bosqichga o‘tadi.

Markaziy Osiyo etnogeografiyasining kelajak tadqiqot yo‘nalishlari raqamli metodologiyalar, sun’iy intellekt va fanlararo yondashuvlarga tayangan holda tubdan yangilanishi mumkin. Endilikda etnogeografiya nafaqat etnoslarning tarixiy joylashuvi va madaniy makonini tavsiflovchi fan, balki murakkab hududiy tizimlarni modellashtiruvchi, prognozlovchi va amaliy siyosiy qarorlarni ilmiy asoslovchi strategik bilim sohasi sifatida shakllanmoqda. Markaziy Osiyo sharoitida bu jarayon ayniqsa dolzarbdir, chunki mintaqa etnik makonining murakkabligi, transchegaraviy resurslar muammosi, ekologik transformatsiyalar chuqur ilmiy tahlil va innovatsion metodologiyalarni talab etmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarini etnogeografik tadqiqotlarga joriy etish orqali etnik makonning dinamik modellarini yaratish, etnik ziddiyatlarni oldindan prognoz qilish, hududiy rejalashtirishni ilmiy asoslash hamda madaniy merosni muhofaza qilishning yangi strategiyalarini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Eng muhimi, bu yondashuv Markaziy Osiyo etnogeografiyasini

global ilmiy makonda metodologik jihatdan raqobatbardosh fan sohasiga aylantiradi. Shunday qilib, kelajak Markaziy Osiyo etnogeografiyasi uchun asosiy vazifa raqamli va sun’iy intellekt asosidagi ilmiy paradigma yaratish orqali etnik makonni dinamik, prognozli va boshqariladigan tizim sifatida talqin qilishdan iborat bo‘lib, bu paradigma mintaqaning barqaror rivojlanishi, transchegaraviy hamkorlikning mustahkamlanishi va etnik xilma-xillik asosida ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy bilimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy Markaziy Osiyo etnogeografiyasi an’anaviy tavsifiy yondashuvlardan raqamli, fazoviy va fanlararo metodologiyalarga asoslangan kompleks ilmiy paradigmaga o‘tish bosqichini boshdan kechirmoqda. Etnik makon endilikda statik geografik hudud emas, balki migratsiya, urbanizatsiya, ekologik o‘zgarishlar, siyosiy chegaralanish va raqamli kommunikatsiya jarayonlari ta’sirida doimiy transformatsiyaga uchraydigan dinamik ijtimoiy tizim sifatida talqin etilmoqda. Bu esa etnogeografiyani nafaqat tarixiy-etnografik fan, balki hududiy rejalashtirish, siyosiy barqarorlik va barqaror rivojlanishni ilmiy asoslovchi strategik fan sifatida rivojlantirish imkonini bermoqda.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, GIS, masofadan zondlash, statistik modellashtirish va katta ma’lumotlar tahlili kabi zamonaviy metodlar Markaziy Osiyo etnik makonining hududiy dinamikasini chuqurroq anglash imkonini yaratmoqda. Raqamli etnogeografiya orqali migratsiya oqimlari, urbanizatsiya jarayonlari, suv resurslari atrofidagi ijtimoiy munosabatlar hamda transchegaraviy hududlardagi etnik transformatsiyalar fazoviy modellar asosida tahlil qilinmoqda. Bu jarayon etnogeografiyani empirik dalillarga tayanuvchi, prognozlash imkoniyatiga ega ilmiy sohaga aylantirmoqda.

Shu bilan birga, fanlararo yondashuvlarning kuchayishi etnogeografiyani antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, ekologiya va iqtisodiyot bilan integratsiyalashgan kompleks ilmiy platformaga aylantirdi. Ayniqsa, suv resurslarini boshqarish, chegara hududlarini rivojlantirish, migratsiya siyosati va madaniy merosni muhofaza qilish masalalarida etnogeografik bilimlarning ahamiyati

ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitida bu yondashuv etnik xilma-xillikni muammo sifatida emas, balki mintaqaning tarixiy-madaniy boyligi va integratsion salohiyati sifatida talqin qilish imkonini bermoqda.

Kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan esa sun’iy intellekt, mashinali o‘rganish va raqamli platformalar etnogeografik tadqiqotlarning metodologik asoslarini tubdan yangilash imkonini bermoqda. Katta hajmdagi fazoviy, demografik va madaniy ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, etnik makonning evolutsion modellarini yaratish va potensial ijtimoiy xavf zonalarini oldindan prognozlash orqali etnogeografiya ilmiy bilimdan amaliy siyosiy qarorlar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi strategik fan darajasiga ko‘tarilmoqda. Bu jarayon Markaziy Osiyo etnogeografiyasini global ilmiy diskursga integratsiyalashuvini kuchaytirib, mintaqaviy tadqiqotlarning zamonaviy ijtimoiy fanlar tizimida muhim o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, zamonaviy etnogeografiya Markaziy Osiyoda hududiy rivojlanish, transchegaraviy hamkorlik, madaniy moslashuv va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun muhim nazariy va amaliy bilim bazasini shakllantirib, fan sifatida yangi raqamli va intellektual bosqichga ko‘tarilmoqda.

Savollar va topshiriqlar:

1. Zamonaviy etnogeografiyada fanlararo yondashuvning mohiyatini izohlang.
2. Markaziy Osiyoda GIS va raqamli texnologiyalarning etnogeografik tadqiqotlardagi roli nimada?
3. Transchegaraviy hududlarni tahlil qilishda raqamli etnogeografiyaning afzalliklarini tushuntiring.
4. Sun’iy intellekt etnogeografik prognozlashda qanday imkoniyatlar yaratadi?
5. Etnik makonning dinamik talqini hududiy siyosatga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyodagi bir transchegaraviy hudud misolida raqamli etnogeografiya imkoniyatlarini tahlil qiling (2–3 bet).

2. “Sun’iy intellekt va etnik makon modellashtirish” mavzusida 8-10 slayddan iborat taqdimot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agnew J. Globalization and Sovereignty. – Lanham: Rowman & Littlefield, 2016.

2. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London: Verso, 2006.

3. Cohen A. The Symbolic Construction of Community. – London: Routledge, 2015.

4. Denton A. Ethnic Geography in Central Asia. – Cham: Springer, 2018.

5. Harley J. B. The New Nature of Maps: Essays in the History of Cartography. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2001.

6. Hannerz U. Transnational Connections: Culture, People, Places. – London: Routledge, 1996.

7. Smith A. D. Ethno-symbolism and Nationalism: A Cultural Approach. – London: Routledge, 2009.

8. Turner V. Dramas, Fields, and Metaphors: Symbolic Action in Human Society. – Ithaca: Cornell University Press, 1974.

9. UNESCO. Culture and Sustainable Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2019.

“Markaziy Osiyo etnogeografiyasi” fani yuzasidan testlar

1. Etnogeografiya fanining asosiy tadqiqot obyekti nimadan iborat?
A) Tabiiy resurslarning joylashuvi
B) Davlatlararo siyosiy munosabatlar
C) Etnoslarning hududiy tarqalishi va makon bilan munosabati
D) Iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi
2. “Markaziy Osiyo” atamasini ilmiy muomalaga kim kiritgan?
A) S.P. Tolstov
B) A. fon Gumboldt
C) Gerodot
D) F. Ratsel
3. Etnogeografiya qaysi fanlar tutashgan nuqtada shakllangan?
A) Tarix va siyosatshunoslik
B) Etnografiya va geografiya
C) Antropologiya va sotsiologiya
D) Demografiya va iqtisodiyot
4. Etnik kartografiyaning asosiy vazifasi nimadan iborat?
A) Davlat chegaralarini belgilash
B) Tabiiy resurslarni xaritalash
C) Etnoslarning hududiy joylashuvini ilmiy tasvirlash
D) Iqlim mintaqalarini ajratish
5. Antropogeografiya asosan nimani mutlaq omil sifatida talqin qiladi?
A) Siyosiy tizimni
B) Iqtisodiy munosabatlarni
C) Tabiiy muhitni
D) Madaniy qadriyatlarni
6. Etnogeografiyaning muhim metodlaridan biri qaysi?
A) Statistik modellashtirish
B) Etnik kartografiya
C) Eksperimental tadqiqot
D) Arxivshunoslik
7. “Turon” atamasi dastlab nimani anglatgan?
A) Sug‘oriladigan hudud
B) Qadimgi shaharlar ittifoqi
C) Turkiy qabilalar yashaydigan makon

D) Tog‘li hududlar nomi
8. Etnogeografiyada migratsiya tushunchasi nimani bildiradi?
A) Aholining tabiiy o‘sishi
B) Etnik madaniyatning rivoji
C) Aholining hududlararo ko‘chishi
D) Siyosiy chegaralarning o‘zgarishi
9. Etnogeografiya qaysi jihati bilan aholi geografiyasidan farqlanadi?
A) Statistik yondashuvi bilan
B) Faqat shahar aholisini o‘rganishi bilan
C) Insonni etnik jamoa vakili sifatida tahlil qilishi bilan
D) Tabiiy muhitni inkor etishi bilan
10. Markaziy Osiyo etnogeografiyasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
A) Siyosiy hududlarni qayta belgilash
B) Etnik jarayonlarni tarixiy va hududiy jihatdan kompleks o‘rganish
C) Davlat iqtisodiy rivojlanishini prognozlash
D) Aholi sonini statistik tahlil qilish
11. Mezolit davrida Markaziy Osiyo aholisi asosan qaysi xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullangan?
A) Dehqonchilik
B) Chorvachilik
C) Ovchilik va termachilik
D) Hunarmandchilik
12. Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik ilk bor qaysi madaniyat doirasida shakllangan?
A) Kaltaminor
B) Joytun
C) Hisor
D) Ustyurt
13. Neolit davrida janubi hududlarda dehqonchilik rivojlanishining asosiy sababi nima bo‘lgan?
A) Tog‘li hududlarning ko‘pligi
B) Qulay iqlim va unumdor tuproq
C) Metall konlarining mavjudligi

D) Koʻchmanchilikning kuchayishi
14. Joytun manzilgohida uylarning oʻrtacha maydoni qancha boʻlgan?
A) 10–15 kv.m
B) 15–20 kv.m
C) 20–30 kv.m
D) 40–50 kv.m
15. Oʻzlashtiruvchi xoʻjalikka xos boʻlgan faoliyatlar qaysilar?
A) Dehqonchilik va chorvachilik
B) Hunarmandchilik va savdo
C) Ovchilik, baliqchilik, termachilik
D) Metall eritish
16. Neolit davrida jamoalar iqtisodiy jihatdan qanday tuzilishga ega boʻlgan?
A) Individual oilalar mustaqil boʻlgan
B) Urugʻ jamoasi asosida yashagan
C) Davlat tizimi mavjud boʻlgan
D) Faqat koʻchmanchi boʻlgan
17. Qaysi hududlarda oʻzlashtiruvchi xoʻjalik nisbatan uzoq vaqt saqlanib qolgan?
A) Janubi Turkmaniston
B) Zarafshon yuqori oqimi
C) Ustyurt va Qizilqum hududlari
D) Kopetdogʻ etaklari
18. Markaziy Osiyoda III–VI asrlarda etnik jarayonlarning asosiy omili nima boʻlgan?
A) Savdo aloqalari
B) Koʻchmanchi migratsiyalar
C) Diniy islohotlar
D) Harbiy texnologiyalar
19. L.Borovkova tadqiqotlariga koʻra, alanlar dastlab qaysi hududlarda yashagan?
A) Fargʻona vodiysi
B) Orolboʻyi va dasht zonalari
C) Hind vodiysi
D) Kavkazorti

20. Kangju davlati qaysi xo‘jalik turiga tayangan?
A) Faqat dehqonchilik
B) Dengiz savdosi
C) Chorvachilik va dehqonchilik uyg‘unligi
D) Hunarmandchilik
21. Usunlar qaysi hududda siyosiy markazga aylangan?
A) Zarafshon vodiysi
B) Balx vohasi
C) Ili vodiysi va Yettisuv
D) Murg‘ob vohasi
22. Yuechjilar qaysi davlatning shakllanishiga asos bo‘lgan?
A) Kangju
B) Kushon
C) Parfiya
D) Sug‘d
23. Ellinistik davr Markaziy Osiyoga asosan qaysi sohada ta’sir ko‘rsatgan?
A) Diniy aqidalarda
B) Qishloq xo‘jaligida
C) Shaharsozlik va yozuvda
D) Harbiy kiyimda
24. Xitoy manbalarida Yansay qaysi etnos bilan bog‘lanadi?
A) Usun
B) Alan
C) Kushon
D) Sug‘d
25. Ko‘chmanchi va o‘troq jamiyatlar o‘rtasidagi asosiy aloqa shakli nima bo‘lgan?
A) Harbiy to‘qnashuv
B) Madaniy ajralish
C) Iqtisodiy almashinuv
D) Siyosiy izolyatsiya
26. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda etnik jarayonlarning faollashishiga asosiy omil nima bo‘lgan?

A) Iqlim sovushi
B) Dengiz savdosining rivojlanishi
C) Koʻchmanchi qabilalarning migratsiyasi
D) Diniy islohotlar
27. Ilk oʻrta asrlarda sugʻdiylar asosan qaysi faoliyat turi bilan mashhur boʻlgan?
A) Chorvachilik
B) Metallurgiya
C) Savdo va hunarmandchilik
D) Dengizchilik
28. Ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyoda turkiy qabilalarning joylashuvi qanday hududiy jarayonni kuchaytirgan?
A) Etnik izolyatsiyani
B) Madaniy yopiq hududlarni
C) Etnik va madaniy sintezni
D) Savdo yoʻllarining yopilishini
29. Qaysi hudud ilk oʻrta asrlarda savdo va madaniyat markazi sifatida mashhur boʻlgan?
A) Ustyurt
B) Fargʻona vodiysi
C) Moʻgʻuliston
D) Sibir
30. Ilk oʻrta asrlarda koʻchmanchi va oʻtroq aholi oʻrtasidagi munosabatlar qanday xarakterga ega boʻlgan?
A) Faqat harbiy toʻqnashuvlarga asoslangan
B) Mutlaqo aloqasiz
C) Oʻzaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikka asoslangan
D) Faqat siyosiy raqobatga asoslangan
31. Qaysi tushuncha turli etnik guruhlarning yaqinlashuvi va birlashuv jarayonini ifodalaydi?
A) Assimilyatsiya
B) Migratsiya
C) Etnik integratsiya
D) Urbanizatsiya

32. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning etnogeografik manzarasi qanday xususiyat bilan ajralib turgan?
A) Etnik bir xillik bilan
B) Madaniy yopiqlik bilan
C) Etnik va madaniy rang-baranglik bilan
D) Aholi sonining kamayishi bilan
33. “Devonu lug‘otit turk” asarining etnogeografik ahamiyati nimada?
A) Faqat diniy manba bo‘lgani uchun
B) Turkiy qabilalarning hududiy joylashuvi va etnik tarkibini yoritgani uchun
C) Harbiy tarixni yoritgani uchun
D) Faqat til qoidalarini bayon qilgani uchun
34. Amir Temur davrida qaysi jarayon etnik makonni mustahkamladi?
A) Dengiz savdosi
B) Harbiy-ma’muriy markazlashuv va o‘troqlashuv
C) Ko‘chmanchilikning kuchayishi
D) Qabila parchalanganligi
35. XIV–XV asrlarda ko‘chmanchi guruhlarning o‘troqlashuvi nimaga olib keldi?
A) Etnik izolyatsiyaga
B) Madaniy sintez va hududiy barqarorlikka
C) Shaharlarning tanazzuliga
D) Savdoning pasayishiga
36. “Chig‘atoy tili” tushunchasi nimani anglatadi?
A) Forsiy adabiy tilni
B) Eski turkiy adabiy tilni
C) Arab tilini
D) Mo‘g‘ul tilini
37. XV asrda “o‘zbek” etnonimi qanday jarayon natijasida umumlashdi?
A) Diniy ajralish natijasida
B) Siyosiy markazlashuv va etnik konsolidatsiya natijasida
C) Iqlim o‘zgarishi sababli
D) Savdo aloqalari tufayli

38. Movarounnahr oʻrta asrlarda qaysi xoʻjalik turi bilan mashhur boʻlgan?
A) Dengiz savdosi
B) Togʻ-kon sanoati
C) Sugʻorma dehqonchilik va hunarmandchilik
D) Ovchilik
38. XIV–XV asrlarda etnik makon transformatsiyasining asosiy belgisi nima?
A) Qabilaviy parchalanish
B) Koʻchmanchi-oʻtroq madaniyat sintezi
C) Savdoning yoʻqolishi
D) Siyosiy beqarorlikning kuchayishi
39. Qaysi omil oʻzbek xalqining etnik shakllanishida muhim rol oʻynagan?
A) Dengiz savdosi
B) Til birligi, hududiy integratsiya va madaniy sintez
C) Iqlim oʻzgarishi
D) Harbiy texnologiyalar
40. Buxoro amirligi aholisi asosan qaysi hududlarda zich joylashgan?
A) Sahrolarda
B) Togʻ choʻqqilarida
C) Sugʻoriladigan vohalarda
D) Oʻrmon hududlarida
41. Xiva xonligida etnik joylashuv koʻproq qaysi tabiiy omil bilan bogʻliq boʻlgan?
A) Togʻ tizmalari
B) Daryo deltasi va sugʻorish tarmoqlari
C) Oʻrmon zonalari
D) Qumli yaylovlar
42. Qoʻqon xonligi aholisi tarkibida qaysi guruhlar koʻpchilikni tashkil etgan?
A) Forslar
B) Arablar
C) Oʻzbeklar va qirgʻizlar
D) Moʻgʻullar

43. Koʻchmanchi xoʻjalik tizimining asosiy belgisi nima?
A) Sugʻorma dehqonchilik
B) Mavsumiy migratsiya
C) Hunarmandchilik ustuvorligi
D) Shahar madaniyati
44. Etnotoponimlar nimani anglatadi?
A) Daryo nomlarini
B) Qabila va urugʻ nomlari bilan bogʻliq joy nomlarini
C) Togʻ nomlarini
D) Qishloq xoʻjaligi atamalarini
45. XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo etnogeografiyasining shakllanishiga eng katta ta’sir koʻrsatgan omil qaysi?
A) Faqat urushlar
B) Tabiiy-geografik muhit va xoʻjalik tizimlari
C) Faqat diniy islohotlar
D) Faqat tashqi savdo
46. Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish qachon amalga oshirilgan?
A) 1917-yilda
B) 1920-yilda
C) 1924-yilda
D) 1936-yilda
47. Milliy-hududiy delimitatsiyaning asosiy siyosiy maqsadi nima edi?
A) Mahalliy iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash
B) Markaziy Osiyoni federativ davlatga aylantirish
C) Sovet davlat tuzumini mustahkamlash
D) Milliy tillarni rivojlantirish
48. Qaysi hudud eng koʻp anklav va eksklavlarga ega boʻldi?
A) Zarafshon vodiysi
B) Fargʻona vodiysi
C) Amudaryo havzasi
D) Qoraqum choʻli
49. Milliy-hududiy delimitatsiya jarayonida qaysi omillar yetarli hisobga olinmagan?
A) Geosiyosiy manfaatlar

B) Harbiy strategiya
C) Etnik va xo‘jalik bog‘liqliklar
D) Sanoat salohiyati
50. Qaysi respublika dastlab O‘zbekiston SSR tarkibida avtonomiya sifatida tuzilgan?
A) Qirg‘iziston
B) Turkmaniston
C) Tojikiston
D) Qozog‘iston
51. Anklav va eksklavlar shakllanishining asosiy sababi nimada?
A) Harbiy ehtiyojlar
B) Etnik makon va siyosiy chegaralar mos kelmasligi
C) Tabiiy ofatlar
D) Diniy omillar
52. Qaysi shahar delimitatsiya jarayonida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan?
A) Samarqand
B) Andijon
C) Toshkent
D) Buxoro
53. Transchegaraviy zonalar eng ko‘p qaysi sohada muammolar keltirib chiqargan?
A) Sanoat ishlab chiqarishi
B) Harbiy mudofaa
C) Suv va yer resurslari taqsimoti
D) Savdo bojxonalari
54. Milliy-hududiy delimitatsiya jarayoni eng avvalo qaysi fan doirasida tahlil qilinadi?
A) Siyosatshunoslik
B) Etnografiya va geografiya
C) Iqtisodiyot
D) Sotsiologiya
55. Delimitatsiyaning uzoq muddatli oqibatlaridan biri qaysi?
A) Til birligi mustahkamlanishi
B) Davlatlararo chegara nizolarining yuzaga kelishi

C) Qishloq xo‘jaligi pasayishi
D) Urbanizatsiya tezlashuvi
56. Markaziy Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning asosiy etnogeografik oqibati nima bo‘lgan?
A) Etnik guruhlarning to‘liq assimilyatsiyasi
B) Tarixiy migratsion yo‘llar va xo‘jalik makonlarining parchalanishi
C) Urbanizatsiyaning sekinlashuvi
D) Iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi
57. Sovet davrida Farg‘ona vodiysida etnik taranglikni kuchaytirgan asosiy omil qaysi edi?
A) Diniy qarama-qarshiliklar
B) Resurslar – yer va suv tanqisligi
C) Tashqi siyosiy bosim
D) Til siyosati
58. O‘sh voqealarining etnogeografik ildizi qaysi model bilan izohlanadi?
A) Markazlashgan iqtisodiy model
B) Markaz–periferiya joylashuv modeli
C) Transmilliy integratsiya modeli
D) Urban klasterlash modeli
59. Tojikiston fuqarolar urushida hal qiluvchi rol o‘ynagan hududiy omil qaysi edi?
A) Dengizga chiqish imkoniyati
B) Tog‘li relyef va transport yo‘llarining cheklanganligi
C) Yirik sanoat markazlari mavjudligi
D) Neft resurslarining mavjudligi
60. Etnogeografik yondashuvning asosiy vazifasi nimadan iborat?
A) Faqat madaniy farqlarni izohlash
B) Etnik ziddiyatlarni biologik omillar bilan tushuntirish
C) Hudud, resurs va joylashuv modellarining ziddiyatlarga ta’sirini tahlil qilish
D) Siyosiy ideologiyalarni ustuvor qo‘yish
61. Markaziy Osiyo tajribasiga ko‘ra, etnik barqarorlikning eng samarali sharti qaysi?
A) Ma’muriy bosimni kuchaytirish

B) Etnik hududlarni qat’iy ajratish
C) Adolatli resurs taqsimoti va siyosiy inklyuziya
D) Migratsiyani to‘liq cheklash
62. Milliy-hududiy chegaralanishning Markaziy Osiyodagi asosiy oqibatlaridan biri qaysi?
A) Yagona millat shakllanishi
B) Etnik makonning sun’iy parchalanishi
C) Migratsiyaning to‘xtashi
D) Urbanizatsiyaning kamayishi
63. Sovet davrida migratsiya jarayonlarining kuchayishiga, eng avvalo, nima sabab bo‘ldi?
A) Tabiiy ofatlar
B) Sanoatlashtirish va kollektivlashtirish
C) Mustaqillik siyosati
D) Savdo aloqalarining qisqarishi
64. Deportatsiya qilingan xalqlar Markaziy Osiyoga asosan qaysi yillarda ko‘chirildi?
A) 1920-yillarda
B) 1930-yillarda
C) 1940-yillarda
D) 1960-yillarda
65. Farg‘ona vodiysida etnik ziddiyatlarning kuchayishiga qaysi omil eng ko‘p ta’sir ko‘rsatgan?
A) Iqlim o‘zgarishi
B) Yer va suv resurslari tanqisligi
C) Savdo aloqalarining uzilishi
D) Diniy islohotlar
66. Sovet davrida etnik mojarolar nega ochiq shaklga chiqmagan?
A) Etnik birlik kuchli bo‘lgani uchun
B) Markaziy siyosiy nazorat mavjud bo‘lgani uchun
C) Migratsiya bo‘lmagani uchun
D) Resurslar yetarli bo‘lgani uchun
67. O‘sh voqealari qaysi yilda sodir bo‘lgan?
A) 1985
B) 1987

C) 1989
D) 1990
68. Tojikiston fuqarolar urushi qaysi yillarda davom etgan?
A) 1989–1991
B) 1990–1993
C) 1992–1997
D) 1995–2000
69. Transchegaraviy etnik makon deganda nima tushuniladi?
A) Bir davlat ichidagi yagona millat hududi
B) Bir etnosning bir necha davlat hududlarida joylashuvi
C) Tog‘li hududlardagi aholi joylashuvi
D) Migratsiya to‘xtagan hududlar
70. Sovet davrida suv resurslari ustidan nazoratning markazlashuvi qanday oqibatga olib keldi?
A) Iqtisodiy tenglik kuchaydi
B) Hududiy nomuvofiqliklar kamaydi
C) Resurslar uchun raqobat kuchaydi
D) Migratsiya to‘xtadi
71. Mustaqillik davrida etnik ziddiyatlarning oldini olishning muhim sharti qaysi?
A) Ma’muriy bosimni kuchaytirish
B) Madaniy xilma-xillikni inkor etish
C) Adolatli resurs taqsimoti va siyosiy inklyuziya
D) Migratsiyani to‘liq taqiqlash
72. Migratsiya etnogeografik jihatdan qanday talqin qilinadi?
A) Faqat aholi sonining kamayishi sifatida
B) Hududiy harakat orqali etnik makonning qayta shakllanishi sifatida
C) Faqat shaharlar o‘sishi sifatida
D) Tabiiy o‘sish jarayoni sifatida
73. Migrantlar tomonidan yuboriladigan pul mablag‘lari qanday ataladi?
A) Subsidiyalar
B) Soliqlar
C) Remittansiyalar
D) Grantlar

74. Ichki migratsiyaning asosiy yoʻnalishi qaysi?
A) Shahar → qishloq
B) Togʻ → choʻl
C) Qishloq → shahar
D) Davlat → davlat
75. Transmilliy migratsiya nimani anglatadi?
A) Faqat ichki koʻchishni
B) Migratsiyaning mavsumiy shaklini
C) Bir etnosning bir necha davlat hududlarida ijtimoiy faol boʻlishini
D) Aholi sonining kamayishini
76. Markaziy Osiyoda tashqi migratsiya qaysi davlatlarda yuqori?
A) Oʻzbekiston, Tojikiston, Qirgʻiziston
B) Qozogʻiston, Turkmaniston
C) Eron, Afgʻoniston
D) Xitoy, Mongoliya
76. Migratsiyaning muhim etnomadaniy oqibatlaridan biri qaysi?
A) Madaniyatlarning yoʻqolishi
B) Etnik izolyatsiya
C) Madaniy almashinuv va yangi identiklik shakllanishi
D) Urbanizatsiyaning toʻxtashi
77. Etnogeografik yondashuv dinni qanday talqin qiladi?
A) Faqat shaxsiy e’tiqod tizimi sifatida
B) Siyosiy mafkura shakli sifatida
C) Makon, madaniyat va jamiyat bilan bogʻliq ijtimoiy hodisa sifatida
D) Faqat tarixiy meros sifatida
78. Qaysi hududlarda diniy institutlar koʻproq markazlashgan va institutsional shaklda rivojlangan?
A) Dasht va choʻl hududlarda
B) Togʻli hududlarda
C) Voha hududlarda
D) Chekka chegara zonalarda
79. Markaziy Osiyoda ziyoratgohlarning asosiy etnomadaniy funksiyasi nimadan iborat?
A) Siyosiy nazoratni kuchaytirish
B) Faqat ibodat qilish imkonini yaratish

C) Ijtimoiy integratsiya va hududiy identiklikni mustahkamlash
D) Savdo faoliyatini rivojlantirish
80. Sovet davrida diniy amaliyotlarning saqlanib qolishiga asosiy omil nima bo‘lgan?
A) Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
B) Xalqaro diniy tashkilotlar
C) Norasmiy, oilaviy va mahalliy diniy tarmoqlar
D) Ommaviy ta’lim tizimi
81. Qaysi omil diniy makonning transmilliylashuviga eng kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda?
A) Tabiiy ofatlar
B) Harbiy mojarolar
C) Migratsiya va axborot texnologiyalari
D) Agrar islohotlar
82. Diniy meros obyektlarining turizm bilan integratsiyalashuvi qanday jarayonni yuzaga keltiradi?
A) Diniy institutlarning yo‘qolishini
B) Muqaddas makonlarning funksional transformatsiyasini
C) E’tiqodning susayishini
D) Hududiy identiklikning yemirilishini
83. Qaysi hududda Ahmad Yassaviy maqbarasi joylashgan?
A) Buxoro
B) Samarqand
C) Turkiston (Qozog‘iston)
D) Xiva
84. Etnogeografik tadqiqotlarda din qanday tizim sifatida qaraladi?
A) Statik va o‘zgarmas
B) Individual psixologik holat
C) Dinamik, hududiy va madaniy jarayon
D) Faqat marosimlar majmui
85. Etnoturizmning asosiy maqsadi nimadan iborat?
A) Faqat rekreatsion dam olishni tashkil etish
B) Tabiiy resurslardan foydalanishni kuchaytirish
C) Mahalliy madaniyatni bevosita tajriba orqali anglash
D) Sanoat infratuzilmasini rivojlantirish

86. MacCannellning “sahnalashtirilgan autentiklik” nazariyasi nimani anglatadi?
A) Madaniyatning mutlaq asl holatda saqlanishi
B) Turistik tajribalar marketing ehtiyojlariga moslashtirilishi
C) Turizmning faqat ekologik maqsadlarga xizmat qilishi
D) Sayyohlarning passiv ishtirok etishi
87. Markaziy Osiyoda etnoturizm rivojining muhim etnogeografik asosini nima tashkil etadi?
A) Faqat zamonaviy shaharlashuv jarayonlari
B) Koʻchmanchi va oʻtroq madaniyatlar sintezi
C) Sanoat zonalarining kengayishi
D) Texnologik innovatsiyalar
88. Yaylov (jayloo) turizmi asosan qaysi mamlakat tajribasida shakllangan?
A) Oʻzbekiston
B) Tojikiston
C) Qirgʻiziston
D) Qozogʻiston
89. Transchegaraviy etnoturizm nimani anglatadi?
A) Faqat bitta davlat ichidagi turizm faoliyatini
B) Siyosiy chegaralar bilan ajratilgan, ammo madaniy jihatdan bogʻliq hududlarning turistik integratsiyasini
C) Faqat ekologik hududlarda tashkil etilgan turizmni
D) Ziyorat turizm shakllarini
90. Fargʻona vodiysi nima sababli transchegaraviy etnoturizm uchun muhim hudud hisoblanadi?
A) Iqlim sharoiti tufayli
B) Sanoat zonalari joylashgani sababli
C) Uch davlat hududida yagona etnomadaniy makon sifatida shakllangani uchun
D) Transport tizimi rivojlanganligi sababli
91. Etnogeografik yondashuvda madaniy landshaft qanday talqin qilinadi?
A) Tabiiy muhitning oʻzgarmagan shakli
B) Faqat iqtisodiy makon

C) Inson faoliyati ta’sirida madaniy mazmun bilan to‘ldirilgan makon
D) Yashash hududlarning rejalashtirilgan modeli
92. Nostalgik (genealogik) turizm asosan nimaga asoslanadi?
A) Dam olish va sog‘lomlashtirishga
B) Sport faoliyatiga
C) Ota-bobolar yashagan hududlarga qaytish ehtiyojiga
D) Ekstremal sayohatlarga
93. Barqaror etnoturizmning eng muhim tamoyili qaysi?
A) Turistlar sonini maksimal darajada oshirish
B) Madaniy merosni soddalashtirish
C) Mahalliy jamoalar manfaatlarini ustuvor qo‘yish
D) Faqat shahar hududlarini rivojlantirish
94. Zamonaviy etnogeografiyada “etnik makon” qanday talqin qilinadi?
A) O‘zgarmas tarixiy hudud sifatida
B) Statik madaniy maydon sifatida
C) Dinamik ijtimoiy tizim sifatida
D) Faqat siyosiy chegaralar asosida
95. Raqamli etnogeografiyaning asosiy vositasi qaysi?
A) Og‘zaki tarix
B) GIS va fazoviy tahlil
C) Arxiv hujjatlari
D) An’anaviy kartografiya
96. GIS texnologiyalarining asosiy vazifasi nima?
A) Tarixiy matnlarni tahlil qilish
B) Fazoviy ma’lumotlarni modellashtirish
C) Madaniy merosni arxivlash
D) Statistik hisob-kitoblarni bekor qilish
97. Transchegaraviy hududlar nimasi bilan muhim?
A) Madaniy aloqalarni cheklaydi
B) Etnik integratsiyani kuchaytiradi
C) Iqtisodiy aloqalarni yo‘q qiladi
D) Migratsiyani to‘xtatadi
98. Etnogeografiyaning strategik fan sifatidagi roli nimada?
A) Faqat nazariy bilim berishda
B) Hududiy siyosatni ilmiy asoslashda

C) Faqat tarixiy voqealarni yozishda
D) Madaniyatni izolyatsiyalashda
99. Sun’iy intellekt etnogeografik tadqiqotlarda nimaga xizmat qiladi?
A) Ma’lumotlarni kamaytirishga
B) Tadqiqotni sekinlashtirishga
C) Prognozlash imkoniyatlarini kengaytirishga
D) Nazariyani inkor etishga
100. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi etnogeografiyada nimani ta’minlaydi?
A) Madaniy izolyatsiyani
B) Hududiy muvozanatni
C) Etnik ziddiyatlari kuchaytirishni
D) Tarixiy regressiyani

Ilovalar

1-rasm



2-rasm



Figure 1. Map of Eurasia about 1,900 BC.

3-rasm



Рис. 1. Карта памятников эпохи бронзы Средней Азии

4-rasm

RUSSIA MAGNA
KALMUCHIA
MARE CASPIUM
USBECK
PERSIA
INDOSTAN

5-rasm



6-rasm

RUSSISCHE EROBERUNGEN
IN
ZENTRAL-ASIEN.
RUSSISCHES REICH
CHINESISCHES REICH
PERSIEN
AFGHANISTAN
INDIEN
CHIWA
BUCHARA
TURKESTAN
Kaspisches Meer
Aralsee

7-rasm

CARTE ETHNOGRAPHIQUE
DE LA
RÉGION DU PAMIR
par Ch. E. de Ujfalvy
LÉGENDE

8-rasm



9-rasm



10-rasm



11-rasm

12-rasm



Glossariy

Aborigen turizmi – Mahalliy (tub) aholining bevosita ishtirokida tashkil etilib, ularning madaniyati, urf-odatlari va turmush tarziga asoslangan turizm shakli.

Agrolandshaft – Qishloq xo‘jaligi va chorvachilik faoliyati natijasida shakllangan tarixiy-madaniy makon.

Anklav – Bir davlat hududi ichida joylashgan, biroq boshqa davlat suverenitetiga tegishli bo‘lgan hudud bo‘lib, odatda transport, boshqaruv va iqtisodiy aloqalarda murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Antropogeografiya – insonning tabiiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari, yashash joylarining shakllanishi, xo‘jalik faoliyati va madaniy jarayonlarning geografik omillar ta’sirida rivojlanishini ilmiy asosda o‘rganuvchi fan sohasi.

Antropologik turizm – Yo‘qolib ketayotgan yoki kam sonli etnik guruhlarning madaniy hayotini ilmiy-bilish maqsadida o‘rganishga yo‘naltirilgan turizm turi.

Assimilyatsiya – bir etnik guruhning boshqa etnos tarkibiga singib borishi natijasida til, madaniyat va o‘zlikni anglashning asta-sekin yo‘qolib borish jarayonidir.

Autentiklik – Madaniy amaliyotlar va an’analarning asl, sun’iylashtirilmagan holatda namoyon bo‘lish darajasi.

Demarkatsiya – Davlatlararo chegaralarni joyida belgilash, ya’ni xaritada chizilgan chegara chiziqlarini amalda maxsus belgilar, ustunlar va tabiiy orientirlar orqali aniqlashtirish jarayoni.

Demografik dinamika – aholining soni, tarkibi va hududiy taqsimotidagi o‘zgarishlarning vaqt davomida kechadigan jarayonlarini ifodalovchi ilmiy tushunchadir.

Delimitatsiya – Davlatlararo chegaralarni huquqiy hujjatlar, xaritalar va kelishuvlar asosida belgilash jarayoni bo‘lib, u demarkatsiyadan oldingi bosqich hisoblanadi.

Deportatsiya – Davlat tomonidan ayrim etnik guruhlarning majburiy ravishda boshqa hududlarga ko‘chirilishi.

Diaspora turizmi – Chet elda yashayotgan etnik guruhlar vakillarining tarixiy vatanlariga tashrifi bilan bog‘liq turizm turi.

Diniy pluralizm – bir hududda turli diniy e’tiqodlarning birgalikda mavjud bo‘lishi.

Diniy institut – dinni tashkil etuvchi rasmiy tuzilmalar va ijtimoiy tizimlar.

Diniy geografiya – diniy e’tiqodlar, institutlar va muqaddas makonlarning hududiy taqsimlanishini tahlil qiluvchi ilmiy yo‘nalish.

Eksklav – Asosiy davlat hududidan ajralgan holda boshqa davlat hududi ichida joylashgan yer qismi bo‘lib, u bilan bog‘lanish ko‘pincha tranzit kelishuvlari orqali amalga oshiriladi.

Ekologik moslashuv – jamiyat va etnik guruhlarning tabiiy muhit sharoitlariga mos ravishda xo‘jalik faoliyati va yashash usullarini shakllantirish jarayoni.

Etnik demografiya – etnoslarning soni, tarkibi, hududiy zichligi, tabiiy o‘sishi va migratsiyasi kabi demografik jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganadigan yo‘nalishdir.

Etnik hudud – muayyan etnos tarixan shakllanib yashab kelgan, uning xo‘jalik faoliyati, madaniyati va ijtimoiy tuzilmalari bilan bog‘liq bo‘lgan geografik makondir.

Etnik identifikatsiya – shaxs yoki guruhning o‘zini muayyan etnosga mansub deb anglashi, tarixiy xotira, til va madaniy belgilar orqali ijtimoiy birligini anglash jarayonidir.

Etnik integratsiya – turli etnik guruhlarning o‘zaro iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalar natijasida yaqinlashuvi va barqaror hamkorlik tizimining shakllanish jarayonidir.

Etnik jarayonlar – etnoslarning shakllanishi, rivojlanishi, integratsiyasi, assimilyatsiyasi va parchalanishi bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar majmuidir.

Etnik kartografiya – etnoslarning hududiy joylashuvi, tarqalishi va migratsiya yo‘nalishlarini xaritalar asosida ilmiy tahlil qiluvchi etnogeografik tadqiqot usulidir.

Etnik konsolidatsiya – Tarqoq yashovchi etnik guruhlarning muayyan hududda jamlanib, umumiy milliy ong va siyosiy birlik shakllantirish jarayoni.

Etnik landshaft – muayyan etnosning turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati va madaniy amaliyotlari ta’sirida shakllangan hududiy makonning ijtimoiy-madaniy qiyofasidir.

Etnik makon – etnoslarning tarixiy joylashuvi, migratsiyasi va madaniy faoliyati natijasida shakllangan hududiy muhit bo‘lib, u etnik ong va identitet rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Etnodemografiya – aholining etnik tarkibi, uning son jihatdan o‘zgarishi, joylashuvi va migratsiya jarayonlarini o‘rganadigan fan sohasi.

Etnogenez – etnoslarning shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy taraqqiyoti jarayonida biologik, madaniy, ijtimoiy hamda hududiy omillarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasidir.

Etnomadaniy hudud – til, urf-odat, diniy e’tiqod va madaniy an’analar birligi asosida shakllangan tarixiy makon bo‘lib, u ko‘pincha siyosiy chegaralar bilan to‘liq mos kelavermaydi.

Etnogeografiya – etnoslarning hududiy joylashuvi, migratsiyasi, tabiiy muhit bilan o‘zaro ta’siri hamda tarixiy-madaniy jarayonlar ta’sirida makoniy tuzilmalarning shakllanishini kompleks tadqiq etuvchi fan sohasi.

Etnomadaniy landshaft – Etnik guruhlar faoliyati natijasida shakllangan, madaniy mazmun bilan to‘ldirilgan geografik makon.

Etnomadaniy meros – Moddiy va nomoddiy madaniy boyliklarning etnik jamoalarga xos majmuasi.

Etnoturistik resurslar – Etnoturizm rivoji uchun asos bo‘ladigan moddiy va nomoddiy madaniy obyektlar majmui.

Etnoturizm – Sayyohlarning mahalliy madaniyat, urf-odat va turmush tarzini bevosita tajriba orqali o‘rganishga qaratilgan turizm turi.

Etnos – umumiy tarixiy xotira, til, madaniyat, urf-odat va hududiy birlik asosida shakllangan, o‘zini alohida jamoa sifatida anglaydigan barqaror ijtimoiy birlikdir.

Etnik konflikt – etnik guruhlar o‘rtasida resurslar, hokimiyat, identitet yoki hudud masalalari bo‘yicha yuzaga keladigan ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshilik holati.

Genealogik (nostalgik) turizm – Odamlarning ota-bobolari yashagan hududlarga tashrif buyurishi bilan bog‘liq turizm shakli.

Geosiyosiy makon – Davlatlar, mintaqalar va hududlarning siyosiy ta’sir zonalari, strategik manfaatlari va xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rnini ifodalovchi hududiy maydon.

Globallashuv – Madaniyatlar, iqtisodiyotlar va jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayish jarayoni.

GIS (Geografik axborot tizimi) – fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va xaritalar orqali vizual tarzda ifodalash imkonini beruvchi axborot texnologiyasi.

Hududiy identifikatsiya – shaxs yoki guruhning o‘zini muayyan makon, vatan yoki tarixiy hudud bilan bog‘liq holda anglash jarayoni bo‘lib, etnik ong shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Hududiy yaxlitlik – Davlat chegaralarining buzilmasligi, suveren hududning bo‘linmasligi va mamlakat hududining bir butunligini ta’minlash tamoyili.

Irrigatsiya tizimi – Sug‘orma dehqonchilikni ta’minlash maqsadida suv resurslarini taqsimlash, boshqarish va yetkazib

berishga xizmat qiluvchi kanallar, suv omborlari, nasos stansiyalari va boshqa inshootlar majmui.

Ko‘chmanchi jamiyat – chorvachilikka asoslangan, mavsumiy ko‘chishlarga tayangan, tabiiy muhit sharoitlariga moslashgan harakatchan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma asosidagi jamiyat shaklidir.

Madaniy diffuziya – madaniy unsurlar, texnologiyalar, urf-odatlar va g‘oyalarning turli hududlar hamda etnik guruhlar o‘rtasida tarqalish jarayonidir.

Madaniy geografiya – madaniyatning hududiy shakllanishi, tarqalishi, madaniy markazlar va tarixiy-madaniy makonlarning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalishdir.

Madaniy kapital – Madaniy bilimlar, an’analar va ramziy resurslarning iqtisodiy va ijtimoiy qiymatga aylanish imkoniyati.

Madaniy landshaft – insonning xo‘jalik faoliyati, yashash tarzi va madaniy qadriyatlari ta’sirida tabiiy muhit bilan uyg‘unlashgan holda shakllangan makoniy-madaniy muhitdir.

Madaniy moslashuv – etnoslarning tabiiy muhit, ijtimoiy sharoit va xo‘jalik tizimlariga moslashuvi natijasida turmush tarzi, madaniyat va ijtimoiy tuzilmalarning o‘zgarish jarayonidir.

Madaniy sintez – turli etnik va madaniy an’analarning o‘zaro ta’siri natijasida yangi, murakkab va integrallashgan madaniy shakllarning vujudga kelish jarayonidir.

Markaz–periferiya modeli – siyosiy, iqtisodiy va infratuzilma resurslarining markazlarda jamlanib, chekka hududlarning cheklangan imkoniyatga ega bo‘lishini ifodalovchi hududiy tuzilma.

Millatlararo munosabatlar – Turli etnik guruhlar o‘rtasidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar tizimi bo‘lib, u barqarorlik yoki ziddiyat manbayi bo‘lishi mumkin.

Milliy-hududiy chegaralanish – etnik tarkib, tarixiy yashash hududi, xo‘jalik aloqalari va madaniy omillar asosida davlat yoki ma’muriy birliklar chegaralarini belgilash jarayonidir.

Migratsiya – aholining yoki etnik guruhlarning iqtisodiy, siyosiy, ekologik yoki ijtimoiy omillar ta’sirida bir hududdan boshqasiga vaqtinchalik yoki doimiy ko‘chish jarayonidir.

O‘troq aholi – dehqonchilik, hunarmandchilik va shahar madaniyatiga tayangan, muayyan hududda doimiy yashash asosida shakllangan barqaror ijtimoiy-etnik guruhdir.

Raqamli etnogeografiya – GIS, masofadan zondlash, katta ma’lumotlar va raqamli modellashtirish vositalari asosida etnik

jarayonlarning hududiy dinamikasini tahlil qiluvchi zamonaviy ilmiy yo‘nalish.

Sahnalashtirilgan autentiklik – Turistlar uchun maxsus tayyorlangan, real hayotning tijorat va estetik ehtiyojlarga moslashtirilgan ko‘rinishi.

Siyosiy chegara – Davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilovchi huquqiy chiziq bo‘lib, u xalqaro huquq normalari bilan mustahkamlanadi.

Soft power (yumshoq kuch) – Madaniyat va qadriyatlar orqali xalqaro maydonda ijobiy imij va ta’sir kuchini shakllantirish mexanizmi.

Tarixiy-etnografik hudud – uzoq tarixiy jarayonlar davomida etnik, madaniy va xo‘jalik umumiyliklari asosida shakllangan nisbatan barqaror makoniy birlikdir.

Tarixiy-geografik makon – muayyan xalq yoki jamiyatning uzoq tarixiy jarayonlar davomida shakllangan yashash hududi bo‘lib, u madaniyat, xo‘jalik va siyosiy tajribalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tarixiy-madaniy mintaqa – umumiy xo‘jalik an’analari, madaniyat, til va tarixiy taraqqiyot xususiyatlari asosida shakllangan nisbatan barqaror hududiy-madaniy birlikdir.

Transchegaraviy etnoturizm – Davlat chegaralari bilan bo‘lingan, ammo madaniy jihatdan uzviy bog‘liq hududlarda rivojlanadigan etnik turizm shakli.

Transchegaraviy hudud – davlat chegaralari bilan bo‘lingan bo‘lsa-da, etnik, madaniy va xo‘jalik jihatdan yaxlit bo‘lib qolayotgan tarixiy-madaniy makon hisoblanadi.

Turistik obraz – Hudud haqidagi ramziy tasavvurlar, tarixiy narrativlar va madaniy stereotiplar majmui.

Urbanizatsiya – shaharlar sonining ortishi, shahar aholisi ulushining o‘sishi va shahar turmush tarzining jamiyat hayotida ustuvor ahamiyat kasb etish jarayoni.

Yaylov (jayloo) turizmi – Tog‘ yaylovlarida o‘tovlarda yashash va ko‘chmanchi turmush tarzini tajribada his qilishga asoslangan turizm turi.

Ziyorat (ziyoratgoh) turizmi – Muqaddas va diniy maskanlarga tashrif buyurishga yo‘naltirilgan madaniy-turistik faoliyat shakli.

Mundarija

Muqaddima.....3
1-mavzu: Markaziy Osiyo etnogeografiyasi faniga kirish.....6
2-mavzu: Markaziy Osiyoda dastlabki jamoalar va ularning hududiy joylashuvi.....22
3-mavzu: Ilk temir va antik davrda Markaziy Osiyo etnogeografiyasi...48
4-mavzu: Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo etnogeografiyasi.....70
5-mavzu: X-XV asrlarda Markaziy Osiyo etnogeografiyasi.....91
6-mavzu: XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo etnogeografiyasi.....110
7-mavzu: Mintaqada milliy hududiy chegaralanish masalasi va transchegaraviy zonalarning etnogeografiyasi.....135
8-mavzu: Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar va etnik ziddiyatlarning paydo bo‘lishi va yechimi masalalari.....155
9-mavzu: Markaziy Osiyoda migratsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.....171
10-mavzu: Mintaqa xalqalarini diniy an’analari va ularning madaniy geografik farqlanishi.....185
11-mavzu: Markaziy Osiyo etnoturizmining etnogeografik xususiyatlari.....207
12-mavzu: Markaziy Osiyo etnogeografiyasining zamonaviy yo‘nalishlari va ilmiy tadqiqot istiqbollari.....229
Markaziy Osiyo etnogeografiyasi fani yuzasidan testlar.....251
Ilovalar.....268
Glossariy.....273

BEXZOD ZOKIROV

MARKAZIY OSIYO ETNOGEOGRAFIYASI

O‘quv qo’llanma

Muharrir: A.Ziyadov

Bosishga ruxsat etildi 25.03.2026. Бичими 60x84 1/16
Ofset qog‘ozi. «Tayms» garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 7.5 Nashr hisob tabog‘i 17,2.
Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 25/06-133.

O‘QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2026-yilning 25-martdagi 67-UM-sonli buyrug‘iga asosan

Zokirov Bexzodjon Ilhomjon o‘g‘lining 70220601 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi magistrlari uchun tavsiya etilgan **“Markaziy Osiyo etnografiyasi”** nomli o‘quv qo‘llanmasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bosmaxonasida nashr etishga ruxsat berildi.

Rektor _____ **G.Rixsiyeva**

imzo

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Ro‘yxatga olish raqami 67-02